

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
« Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari » kafedrasi

«IJTIMOIY FALSAFA»

fanidan

MA'RUZA MATNI



NAMANGAN

Ushbu ma`ruzalar matni O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida «Ijtimoiy falsafa» fanini o`qitish bo`yicha tashkil etilgan 2003 yil 22-26 dekabrda maxsus kursda ishtirok etgan mutaxassislar tomonidan ma`qullangan hamda namunaviy dastur sifatida chop etilgan dastur asosida yozilgan. Ma`ruzalar matni NamDU «Milliy g`oya, ma`naviyat va huquq asoslari» kafedrasining 201__ yil __avgustdagi __-sonli majlisida muxokama qilingan va maqullangan.

KIRISH

Mustaqillik yillarida jamiyatning mohiyatini yangicha falsafiy tushunish ehtiyoji yuzaga keldi. «Ijtimoiy falsafa» fani «Milliy g'oya; ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi» bakalavr o'quv rejasiga kiritilgan ixtisoslik fani bo'lib, ___ soatga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida tayyorlangan. Bu fan talabalarda, jamiyat ma'naviyati sohasida faoliyat ko'rsatadigan kadrlarda falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat kiladi; jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot muammolarini to'g'ri anglash, jamiyat hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar mohiyatini holisona idrok qilishga yordam beradi. Bu o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarning pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyat taraqqiyotining qonunlari, uning tarkibi, sohalari, shuningdek ijtimoiy falsafaning asosiy tushuncha va kategoriyalari ham qo'llanmada keltirilgan. Ayniqsa inson, uning mohiyati, shaxs va uning ijtimoiy hayotdagi roli, hozirgi davrda globallashtirish muammolari va ularni hal etish yo'llari ham mazkur risolada o'z ifodasini topgan.

Uslubiy ko'llanmada jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilish muammolariga dahldor falsafiy bilimlar o'z ifodasini topgan bo'lib, talabalarning «Ijtimoiy falsafa» fanini o'zlashtirishlariga yordam beradi.

Mundarija

- 1-mavzu: Ijtimoiy falsafaning – predmeti maqsadi va vazifalari (2 s.)
- 2-mavzu: Ijtimoiy falsafaning tayanch tushunchalari (2 s.)
- 3-mavzu: Ijtimoiy falsafa tarixining asosiy davrlari (2 s.)
- 4-mavzu: Jamiyat yaxlit tizim sifatida. (2 s)
- 5- mavzu:Tabiat va jamiyat (2 s.)
- 6- mavzu:Jamiyatning sohalari (2 s.)
- 7-mavzu: Jamiyatning ijtimoiy tarkibi (2 s.)
- 8- mavzu: Ijtimoiy ongning namoyon bo'lish shakllari (2 s.)
- 9-mavzu Fan (2 s.)
- 10- mavzu: O'zbekistonning ilmiy salohiyati (2 s.)
- 11-mavzu. Madaniyat va qadriyatlar (2 s.)
- 12-mavzu Inson falsafasi (antropologiya)
- 13-mavzu Inson, individ, shaxs. Shaxs va jamiyat(2 s.)
- 14-mavzu Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon sifatida (2 s.)
- 15-mavzu:Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektlari va xarakatlantiruvchi kuchlari (2 s.)
- 16-mavzu: Qonunlarda ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlarning ifodalanishi(2 s.)
- 17-mavzu: Sivilizatsiya tushunchasi mohiyati va mazmuni (2 s.)
- 18-mavzu Jahon sivilizatsiyasi va o'zbekiston istiqbolining falsafiy masalalari (2 S.)
- 19-mavzu: Ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari (2 S.)

1-MAVZU: IJTIMOY FALSAFANING – PREDMETI MAQSADI VA VAZIFALARI (2 s.)

1. Falsafa va ijtimoiy falsafa, ular o'rtasidagi umumiylik va aloqadorlik.
2. Ijtimoiy falsafaning bahs mavzusi, maqsad va vazifalari.
3. Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi o'rni va asosiy funksiyalari.
4. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy – gumanitar fanlar orasidagi o'rni.

Hozirgi davr insoniyat tarixining burilish davrlaridan biridir. Buni shu kunlarda jaxonda xususan mamlakatimiz hayotida ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Xozirgi davrda butun jaxonda va mamlakatimiz xayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy xodisa va jarayonlarini to'g'ri tushunib olish, ularga to'g'ri munosabatni shakllantirish, ularni xozirgi zamonning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib to'g'ri baxolash, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarish va pirovard natijada ijtimoiy voqeyelikni bilish xar bir kishidan falsafa fanining soxalaridan biri bo'lgan ijtimoiy falsafa haqida chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Ma'lumki ijtimoiy borliq haqida xaqqoniy bilimga ega bo'lish uchun avvalo "ijtimoiy falsafa" tushunchasining mohiyati va mazmuniga to'xtalishga to'g'ri keladi. Bu tushuncha ba'zan "jamiyat falsafasi" "sotsial falsafa" "inson falsafasi" shaklida xam qo'llaniladi. Ijtimoiy falsafa tushunchasi ijtimoiylik, ijtimoiy xodisa ijtimoiy jarayon tushunchalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning tarkibi va mazmunida muxim o'rin tutadi. Bu tushunchalar jamiyatda ro'y beradigan voqyea va xodisalar jarayonlarni ifodalaydi.

Insonning biosotsial moxiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy borliq ijtimoiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari ijtimoiy falsafaning fan sifatida baxs mavzusini tashkil etadi. Jamiyat bir butun yaxlit tizim sifatida rivojlanadimi? Uning xarakatlantiruvchi kuchlari nimada? Inson "me'yori"ning namoyon bo'lishining ibtidosi bo'lgan ijtimoiy borliq nima? Uning murakkab xilma-xil qirralari nimalardan ibodat? Inson qanday paydo bo'lgan, uning siru-asrorlari nimada? Shaxsning jamiyat taraqqiyotida roli qanday tushunmoq kerak? Inson ijtimoiy borliq moxiyatini uning istiqbolini oldindan bilishga qodirmi? Umumbashariy muammolar, va ularni xal qilish yo'llari qanday? Terrorizm xavfi, uni oldini olish bartaraf etish mumkinmi? Yuqorida qayd qilingan savollarga javob berish va kishilarda ilmiy falsafiy dunyoqarashni shakllantirish ijtimoiy falsafani muxim vazifasidir.

Ijtimoiy falsafiy bilimlar qadim-qadimdan mavjud bo'lgan. Dastlabki ilmiy, insoniy ijtimoiy falsafiy bilimlar Sharq mamlakatlarida vujudga kelganligi jaxon olimlari tomonidan e'tirof etilgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Xindiston, Xiton, Misr, Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Shosh, Afrosiyob) inson, jamiyat, adolat va adolatsizlik hayot va o'lim falsafasiga oid bilimlarning noizchil bo'lsada vujudga kelishi

kundalik xayotiy ehtiyoj, dehqonchilik va chorvachilik rivoji, inson, jamoani muxofaza qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

Markaziy Osiyodan inson va tabiatga oid ijtimoiy falsafiy qarashlar "Avesto"da xikmat maqol va rivoyatlarda o'z ifodasini topgan. Qadimgi yunonlarning Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ilmiy-madaniy sohalaridagi aloqalari uchun keng yo'l ochib bergan edi. Ayni paytda bu aloqalar qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi uchun ham qulayliklar yaratgan. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda Evilet, Suqrot, Aflotun, Protogar, Geraklit, Arastuning inson davlat, jamiyat, xaqidagi bilimlarning rivojiga oid ta'limotlarini alohida ta'kidlash lozim. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik xurfiqlik, ko'plab ijtimoiy falsafiy oqimlarning, to'garak va maktablarning shakllanishiga olib kelgan. Antik dunyo yaratgan inson va jamiyat falsafasi Osiyo mutafakkirlarining ijodiy faoliyatida rivojlantirildi, ularning ilmiy qarashlari jamiyat inson xaqidagi fanining taraqqiyotida muxim rol o'ynagan. Rim imperiyasining qulashi faqat siyosiy soxadagi emas, balki ilmiy-madaniy soxalarda xam tanazzulini kuchaytirgan edi. Biroq, inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq ta'limotlar, izlanishlar butunlay to'xtab qolmagan. Bu davrda yaratilgan ilg'or ijtimoiy falsafiy an'analar Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi va bu sohada yangi kashfiyotlar qilindi. IX-XP asrlarda arab xalifalari Xorun ar- Rashid, uning o'g'li Ma'mun va xorazmshoh Ma'munning xomiyligida o'sha davrning o'ziga xos fanlar akademiyalari vujudga kelgan. Xususan, IX asr o'rtalarida Bag'dodda «Bayt al-hikma» (Donishmandlar uyi), Xorazmda «Ma'mun akademiyasi» vujudga keldi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso al Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg'iloniy va boshqalar matematika, astronomiya, meditsina, jamiyatshunoslik, fikh va siyosatga oid fanlarni rivojlantirdilar. Sharqda ilmiy ijtimoiy falsafiy bilimlarning rivojlanishi diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan edi. Sharq olimlari qadimgi yunon mutafakkirlarining ilg'or an'analarini davom ettirganlar, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etganlar.

Sharq falsafiy tafakkuri barkamol inson shaxsini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga, tabiat va jamiyat, inson sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg'or ilmiy qarashlari va asarlari yevropada ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. yevropaliklar Albaron (Al- Beruniy), Avitsenna (Ibn Sino), Al-Ferganus (Al-Farg'oniy), Ulug'bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o'rgandilar, ularning an'analarini davom ettirdilar. Buyuk italyan mutafakkiri Dante Alegeri o'zining «Ilohiy komediya» (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari qatoriga qo'ydi va ulug'ladi.

Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalarini matematika, algebra, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, geografiya,

meditsina, tarix, tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muso al Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo'lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asari bilan meditsinani ilmiy asosga qo'ydi va uning asarlari yevropada ko'p asrlar davomida muhim qo'llanma bo'lib keldi. Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga oid «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari fanga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. U hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu tadqiqotlarning barchasining zaminida inson aqli zakovati, jamiyat va davlat taxlili masalasi yotgan.

Mavjud adabiyotlarda ta'kidlanishicha, yevropada fanning alohida faoliyati shakli sifatida rivojlanishi XVI- XVII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda Iogann Kepler, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak Nyuton asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri Frensis Bekon, fransuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish metodlarini ishlab chiqdilar. Fanning tabiatni o'zlashtirish va jamiyatni takomillashtirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berdilar, «Bilim- kuchdir» shiorini ilgari surdilar.

Bu davrda fan va falsafa, jamiyat falsafasi bir-biridan keskin ajralmagan edi. Ular o'z asarlarini «pozitiv eksperimental falsafa» deb atar edilar. yevropada ilm-fanning ayniqsa sotsium falsafasi rivojlanishi kishilarning olam haqidagi qarashlarini tubdan o'zgartirdi. Jamiyatga dunyoviy fanlar nuqtai nazaridan qarash imkoniyati vujudga keldi, ya'ni ijtimoiy voqeyilikka bir yoqlama diniy qarashdan keskin farq qiladigan ilmiy qarash shakllandi.

Jahon ijtimoiy-falsafiy ta'limotining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq va G'arb olimlari munosib hissa qo'shganlar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir davrlarida Sharq mamlakatlari yetakchi mavqeyini egallaganlar. Osiyo va yevropa mamlakatlari xalqlarining jahon falsafa fani rivojidladi rolini biryoqlama bo'rttirish yoki kamsitish nazariy jihatdan xatodir. Har qanday fan o'z mohiyatiga qo'ra umumbashariydir. yer yuzidagi har bir xalq katta-kichikligidan qat'iy nazar, uning rivojiga o'z hissasini qo'shib keldi.

XIX asrning o'rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyusion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o'zgarishi qonuni) falafiy dunyoqarashning o'zgarishiga, jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyotida yangi davr boshlanganligidan dalolat berdi. Fizika sohasida: optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o'rganilishi, ximiya sohasida kimyoviy birikmalar xossalari o'rganilishi, D. I. Mendeleevning elementlar davriy sistemasining yaratilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabilarda yaqqol ko'rindi.

Bu davrda sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarni oqilona hal etish va jamiyat istiqbollari belgilash imkonini berdi.

yevropa olimlarining tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsafiy tahlimotlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Xususan, I. N'yuton tomonidan fizika sohasida qilingan kashfiyotlar tabiat va jamiyatning

ilmiy manzarasini yaratishga, Charlz Darvinning ilmiy kashfiyotlari esa, butun olam evolyusiyasi to'g'risidagi falsafiy qarashning shakllanishiga, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining mashhur vakillari : Ismoilbek Gaspirali, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Ahmad Donish, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar O'zbekistonda fan va ma'rifatni keng rivojlantirish g'oyasini ilgari surdilar. O'lkaning o'rta asrchilik bid'atlariga qarshi mavjud siyosiy tuzumni isloh qilish zarurligini anglab yetdilar. Jahonning ilg'or fan va texnika yutuqlaridan o'lka aholisini bahramand etishga harakat qildilar. Biroq Rossiya barcha Turkiston tomonidan Turkistonning mustamlakaga aylantirilishi oqibatida jadidchilarning mahrifatparvarlik harakatlari rivojlana olmadi.

Mustabid tuzum Turkiston xalqlarining ilm-fan va zamonaviy texnika sirlarini egallashi uchun ma'lum shart- sharoitlar yaratgan bo'lsa ham uning boy ma'naviy merosidan bahramand bo'lishi, ajdodlarning ilg'or ilmiy-madaniy an'analarini rivojlantirishga imkon bermadi.

Milliy mustaqillik tufayli xalqimizning ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy-intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-fan va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, jahonning mashhur ilm dargohlarida o'qish-o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol inson shaxsini shakllantirishda ilm- fan xulosalariga tayanish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov o'zining «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» va boshqa asarlarida ilm - fanni rivojlantirish islohotlar muvafaqqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosi ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Uzbekistonning jahondagi "taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, taraqqiy etishi, shubxasiz, uning ilm-fan salohiyatiga bevosita bog'liqdir.

Mamlakatimizda 1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon standartlari talablariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi. Ijtimoiy falsafani antropologiya bilan ayniylashtirish yaramaydi. Ijtimoiy falsafa uchun insonning o'zi emas, balki undagi insoniylik (ijtimoiylik) muhimroqdir.

Holbuki, antropologiya insonni ayni bir vaqtda ham biologik, ham psixologik mavjudot sifatida o'rganadi. ijtimoiy falsafa uchun insonning asosiy ijtimoiy mavjudot sifatleri, uning tarixdagi roli va shu orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, sivilizatsiyali taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash muhimroqdir.

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro'y beradigan hodisa va jarayonlarni tahlil qilishda quyidagi prinsiplarga tayanadi:

Jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida yondashish.

Bunda tizim elementlariga bir-biri bilan uzviy bog'liq deb qaraladi; ular o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari va ichki qonuniyatlarni o'rganishga alohida e'tibor beriladi.

Tarixiy yondashuv. Bunday yondashuvda jamiyat hayotida ro'y beradigan hodisa va jarayonlar o'zgarish va rivojlanishda olinadi. Ijtimoiy tizim tarkibiga kiruvchi har bir element boshqa elementlar bilan uzviy aloqadorlikda o'rganiladi; ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishda ularni tarixiy kontekstdan sun'iy ravishda ajratib olish yaramaydi.

Ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish manbaini tashkil etuvchi ziddiyatlarni aniqlash va tahlil qilish;

Ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tarixiy vorislik nuqtai nazaridan o'rganish: taraqqiyotga halaqit berayotgan konservativ, reaksiyon hodisa va jarayonlarni aniqlash;

Jamiyat rivojlanishini tahlil qilishda mavjudlikka, konkretlikka va konkretlikdan mavhumlikka qarab borish;

Ijtimoiy bilish o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra tabiiy-ilmiy bilishdan farqlanadi. Ijtimoiy bilishda muqarrar ravishda siyosiy mafkura, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy ideallar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu boisdan ham ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilishni bir-biri bilan tenglashtirish yaramaydi. (Ijtimoiy bilimning o'ziga xos xususiyatlari quyida alohida ko'rib chiqiladi).

Ijtimoiy falsafa konkret jamiyatda ro'y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni miridan sirigacha ularning juz'iy tomonlarini batafsil o'rganishni o'z olidga maqsad qilib qo'ymaydi. (Bu–sotsiologiya fanining vazifasidir).

Biron bir ijtimoiy fan jamiyat hayotida ro'y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarni to'laligicha qamrab ololmaydi. Ijtimoiy falsafa esa jamiyatni bilishda faqat fan xulosalarigagina emas, balki badiiy adabiyot, san'at, din, siyosat, mafkura sohasida erishilgan yutuqlarga ham tayanadi.

Hozirgi paytda ijtimoiy falsafada xilma xil oqimlar va maktablar vujudga kelganligining boisi ana shundadir.

Ijtimoiy falsafa jamiyatda ro'y berayotgan jarayon va hodisalarning tub mohiyatini to'laroq aks ettirishiga, ijtimoiy amaliyotdan uzilib qolmasagina qadr-qimmatga, ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy falsafaning buyuk insonparvarlik, taraqqiyparvarlik mohiyati shundaki, u jamiyatni aniq bir maqsadga muvofiq ravishda oqilona boshqarishga yordam beradi. Biroq boshqa sistemalarda bo'lgani singari jamiyatda ham onglilik ongsizlik bilan, tartibsizlik tartiblik bilan ba'zan almashinib turadi.

Jamiyat a'zolarining intellektual salohiyati ortib borishi bilan jamiyatni ongli ravishda boshqarish, uni aniq bir maqsadga yo'naltirish imkoniyati ortib boradi.

Ijtimoiy falsafaning dunyoqarash va metodologik ahamiyatga ega bo'lgan qoidalari barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning rivojlanishiga jamiyatni ongli boshqarishga yaqindan yordam beradi.

Ijtimoiy falsafa qator funksiyalarni bajaradi. U avvalo kishilarda ijtimoiy voq'eilik to'g'risidagi qarashlarni shakllantiradi, kishilarning ijtimoiy borlig'i bilan ularning ongi o'rtasidagi munosabat muammosini hal etishga yordam beradi. Insonning jamiyatdagi o'rni, roli, inson hayotining ma'nosi singari masalalari haqida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi ijtimoiy fanlarning rivojlanishi, xodisa va jarayonlarni tadqiq etishning umumiy yo'nalishlarining belgilashda, uning qoidalaridan dasturul amal sifatida foydalanishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ijtimoiy falsafaning prognostik funksiyasi shunda namaoyon bo'ladiki, uning qoidalari jamiyatning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko'rishga, kishilar faoliyatini bilishga yordam beradi; kishilar faoliyati esa jamiyat taraqqiyotining mazmunini belgilaydi.

Kishilar falsafiy bilim, dunyoqarash va metodologiyani chuqurroq egallab borgani sayin ijtimoiy falsafaning yuqorida ko'rib chiqilgan funksiyalari to'laroq namoyon bo'ladi.

Falsafiy tafakkur madaniyatiga ega bo'lgan kishilarda izchil va sistemali fikrlash, ijtimoiy hodisa va jarayonlarni dialektik bog'liqlikda o'rganish qobiliyati shakllanadi.

Jamiyatning har bir ongli a'zosi o'z kasb-kori va ixtisosidan qat'i nazar jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va ta'limotlarni chuqur egallash orqaligina tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan ijtimoiy hodisa va jarayonlarning kelib chiqishi sabablari va oqibatlarini bilish, ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi; bunyodkor, yaratuvchan kuchga aylanadi, ijtimoiy falsafaning inson hayotidagi ahamiyati ham ana shundadir.

Jamiyatni falsafiy bilish – jamiyat to'g'risida eng umumiy bilimga ega bo'lish, jamiyatni bir butun holda idrok etish demakdir.

Bunday bilimga ega bo'lish orqaligina jamiyatni ijtimoiy tizim sifatida o'rganishga, uni tashkil etuvchi elementlar faoliyatini muvofiqlashtirishga erishishi, jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta'minlash mumkin.

Jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilimgina barcha ijtimoiy hodisalarning umumiy asosini aniqlashga, ya'ni ijtimoiy hayot barqarorligining fundamental asoslarini belgilashga, jamiyatni yaxlit holda saqlab qolishga imkon beradi.

Ijtimoiy falsafaning falsafiy bilimlar va ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni, roli va bahs mavzui singari masalalarga aniqlik kiritish muhim vazifalardan biri bo'lib qoldi. Ayniqsa, ijtimoiy falsafa va sotsiologiya, tarix falsafasi va ijtimoiy falsafaning o'zaro munosabatini aniqlash hayotiy zaruriyatga aylandi. Gap shundaki, uzoq yillar davomida sobiq sovet jamiyatida o'qitib kelingan tarixiy materializmga ayni bir vaqtda ham ijtimoiy falsafa, ham sotsiologiya sifatida qarab kelindi. Holbuki, ijtimoiy falsafa sotsiologiyadan o'z predmeti, tushunchalari, bilish usullariga ko'ra tubdan farq qiladi: ijtimoiy falsafa umumbashariy falsafaning tarkibiy qismi, yaxlit jamiyat to'g'risidagi ta'limotdir; u empirik tadqiqotlar va ilmiy faktlarga tayanib konkret jamiyat

to'g'risida aniq tushunchalar, beradi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya fanining hamda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning xulosalari, yutuqlariga tayanib, jamiyatning umumiy manzarasi, ijtimoiy borliqning o'ziga xos taraqqiyot qonunlari to'g'risida eng umumiy tasavvurlar hosil qilishga imkon beradi. Ijtimoiy falsafa umuman kishilik jamiyatining paydo bo'lishi, jamiyatning mohiyati, insonning ijtimoiy tabiati, uning jamiyatdagi o'zni va roli to'g'risida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni tadqiq etish bilan emas, balki jamiyat to'g'risidagi fanlarning yutuqlariga tayangan holda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy falsafaning bilish tushunchalari (jamiyat, ijtimoiy borliq, ijtimoiy munosabat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyat, xalq, millat, shaxs va h.o.) hayotda ko'p qo'llaniladigan tushunchalardir.

Ijtimoiy falsafa tushunchalar umumbashariyligi va teran mazmundorligi bilan ajralib turadi.

Sotsiologik tushunchalar esa konkret va ilmiyligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, sotsiologik tushunchalar (sotsial struktura, sotsial strafikatsiya, ijtimoiy harakat, ijtimoiy rol, ijtimoiy makon, mobillik, deviant xulq-atvor, ijtimoiy jarayon, ijtimoiy birlik, ijtimoiy institut va h.o.) alohida olingan konkret jamiyat (ijtimoiy tizim) ning turli tomonlari to'g'risida ilmiy bilimlar beradi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy falsafa jamiyatning eng umumiy tomonlarini yaxlit holda bilishga imkon bersa, sotsiologiya konkret jamiyatning dolzarb muammolarini hal etishga, uning rivojlanish istiqbollarini oldindan ko'rishga, sotsial kataklizmlar (buxronlar) ni oqilona hal etishga imkon beradi.

Agar sotsiologiya fan sifatida amaliy vazifalarni hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, ijtimoiy falsafa dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni hal etishni, «umuman jamiyat nima?», «jamiyat taraqqiyotining asosini nima tashkil etadi?» singari savollarga javob berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaning o'zaro munosabati umumiylik va alohidalikning o'zaro munosabati singaridir.

Har bir alohidalikda umumiylik va o'ziga xoslik bor. Ijtimoiy falsafa o'zining butun e'tiborini alohidalikdagi umumiylikka qaratadi. Har bir xalq, mamlakat yoki konkret jamiyat taraqqiyoti qanchalar noyob, o'ziga xos va betakror bo'lishiga qaramay o'zida umumbashariylik, umumiylikning muhim belgilarini mujassamlashtiradi. Ana shu umumiy jihatlar qanchalik to'laroq, yaqqolroq namoyon bo'lishi bilan yaxlit jahon hamjamiyatining shakllanishi, umumiy tinchlik va totuvlikning qaror topishi uchun qulay imkoniyatlar vujudga kela boshlaydi.

Ijtimoiy falsafa barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarga, xususan, sotsiologiyaga yo'nalish beradigan metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy fan vakillarining e'tiborini ijtimoiy

organizmning normal faoliyat ko'rsatishida har bir a'zo (element) ning qanday rol o'ynashiga, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga qaratadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat hayotining moddiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy, madaniy, badiiy-estetik, ekologik, etnik, milliy, demografik jihatlariga alohida e'tibor beradi.

Bu masalalar sobiq sovet falsafasida biryozlama va xato talqin etilgan edi. Hyech shubxa yo'qki, jamiyat hayotining moddiy asosini inson ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tirikchilik ne'matlari ishlab chiqarish tashkil etadi.

Agar jamiyat moddiy ne'matlar ishlab chiqarmasa, muqarrar ravishda o'zini o'zi halokatga mahkum etgan bo'lardi. Biroq moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jamiyat hayotining bosh maksadiga aylanmasligi kerak, chunki inson hayotining ma'nosi, maqsadi qorin to'ydirish, tanani semirtirish, maishatbozlik emas, balki ma'naviy kamolotga erishish, ilohiy ruh, mutlaq ruh bilan uyg'unlashish bo'lgani singari jamiyat hayotining bosh maqsadi ma'naviy kamolotga erishish, istiqbolda erkin grajdanlik jamiyatini yaratishdir. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish esa ana shu kamolotga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov tomonidan olg'a surilgan «yuksak ma'naviyat - jamiyat taraqqiyotining asosidir» degan g'oya ijtimoiy falsafaning mohiyati, mazmuni va vazifalarini yangicha tushunishda muhim ahamiyatga egadir. Zero, ijtimoiy amaliyot sobiq sovet jamiyatining inqirozga yuz o'girishi shunchaki siyosiy xatoliklar oqibati emas, balki markscha tarixiy materializm (ijtimoiy falsafa) ning biryozlama va xato ekanligini ko'rsatdi. Endi eng muhim, murakkab va dolzarb vazifa uzoq yillar davomida ijtimoiy fan vakillari ongiga turli yo'llar bilan singdirilgan markscha ijtimoiy falsafaning o'lik va aqidaparastlikka aylangan qoidalarining yaroqsizligini ko'rsatish va jamiyat hayotining eng muhim falsafiy muammolari xususida fikr yuritish, ilg'or dunyoqarashni shakllantirishdir.

Afsuski, keyingi yillarda Rossiyada chop etilgan ijtimoiy falsafaga oid qator darsliklarda ijtimoiy falsafani sotsiologiya bilan ayniylashtirish hollari uchrayapti.¹

Sobiq sovet jamiyatida o'tgan asrning 60-70 yillari ijtimoiy falsafa (tarixiy materializm) ning sotsiologiya bilan o'zaro munosabati masalasida bo'lgan bahs-munozaralarda bir-biriga zid ikki xil qarasha ilgari surildi:

1) Ijtimoiy falsafa, tarixiy materializm, sotsiologiya bilan aynan bir xil.

1) Ijtimoiy falsafa sotsiologiyaga aloqador emas (bunday qarash falsafaning sotsiologiya fani yutuqlaridan foydalanishiga imkon bermas edi. S. E. Krapivenskiy ijtimoiy falsafani sotsiologiyaning eng yuqori qatlami, metodologik qismi sifatida tavsiflaydi va bu bilan ijtimoiy falsafani sotsiologik

¹ В.С. Барулин. Социальная философия. Учебник для вузов.-М.: 1999. 25 с

bilimlar tizimiga kiritadi. Ijtimoiy falsafaning nisbiy mustaqilligini shubha ostiga oladi.¹

Bugungi kunda ijtimoiy falsafa va sotsiologiyani bir-biridan farqlash muhim nazariy va metodologik ahamiyatga egadir. Bunda quyidagi holatlarni inobatga olish zarur:

1) sotsiologiya aniq fan sifatida konkret sotsiologik tadqiqot natijalarini umumlashtirish, tahlil qilish orqali konkret jamiyatning ilmiy nazariyasini ishlab chiqadi; mavjud ijtimoiy tuammolarni oqilona hal etishga yordam beradi;

2) Ijtimoiy falsafa tadqiq etish bilan shug'ullanmaydi, balki fan, ijtimoiy amaliyot, san'at, siyosat va h.o. xulosalariga tayanib, jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot yaratadi; ijtimoiy muammolarning mohiyati to'g'risida eng umumiy tasavvur va qarashlar sistemasini yaratadi;

3) sotsiologiya boshqa ijtimoiy fanlar singari o'ziga xos ilmiy tushunchalar va kategoriyalar bilan ish kuradi; ilmiy faktlar to'plashning o'ziga xos usullaridan foydalanadi;

4) Ijtimoiy falsafaga oid tushunchalar mavxumliligi, obrazlilik va ayni aqtda oldoabopligi bilan ajralib turadi;

5) Ijtimoiy falsafa o'z mazmuniga ko'ra ilmiy, diniy, siyosiy, badiiy bo'lishi mumkin;

6) sotsiologiya o'zining ilmiyligi bilan ajralib turadi. Noilmiy sotsiologiya (masalan, tarixiy materializm) o'z qimmatini yo'qotadi;

7) sotsiologiyaning ilmiy bilish metodlari tabiiyotshunoslikning ilmiy bilish metodlariga ancha yakindir;

8) Ijtimoiy falsafa ijtimoiy borliqni bilishda umumfalsafiy metodlar: induksiya va deduksiya, mavxumlashtirish, analiz va sintez, modellashtirishdan foydalanadi.

Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy fanlarga bo'lgan munosabatini belgilashda quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni yaxlit holda tasvirlabgina qolmay, balki ijtimoiy institutlarni jamiyat hayotidagi o'rni va rolini belgilaydi. Ikkinchidan, ijtimoiy falsafada shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati masalasi muhim o'rin tutadi. Uchinchidan, ijtimoiy falsafa jamiyatning asoslarini, ya'ni mavjudlik shart-sharoitlarini aniqlaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash muammolari ustida bosh qotiradi. Nihoyat, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni ilmiy bilishning metodologik masalalarini hal etadi.²

Ijtimoiy falsafa boshqa ijtimoiy fanlar: iqtisodiy nazariya, sotsiologiya, politologiya, tarix, huquq, statistika va boshqa fanlar bilan yaqin aloqadordir. Ijtimoiy falsafa bu fanlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

¹ К.: Крапивенский С.Э. Социальная философия. М., 1995. С.16-17).

² К.: Шаповалов В. Ф. Основы философии современности. К итогам XX века. Курс лекции. - М.: 1998. с. 92.

a) ijtimoiy hayotni yuqori darajada umumlashtiradi, mavxum tushunchalar, qonunlar va tendensiyalarni ochib beradi, o'z xulosalarini umumiy nazariya shaklida umumlashtiradi;

b) konkret ijtimoiy fanlar uchun ijtimoiy hodisalarni bilishda metodologik asos hisoblanadi;

v) jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlari va tendensiyalarini o'rganadi. U tarixiy taraqqiyotning umumiy nazariyasi hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafaning umumnazariy va metodologik vazifalari:

- jamiyat mohiyati;
- ijtimoiy hayotning tub mohiyatini bilishda;
- jamiyatning yaxlit ijtimoiy sistema sifatida tadqiq etishda;
- ijtimoiy hayotning asosiy sohalarni, jamiyatni moddiy va ma'naviy asoslarini o'rganishda;
- tarixning mohiyati va ma'nosini;
- insonning falsafiy muammolarini tadqiq etishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa boshqa fanlarning ilmiy nazariyalarini ishlab chiqishda metodologik asos rolini o'ynaydi. Har qanday ijtimoiy fan jamiyat rivojlanishi va inson to'g'risidagi falsafiy ta'limotga tayanadi.

U avvalo o'z "Men"ni namoyon etishni haetiy, zaruriyat ekanligini asoslab beradi; o'zi va jamiyat uchun intiluvchi uchun, o'z sharoitlarini o'zgartirmoqchi bo'lgan kishilar faoliyatning nazariy asosidir.

Jamiyat ijtimoiy munosabatlarni tubdan isloh qilishga, inson faoliyatini yanada faollashtirishga, madaniyat resurslaridan to'laroq foydalanishga ehtiyoj sezgan vaqtda ijtimoiy falsafaga murojaat qiladi.

S. L. Frankning fikricha, ijtimoiy falsafaning vazifasi «jamiyat o'zi nima, uning inson hayoti uchun qanday ahamiyati bor, uning haqiqiy borlig'i nimada va u bizdan nimani talab etadi»¹ singari savollarga javob berishdir.

Jamiyat va inson tabiatning bir qismi bo'lishiga qaramay, ijtimoiy jaryonlar bilan uzviy bog'langan. Jamiyatda moddiy va ma'naviy, ob'ektiv va sub'ektiv omillar amal qiladi. Inson faoliyati ongli, ongsiz, ratsional va irratsional belgilarga egadir. Inson o'z ehtiyojalari, manfaatlari, maqsadlarini amalga oshirishga harakat qiladi, xuddi ana shu jarayonda ijtimoiy hayot vujudga keladi.

Ijtimoiy falsafaning bilish ob'ekti ijtimoiy hayot va ijtimoiy jarayonlardir.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni bilishda unga xos bo'lgan tabiiy tomonlarga, individual, shaxsiy jihatlarga emas, balki ijtimoiy hayotni tadqiq etishga ko'proq e'tibor beradi. Ijtimoiy hayot iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy harakat va ijtimoiy munosabatlarning asosiy sub'ektlari: ijtimoiy guruhlar yoki yaxlit jamiyatdir.

¹ Барулин В. С. Социальная философия. Учебник для вузов. М., 1999, с-3

Ijtimoiy falsafa - sotsial hodisalarning o‘zaro aloqalari umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari to‘g‘risidagi falsafiy karashlar sistemasidir.

Ijtimoiy falsafa quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Gnoseologik funksiya: yaxlit jamiyat rivojlanishining umumiy qonun va yo‘nalishlarini tadqiq etadi, yirik ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy jarayonlar to‘g‘risida ilmiy bilimlar beradi.

2. Metodologik funksiya: soidad hodisalarni bilishning ilmiy metodlari to‘g‘risida bilimlar beradi; nazariya, kategoriya, qonun, prinsiyalarni ishlab chiqadi. Ijtimoiy falsafa boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologiya rolini o‘ynaydi.

3. Ilmiy bashorat funksiyasi.

4. Dunyoqarash funksiyasi.

5. Tanqidiy funksiyasi (hamma narsaga tanqidiy qarashni o‘rgatadi).

6. Aksiologik (qadriyatlar) funksiyasi.

Bu funksiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ular yaxlit holda ijtimoiy falsafiy bilimlarning o‘ziga xosligi va mohiyatini belgilaydi. Ijtimoiy falsafa o‘z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko‘ra oladigan fandır. Uning asosiy vazifasi tarixiy voqyealarni va ijtimoiy sistemaning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlari (tendensiyalari)ning hal qiluvchi omillarini aniqlashdir.

Ijtimoiy falsafa bilishning turli-tuman nazariy modellaridan foydalanadi. Bilish ob'ektiga har tomonlama yondashadi. Tarixiy jarayonga jahon tarixi nuqtai nazaridan yondashadi. Unda formatsiyali, sivilizatsiyali, ko‘p variantli shakllar mavjud. Shuningdek, siklli rivojlanish jamiyatning rivojlanishida tarixiy bosqich va xakozolar o‘z ifodasini topadi. Turli-tuman yondashuv jamiyat xaqida to‘liq tasavvur beradi. Ijtimoiy falsafa insonga tarixning sub'ekti va ob'ekti sifatida qaraydi. Insoniyat tarixi turli-tumanlikdan iboratdir.

Milliy mustaqillik ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, falsafani bir yoqlama kommunistik mafkura zug‘umlaridan ozod qilib, uning har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo‘l ochdi. Prezident I. A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» singari asarlarida ijtimoiy falsafa oldida turgan eng muhim masalalar ko‘rsatildi. Jamiyatshunos faylasuflarimizning e'tibori eng dolzarb muammolarga jalb etildi.

Tayanch tushunchalar

Falsafa, ijtimoiy falsafa, antropologiya, gnoseologiya, metodologiya, ontologiya, dialektika, metafizika, sinergetika.

Nazorat uchun savollar

1. Ijtimoiy falsafaning predmetiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiy falsafaning falsafa fani bilan aloqasi.

3. Ijtimoiy falsafaning funksiyalari ustida to‘xtalib o‘ting.
4. Ijtimoiy falsafaning dunyoqarashlik funksiyasini tushuntirib bering.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. -T.: O‘zbekiston, 2003. – 320 b.
1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. - T.: O‘zbekiston, 2005. – 134 b.
1. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T., «Sharq», 2004 yil, 151-152 betlar.
1. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo‘lim. – T., 2001 yil.
1. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. – T., «Sharq», 1999 yil, 252-255 betlar.
1. Основы философии. Под редакцией Axmedovoy M. i V.S.Xana). – T., izd. «Mexnat», 2004 god. Razdel X. – str. 351-410.
1. Falsafa (Matluba Ahmedovanning umumiy tahriri ostida) – T., «O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati» nashriyoti, 2006 yil, 354-410 betlar.
1. S.E. Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. Uchebnik dlya vuzov.- Moskva, Gumanitarno-izdatelskiy sentr «VLADOS», 1998 yil, 3-17 betlar.
1. V.S.Barulin «Sotsialnaya filosofiya» Uchebnik dlya vuzov.- Moskva, FAIR-PReSS, 1999 yil, 4-8 betlar.

2-MAVZU IJTIMOIIY FALSAFANING TAYANCH TUSHUNCHALARI (2 s.)

Reja:

1. Ijtimoiy falsafaning asosiy tushuncha va kategoriyalarining ijtimoiy hodisa va jarayonlarni bilishdagi o'rnini.
2. Ijtimoiy falsafiy ta'limot tarixida ijtimoiy falsafa kategoriyalari dialektikasi.
3. Falsafa fanining o'ziga xos tushunchalari va kategoriyalari.
4. Ijtimoiy falsafa fanining kategoriya va qonunlar tizimi

Ijtimoiy falsafa fanining yaxlit ilmiy tizimini yaratish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishda muayyan ilmiy izlanishlar olib borilayotgan bo'lsada, ularni talab darajasida deb bo'lmaydi. Ijtimoiy hayotda turli voqea va hodisalar jarayonlar muayyan qonunlar asosida va ijtimoiy-falsafiy kategoriyalarning o'zaro aloqasi sifatida sodir bo'ladi. Ijtimoiy falsafa fanining asosiy tushuncha va kategoriyalari ijtimoiy hodisa va jarayonlarni bilishda muhim metodologik vazifani bajaradi.

Markaziy Osiyo ijtimoiy falsafiy ta'limoti tarixida zardushtiylik ta'limoti alohida o'rin egallaydi. Bu ta'limotning ijtimoiy falsafiy, diniy g'oyalari va asosiy ijtimoiy-falsafiy tushuncha hamda kategoriyalari zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da o'z ifodasini topgan. Ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar tizimining asosi sifatida ikki boshlang'ich tushuncha Axura Mazda va Axrimandir. Mazkur zardo'sht falsafasining boshlang'ich tamoyili bo'lib, ijtimoiy hayotda quyidagi kategoriyalarning dialektikasi sifatida namoyon bo'ladi. Bular yaxshilik va yomonlik, haqiqat va yolg'ondir. Garchand bularning barchasi bir tomondan yaratuvchanlik ezgulikka yaxshilikka asoslangan va ikkinchi tomondan ijtimoiy borliq uchun zararli, buzg'unchi g'oyalar bo'lsa, ular yagona olamning teng huquqli mahsulidirlar. Zulmat va nur o'rtasidagi kurash ijtimoiy hayotda haqiqat va ezgulik, yaxshilikni, qabohat, yomonlik, yolg'onchilik va beburdlik bilan kurash sifatida namoyon bo'ladi. Zardushtiylik diniy falsafiy ta'limotida yuqorida qayd etilgan asosiy tushuncha kategoriyalar va tamoyillardan tashqari xar xil sig'inish, e'tiqod, sehrlil formula, suv va otashga murojaat, yovuz ruxlardan muhofazalanish vositalari va usullari ham aks etadi. «Avesto»dagi markaziy g'oyalardan biri ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal haqidagi ta'limot umumfalsafiy xarakterga ega bo'lganligi bilan bu uchlik mohiyat e'tiboriga ko'ra, ijtimoiy xolat, harakat va ehtirosning turli xil ijtimoiy xodisalarda namoyon bo'lishidir. Universal substansiya bo'lgan otash haqidagi falsafiy g'oyaning zamirida esa olovning kishilarga yaxshilik, nur va farovonlik olib keluvchi buyuk umumiy kuch ekanligi yotadi. Unga intilib yashamoq inson «men»ini, sotsiumni takomilining oliy shakliga yetkazish imkonini beradi

«Kategoriya» istelosi falsafa fanining tarkibiy qismi sifatida ilk bor Aristotel tomonidan qoʻllaniladi, u oʻzining «Kategoriylar haqida» nomli risolasida quyidagi kategoriyalarni qayd etadi: substansiya, miqdor, makon, vaqt, sifat, munosabat, joylashuvdir.

Aristotelning fikricha, ijtimoiy falsafiy kategoriyalarining takomilli ijtimoiy taraqqiyotning real voqeyelikda namoyon boʻlishidir. U «Ikkinchi analitika» asarida mohiyatdan tashqari barcha kategoriyalar substansiyaning sharpasigina xolos, ekanligini taʼkidlaydi.

Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ijtimoiy hayot haqidagi fanning predmeti va vazifalari, ijtimoiy guruhlarning kelib chiqishi, tarkibi va turlari, shuningdek jamiyat shakllari, shahar-davlat, (Al-madina) davlat boshqaruvining xususiyatlari masalalari atroflicha tahlil etiladi. Bundan tashqari fozil shahar tushunchasi sotsial model sifatida boshqa bir qator ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bilan bogʻliq boʻladi. Masalan: Donishmand-boshqaruvchi, ezgulik, yaxshilikka yetaklovchi gʻoya va boshqalar. Bular esa, Farobiy taʼlimotiga koʻra, jamiyatni yaxlitligini, uning barqaror ideal jamiyat tomon rivojlanishini taʼminlaydi. Farobiy bu ijtimoiy xolatni sogʻlom kishining organizmiga qiyoslaydi. Farobiy ijtimoiy-falsafiy tushunchalar tizimini yaratdi. Mazkur tizimda umumiy farovonlik masalasi markaziy oʻrindan birini egallaydi. Aql va yuksak axloqiy normalar farovon ijtimoiy hayotning maʼnaviy madaniyat takomilining substansional asosi boʻlib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy taʼlimotida ijtimoiy taraqqiyotda garmoniya tushunchasiga ham keng oʻrin beriladi. Taʼkidlash lozimki, ijtimoiy falsafa kategoriyalarining tizimi yetarli oʻrganilgan emas. Vaholanki, mazkur tizimsiz jamiyat haqidagi ijtimoiy-nazariy gʻoyalarini bilish va ulardan ijtimoiy amaliyotda foydalanish mumkin emas.

Tarixiy taraqqiyotning har bir bosqichi ijtimoiy falsafaning kategorial apparatini boyitib bormoqda, rivojlantirmoqda. Kategoriyalar tizimini rivojlanishi va takomili ikki yoʻnalishda amalga oshadi. Birinchidan, ijtimoiy amaliyot ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiy falsafa kategoriyalari shakllanadi va rivojlanadi. Bu jarayonni kategoriyalarni intensiv rivojlanish jarayoni deyish mumkin. Ikkinchidan, mavjud tushuncha va kategoriyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida ularning mazmun va mohiyati boyib, ularning taʼsir doirasi yanada kengayib boradi, yaʼni ekstensiv rivojlanish xarakteriga ega boʻladi.

Bundan tashqari ijtimoiy falsafaning kategorial apparatining takomilini quyidagi yoʻnalishlarda koʻrish mumkin. Masalan, jamiyatning maʼnaviy hayotini oladigan boʻlsak, unda mazkur tizimga juda koʻplab asosiy tushuncha va kategoriyalarni kiritish mumkin. Jumladan, maʼnaviyat, ruhiyat, informatsiya, ijtimoiy munosabatlar, axloq, din, falsafa, sotsial psixologiya, mafkura, fan va boshqalar shular jumlasidandir. Matematika fanini integral va differensial, matematik model, natural son, mavxum son, kompleks son, ehtimollik nazariyasi, formula, teorema va hakoza tushunchalarsiz tasavvur etib boʻlmaydi, xuddi shunday, astranomiya fanini koinot, kosmos, planeta,

galaktika, metagalaktika, planetalar tizimi, makon, zamon, xarakat, tezlik, cheksizlik, uzluksizlik, uzluklilik va hakoza. Yoxud fizika fani massa, og'irlik, atom, yadro, magnetizm, lazer energiya va xokazolarsiz mavjud bo'la olmaydi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatga o'z-o'zidan tashkillanuvchi, uzluksiz taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy organizm sifatida qaraydi. Ayni chog'da ma'lum tarixiy davrlarda ba'zi jamiyatlar va sivilizatsiyalar tanazzuli sabablarini ham tahlil etib, tarixiy xotirani shakllantiradi.

Ma'lumki, har bir fan olamning biron-bir ko'rinishiga dahldor qonuniyatlarni ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat hayoti va taraqqiyoti ijtimoiy qonunlarini ochib beradi.

Har bir fanning mazmuni uning tayanch tushunchalari, terminlarida ifodalanganidek, ijtimoiy falsafaning o'z tushunchalari - kategoriyalari mavjud.

Ijtimoiy falsafaning tayanch tushunchalari va kategoriyalari deganda «jamiyat», «inson», «ijtimoiy borliq», «ijtimoiy ong», «ijtimoiy munosabat», «ijtimoiy ishlab chiqarish», «ijtimoiy jarayon», «madaniyat», «ma'naviyat», «qadriyat», «ob'ektiv shart-sharoit», «sivilizatsiya», «sub'ektiv omillar», «manfaat», «ehtijoj», «shaxs», «oila», «tadrijiy rivojlanish», «iqtisodiy hayot», «ijtimoiy-siyosiy hayot» kabilar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat hayotida muxim o'rin tutadi. Bu narsa uning funksiyalarida namoyon bo'ladi.

1. Ijtimoiy falsafaning dunyoqarashlilik funksiyasi. Ijtimoiy falsafa xuddi falsafa kabi insonning jamiyat haqidagi ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. Albatta inson dunyoqarashini shakllantirishda barcha bilim sohalari qatnashadi. Lekin ijtimoiy falsafa yaxlit ta'limot sifatida insonda jamiyat, insonning jamiyatdagi o'rni haqidagi bilimlarining shakllanishiga yordam beradi, unga jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiy jarayonlarga o'z ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi. Ijtimoiy falsafa jamiyat tizimi va rivojlanishidagi umumiylik va ayrimlik o'rtasidagi yechimni topish, ijtimoiy hayot soxalarining o'rnini ko'rsatib berish, inson borlig'i va mohiyatini yoritish, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berish bilan boshqa ijtimoiy fanlar uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi deganda, ijtimoiy falsafaning jamiyatni ilmiy anglash metodlar haqidagi fan ekanligi nazarda tutiladi. Falsafa tarixida olamni, shu jumladan jamiyat va insonni bilishning 2 asosiy metodi shakllangan. Bular: dialektika va metafizika. Ijtimoiy hayotni o'rganishda dialektika va metafizikaning o'ziga xos o'rni bor.

- agar dialektika ijtimoiy hayot xodisalarini o'rganishda, ular orasidagi eng umumiy universal aloqadorliklarga e'tibor berishni taqozo etsa, metafizika jamiyatning har bir tarkibiy qismini alohida holatda olib o'rganadi.

- agar dialektika ijtimoiy hayot va insonni pastdan yuqoriga, soddadan murakkabga qarab borayotgan jarayon sifatida o'rganishda taraqqiyot

tamoyilidan kelib chiqsa, metafizika esa taraqqiyotni faqat miqdoriy o'zgarishlar sifatida talqin etadi.

- agar dialektika olamning barcha ko'rinishlari kabi jamiyat va inson olamining mohiyatida ham ziddiyatlar amal qiladi, ziddiyatlarning birligi va mutanosibligi jamiyat va inson mavjudligida namoyon bo'ladi, ayni vaqtda ziddiyatlar orasidagi munosabat taraqqiyotga olib boradi, deb bilsa, metafizika jamiyatdagi ziddiyatlar, ularning o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketishi e'tibordan soqit qiladi.

Ijtimoiy hayotga ilmiy munosabatlarni qaror toptirishda sinergetika metodining ham o'ziga xos o'rni bor. Bu metod yo'qlik (xaos)dan qanday qilib odam paydo bo'lgani va jamiyat o'zidan-o'zi shakllanganini anglab olishga aniqlik kiritadi. Bunda tabiat va jamiyatda bifurkatsiya hodisasi borligi nazarda tutiladi. Unga ko'ra, tasodiflar o'zidan-o'zi yig'ilib, muayyan miqdoriy parametrlar chegarasida qonuniy aloqadorliklarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Jamiyat rivoji va tanazzulida inson omili muhim rol o'ynashini nazarga olsak, sinergetika metodi tamoyillariga tegishli «amal qilish, bifurkatsiya» hodisasini nazarda tutish bag'oyat muhimdir.

3. Ijtimoiy falsafaning insonparvarlik funksiyasi. U komil va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson, uning mohiyati, qadr-qimmatini masalalari qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining ma'nisini o'ylashdan boshlangan. Ijtimoiy falsafa «Odam va olam» muammosini hal qilishga yordam beradi.

I.Kant o'zini «Sof aql tanqidi» asarida falsafiy bilimlarning mohiyati 3 savolda ifoda topgan, deb xisoblaydi. Bular:

- Men nimani bila olaman?
- Men nima qilishim kerak?
- Nimaga umid qilishim, ishonishim kerak? Insoniyat barcha davrlarda ularga javob topishga intilgan.

4. Ijtimoiy falsafaning bashorat funksiyasi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lda ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasi (mayli) va istiqbolini, kelajakni anglash, ilmiy bashorat qilish imkonini beradi.

5. Ijtimoiy falsafa insonparvarlik funksiyasini bajaradi. Uning gumanistik funksiyasi insonning tarbiyalashga, unda yuksak insoniy, ahloqiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirishni xam nazarda tutadi.

Ijtimoiy falsafa umuman falsafiy bilimlar bilan birgalikda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodologik asosi xisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa sotsiologiya, tarix, antropologiya, psixologiya, etnografiya, iqtisodiy nazariya kabi fanlar bilan uzviy birlik va aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa sotsiologiya bilan bog'liq. Ijtimoiy falsafa jamiyatning eng umumiy muammolari ustida bahs yurishsa, sotsiologiya konkret jamiyatning konkret muammolarini tadqiq etishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy falsafa tarixni anglashning metodologik asosi hisoblanadi. Tarix muammolarini hal qilish chuqur falsafiy tahlilga suyanadi.

Ijtimoiy falsafa fani o'zining kategoriya va qonunlar tizimi bilan boshqa fanlardan farq qiladi. Bu tizim o'z navbatida fanning shakllanishi, mazmun mohiyati va uning taraqqiyot bosqichlari ijtimoiy amaliyot uchun naqadar muhim ekanligi bilan ajralib turadi.

Falsafa fanining o'ziga xos tushunchalari va kategoriyalari mavjud. Masalan: borliq, makon va zamon, informatsiya, ong, sun'iy aql, sabab oqibat, zaruriyat, tasodif, imkoniyat, voqyeilik, mohiyat, xodisa mazmun, shakl, ayrimlik, xususiylik, umumiylik, metafizika, dialektika, sofistika, sinergetika, ziddiyat, miqdor, sifat va boshqalar. Ta'kidlash lozimki, ba'zi bir tushuncha va kategoriyalar faqatgina bir fanning kategoriyalari bo'libgina qolmay, bunday kategoriyalar bir necha fanlarning asosiy kategoriyalar tizimiga kiritish mumkin. Masalan inson xarakter, makon, zamon, jamiyat, siyosat, mafkura, din, ong, ahloq, huquq va boshqalar shular jumlasidandir. Ijtimoiy falsafa fanining kategoriyalari o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari boshqa fanlarga xos bo'lgan umumiy jihatlarni ham o'zida mujassam etadi. Ana shunday xususiyatlardan ba'zilari quyidagilardan iboratdir. Ijtimoiy siyosiy soha bilan bog'liq asosiy kategoriyalardan sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillashuv, inson, individ, sub'ekt, xalq, ijtimoiy qatlam, millat, elat, sinflar, siyosat, jamiyatning siyosiy tashkilotlari, ijtimoiy institutlari, davlat, partiya, demokratiya, totalitarizm, diktatura, evolyusiya, reforma (islohot), mentalitet.

Ijtimoiy madaniy sohaga bevosita aloqador kategoriyalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: madaniyat, ijtimoiy-madaniy borliq, madaniy inqilob, ehtiyoj manfaatlar, oila, qadriyatlar, qadrsizlanish, madaniyatsizlik, vorislik, sivilizatsiya, huquqiy madaniyat, siyosiy madaniyat.

Moddiy sohalarga oid kategoriyalar sifatida ijtimoiy falsafa fani, tabiat, geografik muhit, moddiy munosabatlar, ishlab chiqarish kuchlari, bozor munosabatlari, mulkchilikning xilma xilligi, ijtimoiy munosabatlar, texnika kommunikatsiya, texnologiya, ilmiy texnik progress, ekologiya, xokimiyat, jamiyat mavjudligini asosi va boshqa shu kabi tushunchalarga tayanadi. Ayni paytda hayot va o'lim, ijtimoiy hayot, hayotning mazmuni, erkinlik, zaruriyat, ijtimoiy adolat, gumanizm, progress va regress va hakozolar. Ijtimoiy falsafa fani kishilik jamiyati haqidagi ko'plab fanlarning kategoriyalaridan ham foydalanadi. Ijtimoiy falsafaga chegaradosh fanlarning kategoriyalari ham ushbu fan doirasida keng qo'llaniladi. Gap shundaki, ulardan foydalanish jarayonida ijtimoiy hodisalarni bilishning o'ziga xos jihatlarni nazardan chetda qoldirmaslik lozim. Ana shunday kategoriyalar sifatida huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy fikr, ijtimoiy guruhlar, ixtilof ijtimoiy voqyea va hodisalarni o'rganishda qo'llaniladigan umumiy tushunchalar sirasiga kiradi.

Zero, bu tushunchalar siyosatshunoslik, siyosat nazariyasi, siyosat falsafasi, huquq falsafasi, davlat va huquq tarixi va nazariyasi, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlarda ham keng qoʻllaniladi.

Jamiyat rivojlanishining umumiy qonunlarisiz, uning kategoriyalari mavjud boʻla olmaydi va aksincha kategoriyalarsiz ijtimoiy taraqqiyot qonunlari haqidagi haqqoniy bilimga erishib boʻlmaydi.

Ijtimoiy falsafa fani mohiyat eʼtiboriga koʻra, muayyan kategoriyalar va tushunchalar tizimidan iborat boʻladi. U yoki bu kategoriyaning mohiyat va mazmunini aniqlash, ularning mazkur tizimdagi boshqa kategoriyalar bilan bogʻliqligini anglashdan iboratdir. Ijtimoiy falsafa fani kategoriyalari tizimi tarixiylik va mantiqiylikning birligi timsolidir.

Ijtimoiy falsafa fanining ijtimoiy borliqni, jamiyat hayotidagi voqeya va hodisalar jarayonlarini bilishdagi roli shunchaki falsafiy kategoriyalari ijtimoiy hayotga joriy etish deb tushunish masalaga bir yoqlama yondashishga olib keladi. Jamiyat ilmiy taraqqiyotning bilishning eng murakkab predmetlaridan biri hisoblanadi. Tarixni yaratuvchisi kishilardir. Ular oʻz oldilariga istiqbol maqsad va vazifalarini, manfaatlarini belgilab oladilar, shuningdek, ularni amalga oshirish uchun kurashadilar.

Zamonaviy ijtimoiy falsafa jahon falsafasi va oʻtmishdagi boy ijtimoiy falsafiy taʼlimotlar yutuqlariga suyangan holda ijtimoiy voqeyilikni ilmiy tushuntirib voqeya va hodisalarni mohiyatini bilishda muhim metodologik vazifani bajaradigan kategoriyalar yangicha mazmuniga ega boʻlib bormoqda.

Kategoriyalar ijtimoiy voqeyilikning inʼikosi, uning muhim sifatli belgilarini umumlashtiruvchi tushunchalardir. Ular oʻzaro bogʻliq boʻlib, bir-birlarisiz mavjud boʻla olmaydilar, ular oʻzaro dialektik bogʻliqlikda boʻladi.

Kategoriyalar faqatgina mavhum umumiy tushunchalar boʻlibgina qolmay ayni paytda ular amaliy ahamiyatga ham egadilar. Chunki ular ijtimoiy hodisalarning bilishning bosqichi, «lahzasi» boʻlib, bu jarayon sub'ektdan ob'ektga tomon doimiy rivojlanishda boʻladi. Ijtimoiy borliqning mohiyatini anglab yetishda haqqoniy bilimga ega boʻlishda ijtimoiy amaliyot esa mezon vazifasini oʻtaydi.

Ijtimoiy falsafa fani kategoriyalar va qonunlarini bir-birlariga qarama-qarshi qoʻyish yoki ularni bir biridan ajratish mumkin emas. Ular bir-birlarini toʻldiradi va boyitib boradi. Kategoriyalar real voqeyilikka mos ravishda shakllansagina ijtimoiy tizimlar rivojlanishi qonunlari haqida toʻlaroq bilimga ega boʻlishi mumkin. Oʻz navbatida jamiyat rivojlanishi qonunlari esa ijtimoiy falsafa fanining kategoriyalarining ob'ektiv mazmunini tashkil etadi.

Tayanch tushunchalar:

Ijtimoiy falsafiy kategoriya, kategoriya, sotsial mobillashuv, inson, individ, sub'ekt, xalq, ijtimoiy qatlam, millat, elat, sinflar, siyosat, jamiyatning siyosiy tashkilotlari, ijtimoiy institutlari, davlat, partiya, demokratiya, totalitarizm, diktatura, evolyusiya, reforma (islohot), mentalitet. Jamiyatning

ijtimoiy hayoti, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, etnik tarkib, demografik tarkib, sinfiy tarkib, ma'lumot darajasiga ko'ra jamiyatning tarkibi, urbanizatsiya.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy falsafa fani kategoriyalar va tushunchalarining mohiyat va mazmuni.
2. Ijtimoiy falsafa fani kategoriyalar va qonunlarining mutanosibliigi.
3. Kategoriyalar ijtimoiy voqeyilikning in'ikosi.
- 4 Ijtimoiy siyosiy soha bilan bog'liq kategoriyalar.
5. Ijtimoiy madaniy soha bilan bog'liq kategoriyalar.
6. Moddiy sohalarga oid kategoriyalar.

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, bunyodkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston» 1997 y., 211-220 betlar.
2. Islom Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. – T., «O'zbekiston» 2005 y., 68-91 betlar.
3. S.E,Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya. Moskva, «VLADOS» 1998 y., 134-138, 191-198, 215-220 betlar.
4. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq» nashr., 1999 y., 258-265 betlar.
5. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NMIU, 2005 y., 289-299, 300-336 betlar.
6. J.Tulenov Dialektika nazariyasi. T., «O'zbekiston» 2001 y., 252-261 betlar.
7. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «Sharq» 2004 y.
8. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, FAIR-PReSS, 1999 yil, 83-130 betlar.
9. Falsafa. – Toshkent, 2006 y., 384-388 betlar.

3-MAVZU: IJTIMOY FALSAFA TARIXINING ASOSIY DAVRLARI (2 s.)

Reja:

1. Ijtimoiy falsafiy fikrlarning shakllanishi va taraqqiyoti. Eng qadimiy davrlardan XIX asrlarga qadar.
2. XIX asrda ijtimoiy falsafa. Ijtimoiy falsafaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishi.
3. XX asr ijtimoiy falsafasi.
4. Prezident I.A.Karimov asarlarida ijtimoiy falsafa masalalari.

Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlarni o'zida mujassamlantiradi. Falsafa fanining shakllanishi va taraqqiyot tarixi ayni vaqtda ijtimoiy falsafaga ham bevosita dahldor, zotan falsafiy bilimlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson va uning olamga munosabati muammosini o'z ichiga oladi. Falsafa tarixi ayni vaqtda ijtimoiy falsafa tarixi hamdir.

Ijtimoiy falsafaning tarixi, olimlar fikricha, 3 bosqichni o'z ichiga qamrab oladi.¹

1. Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va taraqqiyoti. Bu XIX asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.
2. XIX asr ijtimoiy falsafaning maxsus yo'nalish sifatida ajralib chiqishi.
3. XX asrda ijtimoiy falsafaning taraqqiyoti.

Ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti antik davr falsafasidan tortib to XIX asrga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda ilgari surilgan falsafiy qarashlar nafaqat olam, tabiat xaqidagi bilimlarni, ayni vaqtda jamiyat va inson, insonning jamiyatga munosabati haqidagi bilimlarni ham o'z ichiga qamrab olgan edi. Shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy-falsafiy bilimlar odamlar jamiyat bo'lib yashay boshlagan davrlardan shakllana boshlagan, degan xulosaga kelish o'rinli. Ijtimoiy-falsafiy bilimlar dastavval qadimgi Sharq mamlakatlari – Bobil, Misr, Xitoy, Xindiston, Markaziy Osiyoda shakllangan. «Avesto»da, Konfutsiy asarlarida, «Ramayana», «Maxobxorot»da jamiyat haqida fikrlar mavjud. Eramizdan avvalgi VI-V asrlardan boshlab qadimiy Yunoniston falsafasida jamiyat, inson muammolari tahlil qilingan. Aynan qadimgi Yunonistonda ijtimoiy falsafiy bilimlarga asos solingan.

Yunon faylasuflari Platon (e.a. 427-347 yillar) va Aristotel (e.a. 384-322 yillar)ning jamiyat, inson, uning jamiyatga munosabati haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari uzoq vaqt mobaynida jamiyatni ilmiy anglashga yordam bergan.

Aristotelning falsafiy qarashlarida jamiyatga taalluqli bir qator muammolar ko'tarilgan. Bular: jamiyatning kelib chiqishi; mehnat taqsimoti; qullik,

¹ В.С.Барулин. Социальная философия. Учебник для вузов. -Москва, «ФАИР – ПРЕСС, 1999 й, 4-22 бетлар.

tabaqalanishning kelib chiqishi; ta'lim-tarbiya; iqtisodiy va siyosiy hayot masalalari va hokazolar.

Ayni vaqtda Aristotel qarashlarida jamiyatni falsafiy anglashning 2 asosiy tomoni o'z aksini topgan. Bu, birinchidan, Aristotelning axloqiy ta'limoti va ikkinchidan, davlat to'g'risidagi ta'limoti. Aristotel jamiyatni davlat bilan uzviy birlikda olib qaraydi. Aristotelning fikricha, jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi, inson siyosiy mavjudot hisoblanadi. Aristotel qadimgi Yunonistonning 158 shahar-davlatlari tarixini tiklashga muvaffiq bo'lgan.

Jamiyat haqidagi ilk falsafiy qarashlar qadimdan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi uzoq tarixga ega. U dastlab boy ma'naviy merosimiz – xalq og'zaki ijodida, so'ng esa qadimiy yozma madaniy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan. Bu madaniy yodgorliklarga; a) qadimgi toshbitiklar; «Avesto», buyuk allomalarimiz qoldirgan manbalar kiradi.

Jamiyat va insonni falsafiy anglash muammolari Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlarni Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy; yirik olim, shoirlar Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida aks etgan.

XIX asrga qadar falsafiy qarashlarda ijtimoiy falsafaga doir ikki muammo o'z yechimini topgan.

1. Jamiyatni, uning tarkibini falsafiy tahlil etish.
2. Jamiyat tarixini falsafiy anglash.

Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679 yillar), fransuz mutafakkiri Jan Jak Russo (1712-1778 yillar), Sen Simon (1760-1826 yillar); ingliz olimlari Adam Smit va David Rikardo jamiyat, uning tarkibi haqidagi ilmiy bilimlarni ilgari surdilar. Masalan, Jan Jak Russo «Odamlar o'rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va uning sabablari haqidagi mulohazalar» asarida mulkiy tengsizlik, jamiyatning boy va qashshoqlarga bo'linishi ijtimoiy tengsizlikning birinchi bosqichidir deb hisoblaydi. Ikkinchi bosqich davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Uchinchi bosqichda hokimiyat zulm va adolatsizlik hokimiyatiga aylanadi, deb tahlil etish asosida ideal jamiyat g'oyasini ilgari suradi¹.

Jamiyat tarixini falsafiy anglash ijtimoiy falsafada miloddan oldingi davrlardan boshlab yuzaga kela boshlagan. Bu – tarix falsafasi, deb yuritiladi. Qadimiy yunon olimlari Gerodot (er.av. 485-425 yillar atrofida), Fukidid (er.av.460-480 y.), Demokrit, Platon, Aristotel asarlarida jamiyatlar tarixi haqidagi falsafiy fikrlar ilgari surilgan.

Tarix falsafasi muammolari Avgustin Avreliy (354-430 yillar), Foma Akvinskiy (1225-1274) asarlarida ifodalangan.

Olimlar Volter (1694-1778 yillar), Djambattista Viko (1668-1744 yillar), Iogann Gottlib Fixte (1762-1814 yillar), Iogann Gotfrid Gerder (1744-1803 yillar) asarlari tarixni falsafiy anglashga qaratilgan.

¹ Жаҳон фалсафаси тарихидан лавҳалар. I-қисм. Т., 2004 йил 264-бет.

Fransuz faylasufi Volter jamiyat manfaatlaridan yiroq monarxiya hokimiyatiga qarshi kurashga o'zining butun umrini bag'ishladi va jamiyatni aql-zakovat asosida o'zgartirish mumkinligiga ishondi. Nemis olimi, ma'rifatparvari Gerder «Insoniyat tarixi falsafasiga doir g'oyalar» asarida Germaniyada XVIII asr oxirigacha hukm surgan tarixni teologik tushunishga qarshi kurashdi.

Ijtimoiy falsafa taraqqiyotining ikkinchi bosqichi XIX asrda ilgari surilgan falsafiy g'oyalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning o'ziga xos tomoni shuki, jamiyat haqidagi uzoq tarix davomida to'plangan falsafiy bilimlar ijtimoiy falsafaning fan sifatida falsafa bag'ridan ajralib chiqishiga, mustaqil ilm sohasiga aylanishiga sababchi bo'ldi. Shu davrdan e'tiboran ijtimoiy falsafaning predmeti, muammolari doirasini ilmiy tahlil etish boshlanadi.

Ijtimoiy falsafaning mustaqil ilm sohasiga aylanishida olimlar Gegel, Marks, Kont, Spenserlarning o'ziga xos o'rinlari bor.

Vilgelm Fridrix Gegel (1770-1831 yillar) nemis klassik falsafasining yirik namoyondasi. U o'zining «Rux fonomenlogiyasi», «Tarix falsafasi» asarlarida jamiyatni falsafiy anglashning yaxlit tizimini ishlab chiqdi. U jamiyat tarixining, undagi tarixiy jarayonlarning mohiyati, umuman jamiyat, uning tarkibiy tizilishi, fuqarolik jamiyati, davlatni boshqarish usuli, axloq, oila haqidagi chuqur tahlilga asoslangan falsafiy fikrlarni ilgari surdi.

Gegel ijtimoiy falsafani fan darajasiga ko'tardi.

Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va taraqqiyoti K.Marks nomi bilan bevosita bog'liq. U jamiyatga materialistik yondoshish asosida o'ziga xos ta'limot - jamiyat falsafasi – (tarixiy materializm) ta'limotini ishlab chiqdi. U jamiyatni murakkab tarkibiy tizilishga ega ijtimoiy organizm sifatida ta'rifladi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti tabiiy – tarixiy jarayon bo'lib, u to'g'ri chiziqli tarzda bir formatsiyadan ikkinchisiga o'tib boradi. Marksning kommunizm to'g'risidagi qarashlari xristianlik dini muhitida va xayoliy sotsialistlar ta'sirida shakllanganligini e'tibordan soqit qilmaslik darkor.

Ma'lumki, xristianlikka o'tish «Bibiliya»da uch bosqichli etib ko'rsatiladi. Birinchi bosqichda odam xudodan va do'zax azoblaridan qo'rqqani uchun qullardek, shunchaki bir dinga e'tiqod qiladi. Ikkinchi bosqichda esa xudoga yalinib-yolvorib, o'z taqdirini yaxshilashni iltimos etadi. Uchinchi bosqichda «Injil»dagi g'oyalar uning ongi va qalbidan mustahkam o'rin olib, muqaddas ruh qaror topgach, individ erkin ravishda diniy ibodatlar, rasm-rusumlar, urf-odatlarini bajaradi. K.Marks ham jamiyat taraqqiyotini shunga o'xshash tarzida tasavvur etib, odamzod quldorlik jamiyatida quldordan qo'rqib, feodal va kapitalistik jamiyatlarda mulkdorlarga yalinib-yolvorib hayot kechiradi. Kommunizmda esa erkin mehnatkashlar jamoasi shakllanib, ular sinfsiz va davlatsiz jamiyatda farovon turmush kechirishlarini «bashorat» qiladi. Ma'lumki, olimlar, faylasuflar azal-azaldan tenglik, adolat, erk, ozodlik, farovonlik qaror topgan ideal jamiyatni orzu qilganlar va bunday jamiyatga erishishning yo'llari haqidagi turli-tuman qarashlarni ilgari surganlar.

Xristianlikdagi haloskorning kelishi va zolimlarning jazolanishi haqidagi g'oyalar ruhida tarbiyalangan Ovrupo aholisi orasida marksizm keng tarqalib, Rossiyada u o'zining takomilini topdi. Bolshevizm bu mamlaktda pravoslaviening dunyoviy ko'rinishidagi dinga aylandi. Agar xristianlikda xristianlar chin insonlar sanalib, yerelar – dindan qaytganlar g'ayriinsonlar, ularni jazolash savob hisoblangan bo'lsa, marksizmda mulkdorlar g'ayriinsoniyalar, mulksizlar esa chin insonlar sirasiga kiritildi. Binobarin chinakam insoniy jamiyat shakllanishi uchun mulkdor sinflarni qatli om etish qonuniy jarayon sifatida talqin etildi. Bu hol marksizmning jamiyat to'g'risidagi ta'limotining qadrsizlanishiga olib keldi.

Fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857 yillar) jamiyat haqida o'z ta'limotini yaratdi. U «Pozitiv falsafa» kursi (6 jildli) kitobida jamiyatni murakkab tuzilishga ega rivojlanib boruvchi organizm hisoblaydi. Uning fikricha, jamiyatni pozitiv ilmlar asosida qayta qurilishi mumkin.

Ijtimoiy falsafaning muammolari ingliz faylasufi va sotsiologi Gerbert Spenser (1820-1903 yillar) asarlarida o'z yechimini topgan. Spenser «Ijtimoiy statistika», «Sotsiologiya asoslari» kitoblarida jamiyatga organik yondashuv g'oyasini ishlab chiqdi. U jamiyat xuddi tirik organizm kabi faoliyat ko'rsatadi, uning har bir elementi ma'lum funksiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni, Spenser fikricha, eng moslashuvchan jamiyatlarning kurashidir.¹

XX asrda ijtimoiy falsafa bilan birgalikda sotsiologiya rivojlana boshladi; turli-tuman ta'limotlar ilgari surildi. Bularga neopozitivizm, psixologik sotsiologiya, industrial sotsiologiya yo'nalishidagi qarashlarni misol tarzida kiritish mumkin. Shu o'rinda ijtimoiy falsafa bilan sotsiologiya orasidagi umumiylik va farqni aniqlash lozim bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning eng umumiy qonunlari to'g'risida bahs yuritadigan fan. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya uchun umumnazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning mohiyati, ichki taraqqiyoti qonuniyatlarini bilmay turib, aniq jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tushunish mumkin emas. Agar ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi nazariyalar, ta'limotlarni ifodalasa, sotsiologiyani aniq jamiyat, undagi ijtimoiy aloqa va munosabatlar qiziqtiradi. Sotsiologiya fanining rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri, uning asoschisi fransuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858-1917 yillar) hisoblanadi. U jahonda birinchi sotsiologiya professori, «Sotsiologik yilnoma» jurnalining asoschisidir.

Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi ingliz olimi Gerbert Spenser nomi bilan bog'liq. U birinchi bo'lib, «Sotsiologiyaning asoslanishi» asarida sotsiologiya fanining predmeti, muammolari, vazifalarini aniqlab berdi. Unga ko'ra sotsiologiyaning vazifasi jamiyatning eng umumiy

¹ Каранг. Комусий луғат. – Т, «Шарк», 2004 йил, 377-бет.

evolyusiya qonunlarini ochishga xizmat qiladigan sotsial faktlar va sotsial jarayonlarni o'rganishdir.

XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotida nemis olimlari O.Shpengler (1880-1936 yillar), Karl Yaspers (1883-1969 yillar), fransuz faylasufi Anri Bergson (1859-1941 yillar)larning qarashlari muxim o'rni tutadi.

Osvald Shpengler «evropa quyoshining so'nishi» asarida madaniyat va sivilizatsiyani o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi.

XX asrdagi ijtimoiy falsafiy qarashlarda inson muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy taraqqiyotda inson aqlu-zakovatining o'rni, inson qadriyati, insonparvarlik, gumanizm g'oyalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarning asosini tashkil etadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi, jahon miqiyosida mustamlakachilikning barham topishi, jahon haritasida yangi, mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotiga turtki bo'ldi.

SSSR ning yemirilishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi ijtimoiy taraqqiyotga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot muammolariga o'ziga xos yondashuv Respublika Prezidenti Islom Karimov asarlarida o'z ifodasini topgan.

Islom Karimovning hozirgi zamon jamiyati, jahon miqiyosida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar, mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot yo'li – ijtimoiy taraqqiyotning «o'zbekcha modeli» haqidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy bilimlar rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

XIX asrda G'arbiy yevropa mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida 'ro'y bergan muhim o'zgarishlar, tabiiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar jamiyat to'g'risida yaxlit va bir butun falsafiy ta'limot yaratishni, ijtimoiy falsafaning shakllanishini taqazo etdi. Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishida buyuk faylasuflar: Gegel, Marks, G.Spenser, M. Veberning asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Gegelnig ta'lim berishicha, ijtimoiy strukturaning tub asosini ma'naviy madaniyat tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektiv xarakterga ega bo'liO, uning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim individlarning xohish- irodasiga bog'liq emasdir. Balki aksincha, har bir individ jamiyatga xos bo'lgan ma'naviy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi, madaniyat talablariga bo'ysunadi. Agar ayrim kishilar ijtimoiy shartlangan madaniy qadriyatlarni tushunmasa va anglamasa, madaniy qadriyatlar unga nisbatan tashqi majbur qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Gegelnig fikricha, ma'naviy madaniyat «jahoniy aql» («mutlaq ruh») muqarrar va to'xtovsiz ravishda amal qiladi.

Gegel faqat ma'naviy madaniyatgina jamiyatning bir butun sistema sifatida rivojlanishi uchun imkon beradi, deb hisobladi. U ayniqsa o'ziga zamondosh bo'lgan G'arbiy yevropa madaniyatiga alohida e'tibor berdi. U ana

shu madaniyatning keng yoyilishi, barcha qit'a va mamlakatlarniyg jiplashuviga, jahon hamjamiyatining qaror topishiga olib keladi, deb ta'kidladi.

Karl Marks ijtimoiy hayotning fundamental asosini iqtisodiy munosabatlarda ko'rdi. U ijtimoiy hayot realliklaridan kelib chiqdi: sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan inson tabiatni faol o'zlashtiruvchi va o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarishning keng tarmoqlarini vujudga keltirdi.

Ishlab chiqarish rivojlana boshladi; iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy hayotning zarur sohalaridan biri bo'lib qoldi. Marks ingliz iqtisodchilari: A.Smit va D. Rikardoning «iqtisodiy inson» g'oyasini bir yoqlama rivojlantirdi. Inson hamisha iqtisodiy manfaat, foydani ko'zlar ekan, barcha ijtimoiy munosabatlar asosida iqtisodiy munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisobladi.

Biroq iqtisodiy munosabatlar avtomatik ravishda o'z-o'zidan amal qilmaydi, har qanday iqtisodiy taraqqiyot asosida ilm-ma'rifat, ma'naviy madaniyat yotadi. Jamiyat moddiy hayotning asosini tashkil etsa ham, uning normal ishlashi uchun ma'naviy salohiyat, bilim, iymon-e'tiqod va hakoza zarurdir.

Jamiyat hayotining fundamental asosini nima tashkil etadi? degan masala ijtimoiy falsafada hamisha muhim o'rin egallab keldi. Mamlakatimizda ma'naviyat, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan hozirgi sharoitda yuksak ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini yangicha tushunish muhim ahamiyatga egadir.

Buyuk fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798-1856) jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyaga, pozitiv falsafa va sotsiologiyaga asos soldi. U birinchi bo'lib metafizik falsafani keskin tanqid qildi: real ijtimoiy hayotdan ajralib qolgan metafizik falsafiy ta'limotlar o'rniga kishilar uchun foydali va ahamiyatli bo'lgan jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

O.Kont jamiyat to'g'risidagi yangi fanni «pozitiv falsafa» deb atagan bo'lsa ham, uning qarashlarida ijtimoiy falsafa va sotsiologiya bir-biridan ajralmagan edi (dastlabki qadam sifatida shunday bo'lishi tabiiy edi).

Kontning fikricha, jamiyat individlarning oddiy majmuidan iborat emas: «ijtimoiy atomlar» ham emas, balki rivojlangan individlar uyushmasidir. Ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro aloqadorligidir.

Kontning ta'kidlashicha, jamiyat vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra yaxlit ijtimoiy organizm bo'lib, u sub'ektlar (individ, tabaqa, sinf)ning rivojlanishiga bog'liqdir. Kont ijtimoiy falsafaga «ijtimoiy statika» tushunchasini olib kirdi. Uning yordamida jamiyat strukturasi tavsifladi. Ijtimoiy falsafa tushunchalarini rivojlantirdi. U «Pozitiv falsafa kursi», «Pozitiv siyosat sistemasi» va boshqa asarlarida falsafa va sotsiologiyani pozitiv fan deb atadi. Bu fanlar ilmiy dalillar va ilmiy kuzatishlarga asoslanadi. Kont falsafa yo'nalishida yangi oqimga - pozitivizmga asos soldi.

Kontning pozitiv ijtimoiy falsafasida jamiyat rivojlanishining bosh negizi va uning qonuniy xarakterga ega ekanligi muammosi muhim o‘rin tutadi. Kont insoniyatning intellektual evolyusiyasini «uch bosqich qonuni» orqali tushuntirishga harakat qildi. Bu qonunga muvofiq insoniyatni bilish faoliyati uning ijtimoiy ongi butun insoniyat tarixi o‘z taraqqiyotida quyidagi uch bosqichni: aG‘teologikG‘iloxiy rivojlanish; bG‘metofizik bosqich; vG‘ pozitiv yuksalish bosqichlarini kechiradi.

Teologik rivojlanishda diniy-mifologik ong ustun edi. Teologik ong kishining tashki olamga o‘z munosabatlarini belgilashi, axloq normalarini shakllantirishlari, kundalik muammolarni hal etishlariga imkon bergan.

Metofizik ong bosqichida kishilar diniy tasavvurlarga emas, balki falsafiy tushunchalarga asoslanadilar. Tushunchalar esa inson hayotining real jarayonlarini aks etiradi, real hayotdan kelib chiqadi. Lekin bu bosqichda kishilarning bilimi ancha past bo‘lgan. Metafizik metod teologik qarashning mavqeyini pasaytirgan.

Inson ongining pozitiv bosqichida kishilar olamni bilish va ilmiy kuzatishlar asosida olib boradilar. Bu davrda teologik (diniy-mifologik) qarash va metafizik mavhum qarashlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib, olamni bilishda ilmiy tushuncha va qonunlarga tayanishning ahamiyati kuchayadi. Rivojlanish qonuniyatlarini bilish, tabiiy qonunlarning avvaldan ko‘rish, sezish, o‘rganishning ahamiyati ortib bordi.

Kont jamiyat to‘g‘risidagi fanning rivojlanish muammolarini biologiya va astronomiya qonunlari bilan bog‘lashga va hal etishga harakat qildi. Hatto jamiyatning rivojlanishiga iqlim va aholining irqiy tuzulishi ta‘sir etadi, deb hisobladi. Kontning fikricha, jamiyat rivojlanishining asosiy omili insoniyatning intellektual evolyusiyasidir.

Fan inson intellektual evolyusiyasining oliy tipi, yuqori bosqichidir. Jamiyatning rivojlanishi qonuniy va progressiv jarayondir. Rivojlanish jarayonida ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim ijobiy rol o‘ynaydi.

Kont «Pozitiv siyosat sistemasi» asarida kishilarning siyosiy faoliyatiga alohida e‘tibor berdi. Sivilizatsiya taraqqiyotida insoniyat uzluksiz ravishda jismoniy, axloqiy, aqliy va siyosiy jihatdan rivojlanadi^ Bu esa insoniyatning intellektual evolyusiyasi asosida sodir bo‘ladi. Kont o‘z ta‘limotida jamiyat rivojlanishida garmoniya(uyg‘unlik) muammosini hal etishga, jamiyat barqarorligiga erishish yo‘llarini ko‘rsatishga harakat qildi.

Kont jamiyat garmoniyasi deganda ijtimoiy sistemaning qismlari va bo‘laklari ichidagi ma‘naviy, siyosiy, iqtisodiy biologik tomonlarning uyg‘unlashuvini nazarda tutdi. Jamiyat garmoniyasi har xil shaxslar va ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish va moslashtirishdan iboratdir.

Siyosiy hokimiyat siyosatchilar va ijtimoiy sub'ektlarning manfaatlarini adolatli ravishda moslashtirishi lozim.

Kont fikricha, jamiyat garmoniyasi va barqarorlikning muhim sharti jamiyatda tabaqalar, xalq va shaxsning normal yashash imkoniyatidir. Jamiyat

garmoniyasi va barqarorligi faqat fan yordamida hal etiladi. Fan jamiyatdagi barcha qism va uyushmalar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini yaratadi, ijtimoiy qatlam va shaxslararo manfaatlarni muvofiqlashtiradi.

O.Kontning ijtimoiy falsafaga oid qarashlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. U jamiyatga yaxlit ijtimoiy sistema sifatida qaradi. Jamiyat rivojlanishining qonuniyatli va progressiv xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu jarayonda^ mehnat taqsimotining rivojlanishi, kishilarning siyosiy faolligi, fan va ma'naviy madaniyatning katta rol o'ynashini alohida ta'kidladi.

Kont tomonidan ilgari surilgan jamiyatning garmoniyali rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik omillari va ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarini moslashtirish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar bugun kun uchun ham ahamiyatlidir.

Kontning pozitiv ta'limotida falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlarning dalillaridan keng foydalanish, jamiyatga ijtimoiy organizm deb qarash yetakchi o'rinni egalladi.

Ijtimoiy falsafiy ta'limot yaratishga ingliz olimi va faylasufi Gerbert Spenser (1820-1903) munosib hissa qo'shdi. U «Sintetik falsafa» asarida tabiiy va ijtimoiy hodisalarni sintetik asosda talqin etdi. Spenser yana «Boshlang'ich asoslar», «Ilmiy-siyosiy va falsafiy tajribalar» kabi asarlarida jamiyatning organik nazariyasini yaratdi.

Unda jamiyat rivojlanishida biologik va ijtimoiylik tomonlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatdi. Jamiyatga biologik va ijtimoiy omillarning yaxlit birligi sifatida qaradi. Jamiyatni ijtimoiy-tabiiy birlik sifatida ta'rifladi.

G.Spenser evolyusiya muammosini o'ziga xos tarzda hal etdi, evolyusiyaga xos quyidagi muhim belgilarni ko'rsatdi:

- a) oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya);
- b) bir xillikdan ko'p xillikka o'tish (differentsiatsiya);
- v) beqarorlikdan barqarorlikka o'tish.

Ijtimoiy evolyusiya nima? Ijtimoiy evolyusiya jamiyat rivojlanishining progressiv usuli, ijtimoiy institutlar faoliyatining murakkablashuv va takomillashuv sari yo'nalishidir. Ijtimoiy evolyusiya insonlar ehtiyoji bilan shartlangan ob'ektiv jarayondir. Ijtimoiy evolyusiya insonlar faoliyatini va har xil ijtimoiy institutlarning ahamiyatini oshiradi, shuningdek, u individlarni ham hisobga olishi zarur.

Ijtimoiy evolyusiya kishilarning turli-tuman avlodlari tomonidan amalga oshiriladi. Natijada jamiyatning ko'pgina funksiyalari, hajmi, turli-tumanligi, muayyanligi va murakkabligi o'zgaradi, kengayadi va rivojlanadi.

G.Spenser ham O.Kont singari jamiyatga muvozanat, garmoniya va barqarorlik zarurligini ta'kidladi. Ijtimoiy muvozanat deganda kishilar xatti-harakatining moslashuvini, ular manfaatlarining uyg'unlashuvini, ijtimoiy guruh va institutlar harakatida murosasozlik, o'zaro kelishuvlar bo'lishini nazarda tutdi. Ijtimoiy muvozanat kishilar va ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqalarining tengligi sharoitida amal qiladi. Bu omil ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltiradi.

Spenserning fikricha, jamiyatning inqirozga yuz tutishi ijtimoiy muvozanat, garmoniya va ijtimoiy barqarorlikni istisno etadi. Jamiyatning inqirozi (tanazzuli) Spenserning fikricha, davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli vujudga keladi. Hokimiyat, armiya, tashkilot institutlarning yaroqsizligi ham inqirozni yanada kuchaytiradi. Omma harakatiga ayrim shaxslar, siyosatchilar xalaqit beradilar, xarakatlarning birlashishi buzuladi, markazdan qochish tendensiyasi kuchayadi. Tartibsizlik sanoat va savdo tashkilotlarining faoliyatini izdan chiqaradi. (q.:Spenser G. «Sistema sinteticheskoy filosofii».M.1998. S. 314)

Spenserning ta'limoti hozirgi sharoitda katta ahamiyatga egadir. SSSR parchalangandan so'ng vujudga kelgan mustaqil respublikalardagi harakatlar bu g'oyaning hayotiy ekanligini tasdiqlamoqda. Pozitivizm falsafasi asoschilari O. Kont va G. Spenserning jamiyatdagi garmoniya va muvozanat ijtimoiy barqarorlikning asosidir, degan g'oyasi g'oyatda qimmatlidir. Pozitivizm ijtimoiy hayotning turli hodisalarini, ayniqsa, turli-tuman ijtimoiy institutlar strukturasi va barqarorligini tahlil qilishga alohida e'tibor berdi. Natijada ijtimoiy falsafiy tafakkurda strukturali funksional tahlil oqimi vujudga keldi. Unga Amerakilik faylasuflar: T.Parsons (1902-1979) R.Merton (1910) asos soldilar.

Strukturali funksional tahlilda asosiy e'tiborni ijtimoiy sistema barqarorligiga, uning normal yashashiga qaratildi. Bu nazariya tarafdorlarinig fikricha, jamiyat o'zgaradi, inqirozga uchraydi, har hil ijtimoiy tashkilotlarning funksiyalari o'zgarib turadi.

Bu oqim ijtimoiy sistemadagi funksional tomonlarning paydo bo'lishini, adaptatsiya (moslashuv, ko'nikish) va maqsadga erishish, integratsiya birlashuv, qo'shilish, strukturani qayta tashkil etish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish yo'llarini o'rganadi. Ijtimoiygarmoniya ijtimoiy kelishuvga qarama-qarshi bo'lgan muammolarni o'rganadi. Ijtimoiysistemani buzishga, inqirozga olib keladigan har qanday holatlarni tahlil etadi.

Darendorfning fikricha, ijtimoiy konfliktlar:

a) ijtimoiy sistemadagi muvozanat holatining buzilishini va shu jarayonda rivojlanishning ro'y berishini anglatadi.

b) chunki konfliktlar bo'lmasa, jamiyat inqirozga yuz tutadi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos ravishda yangicha qarashlarni ilgari surdi. Taniqli nemis faylasufi Maks Veber (1869-1920) ijtimoiy falsafa rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. U ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaga oid ilmiy manbalarni chuqur o'rgandi.

Maks Veber o'zining «Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi», «Xo'jalik va jamiyat», «Sotsial-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilishning ob'ektivligi», «Tushunish sotsiologiyasining ayrim kategoriyalari to'g'risida»va boshqa asarlarida ijtimoiy falsafa muammolarini hal etishga harakat qiladi.

M.Veber ijtimoiy falsafani nazariy sotsiologiya deb ta'rifladi: ijtimoiy falsafa kishilar faoliyatini va xulq-atvorini o'rganishi kerak. Jamiyat ayrim

individlardan yoki ijtimoiy gruppalardan iborat bo'lishi mumkin. Ular inson faoliyatining dastlabki uyushmalaridir. Shunga muvofiq ijtimoiy falsafaning muhim masalasi ijtimoiy harakatlarni o'rganishdir. Ijtimoiyharakat, M.Veberning fikricha, kishilarning ongli, anglagan o'zaro munosabatlari sistemasi, o'zaro bir-biriga ta'siridir. Inson harakati uning boshqa kishilarning harakatiga nisbatan javobidir. Ijtimoiyharakatdagi motivlarni, qadriyatlarni hisobga olish kerak. Ijtimoiyharakat sub'ektining ma'naviy dunyosini, qadriyatli yo'nalishini tushunmoq zarur. Xarakat ma'nosini tahlil qilish, sezish, tushunuvchan sotsiologiyani vujudga keltirdi.

Tushunish sotsiologiyasida sub'ektning ijtimoiy xarakati va ichki dunyosi mantiqiy fikrlar, tushuncha va hissiyot psixologiyasi orqali ochib beriladi.

M.Veber sotsiologik jarayonlarni ilmiy darajada anglash va tushunishga intildi va bu usulni keng qo'lladi. Bu ijtimoiy harakat sub'ektining ma'naviy olamini o'rganishda qadriyatlar, axloq, siyosat, estetik, diniy qadriyatlarning o'rni katta ekanligini ko'rsatdi.

Shaxs o'z harakatida, niyatida qadriyatlarga asoslanadi. Bu esa inson faoliyati va xulq-atvorining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Sotsiolog, filosof ham qandaydir qadriyatlarga tayanadi. M.Veberning fikricha, qadriyatlar hayotiy bo'lib, insonning ongli faoliyati bilan bog'langandir. Har qanday qadriyat ijtimoiy tarixiy asosga egadir.

M.Veber ijtimoiy falsafada ideal tiplar konsepsiyasi (g'oyasi)ni rivojlantirdi. Ideal tip nazariyasida ideal modelni yaratdi. Bu model inson uchun foydali bo'lib, uning manfaatlarini ifodalaydi. Ideal tiplarda axloqiy, siyosiy, diniy va boshqa qadriyatlar asosiy o'rin egallaydi. Shunga muvofiq kishilarning faoliyati va axloqining qoida va normalari belgilanadi. Ideal tiplarning ijtimoiy holati hokimiyat, shaxslararo munosabat, individual va guruh onglari holatlariga qarab belgilanadi. Ma'naviy va boshqa qadriyatlarning o'zaro aloqasi ideal tiplarni ijtimoiy ahamiyatli hodisalar darajasiga ko'taradi, inson xatti harakatining maqsadini belgilaydi, uni faollikka undaydi.

Tarixiy jarayonda inson harakati tobora oqilona tus oladi, inson faoliyati ratsionallasadi. Inson hayotiga yangiliklar, ijtimoiy o'zgarishlar tobora qo'proq kirib boradi. Shuningdek, Veber huquqiy davlat haqidagi nazariyasida bu davlat fuqarolarning munosabatlarini ratsionallashtiradi, qonunga asoslanadi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy normalarga tayanadi, degan g'oyani ilgari surdi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos qarashlarni ilgari surmoqda. Ijtimoiy falsafa yo'nalishlari ko'pqirrali bo'lganligi sababli tarixiy jarayonning mohiyati va uning harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida ham turlicha qarashlar vujudga keldi. Ayrim nazariyotchilar tarixiy qonunlarning o'rni salmoqli ekanligini e'tirof etadilar. Ayrimlari esa buni inkor etadilar.

Tarixning ma'nosi masalasidagi qarashlar ham bir xil emas. Chunki tarixiy jarayon tahliliga turlicha metodlar asosida yondashadilar. Shunday bo'lishi tabiiydir. Insoniyat tarixi murakkab va xilma-xil reallikdan

iborat bo'lib, unda turli kuchlar va omillar amal qiladi. Turli ijtimoiy makon, har xil madaniyat va sivilizatsiyada turlicha omillar amal qiladi.

Inson tarixiga va ijtimoiy hayotiga geografik muhit, ishlab chiqarish kuchlari, texnikaning rivojlanish darajasi, mafkura, axloq, qadriyat, iqlim va boshqalar ham ta'sir ko'rsatadi. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langandir. Tarixiy rivojlanish qanday bo'lishidan qat'i nazar, u umumiy ob'ektiv xarakterga egadir. Insonning hayotiy faoliyati uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini, manfaatlarini qondirishga qaratilgan jarayondir. U muayyan qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Ijtimoiy falsafaning vazifasi ana shu qonunlarni xolisona o'rganish va izohlashdir. Tarixiy jarayonning ob'ektivligi uning yaxlitligi, birligi, ajralmasligi va bir butunligidadir. Tarix albatta ko'pqirrali va xilma xildir, lekin u bir butundir. Tarixiy rivojlanish sharoitiga, vaziyatga, muammolarni hal etishga qarab turlichadir. Lekin insoniyat tarixi yaxlit jahon tarixidir.

Xalqlar tarixi jahon tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Jahon integratsiyasi ob'ektiv jarayon bo'lib, u murakkab va ziddiyatlidir. Unda qatnashadigan turli mamlakat va xalqlar o'z manfaatlarini, maqsadlarini, istaklarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Insoniyat tarixining ziddiyatli xarakterga ega ekanligi unda ob'ektiv va sub'ektiv omillarshng o'zaro ta'siri mavjudligidadir. Uning yaxlitligi va turli - tumanligi tarixiy jarayonning bir xil va to'g'ri chiziqli rivojlanish bo'ylab emas, aksincha ko'p variantli xarakterga ega ekanligidadir.

Ijtimoiy falsafa o'z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko'ra oladigan fandir. Uning asosiy vazifasi tarixiy voqyealarni va ijtimoiy sistemaning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlari (tendensiyalari)ning hal qiluvchi omillarini aniqlashdir.

Ijtimoiy falsafa bilishning turli-tuman nazariy modellaridan foydalanadi. Bilish ob'ektiga har tomonlama yondashadi. Tarixiy jarayonga jahon tarixi nuqtai nazaridan yondashadi. Unda formatsiyali, sivilizatsiyali, ko'p variantli shakllar mavjud. Shuningdek, siklli rivojlanish jamiyatning rivojlanishida tarixiy bosqich va xakozolar o'z ifodasini topadi. Turli-tuman yondashuv jamiyat xaqida to'liq tasavvur beradi. Ijtimoiy falsafa insonga tarixning sub'ekti va ob'ekti sifatida qaraydi. Insoniyat tarixi turli-tumanliqsan iboratdir.

Milliy mustaqillik ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, falsafani bir yoqlama kommunistik mafkura zug'umlaridan ozod qilib, uning har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Prezident I. A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» singari asarlarida ijtimoiy falsafa oldida turgan eng muhim masalalar ko'rsatildi. Jamiyatshunos faylasuflarimizning e'tibori eng dolzarb muammolarga jalb etildi

XIX asrda G'arbiy yevropa mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida 'ro'y bergan muhim o'zgarishlar, tabiiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar jamiyat to'g'risida yaxlit va bir butun falsafiy ta'limot yaratishni, ijtimoiy falsafaning

shakllanishini taqazo etdi. Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishida buyuk faylasuflar: Gegel, Marks, G.Spenser, M. Veberning asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Gegelning ta'lim berishicha, ijtimoiy strukturaning tub asosini ma'naviy madaniyat tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, uning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim individlarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Balki aksincha, har bir individ jamiyatga xos bo'lgan ma'naviy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi, madaniyat talablariga bo'ysunadi. Agar ayrim kishilar ijtimoiy shartlangan madaniy qadriyatlarni tushunmasa va anglamasa, madaniy qadriyatlar unga nisbatan tashqi majbur qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Gegelning fikricha, ma'naviy madaniyat «jahoniy aql» («mutlaq ruh») muqarrar va to'xtovsiz ravishda amal qiladi.

Gegel faqat ma'naviy madaniyatgina jamiyatning bir butun sistema sifatida rivojlanishi uchun imkon beradi, deb hisobladi. U ayniqsa o'ziga zamondosh bo'lgan G'arbiy yevropa madaniyatiga alohida e'tibor berdi. U ana shu madaniyatning keng yoyilishi, barcha qit'a va mamlakatlarniyg jiplashuviga, jahon hamjamiyatining qaror topishiga olib keladi, deb ta'kidladi.

Karl Marks ijtimoiy hayotning fundamental asosini iqtisodiy munosabatlarda ko'rdi. U ijtimoiy hayot realliklaridan kelib chiqdi: sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan inson tabiatni faol o'zlashtiruvchi va o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarishning keng tarmoqlarini vujudga keltirdi.

Ishlab chiqarish rivojlana boshladi; iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy hayotning zarur sohalaridan biri bo'lib qoldi. Marks ingliz iqtisodchilari: A.Smit va D. Rikardoning «iqtisodiy inson» g'oyasini bir yoqlama rivojlantirdi. Inson hamisha iqtisodiy manfaat, foydani ko'zlar ekan, barcha ijtimoiy munosabatlar asosida iqtisodiy munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisobladi.

Biroq iqtisodiy munosabatlar avtomatik ravishda o'z-o'zidan amal qilmaydi, har qanday iqtisodiy taraqqiyot asosida ilm-ma'rifat, ma'naviy madaniyat yotadi. Jamiyat moddiy hayotning asosini tashkil etsa ham, uning normal ishlashi uchun ma'naviy salohiyat, bilim, iymon-e'tiqod va hakoza zarurdir.

Jamiyat hayotining fundamental asosini nima tashkil etadi? degan masala ijtimoiy falsafada hamisha muhim o'rin egallab keldi. Mamlakatimizda ma'naviyat, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan hozirgi sharoitda yuksak ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini yangicha tushunish muhim ahamiyatga egadir.

Buyuk fransuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798-1856) jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyaga, pozitiv falsafa va sotsiologiyaga asos soldi. U birinchi bo'lib metafizik falsafani keskin tanqid qildi: real ijtimoiy hayotdan ajralib qolgan metafizik falsafiy ta'limotlar o'rniga kishilar uchun foydali va

ahamiyatli bo'lgan jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

O.Kont jamiyat to'g'risidagi yangi fanni «pozitiv falsafa» deb atagan bo'lsa ham, uning qarashlarida ijtimoiy falsafa va sotsiologiya bir-biridan ajralmagan edi (dastlabki qadam sifatida shunday bo'lishi tabiiy edi).

Kontning fikricha, jamiyat individlarning oddiy majmuidan iborat emas: «ijtimoiy atomlar» ham emas, balki rivojlangan individlar uyushmasidir. Ijtimoiysub'ektlarning o'zaro aloqadorligidir.

Kontning ta'kidlashicha, jamiyat vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra yaxlit ijtimoiy organizm bo'lib, u sub'ektlar (individ, tabaqa, sinf)ning rivojlanishiga bog'liqdir. Kont ijtimoiy falsafaga «ijtimoiy statika» tushunchasini olib kirdi. Uning yordamida jamiyat strukturasi tavsifladi. Ijtimoiy falsafa tushunchalarini rivojlantirdi. U «Pozitiv falsafa kursi», «Pozitiv siyosat sistemasi» va boshqa asarlarida falsafa va sotsiologiyani pozitiv fan deb atadi. Bu fanlar ilmiy dalillar va ilmiy kuzatishlarga asoslanadi. Kont falsafa yo'nalishida yangi oqimga - pozitivizmga asos soldi.

Kontning pozitiv ijtimoiy falsafasida jamiyat rivojlanishining bosh negizi va uning qonuniy xarakterga ega ekanligi muammosi muhim o'rin tutadi. Kont insoniyatning intellektual evolyusiyasini «uch bosqich qonuni» orqali tushuntirishga harakat qildi. Bu qonunga muvofiq insoniyatni bilish faoliyati uning ijtimoiy ongi butun insoniyat tarixi o'z taraqqiyotida quyidagi uch bosqichni: a) teologik; b) ilohiy rivojlanish; c) metafizik bosqich; d) pozitiv yuksalish bosqichlarini kechiradi.

Teologik rivojlanishda diniy-mifologik ong ustun edi. Teologik ong kishining tashki olamga o'z munosabatlarini belgilashi, axloq normalarini shakllantirishlari, kundalik muammolarni hal etishlariga imkon bergan.

Metafizik ong bosqichida kishilar diniy tasavvurlarga emas, balki falsafiy tushunchalarga asoslanadilar. Tushunchalar esa inson hayotining real jarayonlarini aks etiradi, real hayotdan kelib chiqadi. Lekin bu bosqichda kishilarning bilimi ancha past bo'lgan. Metafizik metod teologik qarashning mavqeini pasaytirgan.

Inson ongining pozitiv bosqichida kishilar olamni bilish va ilmiy kuzatishlar asosida olib boradilar. Bu davrda teologik (diniy-mifologik) qarash va metafizik mavhum qarashlar o'z ahamiyatini yo'qotib, olamni bilishda ilmiy tushuncha va qonunlarga tayanishning ahamiyati kuchayadi. Rivojlanish qonuniyatlarini bilish, tabiiy qonunlarning avvaldan ko'rish, sezish, o'rganishning ahamiyati ortib bordi.

Kont jamiyat to'g'risidagi fanning rivojlanish muammolarini biologiya va astronomiya qonunlari bilan bog'lashga va hal etishga harakat qildi. Hatto jamiyatning rivojlanishiga iqlim va aholining irqiy tuzulishi ta'sir etadi, deb hisobladi. Kontning fikricha, jamiyat rivojlanishining asosiy omili insoniyatning intellektual evolyusiyasidir.

Fan inson intellektual evolyusiyasining oliy tipi, yuqori bosqichidir. Jamiyatning rivojlanishi qonuniy va progressiv jarayondir. Rivojlanish jarayonida ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim ijobiy rol o'ynaydi.

Kont «Pozitiv siyosat sistemasi» asarida kishilarning siyosiy faoliyatiga alohida e'tibor berdi. Sivilizatsiya taraqqiyotida insoniyat uzluksiz ravishda jismoniy, axloqiy, aqliy va siyosiy jihatdan rivojlanadi. Bu esa insoniyatning intellektual evolyusiyasi asosida sodir bo'ladi. Kont o'z ta'limotida jamiyat rivojlanishida garmoniya (uyg'unlik) muammosini hal etishga, jamiyat barqarorligiga erishish yo'llarini ko'rsatishga harakat qildi.

Kont jamiyat garmoniyasi deganda ijtimoiy sistemaning qismlari va bo'laklari ichidagi ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy biologik tomonlarning uyg'unlashuvini nazarda tutdi. Jamiyat garmoniyasi har xil shaxslar va ijtimoiy qatlamlarning manfaatlarini uyg'unlashtirish va moslashtirishdan iboratdir.

Siyosiy hokimiyat siyosatchilar va ijtimoiy sub'ektlarning manfaatlarini adolatli ravishda moslashtirishi lozim.

Kont fikricha, jamiyat garmoniyasi va barqarorlikning muhim sharti jamiyatda tabaqalar, xalq va shaxsning normal yashash imkoniyatidir. Jamiyat garmoniyasi va barqarorligi faqat fan yordamida hal etiladi. Fan jamiyatdagi barcha qism va uyushmalar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini yaratadi, ijtimoiy qatlam va shaxslararo manfaatlarni muvofiqlashtiradi.

O.Kontning ijtimoiy falsafaga oid qarashlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. U jamiyatga yaxlit ijtimoiy sistema sifatida qaradi. Jamiyat rivojlanishining qonuniyatli va progressiv xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu jarayonda mehnat taqsimotining rivojlanishi, kishilarning siyosiy faolligi, fan va ma'naviy madaniyatning katta rol o'ynashini alohida ta'kidladi.

Kont tomonidan ilgari surilgan jamiyatning garmoniyali rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik omillari va ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarini moslashtirish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar bugun kun uchun ham ahamiyatlidir.

Kontning pozitiv ta'limotida falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlarning dalillaridan keng foydalanish, jamiyatga ijtimoiy organizm deb qarash yetakchi o'rinni egalladi.

Ijtimoiy falsafiy ta'limot yaratishga ingliz olimi va faylasufi Gerbert Spenser (1820-1903) munosib hissa qo'shdi. U «Sintetik falsafa» asarida tabiiy va ijtimoiy hodisalarni sintetik asosda talqin etdi. Spenser yana «Boshlang'ich asoslar», «Ilmiy-siyosiy va falsafiy tajribalar» kabi asarlarida jamiyatning organik nazariyasini yaratdi.

Unda jamiyat rivojlanishida biologik va ijtimoiylik tomonlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatdi. Jamiyatga biologik va ijtimoiy omillarning yaxlit birligi sifatida qaradi. Jamiyatni ijtimoiy-tabiiy birlik sifatida ta'rifladi.

G.Spenser evolyusiya muammosini o'ziga xos tarzda hal etdi, evolyusiyaga xos quyidagi muhim belgilarni ko'rsatdi:

a) oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya);

b) bir xillikdan ko'p xillikka o'tish(differenziatsiya);

v) beqarorlikdan barqarorlikka o'tish.

Ijtimoiyevolyusiya nima? Ijtimoiyevolyusiya jamiyat rivojlanishining progressiv usuli, ijtimoiy institutlar faoliyatining murakkablashuv va takomillashuv sari yo'nalishidir. Ijtimoiy evolyusiya insonlar ehtiyoji bilan shartlangan ob'ektiv jarayondir. Ijtimoiy evolyusiya insonlar faoliyatini va har xil ijtimoiy institutlarning ahamiyatini oshiradi, shuningdek, u individlarni ham hisobga olishi zarur.

Ijtimoiy evolyusiya kishilarning turli-tuman avlodlari tomonidan amalga oshiriladi. Natijada jamiyatning ko'pgina funksiyalari, hajmi, turli-tumanligi, muayyanligi va murakkabligi o'zgaradi, kengayadi va rivojlanadi.

G. Spenser ham O.Kont singari jamiyatga muvozanat, garmoniya va barqarorlik zarurligini ta'kidladi. Ijtimoiymuvozanat deganda kishilar xatti-harakatining moslashuvini, ular manfaatlarining uyg'unlashuvini, ijtimoiy guruh va institutlar harakatida murosasozlik, o'zaro kelishuvlar bo'lishini nazarda tutdi. Ijtimoiymuvozanat kishilar va ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqalarining tengligi sharoitida amal qiladi. Bu omil ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltiradi.

Spenserning fikricha, jamiyatning inqirozga yuz tutishi ijtimoiy muvozanat, garmoniya va ijtimoiy barqarorlikni istisno etadi. Jamiyatning inqirozi (tanazzuli) Spenserning fikricha, davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli vujudga keladi. Hokimiyat, armiya, tashkilot institutlarning yaroqsizligi ham inqirozni yanada kuchaytiradi. Omma harakatiga ayrim shaxslar, siyosatchilar xalaqit beradilar, xarakatlarning birlashishi buzuladi, markazdan qochish tendensiyasi kuchayadi. Tartibsizlik sanoat va savdo tashkilotlarining faoliyatini izdan chiqaradi. (q.:Spenser G. «Sistema sinteticheskoy filosofii».M.1998. S. 314)

Spenserning ta'limoti hozirgi sharoitda katta ahamiyatga egadir. SSSR parchalangandan so'ng vujudga kelgan mustaqil respublikalardagi harakatlar bu g'oyaning hayotiy ekanligini tasdiqlamoqda. Pozitivizm falsafasi asoschilari O. Kont va G. Spenserning jamiyatdagi garmoniya va muvozanat ijtimoiy barqarorlikning asosidir, degan g'oyasi g'oyatda qimmatlidir. Pozitivizm ijtimoiy hayotning turli hodisalarini, ayniqsa, turli-tuman ijtimoiy institutlar strukturasi va barqarorligini tahlil qilishga alohida e'tibor berdi. Natijada ijtimoiy falsafiy tafakkurda strukturali funksional tahlil oqimi vujudga keldi. Unga Amerakilik faylasuflar: T.Parsons (1902-1979) R.Merton (1910) asos soldilar.

Strukturali funksional tahlilda asosiy e'tiborni ijtimoiy sistema barqarorligiga, uning normal yashashiga qaratildi. Bu nazariya tarafdorlarinig fikricha, jamiyat o'zgaradi, inqirozga uchraydi, har hil ijtimoiy tashkilotlarning funksiyalari o'zgarib turadi.

Bu oqim ijtimoiy sistemadagi funksional tomonlarning paydo bo'lishini, adaptatsiya (moslashuv, ko'nikish) va maqsadga erishish, integratsiya birlashuv, qo'shilish, strukturani qayta tashkil etish, ijtimoiy keskinlikni

yumshatish yo‘llarini o‘rganadi. Ijtimoiygarmoniya ijtimoiy kelishuvga qarama-qarshi bo‘lgan muammolarni o‘rganadi. Ijtimoiysistemani buzishga, inqirozga olib keladigan har qanday holatlarni tahlil etadi.

Darendorfning fikricha, ijtimoiy konfliktlar:

a) ijtimoiy sistemadagi muvozanat holatining buzilishini va shu jarayonda rivojlanishning ro‘y berishini anglatadi.

b) chunki konfliktlar bo‘lmasa, jamiyat inqirozga yuz tutadi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos ravishda yangicha qarashlarni ilgari surdi. Taniqli nemis faylasufi Maks Veber (1869-1920) ijtimoiy falsafa rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi. U ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaga oid ilmiy manbalarni chuqur o‘rgandi.

Maks Veber o‘zining «Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi», «Xo‘jalik va jamiyat», «Sotsial-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilishning ob'ektivligi», «Tushunish sotsiologiyasining ayrim kotegoriyalari to‘g‘risida»va boshqa asarlarida ijtimoiy falsafa muammolarini hal etishga harakat qiladi.

M.Veber ijtimoiy falsafani nazariy sotsiologiya deb ta'rifladi: ijtimoiy falsafa kishilar faoliyatini va xulq-atvorini o‘rganishi kerak. Jamiyat ayrim individlardan yoki ijtimoiy gruppalardan iborat bo‘lishi mumkin. Ular inson faoliyatining dastlabki uyushmalaridir. Shunga muvofiq ijtimoiy falsafaning muhim masalasi ijtimoiy harakatlarni o‘rganishdir. Ijtimoiyharakat, M.Veberning fikricha, kishilarning ongli, anglagan o‘zaro munosabatlari sistemasi, o‘zaro bir-biriga ta'siridir. Inson harakati uning boshqa kishilarning harakatiga nisbatan javobidir. Ijtimoiyharakatdagi motivlarni, qadriyatlarni hisobga olish kerak. Ijtimoiyharakat sub'ektining ma'naviy dunyosini, qadriyatli yo‘nalishini tushunmoq zarur. Xarakat ma'nosini tahlil qilish, sezish, tushunuvchan sotsiologiyani vujudga keltirdi.

Tushunish sotsiologiyasida sub'ektning ijtimoiy xarakati va ichki dunyosi mantiqiy fikrlar, tushuncha va hissiyot psixologiyasi orqali ochib beriladi.

M.Veber sotsiologik jarayonlarni ilmiy darajada anglash va tushunishga intildi va bu usulni keng qo‘lladi. Bu ijtimoiy harakat sub'ektining ma'naviy olamini o‘rganishda qadriyatlar, axloq, siyosat, estetik, diniy qadriyatlarning o‘rni katta ekanligini ko‘rsatdi.

Shaxs o‘z harakatida, niyatida qadriyatlarga asoslanadi. Bu esa inson faoliyati va xulq-atvorining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Sotsiolog, filosof ham qandaydir qadriyatlarga tayanadi. M.Veberning fikricha, qadriyatlar hayotiy bo‘lib, insonning ongli faoliyati bilan bog‘langandir. Har qanday qadriyat ijtimoiy tarixiy asosga egadir.

M.Veber ijtimoiy falsafada ideal tiplar konsepsiyasi (g‘oyasi)ni rivojlantirdi. Ideal tip nazariyasida ideal modelni yaratdi. Bu model inson uchun foydali bo‘lib, uning manfaatlarini ifodalaydi. Ideal tiplarda axloqiy, siyosiy, diniy va boshqa qadriyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Shunga muvofiq kishilarning faoliyati va axloqining qoida va normalari belgilanadi. Ideal tiplarning ijtimoiy holati hokimiyat, shaxslararo munosabat, individual va guruh onglari holatlariga

qarab belgilanadi. Ma'naviy va boshqa qadriyatlarning o'zaro aloqasi ideal tiplarni ijtimoiy ahamiyatli hodisalar darajasiga ko'taradi, inson xatti harakatining maqsadini belgilaydi, uni faollikka undaydi.

Tarixiy jarayonda inson harakati tobora oqilona tus oladi, inson faoliyati ratsionallasadi. Inson hayotiga yangiliklar, ijtimoiy o'zgarishlar tobora qo'proq kirib boradi. Shuningdek, Veber huquqiy davlat haqidagi nazariyasida bu davlat fuqarolarning munosabatlarini ratsionallashtiradi, qonunga asoslanadi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy normalarga tayanadi, degan g'oyani ilgari surdi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos qarashlarni ilgari surmoqda. Ijtimoiy falsafa yo'nalishlari ko'pqirrali bo'lganligi sababli tarixiy jarayonning mohiyati va uning harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida ham turlicha qarashlar vujudga keldi. Ayrim nazariyotchilar tarixiy qonunlarning o'rni salmoqli ekanligini e'tirof etadilar. Ayrimlari esa buni inkor etadilar.

Tarixning ma'nosi masalasidagi qarashlar ham bir xil emas. Chunki tarixiy jarayon tahliliga turlicha metodlar asosida yondashadilar. Shunday bo'lishi tabiiydir. Insoniyat tarixi murakkab va xilma-xil reallikdan iborat bo'lib, unda turli kuchlar va omillar amal qiladi. Turli ijtimoiy makon, har xil madaniyat va sivilizatsiyada turlicha omillar amal qiladi.

Inson tarixiga va ijtimoiy hayotiga geografik muhit, ishlab chiqarish kuchlari, texnikaning rivojlanish darajasi, mafkura, axloq, qadriyat, iqlim va boshqalar ham ta'sir ko'rsatadi. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langandir. Tarixiy rivojlanish qanday bo'lishidan qat'i nazar, u umumiy ob'ektiv xarakterga egadir. Insonning hayotiy faoliyati uning moddiy va ma'naviy extiyojlarini, manfaatlarini qondirishga qaratilgan jarayondir. U muayyan qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Ijtimoiy falsafaning vazifasi ana shu qonunlarni xolisona o'rganish va izohlashdir. Tarixiy jarayonning ob'ektivligi uning yaxlitligi, birligi, ajralmasligi va bir butunligidadir. Tarix albatta ko'pqirrali va xilma xildir, lekin u bir butundir. Tarixiy rivojlanish sharoitiga, vaziyatga, muammolarni hal etishga qarab turlichadir. Lekin insoniyat tarixi yaxlit jahon tarixidir.

Xalqlar tarixi jahon tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Jahon integratsiyasi ob'ektiv jarayon bo'lib, u murakkab va ziddiyatlidir. Unda qatnashadigan turli mamlakat va xalqlar o'z manfaatlarini, maqsadlarini, istaklarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Insoniyat tarixining ziddiyatli xarakterga ega ekanligi unda ob'ektiv va sub'ektiv omillarshng o'zaro ta'siri mavjudligidadir. Uning yaxlitligi va turli - tumanligi tarixiy jarayonning bir xil va to'g'ri chiziqli rivojlanish bo'ylab emas, aksincha ko'p variantli xarakterga ega ekanligidadir.

Ijtimoiy falsafa o'z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko'ra oladigan fandır. Uning asosiy vazifasi tarixiy voqyealarni va ijtimoiy sistemaning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlari (tendensiyalari)ning hal qiluvchi omillarini aniqlashdir.

Ijtimoiy falsafa bilishning turli-tuman nazariy modellaridan foydalanadi. Bilish ob'ektiga har tomonlama yondashadi. Tarixiy jarayonga jahon tarixi nuqtai nazaridan yondashadi. Unda formatsiyali, sivilizatsiyali, ko'p variantli shakllar mavjud. Shuningdek, siklli rivojlanish jamiyatning rivojlanishida tarixiy bosqich va xakozolar o'z ifodasini topadi. Turli-tuman yondashuv jamiyat xaqida to'liq tasavvur beradi. Ijtimoiy falsafa insonga tarixning sub'ekti va ob'ekti sifatida qaraydi. Insoniyat tarixi turli-tumanliqsan iboratdir.

Milliy mustaqillik ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, falsafani bir yoqlama kommunistik mafkura zug'umlaridan ozod qilib, uning har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Prezident I. A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» singari asarlarida ijtimoiy falsafa oldida turgan eng muhim masalalar ko'rsatildi. Jamiyatshunos faylasuflarimizning e'tibori eng dolzarb muammolarga jalb etildi.

Tayanch tushunchalar

Pozitivizm, neopozitivizm, marksizm, bolshevizm, sotsiologiya, sotsiologik oqimlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Falsafa va ijtimoiy falsafa, ular orasidagi aloqadorlikni qanday tushunasiz.
2. Ijtimoiy falsafiy bilimlar qaysi davrdan shakllana boshlagan?
3. Ijtimoiy falsafaning tarixiy bosqichlari.
4. Ijtimoiy falsafaning alohida fan sifatida shakllanishi.
5. XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar.
6. Prezident I.A.Karimov asarlarida ijtimoiy-falsafiy muammolar.

Adabiyotlar

- S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 17-38 bet.
- V.S.Barulin «Sotsialnaya filosofiya», FAIR-PReSS, 1999 yil, 4-22 betlar.
- Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. I qism.- T., 2004 yil.
- Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq», 1999 yil, 268-276 betlar.
- G'arb falsafasi. – T., «Sharq», 2004 yil, 565-574, 579-580, 632-635 betlar.
- Falsafa. M.Ahmedova tahriri ostida. – T., 2006 y., 371-374 betlar.
- Sulaymonova F. Sharq va G'arb. -T.: O'zbekiston, 1997.-228 b.
- Falsafa asoslari. Nazarov Q. tahriri astida. -T.: Sharq, 2005.-249 b.
- Falsafa qomusiy lug'at. Nazarov Q. tahriri astida. -T.: Sharq, 2004. -

4-MAVZU: . JAMIYAT YAXLIT TIZIM SIFATIDA. (2 S)

Reja:

1. Jamiyat–ijtimoiy falsafaning tadqiqot ob'ekti. Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar.
2. Jamiyatning mohiyati, o‘ziga xos jihatlari.
3. Jamiyatning falsafiy tahlili.. Jamiyat hayotining asosiy sohalari.
4. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik (grajdanlik) jamiyati.
5. O‘zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik (grajdanlik) jamiyati.

Jamiyat – kishilar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi; tabiatning bir qismi; ijtimoiy borliq.

Jamiyat g‘oyat murakkab va ko‘pqirrali hodisa bo‘lib, muttasil ravishda o‘zgarish va rivojlanish xususiyatiga egadir. Juda qadim zamonlardan oq insoniyatning ulug‘ mutafakkirlari jamiyat mohiyatini bilishga va insonning jamiyatdagi o‘rni va rolini belgilashga harakat qilganlar. Turli tarixiy davrlarda mifologik, diniy, ilmiy va falsafiy qarashlar jamiyatning kelib chiqishi va rivojlanishi to‘g‘risida muayyan bilim, tasavvurlar hosil qilishga imkon bergan.

Insoniyat ma'naviyati yuksalib borgani sayin jamiyat to‘g‘risidagi qarashlar ham tobora takomillashib borgan, jamiyat to‘g‘risidagi o‘ta sodda diniy-mifologik qarashlarga nisbatan ancha murakkab va ishonchli ilmiy-falsafiy qarashlar vujudga kelgan.

Jamiyat to‘g‘risidagi izchil ilmiy-falsafiy qarashlarning rivojlanishiga Markaziy Osiyo mutafakkirlari qomusiy bilim egalari: Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino singari ulug‘ mutafakkirlar salmoqli hissa qo‘shganlar. Ularning ilg‘or qarashlari ko‘p asrlar davomida ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish, komil inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi va hozirgacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino birinchi bo‘lib jamiyat qanday paydo bo‘lgan, degan savolga ilmiy asosda javob berishga harakat qilganlar. Insoniyat jamiyatining paydo bo‘lish sabablarini odamlarda aql va tafakkurning rivojlanishi, kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy intilishi bilan bog‘laganlar. Ibn Sino jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni normal-tabiiy holat ekanligini ta'kidlagan. Mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslashga harakat qilgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari keyinchalik yevropalik olimlar tomonidan yanada rivojlantirildi.

O‘rta asrlarda yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkurida diniy qarashlar yetakchi mavqeyi egalladi. Bu davr mutafakkirlari (nominalistlar va realistlar) inson va jamiyatning qay biri oldin vujudga kelgan, degan masala atrofida bahs-munozara yuritganlar.

Mashhur ilohiyotchi Foma Akvinskiy va uning izdoshlari inson va jamiyatning paydo bo'lishini Xudoning irodasi bilan bog'laganlar. XIX asr o'rtalariga kelib jamiyatni ilmiy asosda tadqiq etish, uning rivojlanish istiqbollari oldindan ko'rish, yetilgan ijtimoiy muammolarni ilmiy asosda hal etish hayotiy zaruriyatga aylandi. Bu davrda tabiiyotshunoslik fanlari sohasida erishilgan ulkan kashfiyotlar olimlarni jamiyat to'g'risida ham ilmiy nazariya yaratishga rag'batlantirdi. Tabiiyotshunoslik fanlarining ilmiy bilish metodlarini jamiyatni bilishga tatbiq etish yaxshi natijalar berishi mumkin, degan xulosaga olib keldi: jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariya -sotsiologiya fani vujudga keldi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning xulosalariga tayanib, jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot va dunyoqarash yaratishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. yevropa ijtimoiy-falsafiy tafakkuri jamiyat to'g'risida yaxlit ta'limot yaratguniga qadar g'oyat mashaqqatli g'oyaviy kurash yo'lini bosib o'tdi. yevropa ijtimoiy falsafasi ilm-fan xulosalariga tayanib, jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanish xususiyatlari to'g'risida izchil ta'limot yaratishga qaratilgan edi.

Mashhur nemis faylasufi Gegel (1770-1831) jamiyatning paydo bo'lish sabablarini mutlaq ruh taraqqiyotining qonuniyatli natijasi sifatida izohladi. Jamiyat to'g'risidagi falsafiy fanga asos solgan fransuz faylasufi O. Kont (1758-1820) esa jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishini insoniyatning ma'naviy taraqqiyoti ma'suli sifatida talqin etdi. Buyuk nemis faylasufi I. Kant (1724-1774) kishilik jamiyatining paydo bo'lishi ahloqiy ongning rivojlanishi, oilaning vujudga kelishi bilan bog'ladi.

Ingliz faylasufi G.Spenser jamiyatni tabiatning ajralmas bir qismi, umumiy evolyusion jarayon sifatida tushuntirdi; jamiyat va tabiatni bir-biri bilan qiyoslash orqali ular o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlarni ko'rsatdi. Jamiyat mohiyatini bilishda ijtimoiy darvinizm, psixologizm (freydizm, instinktivizm, xalqlar psixologiyasi) marksizm singari falsafiy ta'limot muayyan rol o'ynadi. Bunday ijtimoiy falsafiy qarashlar hozirgi paytda tanazulga uchrab o'z ahamiyatini yuqotgan bo'lsada, jamiyat mohiyatini ilmiy asosda bilish yo'lidagi urinishlar edi deyishimiz mumkin. Hozirgi zamon ijtimoiy falsafasi ana shu ta'limotlarning biryoqlama, xato va ijtimoiy amaliyotga zid va u tasdiqlamagan tomonlarini yanada takomillashtirish asosida qaror topdi.

Jamiyat to'g'risidagi har bir falsafiy ta'limotda konkret tarixiy davrning ruhi, ma'naviy salohiyati o'z ifodasini topadi. Gegel iborasi bilan aytganda, jamiyat falsafa orqali o'zligini anglaydi.

Jamiyat va inson mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalardir. Bu tushunchalarni bir-biri bilan ayniylashtirish ham, ularni qarama-qarshi qo'yish ham xatodir. Inson mohiyatini bir yoqlama tushunish muqarrar ravishda jamiyat mohiyatini ham biryoqlama va xato tushunishga olib keladi. Insondagi biologik va ijtimoiy jihatlarni bir-biridan ajratish, ulardan birini muhim, asosiy deb hisoblash marksizm va freydizmning biryoqlama ta'limot bo'lib qolishiga olib kelgan.

Taniqli rus faylasufi N. A. Berdyaevning fikricha, «Marks iste'dodli sotsiolog, biroq bo'sh antropolog bo'lgan. Marksizm jamiyat muammosini qo'yadi, biroq inson muammosini qo'ymaydi, uning uchun inson jamiyatning funksiyasi, iqtisodiyotning texnik funksiyasidir. Jamiyat birlamchi fenomen, inson esa ikkilamchi fenomendir»¹

Sobiq ittifoq davrida ko'p yillar davomida o'qitib kelingan ijtimoiy falsafa (tarixiy materializm) jamiyat mohiyatini biryoqlama tushuntirishga asoslangan edi. Jamiyatning moddiy, iqtisodiy hayoti uning ma'naviy hayotidan ustun qo'yilar, ma'naviyatning jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyatiga yetarli e'tibor berilmas edi. Milliy mustaqillik yillarida shakllangan yangicha siyosiy tafakkur ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini yangicha tushunishga imkon berdi. Prezident I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan «yuksak ma'naviyat-jamiyat taraqqiyotining asosidir» degan g'oya jamiyatning mohiyati va rivojlanish istiqbollarini yangicha tushunishning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy bog'liqdir: inson jamiyatdan tashqarida o'zining haqiqiy mohiyatini yo'qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig'indisidagina iborat emas. Bundan tashqari, jamiyat odamlar o'rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi; bunday munosabatlar kishilarni oila, urug', qabila, millat, davlat va nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Odamlar yig'indisini xis etish, kuzatish mumkyn. Biroq odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish, kuzatish imkonsizdir, chunki ular yashirin xarakterga ega bo'lib, jisimsiz, nomoddiydir. Jamiyat hayotida ana shunday munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijtimoiy falsafa tarixida inson va jamiyatning o'zaro munosabati masalasi turli tortishuvlarga sabab bo'lgan. Faqat ayrim insonlarga mavjud, jamiyat mavjud emas, deb hisoblaydigan faylasuflar davlat va boshqa ijtimoiy tashkilotlar mavjudligini inkor etganlar (Bularni so'l individualistlar, anarxistlar deb ataladi)

Boshqa bir faylasuflar faqat jamiyatgina oliy qadriyat, insonlar esa uning kichik qismlari deb hisoblaydilar. Ular jamiyat asosini tashkil etuvchi real insonni ko'rmaydi. Bular marksizm tarafdorlari bo'lib, jangovar kollektivizm, totalitarizm g'oyasini ilgari surdilar. Odamlar va ular o'rtasidagi munosabatlar jamiyat strukturasi tayanch elementi bo'lsa ham, uning butun mazmunini belgilay olmaydi.

Jamiyat tarkibi (strukturasi) ikki o'lchamli emas, balki ko'p o'lchamlidir. Jamiyatni nazariy jihatdan tahlil qilish qulay bo'lishi uchungina jamiyat strukturasi ikki asosiy elementga bo'linadi. Jonli, real jamiyat esa juda ko'plab aloqa, munosabat va o'zaro ta'sir birligidan iborat bo'lib, ular xilma-xil elementlar majmuasidan yaxlit ijtimoiy organizmni vujudga keltiradi. Jamiyatni

¹ Н.А.Бердяев Истоки и смѣсл русского коммунизма.- М.,1990. С.150.

yaxlit va bir butun sistema sifatida tushunish qadimgi dunyo faylasuflari uchun ham xos edi. Biroq XIX-XX asrga kelib, jamiyatni tizimi asosida ravishda tadqiq etishda O. Kont, G. Spenser, K. Marks, E. Dyurkgeym, M. Veber, P. Sorokin, T. Parsons kabi olimlarning xizmatlari salmoqli bo'ldi.

Jamiyat elementlari deganda ijtimoiy tizimning eng kichik qismlari tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar - jamiyatni tashkil etuvchi sub'ektlar o'rtasidagi muayyan aloqa va bog'liqlikdir. Barqaror va doimiy ravishda takrorlanuvchi munosabatlar asta-sekin barqaror ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, institutlarning shakllanishiga olib keladi. Jamiyatdagi munosabatlar qanchalik boy, xilma-xil bo'lsa, bu jamiyatning demokratik xarakterga ega ekanligidan, rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy tizim boshqa tizimlardan ajratib turadigan muhim xususiyatlar quyidagilardir;

- 1) jamiyatni tashkil etadigan elementlarning ko'pligi;
- 2) ijtimoiy tizim elementlarning rang-barangligi, turlicha sifat va xarakterga ega ekanligi;
- 3) ijtimoiy tizim asosiy elementi va yadrosi bo'lgan insonning betakrorligi, o'z faoliyati va xulq-atvorini erkin namoyon etishidir. Bu holatlar jamiyat istiqboli qanday bo'lishini oldindan bilishninihoyatda qiyinlashtiradi.

Biroq shunga qaramay ijtimoiy-falsafiy tafakkur jamiyat elementlarini bir-biri bilan uzviy bog'laydigan yagona asosni topishga intilib keldi. Bu asos inson faoliyatidir.

Inson faoliyati tufayli butun ijtimoiy tizim harakatga keladi, turli elementlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi.

Ijtimoiy hayotning mohiyatli asosi bo'lgan inson faoliyatining ro'y berishi uchun quyidagi to'rt element talab etiladi. Birinchi va asosiy element inson, kishilardir. U faoliyatning faol qismi, faoliyat sub'ektidir.

Inson faoliyatining ikkinchi elementi faoliyat ob'ektlaridir. Bu inson faoliyati yo'naltirilgan narsalargina emas, balki insonning o'zi ham faoliyat ob'ekti hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi, vrach faoliyati insonga qaratiladi. Lekin ko'pincha narsalar faoliyat ob'ekti hisoblanadi. Inson faoliyati uchun zarur bo'lgan uchinchi eng muhim element til, nutq, informatsiyadir. Bunday belgilarisiz inson faoliyatining amalga oshishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Ramzlar va belgilar inson ongiga ta'sir etib, faoliyatning uzluksiz ravishda amalga oshishini ta'minlaydi. Inson faoliyatining to'rtinchi muhim elementi barqaror aloqa va munosabatlardir. Barqaror munosabatlar inson faoliyati elementlarini harakatga keltiradi.

Ijtimoiy faoliyatning to'rt asosiy elementiga mos ravishda ijtimoiy hayotning quyidagi to'rt sohasi vujudga keladi:

- 1) ma'naviy soha,
- 2) moddiy soha,
- 3) siyosiy soha,
- 4) ijtimoiy soha.

Hozirga qadar adabiyotlarda jamiyatning moddiy va ma'naviy sohalari bir-biridan keskin farqlanar, uning moddiy jihatiga ko'proq e'tibor berilar edi. Xolbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Huddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari jamiyatning moddiy va ma'naviy tomonlarini bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish ham mantiqqa ziddir. Prezident I. A. Karimovning asarlarida jamiyatning moddiy va ma'naviy tomonlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosi ekanligi ta'kidlangan. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini singdirishga katta e'tibor berilyapti. Insonning haqiqiy mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuksak ma'naviyat tufayligina inson o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Har qanday jamiyat hayotida ma'naviyat, ma'naviy ishlab chiqarish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to'laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o'zlashtiradilar, bir-birlari bilan insonlarcha munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida ilg'or g'oya, nazariya va ta'limotlar yaratiladi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, Ilm-fan va texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun zamin yaratadi.

Falsafa jamiyatni ob'ektiv olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat, uning mohiyati, taraqqiyot qonunlarini o'rganadigan falsafaning maxsus sohasi bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat muammosi qadimdan odamlarni qiziqtirib kelgan. Kishilik jamiyatini o'rganadigan fan sohalari ko'p. Jamiyatning iqtisodiy hayoti iqtisodiyot nazariyasi, unda kechadigan tarixiy jarayonlar tarix, jamiyatni boshqarish sohasi «Davlat va huquq nazariyasi»ning tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa boshqa fanlardan farqli o'laroq jamiyatni o'z-o'zini tashkillovchi va boshqaruvchi yaxlit bir tizim sifatida o'rganadi va bu tizimga xos bo'lgan qonunlarni ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hozirgi zamon antropologiya va etnografiya fanlari nuqtai-nazaridan odam bundan taxminan 5 million yillar muqaddam shu yer deb atalgan Quyosh sistemasi tarkibidagi planeta – Ona – tabiat harakati natijasida tirik mavjudotlar ichida bir tur sifatida vujudga kelgan. Odam miya tuzilishining hayvonlarnikidan sifat jihatidan farq qilishi va ongli mehnat tufayli asta-sekin fiziologik va intellektual (aqliy) jihatdan takomillashib borib, keyingi 50-40

ming yillardan e'tiboran Kromanon tipidagi odam jamiyat bo'lib yashashga o'tgan. Odamzotning jamiyat bo'lib yashashi uchun ma'naviy madaniyat kerak edi. Ana shu ehtiyojlar sababli ilgari odam tiplari (avstralopitek, pitekanthrop, sinantrop, neandertal)dagi instinktlar o'rnini ahloq normalari egallab bordi. Natijada dunyoning turli mintaqalarida vujudga kelgan odamlar jamoasida ruxsat va ta'qiq tizimi shakllandi. Ibtidoiy jamiyat odamlari mifologik dunyoqarash asosida shakllangan. Dastlab ular sehrli kuchlar borligiga ishonganlar, ulardan najot tilab yashash tarziga o'tganlar. Diniy dunyoqarashning shakllanishi tufayli ruxsat va ta'qiqlar o'rniga savob va gunoh haqidagi tushunchalar tarkib topdi; odamzotning keyingi uch ming yillik ma'naviy madaniyati ana shu qarashlar doirasida takomillashib bordi. Davlatning demokratik shakllari yuzaga kelgach, jamiyat ma'naviyati qonun ustivorligi ruhida shakllanib bordi. Davlat va jamiyat, ijtimoiy munosabatlar haqidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi Bobil, Misr, Hindiston, Markaziy Osiyoda vujudga kela boshlagan. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da, qadimgi hind eposlari bo'lmish «Mahabhorat», «Ramayana», «Kalila va Dimna»da jamiyat, inson, ijtimoiy muammolar o'z ifodasini topgan.

Jamiyat muammosi qadimiy Yunon faylasuflari qarashlarida markaziy o'rin tutadi.

Platon ta'limotida jamiyat, davlat masalalari muhim o'rin tutadi. Platon jamiyatga tizim sifatida yondoshib, uning tarkibi, davlat boshqaruvi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Qadimiy Yunon faylasufi Aristotel jamiyatni o'rganish bilan bog'liq fanlarni «Metafizika» deb nomlagan. Bu fanlar orasida siyosatga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, jamiyat siyosiy mavjudotlardan tashkil topgan.

Jamiyat, unda odamlarning o'rnini, ularning hamkor, hamnafas bo'lib yashashi to'g'risidagi g'oyalar Markaziy Osiyoda shakllangan moniylik va mazdakiylik ta'limotining asosini tashkil etadi.

Amir Temurning «Temur tuzuklari» da jamiyat, uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti; jamiyat hayotini tashkil etish qonun-qoidalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkir olimlar ijodida alohida o'rin tutadi.

Abu Nasr Forobiy asarlarida jamiyat muammosi falsafiy tahlil qilingan. U Platon va Aristotel asarlariga tayanib, jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyojlarni qondirish yotadi, degan nazariyani ilgari surgan. Tabiiy ehtiyoj kishilarni birlashishga, jamoaga uyushuviga, o'zaro yordamga olib kelgan. O'zaro yordam tufayli ehtiyojlar qondirilgan. Kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam jamiyatni keltirib chiqargan. Insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro bir-birlaridan tillari, urf-odatlarini, malakalari, xususiyatlari bilan farqlanadilar.

Forobiy jamiyatlarni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma'rifatli kishilar tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o'zaro

ko‘maklashuviga, bir-biriga yordam berishga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo‘lgani uchun ham o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.¹

Abu Ali Ibn Sino «Ishorat va tanbihot» asarida inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo‘libgina, o‘z ehtiyojlarini qondirishi mumkin»² deb hisoblaydi. U insonlarning jamiyatdagi o‘rniga ko‘ra 3 guruhga bo‘ladi:

a) davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishi bilan shug‘ullanuvchilar;

b) xom-ashyo va zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar;

v) davlatni qo‘riqlash, uni turli tashqi xujumlardan saqlashni ta‘minlaydigan xarbiylar.

Ibn Sino jamiyatning paydo bo‘lishi kishilarning birdamlikka bo‘lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanligini ko‘rsatgan.

Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo‘lib sivilizatsiyalarning paydo bo‘lishida tabiiy-geografik muhitning tutgan o‘rnini asoslashga uringan. U jamiyatni idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo‘lida o‘z tinchligini yo‘qotishidan iborat, deb bilgan.³

Alisher Navoiy o‘z asarlarida «ideal jamiyat» qiyofasini chizgan.

XIX asrning o‘rtalarida jamiyat, uning mohiyati, taraqqiyot istiqbollari o‘rganish hayotiy zarurat darajasiga ko‘tarildi. Ikkinchi mavzuda ta’kidlaganimizdek, aynan shu zaruriyat falsafa fanidan ijtimoiy falsafaning ajralib chiqishiga va maxsus falsafiy fan sifatida shakllanishiga sabab bo‘ldi.

G‘arbiy yevropaning G.Spenser (1820-1907), Dyurkgeym (1858-1917, Georg Vilgelm Gegel (1770-1831), M.Veber (1864-1920), singari olimlari, shuningdek K.Marks (1818-1883), Engels (1820-1895) lar jamiyat hayotini murakkab ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etdilar.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) jamiyat bir butun yaxlit olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o‘ziga xos ko‘rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli.

2) jamiyat bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimdir. Falsafa jamiyatni yaxlitlik sifatida olib o‘rganadi va shu asosda uning mavjudligi, taraqqiyot qonunlarini ochib beradi.

3) ijtimoiy falsafa jamiyatning barcha tomonlari orasidagi aloqadorliklar va taraqqiyotni tadqiq etadi.

¹ Қаранг.: Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан лавҳалар. – Т., «Ўзбекистон», 1995 йил, 49-бет.

² Ўша ерда 68 - бет

³ Жаҳон фалсафаси тарихидан мавхулар. I қисм. – Т., Ўзбекистон Файласуфлари Миллий жамияти нашриёти, 2004 йил, 122-бет.

4) Ijtimoiy falsafa jamiyat ham olam kabi uzluksiz harakatda, o'zgarishda, taraqqiyotida, deb biladi, unda kechadigan barcha voqeya-hodisalarni dinamik jarayon sifatida o'rganadi.

Iqtisodiy hayot sohasi jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni nazarda tutadi. U jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlarini yaratishdan iborat bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatning ijtimoiy hayoti deganda undagi mavjud turli birliklar, guruhlarning hayoti hamda, ular orasidagi turli-tuman ijtimoiy aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi.

Jamiyatning siyosiy hayoti sohasi odamlar, siyosiy kuchlar-sinflar, millatlarning o'zaro siyosiy munosabatlarini, ularning davlat hokimiyatini qo'lg'a kiritish va mustahkamlash borasidagi ong'li faoliyatlarini qamrab oladi.

Jamiyatning ma'naviy hayot sohasi ma'naviy boyliklar yaratishga qaratilgan faoliyat va uning natijalari: (xilma-xil qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, fan, adabiyot, san'at, ta'lim-tarbiya kabi) ni, ma'naviy munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyatlar ochiq jamiyat, yopiq jamiyat, axborotlashgan jamiyat, fuqarolik jamiyati kabi shakl va ko'rinishlarga ega.

Ochiq va yopiq jamiyat tushunchalarini ijtimoiy falsafaga ingliz olimi Karl Popper (1902-1994) kiritgan. U yopiq jamiyatni totalitar siyosiy tuzumning mahsuli sifatida ta'riflaydi. Ochiq jamiyatda fuqarolar shaxs hisoblanadi. Bunday jamiyatda muayyan qarorlarni qabul qilishda fuqarolar qatnashadilar. Karl Popper ochiq jamiyatni bozor iqtisodi (bozor erkinligi) bilan bog'laydi. Uning fikricha, dunyoda insonparvarlik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy tuzumni tashkil etish uchun insoniyat beshta muhim vazifani ado etishi zarur.

1. Erkinlikni mustahkamlash, undan kelib chiqadigan mas'uliyatni anglash;

2. Dunyoda tinchlik o'rnatish;

3. Qashshoqlikka qarshi kurash;

4. Demografik «portlash»ga qarshi kurash;

5. Zo'ravonlikka qarshi ta'lim-tarbiyani jadallashtirish.¹

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi amerikalik faylasuf, sotsiolog Olvin Toffler (1928 yilda tug'ilgan) tomonidan iste'molga kiritilgan, u postindustrial jamiyatni axborotlashgan jamiyat, deb ataydi.

Axborotlashgan jamiyat deganda informatsiya, ijodiyot va intellektual texnologiyaning ahamiyati ortib borgan jamiyat nazarda tutiladi. Bu jamiyat kompyuterlar, lazer texnikasi, biotexnologiya, gen injeneriyasi, informatika, elektronika, televideokommunikatsiya rivoji bilan bog'liq ravishda mavjud bo'la

¹ Фалсафа. Қомусий луғат.-Т., «Шарқ», 2004 йил, 331-332-бетлар

oladi. Bu jamiyatda asosiy e'tibor mashinalarni o'zgartirishga emas, balki kishilar ongi va madaniyatini o'zgartirishga qaratiladi.

Ijtimoiy falsafa fani doirasida ideal jamiyatga nisbatan «fuqarolik jamiyati» tushunchasi qo'llanadi. Garchi fuqarolik jamiyati tushunchasi iste'molga nisbatan keyin kiritilgan hisoblansa-da, aslida u haqidagi falsafiy fikrlar qadimiy davrlardan shakllangan. Aristotel «Siyosat» asarida fuqarolik jamiyati muammosiga diqqatini qaratgan va uni «polis» sifatida ifodalagan.

Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida fuqarolik jamiyatiga xos xususiyat – boshqaruvning jamoatchilik asoslari haqidagi g'oyalarni ilgari surgan.

Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Hayotga kirib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, madaniyati, hayotga va odamlarga bo'lgan munosabati maktabda shakllanadi. San'at, adabiyot, madaniyat, ilm-fan arboblarning mehnati jamiyatning yuksalishida alohida o'rin tutadi, shu boisdan ham ularning mehnati qadrlanadi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy sohalarini kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda vujudga keladi. Jamiyatning moddiy hayotiga:

- kishilarning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi;
- moddiy boyliklar, tabiiy zahiralari kiradi.

Jamiyatning moddiy hayoti kishilar uchun tirikchilik ne'matlari, vositalari yaratishga qaratilgandir. U kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Moddiy ishlab chiqarishda jismoniy mehnat kishisi asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri, bu sohada aqliy mehnat kishilari, (injener, agronom, zootexnik, rahbarlar va h.k.) ham faoliyat ko'rsatadi, biroq yetakchi mavqeyi jismoniy mehnat xodimlari egallaydilar. «Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish - bu sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir.»¹

Moddiy ishlab chiqarishsiz jamiyat hayotining normal tabiiy rivojlanishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo'rttirish, butun e'tiborni moddiy ishlab chiqarishga qaratish ham jamiyatni ma'naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т. «Ўзбекистон», 2000.-Б.31.

tajribasining ko'rsatishicha, hozirgi paytda tovar ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasi foydaliroq bo'lib qolyapti. D. Bell, 3. Bzejnskiy singari g'arb olimlari o'z tadqiqotlarida postindustrial jamiyatda moddiy ishlab chiqarishning ahamiyati tobora kamayib borishini ko'rsatyaptilar.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biridan farqlash ijtimoiy hayot mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradi. Aslida real hayotda ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Ilmiy iazariya va amaliyotda jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim deb hisoblash jamiyatning tabiiy-tarixiy rivojlanishini izdan chiqaradi.

Jamiyatning ma'naviy-intellektual taraqqiyoti uchun iqtisodiy zamin yaratish qanchalik muhim bo'lsa, moddiy farovonlikni ta'minlash uchun ma'naviy-intellektual salohiyatni kuchaytirish ham shunchalik muhimdir. Jamiyat hayotida moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish qanchalik muhim o'rin tutsa, uni boshqarish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning turli elementlari normal ishlashi, bir-biriga muvofiq faoliyat ko'rsatishi uchun uni boshqarish talab etiladi. Boshqarish davlatdan tortib korxonalar va oilagacha bo'lgan keng sohani qamrab oladi. Boshqarish bilan maxsus kishilar, siyosatchilar, rahbar xodimlar shug'ullanadilar. Boshqarish turli darajalarda amalga oshirilsa ham, boshqarish faoliyatining eng yuqori shakli siyosiy faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatni siyosiy boshqarishning xilma-xil shakllari mavjud bo'lib, har bir mamlakatning milliy mentaliteti, an'analariga mos ravishda siyosiy boshqarishning monarxiya, aristokratiya, respublika shakllari qo'llaniladi. Bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrlarida qadriyatlarni qaytadan baxolash, jamiyat hayotida davlat, oila, mehnat, mulk, siyosiy partiyalar, din, fan va boshqa ijtimoiy institutlar mohiyatini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bunda faqat mazmunga emas, balki shakl ham qayta quriladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi, mustabid tuzum mafkurasi va siyosatining inqirozga yuz o'girishi bilan «...davlatning mohiyati butunlay tubdan o'zgardi. Davlat dastlabki bosqichda jamiyatni yangilashning eng faol kuchiga aylangani holda islohotlarning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lib qoldi».¹

Inson ehtiyojlarining muttasil o'sib borish qonuniyati mavjud siyosiy sistema oldiga qator talablar qo'yadi. Mamlakatimizda uzoq yillar davomida xukm surib kelgan ma'muriy buyruqbozlikka asoslanuvchi siyosiy sistema o'zining tub mohiyati bilan shaxsning har tomonlama erkin rivojlanishiga imkon bermaganligi uchun ham muqarrar ravishda inqirozga yuz o'girdi. Iqtisodiy tanazzul siyosiy sistemaning yemirilishiga olib keldi. «Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda shu paytgacha misli kurilmagan siyosiy

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.:Ўзбекистон, 1997.-Б.158.

faollik sharoitida yuz beradi. bu hol tabiiydir. Shu paytga kelib karaxtlik holatidan halos bo'lgan jamiyat to'planib qolgan jami ijtimoiy ziddiyatlarni bir zumda yuzaga chiqaradi».¹

Jamiyatni boshqarish tizimi har bir xalqning milliy xususiyat, psixologiyasi, an'nalari. madaniy salohiyatiga mos ravishda vujudga keladi. Turli jamiyatlarda siyosiy boshqarish usullarining turlicha xarakteri ularning ilg'or yoki qoloq ekanligidan dalolat bermaydi. Siyosiy boshqarishning har bir usuli turli tarixiy sharoitlarda turlicha samara berishi mumkin. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgan sayin siyosiy boshqaruv usullari ham tobora insoniylashib boradi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi siyosiy boshqaruvning demokratik shakli ancha qulay va insonparvar ekanligini ko'rsatdi. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonning respublika deb e'lon qilinishi va mamlakat Konstitutsiyasining qabul qilinishi jamiyatimizni siyosiy boshqarish jahon hamjamiyatining ilg'or tajribalariga, xalqimizning ma'naviy salohiyatiga tayanishidan dalolat beradi.

Ochiq demokratik jamiyatda davlat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar tashabbuskori, jamiyat rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demokratik jamiyatda siyosiy boshqarish huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishni taqozo etadi. qonun ustuvorligi demokratik jamiyat va davlat hayotining muhim sharti hisoblanadi. Demokratik davlat jamiyatni boshqarishda konstitutsiya talablariga bo'ysunar ekan, u jamiyatni tanho boshqarish da'vosini qilmaydi. Balki jamiyatni boshqarishda turli diniy, ilmiy tashkilotlarga, jamoat tashkilotlariga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlariga keng vakolatlar beradi. Demokratik jamiyatda dinning davlatdan, maktabning diniy muassasalardan ajratilishi, kishilarga vijdon erkinligi huquqining berilishi progressiv hodisa, jamiyat erkin rivojlanishining muhim shartidir.

Odatda dunyoviy va diniy davlatlar bir-biridan farqlanadi. Dunyoviy davlatlar konstitutsiyaga, ilm-fan xulosalariga asoslanadi. Diniy yoki teokratik davlatlar diniy ta'limot va shariat hukmiga asoslanadi. Bunday davlatlar o'z fuqarolarining vijdon erkinligini ta'qiqalaydi; ta'lim-tarbiya asosan diniy ruhda olib boriladi.

Demokratik davlatda ta'lim-tarbiya muassasalari jamiyatni oqilona boshqarishga yaqindan yordam beradi; yosh avlodga puxta siyosiy va huquqiy bilim beradi, mavjud ahloqiy, huquqiy normalarni singdiradi, siyosiy ong va madaniyatni rivojlantiradi. «Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning asosiy yo'nalishidir»²

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, yetilgan muammolarni oqilona hal etish, mamlakat fuqarolarining siyosiy faolligini

¹ И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б.182.

² Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Т.: Ўзбекистон 2000.-Б.29.

oshirish-jamiyat siyosiy tizimini tashkil etuvchi barcha boshqaruv organlari va tashkilotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Jamiyat a'zolarini umumiy maqsad yo'lida yanada jipslashtirish, ijtimoiy-siyosiy faollikni kuchaytirishda milliy g'oya va milliy mafkura muhim rol o'ynaydi. g'oyaviy mushtaraklik jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh, qatlam va sinflarda birdamlik tuyg'usini kuchaytiradi, turli siyosiy harakat va partiyalar faoliyatini bunyodkorlik ishlariga yo'naltiradi.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berila boshlandi. «Tarix sabog'i shundayki, -deb yozadi I.A.Karimov, - uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashinayotganda ijtimoiy muammolar va zidsiyatlar g'oyat keskinlashadi, milliy xavfsizlikka, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi».¹

Mamlakatimizning milliy mustaqillik yillarida orttirgan tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta'minlashda ijtimoiy sohaga ko'proq e'tibor berishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. «Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi»²

Jamiyatning rivojlanishida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Kishilarning qobiliyatiga qarab mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida turli kasblar bilan shug'ullanadigan qator toifalar, guruhlar, qatlamlar va sinflar vujudga keladi. Ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rinni egallaydilar; jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo'shadilar.

Sotsial stratifikatsiya aholining ierarxik mavqeiga mos ravishda ijtimoiy qatlamlarga bo'linishidir. Ijtimoiy stratifikatsiya oliy va quyi qatlamlar mavjudligini, huquq va imtiyozlarning tengsizligini, mas'uliyat va burch tengsizligini e'tirof etadi. Ijtimoiystratifikatsiyaning konkret shakllari nihoyatda xilma-xildir.

Agar jamiyat a'zolarining iqtisodiy maqomi turlicha bo'lsa, mulkdor va mulksizlar mavjud bo'lsa, jamiyat qanday shaklda tashkil etilishidan qat'i nazar uning iqtisodiy tabaqalanishi murqarrardir. Agar biron bir guruh ichida mansab va obro'oiga, unvon va lavozimiga qarab turli ierarxik rang (daraja) mavjud bo'lsa, bu guruhning siyosiy differensiallashganligidan dalolat beradi. Agar jamiyat a'zolari o'z faoliyat turiga qarab turli guruhlariga bo'lingan bo'lsa, ayrim kasblar boshqalariga nisbatan qadrliroq bo'lsa, professional guruh a'zolari rahbarlar va itoat qiluvchilarga bo'lingan bo'lsa, bunday guruh professional

¹ И. А. Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б. 212.

² И. А. Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.-Т.: Ўзбекистон, 1997.-Б. 218.

differentiallashtirgandir. Ijtimoiystratifikatsiya iqtisodiy, siyosiy va professional shakllardan tashkil topadi. Barcha a'zolari har jihatdan teng bo'lgan ijtimoiy guruh, hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi. Ijtimoiy stratifikatsiya - har qanday uyushgan jamiyatning doimiy tavsifidir.

Har bir ijtimoiy struktura bo'sh joyda vujudga kelmaydi: balki ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy struktura negiziga yangilik kiritish orqali vujudga keladi. O'tmishda mavjud bo'lgan va bugungi kundagi mavjud ijtimoiy struktura o'rtasida tarixiy aloqadorlik mavjuddir. Ana shu bog'liqlik insoniyat jamiyati rivojlanishining yagona jarayon sifatida ro'y berishini taqozo etadi.

Tarix takrorlanmaydigan faktlarni o'rganadi. Shu boisdan ham fatalizm nazariyotchilarining voqeya, hodisalar, faktlarning albatta oldindan - belgilanganligi to'g'risidagi fikriga qo'shib bo'lmaydi. Insoniyat tarixiga faqat takrorlanmaydigan hodisalargina kiradi. Tarixiy davrlar individual hodisalarni namoyon etadi. Falsafada jamiyat taraqqiyotining mezoni nima, degan masalada turlicha qarash va nazariyalar vujudga keldi.

K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'ladi; barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirdi. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirdi va bu ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy revolyusiyani amalga oshirishni, miqdorlar sinfini tugatishni taklif etdi. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning biryoqlama va xato ekanligini ko'rsatdi. Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekanligi to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surildi. Bunday qarashga ko'ra jamiyat taraqqiyotini agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratildi. Adabiyotlarda jamiyat rivojlanishiga sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos tomonlarini saqlab qolgan holda boshqa xalqlarning tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

G'arbda ijtimoiy rivojlanishning siklli nazariyasi keng yoyilgan bo'lib, uning yirik vakillari O. Shpengler va A. Toynbi hisoblanadi. O. Shpengler o'zining «evropa quyoshining so'nishi» asarida jahon tarixini «ko'plab madaniyatlar fenomeni» sifatida tavsifladi. Har bir madaniyat bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladi, ularning har biri o'zining ma'naviy harakatlantiruvchi kuchiga, o'z qiyofasiga, o'z hayoti va o'limi tarixiga egadir. Shpenglarning fikricha, tarix progress nimaligini bilmaydi: ulardan har birining madaniyati betakror bo'lib, ularni bog'lab turadigan mezon yo'q.

Angliyalik sotsiolog A. Toynbi ham ana shu g'oyani davom ettirdi. Uning fikricha, butun insoniyat tarixi 21 sivilizatsiya tarixidan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan ichki bog'lanmagan. Har bir sivilizatsiya o'z rivojida: vujudga kelish, o'sish, sinish, parchalanish va halokat bosqichini kechiradi, so'ng o'rnini boshqa sivilizatsiyaga bo'shatib beradi. Toynbi barcha sivilizatsiyalardagi ijtimoiy jarayonlar bir-biriga o'xshash ekanligini ta'kidladi.

Sivilizatsiya rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi «ijodkor ozchilik bo‘lib, u inert ko‘pchilik» ni orqasidan yetaklashga qodirdir. «Ijodkor elita» asta-sekin ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish qobiliyatini yo‘qotgach, o‘z hokimiyatini avtoritet orqali emas, balki zo‘ravonlik bilan amalga oshira boshlaydi. Agar asosiy omma harbiy holat yoki tabiiy ofatdan qirilib ketmasa, bu sivilizatsiyani yemiradi. A.Toynbi hozirgi paytda besh sivilizatsiya (xitoy, hind, ispan, rus va g‘arb) saqlanib qoldi, degan xulosaga keldi. Har bir yangi sivilizatsiyaning vujudga kelishi, Toynbi fikricha, dinning yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir.

P.A.Sorokin jamiyat tarixini madaniy va ijtimoiy tizimlarning almashinuvi sifatida izohladi. Tarixiy jarayon madaniyatning uch tipi (xissiy, ratsional, intiutiv) almashinuidan iboratdir.

Har bir inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo‘lgani kabi jamiyat ham o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarini ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik nisbiy sokinlik, ijtimoiy tizimning normal faoliyat ko‘rsatish imkoniyatidir. U turg‘unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg‘unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy sistemaning tanazzuli alomatidir. Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashinib turishi ham mumkin. Jamiyat ma‘naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarda muayyan yutuqlarga erishib, ijtimoiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarib bo‘lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo‘lida yangi muammolar tug‘iladi. Ularni hal etish vazifasi paydo bo‘ladi. Jamiyat a‘zolarining ma‘naviy salohiyati, milliy psixologiyasiga mos ravishda mavjud siyosiy sistema kishilarni boshqarishning o‘ziga xos usullarini hayotga tatbiq etadi. Insoniyat jamiyati tarixida jamiyat barqarorligini ta‘minlashning monarxik, aristokratik, totalitar va demokratik usullar amal qilib kelgan.

Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o‘zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yuqolishida, g‘oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo‘lishida, ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishida, davlat organlarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli konfliktlarning keskinlashuvida o‘z ifodasini topadi.

Beqarorlik ichki va tashqi tahdidlar tufayli vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tizimdan yangi bir ijtimoiy-siyosiy tizimga o‘tish davrida keskinlashishi mumkin. I.A.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida...» asarida bozor munosabatlariga o‘tish davrida ommaviy noroziliklar, hatto fuqarolar urushi vujudga kelishi mumkinligini, jamiyat barqarorligini ta‘minlash uchun yetilgan muammolarni oqilona hal etish zarurligini ko‘rsatdi. Jahon tajribasi har bir mamlakat xalqlarining o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash huquqiga ega bo‘lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash garovi ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin

o'z milliy-davlatchilik asoslarini yaratish, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini belgilash. rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli-jamiyatning tadrijiy rivojlanishi konsepsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli butun insoniyatning ilg'or tajribasiga, xalqimizning milliy xususiyatlari va mentalitetiga tayanadi.

Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanligini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti normal-tabiiy rivojlanish yo'li ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashsiz evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish-tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir»¹. «Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inkilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»²

O'zbek modelining asosiy tamoyillari:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy siyosat;
- bozor munosabatlarga bosqichma-bosqich o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari milliy davlatchilik asoslarining barpo etilishida, milliy qadriyatlarning tiklanishida, milliy o'zlikning anglanishida, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan ustuvorligining e'tirof etilishida, milliy mentalitet xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishida, milliy g'oya va milliy mafkura ijtimoiy-siyosiy faollikning muhim omili ekanligining e'tirof qilinishida, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishida, o'z imkoniyatlariga tayanishida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishida, xorijiy mamlakatlar bilan turli sohalaridagi munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi prinsiplari ishlab chiqilishida o'z ifodasini topdi. «Biz tanlab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'alariga, odatlariga, madaniyati va tiliga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalarni yangi mafkuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iborat edi».

O'zbek modelining hayotiyliigi jahon jamoatchiligi, yetuk fan, siyosat, san'at arboblari tomonidan e'tirof qilindi.

O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishni bir-biri bilan uzviy

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида -Т.:, 1997.-Б.184.

² И.А.Каримов Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва таракқиёт йўли. –Т.:, «Ўзбекистон», 1992. –Б.10-41-46.

bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlari rivojlanishida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish usullari milliy g'oya va mafkurada o'z ifodasini topadi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, xususiy mulkchilikni qo'llab-quvvatlash, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, chet mamlakatlar bilan ilmiy, madaniy va texnikaviy hamkorlikning milliy manfaatlar yo'lida xizmat qilishi milliy g'oya va mafkuraning mohiyatidan kelib chiqadi. Milliy mafkura o'zida jamiyat a'zolarining ezgu orzu-umidlarini, maqsadlarini ifodalaydi; ularning mehnat faolligi, ijtimoiy-siyosiy aktivligini oshiradi, jamiyatni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Davlat-jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalarini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'analarning tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy taraqqiyot konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy davlat, yangi demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir.

«Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo'lib kelayotgan xilma-xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir».¹

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarga ajratish mumkin. Bu tashkilotlarga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba

¹ И.А.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...» Т.,1997. 159-бет.

uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyati - kishilarning yuksak ahloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarish, jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

«Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga... yordam beradi. Shaxs manfaatlarini, uning huquq va erkynliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi».¹

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarni barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati. ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kengaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yoga chiqarish maktabidir.

Sharqda fuqarolik jamiyatining tub negizlari asta-sekinlik bilan shakllangan va taraqqiy etgan. Sharq donishmandlari ijtimoiy jarayonlarga har qanday sun'iy aralashuvning mudhish oqibatlarini ko'rsatganlar. Shuning uchun ham jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlar xalqlarning fikrlash tarzi, milliy an'analari, urf-odatlariga muvofiq ravishda tadrijiy ravishda ro'y bergan. Ijtimoiy adolat, tartib-intizom, aholi tinch-totuvligini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan; hurfikrlilik, boshqa dinlarga nisbatan sabr-toqatlilik mavjud bo'lgan. Davlat fuqarolarning shaxsiy va oilaviy hayotiga deyarli aralashmagan.

Savdo-sotiq, hunarmandchilik, odob-axloq, milliy an'analar asosida rivojlangan. Davlat dehqonchilik ishlab chiqarishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan sun'iy sug'orish inshootlari qurishga bevosita rahnamolik qilgan. Sharqda odamlar asrlar davomida jamoa bo'lib yashagan va mehnat qilgan,

¹ И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т., 1997.-Б.173.

jamoatchilik asoslari xalq ongiga chuqur singib ketgan.¹ Fuqarolik jamiyatida davlatning ayrim muhim vazifalari saqlanib qoladi, u jamiyat bilan yonma-yon yashashda davom etadi.

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida ma'naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga' salmoqli hissa qo'shadi. Shunday yetuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Tayanch tushunchalar

Jamiyat. Fuqarolik jamiyati. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Jamiyatning siyosiy hayoti. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Axborotlashgan jamiyat. Ochiq jamiyat. Yopiq jamiyat.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatning mohiyatini qanday tushunasiz?
2. «Jamiyat – yaxlit tizim» fikrining ma'nosini sharhlang.
3. Jamiyat hayotining asosiy sohalari qaysilar?
4. Jamiyatning iqtisodiy hayotiga nimalar kiradi?
5. Jamiyatning ma'naviy hayoti tarkibiga nimalar kiradi?
6. «Ochiq jamiyat» qanday jamiyat?
7. «Yopiq jamiyat» deganda qanday jamiyatni tushunasiz.?
8. Fuqarolik jamiyati qanday jamiyat?

Adabiyotlar

1. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 170-188-bet.

1. Islom Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishining asosiy yo'nalishlari. – T., «O'zbekiston» 2002 yil.

1. Islom Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T., «O'zbekiston», 2005 yil.

1. Tulenov J. Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil, 3 – 9 betlar.

1. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq», 1999 yil, 247-255 betlar.

1. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NMIU, 2005 yil, 281-286 betlar.

1. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 62-82 betlar.

¹ И.А.Каримов, Ўзбекистон-бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли.-Т.: Ўзбекистон, 1993.- Б.106.

1. Musaev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. -T.: O‘zbekiston, 2007. -272 b.
1. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). -T.: Faylasuflar milliy jamiyati, 2004.-222 b.
1. Nizomulmulk. Siyosatnoma. -T.: Adolat,1997.-98 b.
1. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. -T.: O‘zbekiston, 1997.-228 b.
1. Falsafa asoslari. Nazarov Q. tahriri astida. -T.: Sharq, 2005.-249 b.
1. Falsafa qomusiy lug‘at. Nazarov Q. tahriri astida. -T.: Sharq, 2004.-496 b.
1. Fitrat Abdurauf. Rahbari najot. -T.: Sharq, 2001-176 b.
1. Forobiy Abu Nasr Fozil odamlar shahri. -T.: Navruz, 1993.-260 b.

5–TABIAT VA JAMIYAT (2 S.)

1. Tabiat tushunchasining falsafiy tahlili.
2. Falsafa tarixida tabiatga munosabat.
3. Insoniyat tarixining ilk bosqichida tabiatga munosabat.
4. O‘rta asrlar va Yangi davrda tabiat muammosi.
5. XX asrda ekologik tanglik

Tabiat tushunchasining falsafiy tahlili. «Tabiat» tushunchasi eng muhim va keng qo‘llaniladigan falsafiy kategoriyalardan biridir. Bu atama bir necha talqinga ega bo‘lib, falsafada ko‘pincha u keng, tor va maxsus ma'noda ishlatiladi. Mazkur ma'nolarning har biri, o‘ziga xos xususiyatga ega.

Tabiat tushunchasining keng ma'nosi borliqni, butun dunyoni barcha rang-barang shakllari bilan jamuljam holda aks ettiradi. Bu ma'noda «tabiat» atamasi borliqqa nisbatan tatbiq etiladi va «materiya» kategoriyasidan ham kengroq falsafiy kategoriya sifatida amal qiladi, zero u moddiy va ma'naviy asoslarning birligidan iborat muayyan yaxlitlik sifatidagi insoniyatni ham o‘z ichiga olgan Koinotning butun moddiy-energetik va axborot dunyosini qamrab oladi. Ayni shu ma'noda «tabiat» tushunchasi falsafaning borliq muammolari o‘rganiladigan sohasi, ya'ni ontologiyada keng qo‘llaniladi. Mazkur atama ko‘rsatilgan ma'noda falsafada ko‘proq XIX asrgacha ishlatilgan.

Tabiat tushunchasining tor ma'nosi XIX asrda hayotning paydo bo‘lishi va yerdagi evolyusiya jarayonlari muammolarini tushunishga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga kelishi, shuningdek Inson dunyoda o‘z o‘rnini anglab yetishi bilan shakllana boshladi. Shu ma'noda «*tabiat*» atamasi muayyan hajmgacha torayib, *ob'ektiv borliqning biosfera (J.Lamark 1802 yilda biosfera atamasini muomalaga kiritgan), ya'ni «hayot sohasi» deb nomlagan qisminigina anglata boshladi.* **Biosfera jonsiz tabiatning avvalgi rivojlanish mahsuli bo‘lib, yerning hayot kechayotgan nozik qatlamini tashkil etadi.** U atmosfera, gidrosfera va litosferaning yuqori qismini qamrab oladi.

Biosferada inson alohida o‘rin egallaydi. U jonli tabiatning tabiiy qismi bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan unga qarshilik ko‘rsatuvchi faol asosga aylandi. Bu faktni u ekologiya muammolari yig‘ilishiga qarab anglay boshladi. Mazkur muammolar keskinlashgani sari inson o‘zining o‘zgargan holati haqida yanada teranroq mulohaza yuritib, tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqasi masalasini ilmiy, falsafiy va amaliy nuqtai nazardan yechishga harakat qila boshladi.

Shu ma'noda, tabiat insonni qurshagan muhitni, ya'ni borliqning biosferadan biologik tur sifatida o‘rin olgan insonning mavjudlik sharoitlari majmui sifatida amal qiladigan qismini anglata boshladi.

Shunday qilib, tabiatni o‘rganishga nisbatan odatdagi yondashuvlar «biosfera va inson» murakkab sistemasining tahlili va uni falsafiy anglab yetish hisobiga sezilarli darajada kengaydi, «tabiat» atamasi yangicha, yanada teranroq mazmun kasb etdi. Bu avvalo jamiyatning atrof muhit bilan o‘zaro

munosabatlari, xususan iqtisodiyot, ijtimoiy hayot sohasidagi faol fundamental tadqiqotlar mahsuli bo'ldi. Shu sababli «tabiat» atamasining mazkur ma'nosi ijtimoiy falsafada ayniqsa ko'p ishlatiladi va odamlar yashaydigan tabiiy muhitni ham, inson qo'llari bilan yaratilgan (o'zgartirilgan) sun'iy muhitni ham qamrab oladi. Boshqacha aytganda, ayni holda o'zaro bog'liqlik va birlikda inson yashaydigan makonni tashkil etadigan «birlamchi» va «ikkilamli» tabiat nazarda tutiladi.

«Tabiat» tushunchasining maxsus talqinida e'tibor muhokama predmetining ildizlari, fundamental asoslarini yoritishga qaratiladi. Mazkur kontekstda, masalan, inson, u yoki bu ijtimoiy hodisa, elementar zarra yoki, aytaylik, sharsimon chaqmoqning tabiati qanday, degan savol mutlaqo o'rinli yangraydi. Falsafada ko'pincha u yoki bu predmet, jism, mavjudot va shu kabilarning mohiyati, asosiy mazmunini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Fanda ham ba'zan muayyan hodisa, voqyeaning xususiyati va yuz berish sabablarini aniqlash talab etiladi. Ayni holda mazkur ob'ekt yoki hodisaning tabiati haqida shu ma'noda so'z yuritiladiki, uning mohiyati, shuningdek qolgan ob'ektiv borliq - so'zning keng ma'nosidagi tabiat bilan aloqasi aniqlanadi.

«Tabiat» tushunchasining yuqorida zikr etilgan uchala ma'nosi ham hozirgi falsafiy va ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladi, ammo uning ikkinchi biosfera, atrof muhit bilan tenglashtiriladigan ma'nosi so'nggi vaqtda ekologiya muammolariga e'tibor sezilarli darajada kuchaygani munosabati bilan ayniqsa keng tarqaldi. Ayni shu sababli hozirgi vaqtda «ekologiya», «atrof muhit» kabi tushunchalar ham faol ishlatilmoqdaki, bu haqda quyida batafsilroq so'z yuritamiz. Xullas, tabiatni falsafiy tushunishga bag'ishlangan mazkur bo'limda biz «tabiat» kategoriyasidan asosan uning ikkinchi, tor ma'nosidan foydalanamiz, chunki u keng ma'noda ontologiyada yoritib berilgan

Falsafa tarixida tabiatga munosabat. Butun tarix mobaynida odamlar o'zlarining atrof muhitga ta'sir ko'rsatish qobiliyatlarini tinimsiz rivojlantirdilar va takomillashtirdilar. Shu tariqa jamiyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlari ham o'zgarib bordi. Bugungi kunda tarix, arxeologiya, geografiya, etnografiya sohasida va boshqa fanlarda mavjud ilmiy ma'lumotlar tabiatga antropogen ta'sir insoniyatning son va sifat jihatidan o'sishiga mutanosib ravishda tinimsiz kuchayib borgan va pirovard natijada ijtimoiy rivojlanishning asosiy bosqichlarini aks ettirganini tasdiqlaydi. Bu bosqichlarning har biriga atrof muhit bilan inson munosabatlarining o'ziga xos shakllari va uning ongida tabiatning har xil in'ikosi xosdir. Jumladan «Avesto» kitobida suvga tupurish gunohligi, olov ilohiy mo'jiza ekanligi, qabristonlarga, yo'l bo'yiga mevali daraxtlarni o'tqazish mumkin emasligi haqidagi g'oyalarning ilgari surilishi tabiat qadimgi davrlarda ham buyuk ne'mat sifatida e'tirof etilganligidan dalolatdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, tabiat va jamiyat o'zaro aloqasining u yoki bu bosqichlarini ajratish nafaqat ishning ob'ektiv tomoniga, ya'ni ko'rsatilgan o'zaro aloqalarni tavsiflovchi tabiiy o'zgarishlarga, balki bunday ajratish

natijasida qanday maqsadlar koʻzlanishiga ham bogʻliq boʻladi. Ayni holda bizni insonning atrof muhitga taʼsiri xususiyati va uning tabiatga bogʻliqligi masalalari koʻproq qiziqtiradi. Bundan maqsad qanday qilib inson oʻzining avvalgi tabiatga toʻla qaramlik holatidan fan va texnikani faol rivojlantirib, ularning yordamida tabiatni oʻziga boʻysundirib, uni xizmatkoriga aylantirishga harakat qilib, pirovardida keskin ekologik muammolarni yuzaga keltirganini koʻrsatib berishdir.

Insoniyat tarixining ilk bosqichida tabiatga munosabat. yer, okeanlar, qitʼalar oʻrni va ularda yashovchi xalqlar haqidagi dastlabki tasavvurlar odamlarda atigi 300-400 yil muqaddam, Buyuk kashfiyotlar davri yakunlanganidan soʻng paydo boʻldi. Bungacha odamlar bir necha ming yillar mobaynida uncha katta boʻlmagan hududlarda yashadilar.

Ibtidoiy odam termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shugʻullanib, oʻzining odatdagi ehtiyojlarini tayyor mahsulotlarni oʻzlashtirish bilan qondirgan, yaʼni tabiat bergan neʼmatlar bilan kifoyalangan. Bu neʼmatlar uning atrofida oʻsayotgan, chopayotgan, oʻrmlayotgan, uchayotgan, suzayotgan va ovqatlanish uchun yaraydigan narsalardan iborat boʻlgan. Oʻsha davrda inson tabiatga toʻla singib ketgan va unga butunlay qaram edi. U tabiatdan ajralmagan va oʻzini unga qarshi qoʻymagan. Ayni shu sababli, oʻsha davrda faqat oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi va yashab qolishni taʼminlovchi tabiiy sharoitlar bilan belgilangan oʻzining oz sonliligi tufayli ibtidoiy odam atrof muhitga sezilarli darajada zarar yetkazishga qodir emas edi.

Termachilikdan insonga uning kundalik hayotida zarur boʻlgan narsalarni ishlab chiqarishga oʻtilishiga qarab, u tabiat resurslarini oʻz xoʻjalik muomalasiga tobora koʻproq jalb qila boshladi. Shu tariqa inson oʻzi yashayotgan muhitni sezilarli darajada oʻzgartirdi. Xususan, chorvachilikning rivojlanishi bilan yaylovlardan yovvoyi hayvonlar siqib chiqarildi. Oʻzlarining odatdagi yashash joylaridan mahrum boʻlgan bu hayvonlar soni kamaydi, ayrim turlar esa butunlay qirilib ketdi.

Insonning dehqonchilik bilan shugʻullanishga oʻtishi tabiatda bundan ham kuchliroq oʻzgarishlar yasadi. Odamzot ekin maydonlariga joy ochish maqsadida oʻrmonlarga oʻt qoʻyib, ulardagi daraxtlarni ildizi bilan qoʻpora boshladi. Odamlar yashaydigan joylarda landshaftlar xususiyati oʻrmonlar kamayishi, tuproq nurashi va shu kabilar natijasida butunlay oʻzgardi.

Keyinchalik ariqlar va sugʻorish sistemalari qurilib, yer osti boyliklari izchil qazib olina boshlagach, tabiatdan foydalanish darajasi kengaydi. Temir paydo boʻlishi bilan insonning texnik imkoniyatlari keskin ortdi, mehnat qurollari takomillashtirildi, yanada murakkabroq muhandislik va sugʻorish inshootlari paydo boʻldi. Inson tabiatni asta-sekin tashqi va oʻziga qarshi kuch sifatida idrok etib, tabiat bilan ayniy mavjudotdan undan farq qiladigan mavjudotga aylanib bordi.

Toshqinlar, yongʻinlar, qurgʻoqchiliklar, sovuqgarchiliklar, boʻronlar va zilzilalar insonning yashovchanlik qobiliyatini sinovdan oʻtkazdi, uni shafqatsiz

stixiyaga qarshilik ko'rsatish usullarini izlashga majbur qildi. Xavfdan saqlanish va o'zini himoya qilish imkoniyatlarining ozligi insonda qo'rquv va ishonchsizlik, qudratli tabiatga butunlay qaramlik tuyg'ularini uyg'otdi. Bunday kayfiyat insonni ming yilliklar mobaynida ta'qib qildi va qadimgi xalqlarning turli miflari va afsonalarida, shuningdek ularning dastlabki diniy tasavvurlarida o'zining yorqin ifodasini topdi. Xususan, so'nggi zikr etilgan tasavvurlarda Quyosh, Oy va ayrim predmetlar alohida o'rin egalladi, ularga sig'inish talab etildi. Chaqmoq, yashin, bo'ron kabi tabiiy hodisalar inson tabiatga ehtiromsiz munosabatda bo'lgani uchun unga yuborilgan yot kuchlar sifatida yoki xudolarga itoat etmaganlik uchun jazo sifatida talqin qilindi.

Antik davrda tabiatga munosabat. Tabiatga nisbatan bunday munosabat asosan mil. av. I ming yillikning o'rtalariga kelib shakllandi va nazariy tafakkur paydo bo'lishi bilan sezilarli darajada o'zgardi. Bu tafakkur o'sha davrda dunyoqarashning alohida tarixiy shakli sifatida vujudga kelgan falsafaning uzviy va tarkibiy qismiga aylandi. Ilk antik faylasuflar, falsafaning bosh vazifasi ular kosmos sifatida tushungan dunyo nimadan iborat, degan savolga javob topish uchun tabiatni o'rganishga harakat qilganlar.

Antik davrda tabiat insondan deyarli hamma narsada ustun bo'lgan qudratli kuch bo'lib qolishda davom etsa-da, lekin uni odamzot nazariy anglab yetishi natijasida tabiat muayyan qimmat kasb etdi va ko'p jihatdan uyg'unlik va barkamollik ideali sifatida idrok etila boshladi. Antik faylasuflarning ko'pgina asarlari tabiatga hurmat ko'rsatish g'oyasi bilan sug'orilgan bo'lib, tabiat bilan murosai madora qilish va uning qonunlariga muvofiq yashashga chaqiradi, ayni shunday hayotni eng munosib va maqbul deb e'tirof etadi.

Kadimgi Markaziy Osiyo zardushtiylik ta'limotida ham tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, atrof muhitning ekologik tozaliliga rioya qilish g'oyasi yotadi. (Masalan suvni ifloslantirmaslik, ariqdan o'zayotgan suvni is'temol qilmaslik, yo'l bo'yi va qabristonga mevali daraxt ekmaslik.)

Umuman olganda, shunga o'xshash tasavvurlarga qadimgi hind va qadimgi xitoy falsafasi namoyandalarining asarlarida ham duch kelish mumkin. Ular tabiatning umumiy qonunlarini bilishga harakat qilish, ularga qarshilik ko'rsatmaslik va unga bo'ysunish lozim, zero inson ularni o'zgartirishga qodir emas, deb hisoblaganlar.

O'rta asrlar va Uyg'onish davrida tabiat muammosi. Keyinchalik, xristian va islom dini dunyoqarashida, tabiat bilan birikishni nazarda tutuvchi bu yondashuv o'rnini tabiatga bo'lgan o'zgacha munosabat egalladi. Natijada, tabiat yaratilgan va shu bois o'tkinchi va o'zgaruvchan deb talqin qilindi. Shu tariqa o'lmas jonga ega Xudo o'tkinchi tabiatdan ustun qo'yiladi. Bunday ustun qo'yish natijasida odamlarning tabiiy kuchlar stixiyasiga qaramligi kamaymasa ham materiya va ruh nisbati ko'proq ma'naviy inson va ruhsiz tabiiy olam tuzilishining turli pog'onalaridan o'rin oldi. Diniy aqidalar boqiy, ma'naviy asos – Xudo oliy darajada ruh foydasiga hal qilinadi. Bu hol ilohiy aqidalar falsafiy

ta'limotlardan ustun qo'yilgan va aksariyat odamlar dunyoqarashining negizini tashkil etgan o'rta asrlar falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi.

Antik davrning ko'pgina qadriyatlari va ideallari tiklangan Uyg'onish davri san'at, estetika va go'zallikka kuchli qiziqish bilan tavsiflanadi. Bu davrda tabiatga go'zallik va ilhom manbai deb qarashga asoslangan yangicha munosabat yuzaga keldi. O'z-o'zidan ravshanki, mazkur mo'ljal real borliqni faol o'rganish va uni yanada teranroq tushunib yetishga rag'batlantirgan.

Bu davrda N.Kopernik, G.Galiley, N.Kuzanskiy, J.Bruno va boshqa mutafakkirlar rivojlantirgan kosmologik va naturfalsafiy, A.Jomiy, A.Navoiy ilgari surgan gumanistik g'oyalar tabiatga bo'lgan yangicha munosabat bilan bevosita bog'liq va ma'lum darajada shu munosabatlardan kelib chiqadi.

Yangi davrda tabiatga munosabat (avvalo ilmiy nuqtai nazardan) yanada faolroq o'rganila boshlandi. Shu davrdan e'tiboran u nafaqat nazariy yoki estetik ilhom manbai sifatida, balki amaliy faoliyat jabhasi sifatida ham qaraldi. Insonga tabiatning stixiyali kuchlarini jilovlash va o'ziga bo'ysundirish imkonini beruvchi tabiiy qonunlar aniqlandi. Tabiatning inert jarayonlari inson aqlining mutlaq hukmiga bo'ysunishi mumkin va lozim deb hisoblandi. Buning uchun faqat ularni bilish, sinovdan o'tkazish lozim.

Tabiatni o'zlashtirish, uning stixiyasini tabiiy qonunlarni anglab yetish yo'li bilan jilovlashga intilish o'sha davrdan boshlab XX asrning o'rtalarigacha tinimsiz kuchayib bordi. Bunga fanning rivojlanishida erishilgan muvaffaqiyatlar, insonda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yanada kuchaytirgan texnika yutuqlari ko'p jihatdan ko'maklashdi. Tabiiy qonunlarni bilish va ulardan foydalana olish insonga tabiatning qudratli kuchlariga qarshilik ko'rsatishga amalda yordam berdi.

Fan-texnika taraqqiyoti yuksalishiga qarab inson o'zining tabiatdan cheksiz darajada ustunligiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib bordi.

yevropada yuz bergan burjua inqiloblari tabiatni ekstensiv o'zlashtirishga qattiq turtki berdi. Bu, xususan, xo'jalik muomalasiga jalb qilinayotgan tabiiy resurslar hajmi va turlarining ko'payishida o'z aksini topdi. Bunga o'sha davrda iqtisodiy faoliyat miqyosi xom ashyo bazasi, ya'ni qurilish materiallari va foydali qazilmalar mavjudligi bilan deyarli cheklanmagani ham imkoniyat yaratdi. Energetika resurslari ham cheksiz bo'lib, ular har qanday mamlakatning o'sib borayotgan ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli edi. Agar ular bir joyda kamaysa yoki tugasa, boshqa mintaqalarga murojaat etishning o'zi kifoya edi. Gap faqat u yoki bu konlardan foydalanishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligida edi. Shunday qilib, o'sha davr sharoitida odamlar iqtisodiy faoliyatining miqyosi va sur'atlari amalda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi va tabiiy boyliklarni olish imkoniyati bilangina belgilanar edi.

Yangi va yangi zavodlarning mo'rilaridan chiqayotgan quyuq tutun, ko'payib borayotgan konlar va terrikonlar (konlar yaqiniga to'kilgan bo'sh jins uyumlari) hatto XX asrning birinchi yarmidayoq oddiy ong darajasida taraqqiyot

ramzlari sifatida idrok etilar va insonning iqtisodiy yutuqlari va qudratidan dalolat berardi. Ayrim olimlar, oʻtkir zehni mutafakkirlargina insonning oʻsib borayotgan ekspansiyasi, boshqarilmaydigan texnika taraqqiyoti zamirida insonni qurshagan muhit, binobarin, uning oʻzi uchun ham qanday xavf yashirinib yotgani haqida kuyinib gapirdilar.

Xususan, tabiiy huquq konsepsiyasi muallifi J.J.Russo qonunchilik kishilik jamiyatining tabiiy qonunlaridan kelib chiqishi lozim, deb hisoblaydi. U fan va sivilizatsiyani axloqning yaxshilanishiga koʻmaklashmagani uchun tanqid tigʻi ostiga oladi va «tabiatga qaytish»ga chaqiradi. Bunga uning mashhur vatandoshi va texnika taraqqiyoti tarafdori Volter kinoya bilan shunday deb javob beradi: «Russoning gaplarini eshitsam, oʻrmonga qarab emaklab chopgim keladi»¹. Fan-texnika taraqqiyoti tarafdorlari va muxoliflari oʻrtasida XVIII asrda boshlangan bu munozara hozirgacha toʻxtagani yoʻq va bir tomondan, inson fan va texnika sohasida qoʻlga kiritgan, uning hayot sharoitlarini, hеч shubhasiz, yaxshilagan va tabiatning stixiyali kuchlariga qarshilik koʻrsatish imkoniyatlarini oshirgan real yutuqlaridan, boshqa tomondan esa – fan-texnika taraqqiyoti yuzaga keltirayotgan va odamlar hayotining nozik negizlariga putur yetkazayotgan yangi va yangi muammolardan bahra olmoqda.

Hozirgi davrda Oʻzbekistonda tabiatni muhofaza qilish davlat tashkilotlari: Oʻzbekiston respublikasi Tabiatni muhofaza qilish Davlat qoʻmitasi, respublika epidemiologiya sanitariya xizmati, Davlat oʻrmonchilik qoʻmitasi tasarrufidagi qoʻriqxonalar, Oʻzgidrometirologiya markazi kabilar faoliyat koʻrsatmoqda. Shuningdek barcha viloyatlar, tuman hokimiyatlarida tabiatni muhofaza qilish boʻlimlari tashkil qilingan. Ular ishlab chiqarish korxonalarini ekologik pastportlashtirish, ishlab chiqarishning tabiatga texnologik taʼsirini nazorat qilish kabi vazifalarni bajarmoqda.

Oʻzbekistonda ekologik vaziyatning hozirgi holati oʻrganish va istiqbolini rejalashtirish boʻyicha Respublika Fanlar Akademiyasining yetakchi olimlari, mutaxassislari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, tabiiy muhit ifloslanishining ijtimoiy-iqtisodiy, oqibatlarini, ularni bartaraf etish yoʻllari haqida S.Mamashokirov, Yu.Shodimetov, E.Xoshimova, A.Hukumovlar shugʻullanib kelmoqdalar. Xususan S.Mamashokirov va Usmonov E “Tabiat boyliklari insoniyat qadriyatlarining moddiy asosi sifatida, kelajak avlodlar uchun saqlanib qolinmogʻi kerak. Chunki keyingi avlodlarning ekologik faolligi va masʼuliyati bizning shu ijtimoiy hodisalarni qay darajada tashkil qilganimizga, oʻzlashtirganimizga bogʻliq”² deb taʼkidlaydilar.

Shuningdek Oʻzbekistonda tashkil etilgan xalqaro “EKOSAN” jamgʻarmasi faoliyati, keskinlashib borayotgan ekologik inqirozlarni bartaraf etish, inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, ilmiy texnika inqilobining antieologik oqibatlarini oldini olish, bozor munosabatlariga oʻtish davridagi

¹ Вольтер // Всемирная энциклопедия. - М.: Современный литератор, 2001. - С. 178

² Мамашохиров С. Усманов Э. Барқарор таракқиётнинг экологик хавфсизлик масалалари. - Т.: Маънавият, 2009. - Б. 112.

iqtisodiy tanglik vaziyatida O'zbekiston aholisini ijtimoiy muhofazalashga yo'naltirilgan davlat dasturining amaliyotga tadbirida faol ishtirok qilish bilan bog'liq.

XX asrda ekologik tanglik. So'nggi yuz yil ichida odamlarning tabiat bilan o'zaro munosabatlarida hayratomuz o'zgarishlar yuz berdi. Bir tomondan, miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro aloqadorligi qonuni amal qilib, inson faoliyatining asrlar mobaynida zimdan yig'ilib kelgan salbiy oqibatlari jamuljam holda yangicha sifat kasb etdi. Bu ilgari yashovchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan ko'pgina hududlar yaydoq sahroga aylanishida, atmosfera, suv havzalari va shu kabilarning halokatga eltadigan tarzda ifloslanishida namoyon bo'ldi. Xususan, hozirgi vaqtda butun quruqlik yuzasining 40% dan ko'prog'ini sahrolar egallagan. Stratosferaning ozon pardasidagi teshiklar, oqava suvlar tashlanadigan «ariqlar»ga aylanib qolgan kichik va katta daryolar ham bir lahzada paydo bo'lgani yo'q.

Ayni vaqtda, sayyora tobora ko'payib borayotgan odamlarga haddan tashqari tor, «kichkina» bo'lib qoldi. Bugungi kunda quruqlik, suv yoki fazoning inson ta'siridan xoli bo'lgan bironta ham qismi qolgani yo'q. *Tabiatga salbiy antropogen ta'sir darajasi ortida tabiiy muhit tanazzuli orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadigan chegaraga yetmoqda.* Bunday holat *ekologik tanglik* sifatida tavsiflanadi. Uning mohiyati shundan iboratki, tabiiy sistemalar haddan tashqari zo'riqishi, atrof muhit (suv, havo, tuproq) ifloslanishining muayyan me'yorlari misli ko'rilmagan darajada buzilishi natijasida tabiiy jarayonlarda muvozanatning buzilishi yuz beradi. Pirovardida ekologik tizimlar doirasida o'zaro aloqalar va «jamiyat-tabiat» sistemasining ko'pgina parametrlari izdan chiqadi.

Tabiat antropogen zo'riqishlarni faqat ma'lum me'yor darajasida bartaraf etishga qodir ekanligini odamlar so'nggi vaqtdagina anglay boshladilar. Bu me'yorning buzilishi biosferada ko'pincha orqaga qaytarib bo'lmaydigan sifat o'zgarishlari yuz berishiga sabab bo'ladi. Shamol ko'targan yoki vulqonlar itqitgan chang, o'rmon yong'inlaridan yoki yer yuzasiga neftning tabiiy chiqishidan hosil bo'lgan tutun tarzidagi tabiiy ifloslanishni tabiat o'zi osongina bartaraf etadi. Ammo inson atrof muhitga uning bunday ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish tabiiy imkoniyatlaridan bir necha baravar ortiq bo'lgan qo'shimcha zo'riqishlarni yaratdi. U yer yuzasi, atmosfera va suv havzalariga tabiiy chiqindilar tarkibidagidan ko'proq miqdorda kimyoviy elementlarni tobora o'sib borayotgan sur'atlarda tashlamoqda; shuningdek, ularga tabiat inson yordamisiz absorbatsiya qilish (utillashtirish)ga qodir bo'lmagan plastmassa, keramika, shisha kabi ko'p sonli sun'iy materiallarni qo'shimcha qilmoqda. Buning oqibatida kimyoviy moddalar bilan zaharlangan dalalar va suv havzalari, ekologik jihatdan toza deb aytish mushkul bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, shaharlardagi tutun, qurum, kul zarralari, chang, yonilg'i bug'i kabilar aralashmasidan iborat zaharlangan havo, axlat, ishlab chiqarish chiqindilari va

shu kabilardan ko'tarilgan tog'lar inson borlig'ining doimiy hamrohlariga aylandi.

XX asrning 60 yillarida sovet tuzumining Markaziy Osiyoda paxta mustaqilligiga erishish uchun paxta yakkahokimligiga intilishi Orol dengizining qurishiga bu esa ekotizimning buzilishiga, Orol bo'yi hududlarida turli kasalliklarning paydo bo'lishi, ekin maydonlarining vayron bo'lishiga olib keldi. Shu ma'noda I.A. Karimov "Orol inqirozi – insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar falokatlardan biri"¹ deb alohida e'tirof etadi. XX asrning 70 yillarida Tojikiston hududida ishga tushirilgan allyumin zavodi tutunining atmosferani ifloslantirishi Surxondaryo viloyati hududlarida ekologik muammolarini yuzaga keltirdi.

Inson jamiyatning tabiat bilan munosabatlarida yuz bergan bu shiddatli o'zgarishlar mohiyatini tushunishga harakat qilar ekan, avvalgidek, yuz berayotgan jarayonlarni ilmiy va falsafiy tahlil qilib, o'z tafakkuriga murojaat etmoqda. Shu bois Butun dunyo, xususan Markaziy Osiyo davlatlarining tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun iqtisodiy va fan tenika sohasidagi hamkorligi turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. Jumladan, Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi (MFSА) tashkil etildi va uning rejali faoliyati yo'lga qo'yildi.

Geografik muhit tushunchasi. Tabiiy muhit ayrim kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatishi odatda ko'pgina aniq-ravshan sabablarga ko'ra jiddiy shubha uyg'otmaydi. Shunga qaramay, ijtimoiy-tarixiy jarayon yoki moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan holda ular tabiiy sharoitga bog'liq bo'ladimi, agar bog'liq bo'lsa, bu nimada aks etadi, degan savol tug'iladi. Shu munosabat bilan «geografik muhit» tushunchasining tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha fan va falsafada mazkur mavzuni muhokama qilish chog'ida unga ma'no jihatidan yaqin bo'lgan «tabiat», «tabiiy muhit», «atrof borliq» kabi atamalar bilan bir qatorda faol qo'llaniladi, ammo o'z mazmunida ularga bog'lanmaydi.

Geografik muhit – bu yer tabiatining inson faoliyati doirasiga jalb qilingan va jamiyat mavjudligi va rivojlanishining zaruriy omili hisoblanadigan qismidir. Ayni holda turli parametrlar: hudud, iqlim, resurslar, landshaft, joy reliefi va shu kabilarning ijtimoiy rivojlanish sur'atlari va xususiyatiga ta'siri to'g'risida so'z yuritiladi.

Geografik muhit parametrlari. Mehnat va moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida odamlar tabiatning turli elementlaridan foydalanishi va o'z iqtisodiy faoliyati doirasi kengaygani sari mazkur elementlarning muomalaga yanada faolroq jalb qilishidir. Pirovardida *inson va tabiat bevosita o'zaro aloqaga kirishadigan soha o'zgarishi va kengroq tus olishi, ya'ni geografik muhit doirasining kengayishi geografik muhit parametrlardir.* Masalan, ibtidoiy odamlar tirikchilik qilish uchun asosan tabiiy hayot manbalari o'simliklar va

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва барқарорлик кафолатлари.-Т.: Ўзбекитсон,1997.-Б.107

hayvonlardan, mehnat qurollari yasash uchun esa qo‘l ostida mavjud vositalar – tosh va yog‘ochdan foydalanganlar. Iqtisodiy rivojlanishning oxirgi bosqichlarida foydali qazilmalar va energetik resurslarning roli ortib bordi, ularni qazib chiqarish inson faolligi geografiyasini sezilarli darajada kengaytirdi.

Shu bilan bir qatorda inson mehnati geografik omillar ta'sirida tinimsiz murakkablashib bordi. Xususan, inson o‘z amaliy faoliyatida nafaqat qulay tabiiy sharoitlarga, balki yashash uchun uncha yaroqli bo‘lmagan muhitga ham duch keladi. Masalan, mo‘tadil iqlim, serhosil tuproq, yetarli namlik va shu kabilar nisbatan kam mehnat sarflab yaxshi hosil olish imkonini beradi, tabiiy resurslar o‘tish oson bo‘lgan joyda va yer yuzasiga yaqinroqda joylashganligi esa ularni qazib olishni osonlashtiradi va pirovard mahsulot tannarxini pasaytiradi.

Ammo yer yuzida bunday qulay joylar uncha ko‘p bo‘lmagani uchun, sayyoramizning tinimsiz ko‘payib borayotgan aholisi vaqti kelib noqulay va o‘tish qiyin bo‘lgan yerda joylashgan hududlarni ham o‘zlashtirishga majbur bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligini yuritish, yo‘llar, boshqa muhandislik qurilmalari va inshootlar qurishni qiyinlashtiradigan sovuq iqlim sharoiti, tog‘li yoki botqoqli joy odamlarning ishlab chiqarish faoliyatida ularning jismoniy, energetik va boshqa xarajatlarini sezilarli darajada ko‘paytiradi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, odamlarning iqtisodiy faoliyati geografik muhitning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi, buning natijasida landshaftlar, tuproq qatlami, havo, suv va shu kabilarning kimyoviy tarkibi o‘zgaradi. Tabiat va jamiyatning bunday munosabatlariga hozirgi Afrika misol bo‘lishi mumkin. Bu yerda oxirgi yuz yillikning o‘zida o‘rmonlar maydoni ikki baravar kamaydi va hozirgi vaqtda ulkan qit'a hududining to‘rttdan bir qisminigina tashkil etadi. Pirovard natijada Afrika qit'asida sahrolarning cho‘llarga, cho‘llarning – savannalarga, savannalarning – tropik o‘rmonlarga hujumi tobora kengroq tus olib bormoqda.

XX asrning 60 yillarida Markaziy Osiyo hududida ham Orol dengizining qurib borishi natijasida iqlim va tabiiy muhit keskin o‘zgardi. Bu ekin maydonlarining kamayishiga, sho‘r tuproqning ko‘payishiga olib keldi.

Keskin ekologik vaziyat ko‘pgina daryolar oqimining (Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon) sezilarli darajada o‘zgarishi, tuproq erroziyasining kuchayishi va hosildorlikning pasayishi bilan ham tavsiflanadi.

Ammo insonning tabiatga ta'siridan tashqari, geografik muhitda doim tabiiy omillar bilan belgilanadigan o‘zgarishlar ham yuz bergan. yerning butun geologik tarixi shundan dalolat beradiki, unda buyuk muz bosishi va halokatli tarzda vulqonlar otilishi yuz bergan, vaqti-vaqti bilan quruqlikning ko‘tarilishi va pasayishi, zilzilalar, toshqinlar va boshqa tabiiy ofatlarning yuz berishi, yer qiyofasi va odamlarning yashash sharoitini sezilarli darajada o‘zgartirgan. Xususan, Platon o‘zining «Timey» va «Kritiy» asarlarida hikoya qilgan Atlantida halokati tarixi hanuzgacha aksariyat tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Bu afsonaga binoan Atlantida katta, hosildor va ko‘p aholi yashaydigan orol

bo'lgan va qadim zamonlarda zilzila oqibatida Atlantika okeani tubiga cho'kib ketgan.

Afsonalar bilan bir qatorda aniqlangan faktlar ham mavjud. Masalan, Gollandiyaning tarixiy rivojlanishi asosan dengiz qirg'oq chizig'ining tabiiy o'zgarishi bilan belgilanadi. Shuningdek, Xuanxe daryosining o'zanida yuz bergan o'zgarishlar Xitoy tarixiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgani ham ma'lum.

Ijtimoiy rivojlanish va geografik muhitning o'zaro ta'siri. Aksariyat olimlar fikriga ko'ra, *geografik muhit jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanmasa-da, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish sur'atini jadallashtirib yoki pasaytirib, tarixiy jarayonga ta'sir ko'rsatishi mumkin.* Shuni ta'kidlash lozimki, XX asrga qadar odamlarning iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyati yuksalgani sari ularning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayoti geografik muhit va tabiatning stixiyali kuchlariga kamroq bog'liq bo'lib borgan.

XX asr vaziyatni butunlay o'zgartirdi: u nafaqat ko'rsatilgan qonuniyatni buzdi, balki uni teskari burib yubordi; ya'ni insoniyat umumbashariy hodisaga aylangach, uning iqtisodiy o'sishi geografik muhitning tabiiy chegaralariga kelib taqaldi. Bu muhit o'z maydoni va resurslari jihatidan odamlar ishlab chiqarish faoliyatining tobora o'sib borayotgan hozirgi miqyosi uchun haddan tashqari kichkina bo'lib qoldi. Olimlarning hisob-kitoblariga qaraganda, oxirgi uch o'n yillikning o'zida jahonda insoniyat o'zining oldingi butun tarixi mobaynida iste'mol qilgan miqdorda xom ashyo ishlatilgan. Iqtisodiy o'sishning mavjud sur'atlari saqlangan taqdirda, yaqin o'n yilliklarda sanoat ishlab chiqarishi yana ikki-uch baravar ko'payishi mumkin bo'lib, bu juda ko'p miqdorda qo'shimcha tabiiy resurslarni talab qiladi.

Inson o'zi yaratgan sun'iy muhit – borlig'i «ikkilamchi tabiat» yer qiyofasini bundan ham ko'proq o'zgartiradi. U sayyoraning yashashga ozmi-ko'pmi yaroqli bo'lgan butun qit'a va orol hududini qoplagan ulkan megapolislar va son-sanoqsiz aholi yashaydigan joylardan iborat. Shuningdek, u avtomobil yo'llari va temir yo'l tarmoqlari, kanallar, konlar, uyumlar va inson tomonidan yaratilgan va unga qadar hych qachon mavjud bo'lmagan boshqa ko'plab narsalarni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, bugungi kunda geografik muhitning o'zgarishida yetakchi rol insonga o'tdi, biroq ayni vaqtda u yuqorida zikr etilgan tabiiy to'siqlarga duch kelib, XX asr boshida qo'lga kiritilgan geografik muhitga nisbatan o'z mustaqilligini yo'qotdi. Jamiyat rivojlanishida geografik muhitning rolini asoslashga bo'lgan qiziqish asrlar mobaynida saqlanib qolayotgani va vaqti-vaqti bilan kuchayib turishi, ayni shu hol bilan izohlanadi.

Geografik maktablar. Bu sohada to'plangan g'oyalar majmui turli davrlarda ancha mashhur bo'lgan «geografik determinizm», «ijtimoiy determinizm» va «geosiyosat» konsepsiyalarini o'z ichiga olgan geografik maktabni tashkil etadi.

Garchi XVIII asr fransuz mutafakkirlari A.Tyurgo va Sh.Monteskeni geografik maktab asoschilari deb hisoblansada, mazkur maktab geografik o'rin va tabiiy sharoit jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi degan g'oyani ilgari suruvchi turli ta'limotlar tizimi sifatida, antik davridayoq paydo bo'lgan. Gippokrat, Gerodot, Polibiy, Strabon va boshqa mutafakkirlar turli mintaqalarning iqlim sharoitiga katta e'tibor berganlar va Yunoniston va O'rta yer dengizi bo'yidagi hududlarni odamlar hayot faoliyati uchun ayniqsa qulay deb hisoblaganlar.

O'rta asrlarda shunga o'xshash g'oyalarning rivojlanishi odatda tarixchi Ibn Xaldun nomi bilan bog'lanadi. Ammo bu g'oyalarga chinakam qiziqish jamiyat qurilishi va tarixiy rivojlanish qonunlarini tabiiy sabablar bilan tushuntiruvchi geografik determinizm g'oyalari bungacha hukm surgan ijtimoiy hayotning ilohiy xususiyati haqidagi diniy tasavvurlarni siqib chiqara boshlagan Ma'rifatparvarlik davrida yuzaga keldi. Bunday qarashlar o'sha davrda vujudga kela boshlagan yangi kapitalistik munosabatlarga mos kelgan, shu sababli ular o'sha davrdan boshlab Fransiya, Angliya va Germaniyada keng tarqaldi.

Ko'payib borayotgan yer aholisiga tobora ko'proq tirikchilik vositalari, avvalo oziq-ovqat mahsulotlari talab etilgan. Ularni ishlab chiqarish esa, tabiiy sharoitga, qishloq xo'jaligini yuritish uchun yaroqli yerlar mavjudligiga bevosita bog'liq bo'lgan. Uning (o'sha davrda hali nisbatan) kamligi mutaxassislariga XVIII asrdayoq ayon bo'ldi.

«Tabiiy qonunlar» konsepsiyalari. Shu munosabat bilan fransuz faylasufi va iqtisodchisi A.Tyurgo (1727-1728) mazkur muammoning muayyan yechimi hisoblangan dehqonchilikni intensivlashtirish imkoniyatini o'rganar ekan, «tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni»ni ta'rifladi. Uning ma'nosi shundan iboratki, ishlov berilayotgan yerga sarflangan har bir qo'shimcha mehnat va kapital bundan oldinroq sarflangan mehnat va kapitalga qaraganda kamroq samara beradi, muayyan chegaraga yetilganidan keyin esa hyech qanday qo'shimcha samara olish mumkin bo'lmay qoladi.

Ingliz iqtisodchisi T.R.Maltus (1766-1834) bu g'oyalarni rivojlantirdi va keng tarqalgan konsepsiyani ilgari surdi. Bu konsepsiyaga muvofiq aholi sonini uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab tartibga soluvchi «tabiiy qonun» paydo bo'ldi. *Mazkur qonunga binoan sayyoramizdagi odamlar soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda aholi haddan tashqari ko'payib ketishiga olib keladi va ijtimoiy tangliklarga sabab bo'lishi mumkin.* Maltus ijtimoiy rivojlanish tabiatning abadiy qonunlari hukmiga qat'iy bo'ysunishini qayd etadi. Uning fikricha, har bir yangi tug'ilgan chaqaloq boshqalar band etgan va o'ziga o'rin bo'lmagan dunyoga tushadi. Bundan mutafakkir qashshoqlarga hamdardlik shusiz ham

murakkab demografik muammolarning keskinlashuviga olib keladi, degan xulosa chiqaradi¹.

Maltusning ocharchilik, epidemiyalar va urushlar aholi haddan tashqari ko'payib ketishining oldini oluvchi tabiiy omillar hisoblanishi haqidagi xulosalari nafaqat o'z tarafdorlarini, balki faol muxoliflarini ham topdi.

Maltus g'oyalarining izdoshlari o'z o'tmishdoshining o'ta sovuq xulosalaridan xalos bo'lib, uning ta'limotini XX asr boshida yuz bergan «demografik portlash» to'liqida vujudga kelgan neomaltuschilik ko'rinishida davom ettirdilar.

Geografik determinizm *inson faoliyati tabiiy muhitga to'la bog'liq degan g'oyani isbotlashga harakat qiluvchi qarashlar mexanistik geografik determinizmdir.* Bu oqimning asoschisi va atoqli namoyandasi fransuz ma'rifatchi faylasufi Sh.L.Monteske (1689-1755)dir. «Qonunlar ruhi» deb nomlangan asarida u o'z konsepsiyasini atroflicha bayon etdi. Bu ta'limotga muvofiq odamlar hayoti, ularning axloqi, qonunlari, odatlari va hatto siyosiy tuzumi ular yashaydigan geografik muhit va iqlim sharoitidan kelib chiqadi. U tabiat odamlarni tug'ilgandan teng qilib yaratishini tan olib, so'ng ularni geografik determinizm nuqtai nazaridan farqlaydi.

Mazkur yondashuvdan Monteske hatto qit'alar ijtimoiy tizimlarining tahlilida ham foydalanadi. Bunda u, xususan, Osiyo va yevropa xalqlarining hayotini taqqoslaydi. Uning fikricha, Osiyo mo'tadil mintaqaga umuman ega emas, shu sababli bu qit'aning juda sovuq iqlimida joylashgan mamlakatlar juda issiq iqlimda yashaydigan mamlakatlar bilan bevosita tutashadi. yevropada esa, aksincha, mo'tadil mintaqa ancha keng bo'lib, bu yerda iqlim janubdan shimolga qarab asta-sekin sovuqlashib boradi. Har bir mamlakat o'z iqlim xususiyatlariga ko'ra qo'shni mamlakat bilan o'xshash bo'lgani bois, ularning o'rtasida keskin farqlar kuzatilmaydi. Ayni shu sababli Osiyoda ozodlik hych qachon o'smaydi, yevropada esa u sharoitga qarab o'sadi yoki kamayadi, deb xulosa chiqaradi Monteske.

Uning odamlar ijtimoiy hayoti tabiiy sharoitlarga qattiq bog'liq ekanligi haqidagi g'oyalari va xulosalari keyinchalik nafaqat rivojlantirildi (masalan, G.T.Bokl, E.Reklyu, L.I.Mechnikov tomonidan), balki tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasida sababiyatni inkor etuvchi oqim – geografik indeterminizm nuqtai nazaridan tanqid qilindi.

Ijtimoiy determinizm *ijtimoiy rivojlanish darajasi va yo'nalishi birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi bilan belgilanishidir.* Shu nuqtai nazardan tabiat odamlar tarixiga aralashadi, chunki ishlab chiqarish jarayonida inson nafaqat uni, balki o'zini ham o'zgartiradi. Pirovardidada insonning mohiyatini tashkil etadigan ijtimoiy munosabatlar majmui o'zgaradi. Bundan odamlar ayrim fazilatlarining shakllanishi ham, jamiyatning rivojlanishi ham avvalo geografik muhitga emas, balki moddiy

¹ Каранг: Мальтус Т.Р. Опыт о законе народонаселения. – СПб.: 1868. Т. 1. – С.469.

ishlab chiqarishga bog'liq bo'ladi va odamlar ishlab chiqarish faoliyatining tarixan o'zgaruvchi xususiyatini tahlil qilish chog'idagina muayyan tabiiy sharoitlar u yoki bu ijtimoiy jarayonlarga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida gapirish mumkin, degan xulosaga kelinadi. Ayni holda tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasida faol tomon sifatida doim inson amal qiladi. Tabiiy muhit xususiyatini ijtimoiy muhit xususiyati emas, balki aksincha, ijtimoiy muhit xususiyatini tabiiy muhit xususiyati belgilaydi.

Shu ma'noda odamlar tabiat bilan o'z moddalar almashinuvini tartibga soladilar, uni o'z umumiy nazorati ostiga oladilar va shu tariqa tabiatning ko'r-ko'rona kuchlari ularning ustidan hukmronlik o'rnatishiga to'sqinlik qiladilar.

Geosiyosat. Yuqorida keltirilgan nuqtai nazarlardagi qarama-qarshilikni geografik determinizmning atoqli namoyandasi G.T.Bokl (1821-1862) «Angliya sivilizsiyasi tarixi» deb nomlangan asarida o'ziga xos iqlim va tabiatga ega bo'lgan mustamlaka xalqlarining qoloqligini tushuntiradi va ijtimoiy tengsizlikning tabiiyligi haqida xulosa chiqaradi. Keyinchalik Boklning bu g'oyalari geografik maktabdagi yangi yo'nalish – geosiyosatni yaratdi. *Demak geosiyosat ijtimoiy tengsizlikning tabiiyligi g'oyasidir.* Mazkur yo'nalishning asosiy g'oyalari Germaniyada F.Ratsel va K.Xausxofer, Buyuk Britaniyada G.Makkinder, AQShda A.T.Mexen va N.Spikmen, Shvetsiyada R.Chellen ilgari surdi. «Geosiyosat» atamasini 1916 yilda birinchi bo'lib ishlatgan R.Chellen o'zining «Davlat hayot shakli sifatida» deb nomlangan asarida F.Ratselning sotsial-darvinistik g'oyalari rivojlantirdi. *Bu g'oyalarga muvofiq tabiiy sharoit jahon tarixida davlatlar rivojlanishining eng muhim omili hisoblanadi, davlatning o'zi esa geografik muhitning turli omillari aholiga ko'rsatgan ta'sir natijasida shakllangan biologik organizm sifatida qaraladi.* Bundan Chellen u yoki bu davlatning hayot makoni uchun kurashi har qanday jonli organizm qonuni – yashash uchun kurash tabiiy qonunidan o'zga narsa emas, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, tor makonga ega bo'lgan «yashovchan davlatlar» qat'iy siyosiy imperativga amal qilib, o'z hududini istilochilik, mustamlakalarni qo'lga kiritish yo'li bilan kengaytirishga harakat qilishining zamirida ayni shu qonun yotadi. Boshqacha aytganda, urushlar, Chellen fikriga ko'ra, nafaqat muqarrar, balki zarurdir.

Shu ko'rinishda geosiyosat irqilar nazariyasi bilan bir qatorda nemis millatchilarining rasmiy siyosati negizini tashkil etdi va Ikkinchi jahon urushiga tayyorgarlik, «hayot makoni»ni qo'lga kiritish va bosib olingan hududlarda yashovchi xalqlarning ommaviy qirg'inini asosladi. Natsistik geosiyosatning taniqli namoyandasi Karl Xausxofer 1924 yildan «Geosiyosiy jurnal» nashr etib, bu geosiyosatning asosiy g'oyalari rivojlantirdi, *Gitlerning «Mayn kampf» asarini yaratishga kuchli ta'sir ko'rsatdi.* Ikkinchi jahon urushidan keyin *fashistik geosiyosat uning hayot makoni va irqiy ustunlik g'oyalari bilan jinoiy ta'limotlar qatoriga kiritildi.*

Geografik determinizm g'oyalari boshqacha shakllarda bugungi kunda ham, xususan, «ilg'or industrial Shimol» va «qoloq agrar Janub» o'rtasida, ya'ni

iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasida mavjud ulkan tafovutni tushuntirish (va oqlash) uchun faol qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy ekologiya. Ekologik falokatlar tarixi. Ijtimoiy ekologiya ilmiy va falsafiy bilimlar sohasi sifatida yaqindagina – XX asr 60-yillarining oxiridan 80-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan davrda vujudga kelgan. Ammo bu hol ekologik muammolar faqat Eng yangi davr hodisasi degan ma'noni anglatmaydi. Hyech shubhasiz, ular o'tmishda ham mavjud bo'lgan, lekin biosfera rivojlanishining ilk bosqichlari haqida yetarli darajada to'la axborot yo'qligi ular xususida asosan gipoteza tarzida so'z yuritish imkonini beradi.

Bunday farazlar qatoriga, masalan, ekologik falokat natijasida dinozavrlarning qirilib ketishi haqidagi gipoteza kiradi. yer kurrasining ayrim mintaqalarida topilayotgan va tabiati jumboq bo'lib qolayotgan mayda shisha sharchalarni o'rgangan olimlar ularni meteoritning qotib qolgan moddasi bo'lsa kerak, deb taxmin qilmoqdalar. Bundan taxminan 65 million yil muqaddam yer kattaligi diametrda bir necha kilometr ga yetadigan ulkan meteorit bilan to'qnashgan degan xulosaga kelinmoqda. Mazkur to'qnashuv natijasida kuchli yong'inlar boshlanib, ulardan chiqqan tutun yerni qalin parda bilan o'rab olgan va bu qattiq sovuq tushishi va o'sha davrda yashagan dinozavrlar qirilib ketishiga olib kelgan.

Qadimgi manbalar amalda mavjud bo'lgan sivilizatsiyalar halokati zamirida ham sof ekologik omillar yotishini ko'rsatadi. Xususan, shumer sivilizatsiyasi mil. av. III ming yillik oxirida quyosh faolligi o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan qattiq qurg'oqchilikdan halok bo'lgan. Bir paytlar gullab yashnagan Dajla va Furot vohalarining sahroga aylanishi sug'oriladigan dehqonchilik noto'g'ri olib borilishi oqibatida tuproqning nurashi va sho'rlanishi natijasi deb hisoblanadi.

XIX asrda *falokatlar nazariyasi* ayniqsa keng tarqaldi. Uni 1812 yilda fransuz olimi J.Kyuve (1769-1832) ilgari surdi. U geologik qatlamlarda kuzatiladigan hayvonlar va o'simliklar qoldiqlarining tabiatini tushuntirishga harakat qilib, yerda vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadigan tog' jinslarining qo'qqisidan siljishlari yer yuzasining relefini o'zgartiradi va barcha tirik narsalarni halokatga duchor etadi, degan farazni ilgari surdi. Ammo bu g'oya keyinchalik keng miqyosda o'z izdoshlarini topmadi, chunki sayyoramiz, uning tarixi va tuzilishiga doir ilmiy bilimlarning faol rivojlanishi boshqa gipotezalarga boy material berdi va falokatlar nazariyasini XIX asrning oxirlaridayoq uning avvalgi jozibadorligidan mahrum etdi.

Bunga ilmiy bilimlarning butunlay yangi sohasi – *ekologiyani*ng paydo bo'lishi ma'lum darajada zamin hozirladi.

Ekologiyaning kelib chiqishi. «*Ekologiya*» atamasi etimologik jihatdan yunoncha *oikos* – uy, boshpana va *logos* – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, keng ma'noda yashash muhitiga ega bo'lgan jonli organizm (yoki jonli organizmlar, mavjudotlar) tashkil etgan har qanday tashkilot, sistemani

anglatadi. Bu atamani nemis biolog *E.Gekkel* 1869 yilda biologiyaning vazifasi jonli organizmlarning atrof muhit bilan o‘zaro aloqasini o‘rganishdan iborat bo‘lgan bo‘limlaridan birini belgilash uchun ilmiy muomalaga kiritgan. Ekologiya masalalari uzoq vaqt mobaynida faqat tabiiy fanlar, avvalo biologiya doirasida o‘rganildi. So‘ngra, jamiyatning tabiat bilan munosabatlarida iqtisodiy, ijtimoiy va hatto siyosiy jihatlar aniqlanishiga qarab, ekologiya ijtimoiy fanlarning ham predmetiga aylandi. Ilk ijtimoiy va falsafiy tadqiqotlarning o‘ziyiq jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqasi muammolari – bu avvalo jamiyatning, uning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishining, shakllangan qadriyatlar tizimi hamda atrof muhit va insonning undagi o‘rni haqidagi tasavvurlarning muammolari ekanligini tasdiqladi.

Bugungi kunda «**ijtimoiy ekologiya**» deb nomlangan ilmiy tadqiqotlar sohasi vujudga keldi, «ekologiya» atamasi esa biologiya fanlari doirasidan ancha chetga chiqib, juda tez va keng tarqaldi. XX asr 70-yillarining o‘rtalarida ijtimoiy ekologiyaning to‘rt asosiy qonuni ta’riflandi:

- hamma narsa hamma narsa bilan bog‘langan;
- hamma narsa qayoqqadir yo‘qolishi kerak;
- tabiat yaxshiroq biladi;
- tekinga hech narsa bo‘lmaydi¹.

Bu qonunlar inson atrof muhit bilan uzviy o‘zaro bog‘liq ekanligini mustahkamladi va uning tabiatga o‘zboshimchalik bilan va oxirini o‘ylamasdan aralashuvini taqiqladi.

Ekologik muammolar keskinlashuviga qarab ular yanada faolroq o‘rganila boshlandi. Ijtimoiy ekologiyadan tashqari, ilmiy bilimning boshqa, butunlay yangi sohalari, chunonchi: inson ekologiyasi, global ekologiya, shahar ekologiyasi yuzaga keldi. Ayrim kishilar va jamiyatning atrof muhit bilan o‘zaro aloqasi jabhasida ekologik muammolar ko‘p jihatdan falsafiy ma’no kasb etdi, chunki u inson borlig‘ining fundamental asoslariga daxldordir, yerdagi hayotning betakrorligi va uning biologik rang-barangligini saqlash zarurligi haqidagi masalani yangidan qo‘ydi.

Ekologik muammoning falsafiy ma’nosi. Ayrim fanlar doirasidan chetga chiqish va muammoga nisbatan kengroq, falsafiy yondashish biosferada hamma narsa betakror tarzda o‘zaro bog‘liq va tabiiy tartibga solinadigan muvozanat holatida ekanligini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, biosferaning o‘zi ham sayyoramizning tabiiy qismi hisoblanadi. U yer yuzasida yanada murakkabroq tuzilma – biogeosferani tashkil etadi. Insonning umumiy faoliyati yerdagi geologik jarayonlar bilan teng darajaga yetganidan beri biogeosferada jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu o‘zgarishlar sayyoramiz o‘zining ilk qiyofasini yo‘qotishiga olib keldi va inson borlig‘i negizlariga putur yetkazdi. Shu tariqa u azaliy falsafiy muammo – hayotning mazmuni

¹ Каранг: Коммонер Б. Замыкающийся круг. – СП(б): 1999.- С.36

muammosiga keskinroq tus beradi va ekologik muammolarni hozirgi zamon falsafasining muhim bo'limiga aylantirdi.

Bunday ekologik muammolarni falsafiy anglab yetish o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zero, falsafa tabiat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida yuzaga keluvchi ayrim muammolarni hal qilmaydi va ularni bartaraf etish yuzasidan muayyan tavsiyalar bermaydi. Bu maxsus fanlarning vazifasidir. *Falsafaning roli esa – muayyan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, yuz berayotgan jarayonlar dinamikasi va tendensiyalarini aniqlash, tabiiy o'zaro aloqalar, tarixiy bog'liqliklarni aniqlash* va sh.k.larga muvofiq falsafiy xulosalar chiqarishdan iborat, unda muhim tushunchalar aniqlanadi, asosiy tamoyillar belgilanadi, bu nafaqat bilish maqsadlari, ekologik ta'lim ishiga xizmat qiladi, balki tabiatni muhofaza qilish borasida muayyan vazifalarni hal qiluvchi ayrim fanlar uchun metodologik tayanch hisoblanadi.

Noosfera. yechimini topmagan ekologik muammolar xavfi kuchayishiga qarab odamlar tang vaziyatdan chiqish yo'llari haqida ko'proq bosh qotira boshladilar, uni bartaraf etish yo'lida muayyan qadamlar tashlashga harakat qildilar. Shu munosabat bilan to'plangan tajribadan, o'zgargan sharoitlardan o'z vaqtida chiqarilgan to'g'ri xulosalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim xulosalardan biri shundan iboratki, yaqin o'tmishda ijtimoiy hayot ikki mutlaqo zarur shart: tirikchilik vositalarini uzluksiz ishlab chiqarish va insonning ko'payishiga rioya etgan holda kechishi mumkin edi. Bunda tabiiy muhit go'yoki oldindan berilgan bo'lib, insonga nisbatan muayyan konstanta vazifasini bajarardi. Undan faqat foydalanish lozim edi.

Hozirgi davr bu tabiiy muvozanatga jiddiy tuzatish kiritdi. *Endi ishlab chiqarishning yangi turi – tabiiy muhitning o'zini ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishga zarurat tug'ildi*, bu esa inson nafaqat ijtimoiy jarayonlarda, balki o'ziga bo'ysunuvchi tabiiy jarayonlarda ham faol asosga aylanganini anglatadi.

Jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasida yuz bergan o'zgarishlar mohiyati, shuningdek bunday o'zaro aloqaning istiqbollari taniqli rus olimi *V.I.Vernadskiy* (1863-1945) XX asrning 30-40-yillarida ilmiy jihatdan ancha teran yoritib berdi. U insonning tabiatni o'zgartiruvchi faoliyati ta'sirida biosferada dunyo miqyosida yuz bergan sifat o'zgarishlariga birinchilardan bo'lib e'tiborni qaratdi va mazkur faollikning misli ko'rilmagan miqyosi va shakllarini tahlil qilib, hozirgi bosqichda insoniyat qudratli geologik kuchga aylanadi, degan xulosaga keldi¹.

Vernadskiy jamiyatga jonli va jonsiz tabiatning birligi sifatida, inson faol sub'ekt sifatida hukmronlik qiluvchi yaxlit sistema sifatida yondashib, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasida inson faoliyati ta'sirida yuz bergan sifat o'zgarishlarini ilmiy asoslashga harakat qildi. Jamiyat va tabiatning o'zaro

¹ Каранг: Вернадский В.И. Химическое строение биосферы Земли и ее окружения. – М.: 1965. – С.328.

aloqasida insonning oqilona faoliyati eng muhim omilga aylanadigan holatga erishishni u «noosfera» (yunon. *noos* – aql, idrok va *sphaira* – soha), ya'ni *aql-idrok sohasi* deb nomladi. Shundan beri *noosfera insonning har qanday o'zgartiruvchi faoliyati tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tushunishga asoslanadigan va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlari bilan muvofiqlashtiriladigan materiya mavjudligi barcha shakllari birlashuvining oliy bosqichi* sifatida tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu «jamiyat-tabiat» sistemasi tadrijiy rivojlanishining oliy bosqichi, hali mavjud bo'lmagan, lekin shakllana boshlagan va agar insoniyat bo'hronlar yuz berishini xohlamasa va kelajakda munosib hayot kechirishni istasa, albatta mavjud bo'lishi kerak bo'lgan bosqichdir.

Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, bunday bosqichga erishish jamiyat va tabiat bir yo'nalishda – o'zaro aloqasini optimallashtirish yo'lida tadrijiy rivojlanishni taqozo etadi. Mushtarak rivojlanishga tabiat va jamiyat koevolusiyasi deb ataladi va noosferaga erishish uning tadrijiy yakuni hisoblanadi.

«Noosfera» atamasi ilk bor XX asrning 20-yillaridan fransuz olimlar *E.Lerua* va *P.Teyyar de Sharden* tomonidan ishlatila boshladi. Ular noosferaga ideal tuzilma, sayyoraning biosferadan tashqaridagi alohida «tafakkur pardasi» sifatida qaradilar. V.I.Vernadskiy «noosfera» tushunchasiga butunlay boshqacha ma'no yukladi. Mazkur atamani 30-yillarning boshlarida qabul qilib, *u noosferaga biosferani va umuman tabiatni o'zgartirishga qaratilgan inson faoliyati natijasi sifatida yondashdi*. Uning fikricha, yer atrofida kelib chiqishi antropogen xususiyatga ega bo'lgan «parda» vujudga keladi, ammo bu ideal soha emas, balki biosferaning rivojlanishidagi muayyan bosqichdir. Bunda odamlarning ongli o'zgartiruvchi faoliyati amalda mazkur rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, shu tariqa yuzaga kelgan «aql-idrok sohasi» esa moddiy hodisa hisoblanadi, chunki biosferaga ham, inson aql-idrokiga ham, uning faoliyatiga ham materialistik nuqtai nazardan yondashiladi.

Jamiyat va tabiat munosabatlarining tadrijiy rivojlanishi g'oyalari yer yuzida organik, keyinchalik esa – ijtimoiy dunyoning vujudga kelishi va rivojlanishini belgilagan qonuniyatlarning yangicha talqiniga asoslanadi. Jonli va jonsiz tabiatning o'zaro aloqasi natijasi o'laroq yer litosferasi, gidrosferasi va atmosferasining yangi holati yuzaga keldiki, bu «biosfera» va «noosfera» kabi sintetik tushunchalarda o'z aksini topdi. Mazkur tushunchalarning ilmiy muomalaga kiritilishi va falsafiy asoslanishi o'zgartirilgan tabiatni tushunishda butunlay yangi bosqich bo'ldi.

O'tgan asrning 70-80-yillarida tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi masalalari atrofida olib borilgan qizg'in munozaralar natijasida noosfera tushunchasi hayotga qaytarildi va keyinchalik ekolog olimlarning butun bir avlodi uchun amalda metodologik mo'ljalga aylandi.

Noosferani biosferadan ajraladigan, mustaqil mavjud bo'lgan alohida qobiq yoki borliqqa hech qanday aloqasi bo'lmagan sof nazariy konstruksiya

sifatida emas, balki biosferaning bir holatdan boshqa holatga o'tishi, buning natijasida butunlay yangicha sifat kasb etishi sifatida tushunish lozim.

Demak biosfera va noosferaning sof geografik parametrlari mos kelmaydi.

Inson raketalar, sun'iy yo'ldoshlar, orbital stansiyalar va boshqa kosmik texnikadan foydalanib, tabiiy shakllangan biosfera chegaralaridan tashqariga chiqadi, biroq, shu biosferaning tarkibiy qismi sifatida, u o'zining mazkur harakati bilan biosfera chegaralari – uning yangi sifati chegaralarini ham kengaytiradi. Ayni vaqtda, jamiyat tabiat bilan o'zaro aloqaga kirishib, biosferaga kirib boradi, uni yangicha mazmun bilan boyitib «ijtimoiylashtiradi». Biosfera ijtimoiy borliq doirasiga tobora kuchliroq «tortiladi», uning cheksiz rivojlanish va takomillashish jarayoni esa ijtimoiy jabhaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda tabiatning bir qismi bo'lgan inson mazkur jarayonni to'xtata olmaydi. Zero, buning aksi inson o'z ijtimoiy borlig'ini, binobarin, insoniy borlig'ini ham to'xtatishini anglatgan bo'lar edi.

Shunday qilib, biosferaning noosferaga o'tishi avvalambor inson o'zining o'zgartiruvchi faoliyatida «**Ziyon yetkazma**» degan qoidaga so'zsiz amal qilib, biosferaning ham, o'z-o'zining ham keyingi evolyusiyasi uchun butun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga majbur ekanligini anglatadi.

Bunday vazifani hal qilish uchun jamiyat hamda «jamiyat-tabiat» sistemasi haqida keng bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Aslida, mazkur bilimlar falsafiy, tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarning mazmunini tashkil etadi. Bunda falsafaning aksiologik jihati - qadriyatlar va axloqiy ideallarni belgilash, axloqiy qoidalar va tamoyillarni ta'riflash qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi.

Xulosalar. Insoniyat jiddiy ekologik tangliklar xavfi bilan to'qnash kelgach, odamlar xulq-atvorining axloqiy tomoni ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi va endilikda «jamiyat-tabiat» tizimida muammolar keskinlashuvidan oldingiga qaraganda o'zgacha ma'noga ega, zero, yuqorida qayd etib o'tilganidek, inson o'z faoliyatida asosiy e'tiborni biosferaga qaratishi lozim. Yuzaga kelgan vaziyatda bu odamlarning yangicha axloqqa asoslangan tegishli xulq-atvorini taqozo etuvchi ob'ektiv zaruriyatdir. Mazkur axloq insoniyat bu sohada erishgan eng sara yutuqlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki hozirgi hayotning eng muhim muammolarini ham hisobga olishi lozim.

Xususan, qadimgi rivoyatlarda keltirilgan, umumiy axloqiy qoida sifatida *Kant* tomonidan ta'riflangan («Shunday ish ko'rginki, xohish-irodang maksimasi ayni vaqtda umumiy qonunchilik tamoyili kuchiga ham ega bo'lsin») *axloqiy imperativ* endilikda tabiatga nisbatan ham tatbiq etilib, umumiy ekologik imperativga aylanishi lozim. Ekologiyaga tatbiqan bu talabning ma'nosi shundan iboratki, *ish ko'rayotgan har bir sub'ekt* (u xoh ayrim inson, xoh jamiyat yoki butun insoniyat bo'lsin) *o'zining tabiatga bevosita yoki bilvosita daxldor bo'lgan barcha niyatlari, ishlari va xatti-harakatlarida o'zini shunday tutishi lozimki, bu xulq-atvor me'yori umumiy ekologik qonunga aylana olsin.*

Ijtimoiy hayotga ham, inson mavjudligining tabiiy sharoitlariga ham tegishli bo'lgan bu axloqiy qonunga o'z holicha rioya qilish ekologiyaning barcha muammolarini bartaraf etishni uzil-kesil kafolatlovchi birdan-bir va shak-shubhasiz talab hisoblanmaydi. Ammo har bir inson va butun jahon hamjamiyati tomonidan odamlarning tabiat bilan munosabatlarida asos qilib olingan taqdirda, u muqarrar tarzda turli mamlakatlar va xalqlarni shunday bir holatga keltiradiki, ular o'zining tabiatni o'zgartiruvchi siyosatini mazkur qonunga muvofiq qayta tuzishga majbur bo'ladi, shu tariqa jahon hamjamiyatiga yanada faolroq birlashish yo'lidagi ekologik g'ov-to'siqlarni bartaraf etadi. Aks holda nafaqat noosferaga erishish, balki umuminsoniy muammolarni hal qilish ham mumkin emas.

Tajribaviy amaliy matnlar

Tabiat, atmosfera, gidrosfera, litosfera, stratosfera, ekologiya, naturfalsafa, tabiatni o'zlashtirish, fan-texnika taraqqiyoti, tabiiy huquq konsepsiyasi, ekologik tanglik, antropogen zo'riqishlar, geografik muhit, tabiiy resurslar, geografik maktablar, geografik determinizm, ijtimoiy determinizm, geosiyosat, ijtimoiy ekologiya, ekologik falokatlar, noosfera, ekologik imperativ.

Mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar

1. Tabiatni o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari nimada?
 1. «Tabiat» atamasi qanday ma'nolarda ishlatiladi?
 1. Tabiat va jamiyat munosabatlarining evolyusiyasi qanday kechgan?
 1. Odamlar yer yuzasi haqida to'g'ri tasavvurlarni qachon olganlar?
 1. «Geografik determinizm» nimani anglatadi va uning qanday yo'nalishlari bor?
 1. Ekologiya qachon va nima munosabati bilan yuzaga kelgan?
 1. Ijtimoiy ekologiyaning asosiy qonunlari qanday ta'riflanadi va ular nimani ifodalaydi?
 1. Ekologik tanglikning ekologik muammodan farqi nimada?
 1. Nima uchun «noosfera» atamasining falsafiy mazmunini farqlash talab etiladi?
 1. Ekologik imperativ qanday ta'riflanadi va nimani anglatadi?

Referat mavzulari

1. «Tabiat» tushunchasi falsafiy kategoriya sifatida.
1. Tabiat va jamiyat o'zaro aloqasining tarixiy bosqichlari.

1. Hozirgi ekologik vaziyatning mohiyati.
1. Hozirgi davrning olamshumul muammolari tizimida ekologiya.
1. Jamiyatning rivojlanishida geografik muhitning roli.
1. Ekologik muammolarni yechishga nisbatan falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari.
1. V.I.Vernadskiy biosferaning noosferaga o'tishi haqida.
1. Ekologik tarbiyaning asosiy mazmuni va vazifalari.

Bilim va ko'nikmalarni baholash materiallari

1. Tabiatning jonli qismi qaysi sferalarda mavjud deya e'tirof etiladi?

- A. Atmosfera, gidrosferani va litosferaning yuqori qismi
- B. Atmosfera, stratosfera va litosferaning yuqori qismi
- V. Gidrosfera, biosfera va litosfera
- G. Atmosfera, gidrosfera, biosfera

1. Ibtidoiy odamning mehnat shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Termachilik, ovchilik, baliqchilik
- B. Chorvachilik, ovchilik
- V. Dehqonchilik, termachilik, baliqchilik
- G. Ziroatchilik, chorvachilik, ovchilik

1. Qaysi davrda tabiatga izzat-ikrot ko'rsatish g'oyasi ilgari surilib, tabiat bilan muosai madora qilish va uning qonunlariga muvofiq yashab, ayni shunday hayotni eng munosib va maqbul deb e'tirof etishgan?

- A. Antik davrda
- B. Hozirgi davrda
- V. Uyg'onish davrida
- G. Ilk o'rta asrlarda

4. Tabiiy huquq konsepsiyasi muallifini toping?

- A. J.J.Russo
- B. D.Yum
- V. Dj.Berkli
- G. I.Kant

5. Ijtimoiy ekologiya ilmiy va falsafiy bilimlar sohasi sifatida nechanchi yillarda vujudga keldi?

- A. XX asr 60-80-yillari
- B. XX asr boshi

V. Ikkinchi jahon urushidan soʻng
G. XX asrning soʻnggi oʻn yilligida

Adabiyotlar

1. Mamashokirov S. Usmonov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari.-T.: Ma'naviyat, 2008. -250 b
1. Shermuxamedova N.A. Filosofskie osnovy formirovaniya ekologicheskogo myshleniya //Vestnik ekologii 2003 №2 –S .3-5.
1. Girusov E.V. Osnovy sotsialnoy ekologii. -M.: 1998.
1. Globalistika: Ensiklopediya / gl. red. I.I.Mazur, A.N.Chumakov. M., 2003.
1. Kochergin A.N. Ekologiya i texnosfera. -M.: 1995.
1. Los V.A., Ursul A.D. Ustoychivoe razvitie. -M.: 2000.
1. Рыгин А.Г. Природная среда (sotsialno-filosofskiy analiz). -M.: 2004.
1. Sovremennyye globalnyye izmeneniya prirodnoy sredy: v 2 t. / Otv. red. N.S.Kasimov. M., 2006.
1. Filosofiya prirody: koevolyusionnaya strategiya. -M.: 1995.
1. Filosofiya ekologicheskogo obrazovaniya. -M.: 2001.
1. Ekologicheskiy ensiklopedicheskiy slovar. -M.: 2000.

6–JAMIYATNING SOHALARI (2 S.)

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi va uning tuzilishi
2. Jamiyatning iqtisodiy sohasi
3. Jamiyatning siyosiy hayoti
4. Jamiyatning ma'naviy hayoti.

Jamiyat nima degan savol intuitiv jihatdan hamma uchun tushunarli bo'lsa ham, lekin yana jamiyat nima o'zi degan savol tug'iladi?

Etimologik nuqtai nazardan bu tushuncha turlicha hodisalarning birligini ifodalaydi:

1. Moddiy dunyoning bir qismi bo'lib, odamlarning birligini va shakllarining tarixan rivojlanayotgan barcha usullari majmuidir.

1. Odamlarning tarixiy jihatdan o'zaro ta'sir usuli va birligi shaklining har biri.

1. Yashash vaqti va yashash joyi bir bo'lgan odamlarning (mintaqa, mamlakat va b.) majmui.

1. Odamlarning ma'lum maqsad yo'lida birlashishi.

1. O'z vaqtini birgalikda o'tkazuvchi odamlar guruhi va boshqalar.

Jamiyat tushunchasining mohiyatini turli falsafiy maktab va yo'nalishlar shuningdek alohida mutafakkirlar ham turli yo'llar bilan tushuntirishga harakat qilganlar. Shu jumlada jamiyat tug'risidagi yuqorida ko'rsatilgan avvalgi ikkita tushunchani o'z ichiga olgan «*sotsium*» tushunchasi paydo bo'ldi.

Fransuz faylasufi va sotsiologi *Emil Dyurkgeym* (1858 -1917)ning fikricha, «jamiyat – bu individlarning oddiy yig'indisidan iborat bo'lmay, maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan, ularning birlashmasidan tashkil topgan tizim bo'lib, reallikni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan «sui generis» aks ettiradi». Nemis faylasufi *Maks Veber* (1864-1920) fikricha, jamiyat insonlarning o'zaro ta'siridan, ya'ni ijtimoiy xatti-harakatlardan tashkil topgan tizim bo'lib, boshqa odamlarning xatti-harakatiga qarshi javob tariqasida yo'naltirilgandir. M.Veber jamiyat rivojining asosini ijtimoiy faoliyatda, deb hisoblaydi. Amerika sotsiologi va ijtimoiy falsafa bo'yicha mutaxassis – faylasuf *Tolkott Parsons* (1902-1979) fikricha, jamiyat qadriyatlar va me'yorlar bilan bog'langan odamlarning munosabatiga asolangan tizimdir. Inson shularga asoslanib o'z ijtimoiy faoliyatini amalga oshiradi. T.Parsonsn ma'lum ma'noda M.Veberning g'oyaviy merosxo'ri deyish mumkin.

Hozirgi davrning taniqli faylasuflari *R.Aron, D.Bell, P.Blau, A.Giddens, R.Darendorf, G.Zimmel, F. Znanetskiy, T.Kun, K.Levi-Stross, K. Manngeym, R. Merton, X.Ortega-i-Gasset, K.Popper, P.A. Sorokin, E.Fromm, K.Yaspers* va boshqalar jamiyat to'g'risidagi o'ziga xos fikrlarini bildirganlar. Ko'pchilik

mutafakkirlar jamiyatning mohiyati bir yoki bir nechta asosiy prinsip orqali tushuntiradilar. Masalan, O.Shpannda bu prinsip – birbutunlik, O.Tofferda – plyuralizm, U.Rostouda – bosqichma-bosqichlik, K.Popperda – ochiqlik, R.Mertonda – universallik. Lekin masalaga jiddiy qarovchi faylasuflar hatto o‘zlarining prinsiplarini ham mutlaqlashtirmaydilar. Masalan, K.Popper ochiqlik prinsipi to‘g‘risida shunday deb yozadi: «*Ochiq jamiyatlar... hali mukammallikdan yiroqda..., balki avlodlarimiz bir necha yuz yillardan so‘ng axloqiy jihatdan bizdan ancha o‘tib ketsalar kerak. Bularning barchasi ro‘y berishi mumkin deb hisoblasam-da, shunga qaramay, yana qaytaraman: hozirgi davrda biz yashab turgan ochiq jamiyatlar – qachonlardir mavjud bo‘lgan jamiyatlarning eng yaxshisi, eng erkin va adolatlisi, o‘z-o‘zini tanqid qiluvchi va islohotlarni eng tez qabul qiluvchilardir*»¹.

«Jamiyat» tushunchasini bir ma'noda ta'rif qilinganda bir qancha nazariy, metodologik va etimologik murakkabliklarga duch kelinadi. Birinchidan, bu tushuncha hajmi va mazmuni jihatdan juda keng. Ikkinchidan, bu tushuncha mavhum, ya'ni falsafiy kategoriyadir. Uchinchidan, bu tushuncha dinamik, ya'ni rivojlanuvchandir. To‘rtinchidan, jamiyat faqat falsafa fanining predmeti bo‘lmasdan, hamma ijtimoiy fanlar majmuining predmetidir. Beshinchidan, «jamiyat» atamasi turli ma'nolarda ishlatilishi mumkin.

Taniqli rossiyalik tadqiqotchi E.V.Tadevosyan o‘zining jamiyatga berilgan ta'rifida uning barqarorlik, birbutunlik, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘ziga to‘qlik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, odamlarning ma'lum aloqadorligi va o‘zaro ta'sirda bo‘lishi, muayyan ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarning mavjudligi kabi xususiyatlarni ajratib ko‘rsatdi².

«Jamiyat» tushunchasi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ma'nolardan tashqari yana: a) biologik tizimlarning eng rivojlangan bosqichi; b) konkret aniq sotsium; v) ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ta'sirlar shakli va b. Jamiyat to‘g‘risida gap ketganda, u keng, falsafiy nuqtai nazardan tushuniladi. Eng keng ma'noda, *jamiyat – bu odamlar birlashuvining hamma shakllari va ularning o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta'sirlarining hamma usullari majmuidir.*

Jamiyat har qanday murakkab bir butun hodisa va tizim sifatida o‘z tuzilishi, strukturasi ega. Bu struktura qanday degan savolga faylasuflarning bir emas bir qancha avlodlari javob topishga harakat qilishgan. Qadimgi sharq faylasuflari fikricha, jamiyat birbutun bo‘lgani bilan bir turdagi ob'ekt emas. Miloddan avval IV asrda yashagan xitoy faylasufi *Chjuan-szi* ta'kidlashicha, «nimaiki turli-tumanlikdan mahrum bo‘lsa, turli-tumanlik bo‘lgan joyda paydo bo‘ladi».

Antik davrda jamiyat strukturasi muammosiga ikki xil yondashuv shakllangan edi. Birinchi yondashuvga asosan, jamiyat – tegishli ichki strukturaga ega bo‘lgan tabiiy tuzilmadir. Ikkinchi qarashga asosan, jamiyat yashash va boshqarish oson bo‘lishi uchun sun'iy ravishda tizimga solingan.

¹ К.Поппер. Открытое общество и его враги. М., 1992. 15-6.

² Қаралсин: Э.В.Тадевосян. Социология. М., 1999. 120-130-б.

Birinchi nuqtai nazarni *Arastu, Seneka*, ikkinchisini – *Aflotun, Epikur, Lukretsiy Kar* qo‘llab quvvatlaganlar.

O‘rta asr Sharqida Arastuning qarashlari keng tarqalib, jamiyat strukturasi tabiiyligi tan olingan. Yangi davrda «*ijtimoiy shartnoma*» (bitim) nazariyasiga asoslangan ikkinchi nuqtai nazar keng tarqalgan. Unga ko‘ra odamlar «tabiiy holat»da mutlaq teng, ozod, o‘ziga to‘q bo‘lib, jamiyatning o‘zi esa, hech qanday strukturaga ega emas. Faqat ijtimoiy bitim tuzilgandan keyingina jamiyat strukturaga ega bo‘ladi. Bu holat *J.-J. Russo* (1712-1779) tomonidan yaqqol ko‘rsatib berilib, uning fikricha oliy hokimiyat – jamiyatning «boshi», qonun va urf-odatlar – «miyasi», savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi esa – hazm qilish tizimi, moliya esa – «qoni»dir va boshqalar¹.

Ilmiy sotsiologiyaning asoschilaridan biri ingliz faylasufi *Gerbert Spenser* (1820-1903) har qanday jamiyatning asosida yotadigan uchta asosiy tizimni ajratgan: a) tartibga soluvchi; b) yashash vositalarini ishlab chiqaruvchi; v) bo‘lib beruvchi. Sotsium qancha rivojlangan bo‘lsa, uning tuzilishi shuncha murakkab bo‘ladi. «Bir xillikdan ko‘p xillikka o‘tish bir butun sivilizatsiya taraqqiyotida ham, har bir qabila taraqqiyotida ham kuzatiladi»².

Turli falsafiy, sotsiologik maktablar va yo‘nalishlar jamiyat strukturasi to‘g‘risida o‘z variantlarini tavsiya etganlar. Ijtimoiy birbutunlikka kiruvchi mustaqil tizim va kichik tizim sifatida madaniyat (*I. Gerder, O. Shpengler, K. Yaspers*), san‘at (*G. Lessing, I. Ten, J.M. Gyuyo*), iqtisodiyot (*N. Smelser, U. Mur, T. Veblen*), din (*E. Dyurkgeym, M. Veber, T. Lukman*), shuningdek, fan, texnika, huquq, til, ekologiya, ommaviy axborot vositalari va boshqalar tavsiya qilingan edi.

Hozirgi zamon jamiyat falsafasida ijtimoiy struktura konsepsiyalari yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ulardan *L. Altyusserning* strukturalizmini, *E. Giozdening* strukturatsiya nazariyasini, *P.A. Sorokinning* stratifikatsiya konsepsiyasini, *K. Levi-Strossning* genetik antropologiyasini, *Goldmanning* irsiy strukturalizmini, *R. Mertonning* tuzilmali funksionalizmini aytib o‘tish mumkin.

Vaqt o‘tishi bilan jamiyat tuzilmasida *to‘rtta asosiy sohalar* ajralib chiqdi: *iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy* sohalar. Shuni ta‘kidlash kerakki, «ijtimoiy hayot sohasi» tushunchasi o‘rniga «ijtimoiy struktura» yoki «siyosiy hayot» kabi tushunchalar ishlatiladi. Ularni sinonim tushunchalar desa ham bo‘ladi. Lekin fanda ko‘proq «soha» tushunchasi qo‘llaniladi.

2-§. Jamiyatning iqtisodiy sohasi

Iqtisodiy sohaga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. U tor ma'noda «turli predmet va xizmat turlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashtirish va iste'mol qilish» deb tushuniladi³. Shu ma'noda aytish mumkinki, «jamiyatning iqtisodiy

¹ Ж.-Ж.Руссо. Трактаты. М., 1969. 113-б.

² Г.Спенсер. Синтетическая философия. Киев, 1997. 42-б.

³ Социальная философия. М., 1995., 36-б.

soha»si tushunchasi «bazis» tushunchasiga mos keladi. Keng ma'noda esa iqtisodiy soha deganda barcha ijtimoiy ishlab chiqarish jarayoni tushuniladi: ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining birligi, shuningdek iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirlari yig'indisi. O'ta keng kategorial ma'noda sotsiumning iqtisodiy sohasi «tabiat bilan insonlar o'rtasida individ va kishilar guruhining ongli faoliyati orqali o'zaro aloqalarini» aks ettiradi¹.

Iqtisodiy soha asosida insonning ishlab chiqarish va mehnat faoliyati yotadi. Uning zarurligi insonning ehtiyojlari hayvonning ehtiyojlaridan tubdan farqlanishi bilan belgilanadi. Inson rivojlanishi bilan tabiatdan ajraladi. Bu jarayonda esa, jamiyatning iqtisodiy sohasi taraqqiyoti muhim rol o'ynaydi. «*Xususiy mulk*» tushunchasi iqtisodiy tushunchalarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy sohasida *ishlab chiqarish kuchlari* va *ishlab chiqarish munosabatlari* muhim tuzilmaviy qismlari hisoblanadi. *Iqtisodiy munosabatlar kishilar o'rtasida ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va ne'matlarni iste'mol qilish jarayonlarida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlardir.* Ishlab chiqarish kuchlariga moddiy ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan «sub'ektiv (inson) va moddiy (texnika va mehnat qurollari) elementlar tizimi kiradi»².

Hatto eng yuqori darajadagi texnika va texnologiya rivojiga qaramay, baribir moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson ishlab chiqarishning asosiy omili bo'lib qoladi. Fanning bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanganligi insonga, ishchiga qo'yiladigan talablarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Hozirgi davrda ishchi nafaqat o'zining malakali kasbi, hunariga ega bo'lishi kerak, balki u doim o'zining malakasini oshirib, bilimlarini chuqurlashtirib borishi kerak. Masalan, Yaponiyada yaqin kelajakda umumiy, oliy ta'lim tizimiga o'tish mo'ljallangan, chunki ishchilarga nisbatan talablar kuchayib ketgan.

G'arb ijtimoiy falsafasi (*T.Parsons, N.Smelzer, U.Mur* va b.) iqtisodiy hayotni tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq rollar va maqomlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Ko'plab ijtimoiy falsafiy nazariyalar doirasida iqtisodiyot bazis, jamiyat asosi, fundamenti sifatida ko'rilmaydi. Uning asosi sifatida madaniyat, sivilizatsiya, huquq, axloq, din va boshqalar qo'yiladi. Iqtisodiy soha esa sotsiumning oddiy kichik tizimi sifatida yoki oddiy ijtimoiy institut (ta'lim, sog'liqni saqlash, ommaviy axborot vositalari) bilan bir qatorda talqin qilinadi.

Jamiyatda iqtisodiyot alohida ahamiyatga ega. Hozirgi zamonda sobiq sotsialistik jamiyatlarni isloh etishda «bozor munosabatlarini izchil rivojlantirishga o'tish, tadbirkorlikni rivojlantirish, xususiy mulkning, shaxsiy faollikning xilma-xilligi» muhim elementlardan hisoblanishi bejiz emas³.

¹ Философия. М., 1995. 209-б.

² С.Э.Крапивенский. социальная философия. М., 1998. 95-б.

³ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва иямойиллар. Т., 2001. 49-б.

Mustaqil O'zbekistondagi milliy davlatchilik va yangi tuzumning shakllanishining iqtisodiy asosida bozor munosabatlariga, iqtisodiyotning ko'p bosqichliliga o'tish yotadi. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tilishi o'z vaqtida chor Rossiyasining mustamlakasi tufayli va ayniqsa, o'lkaning XX asr boshidagi inqilobiy jarayonlarga, sotsializm qurilishiga jalb etilishi bilan to'xtatilib qo'yilgan edi. Hozir esa, tabiiy-tarixiy rivojlanish qayta boshlab yuborildi. Uzoq davrlar davomida O'zbekiston geosiyosiy jihatdan G'arb va Sharq, Shimol va Janubning kesishgan nuqtasida joylashgani uchun savdo ishlari juda yaxshi yo'lga qo'yilib rivojlangan edi. Shuning uchun ham bu yerda bozor sharoitining o'ziga xos tajribasi mavjud edi. Bu yerdagi bozor munosabatlari feodal-patriarxal tuzum asosida tashkil topgan edi. Shunga asosan o'ziga xos bozor an'analari, ko'nikmalari va ruhiy stereotiplar shakllangan edi. Ular sovet davridagi kuchli rejali-taqsimot tizimi sharoitida ham o'zini saqlab qola oldi. Hozirgi davrda esa, bu xo'jalik an'analari va urf-odatlar qayta tiklanmoqda va sifat jihatdan yangicha asosda foydalanilmoqda.

Hozirgi davrda bozor munosabatlari dunyodagi barcha mamlakatlar xo'jalik faoliyatining asosini tashkil qilmoqda. Lekin bozor iqtisodiyoti har bir mamlakatda uning o'z andozasi bo'yicha rivojlanadi. Bu rivojlanish birinchidan o'sha mamlakatning milliy xususiyatlari va odatlari hisobga olinsa, boshqa tomondan, erkin raqobatning darajasi bilan uning davlat tomonidan qay darajada boshqarilishi, ijtimoiy yo'naltirilganlik darajasi, shuningdek, hal etilayotgan makroiqtisodiy muammolar ustivorligiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «amerikacha» modelga kuchli erkin raqobat xos bo'lsa, «yaponcha», «fransuzcha» modellar uchun davlatning xo'jalik ishlarida faol qatnashishi; «nemischa», «shvedcha» modellarda esa, ulkan ijtimoiy yo'naltirishlik muhimdir. Rivojlanayotgan davlatlarda esa asosiy e'tibor iqtisodiyotni barqarorlashtirish, byudjet taqchilligini keskin kamaytirish, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratiladi. Janubiy-Sharqdagi yangi industrial mamlakatlar (Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Gonkong) uchun kuchli davlat mavqeyini saqlash, import o'rnini bosish strategiyasini saqlagan holda eksportni rag'batlantirish bozor xususiyati hisoblanadi.

Sobiq Ittifoq hududida vujudga kelgan yangi mustaqil davlatlarning, bozor iqtisodiyotiga o'tishi hozirgi zamon tarixidagi o'ta noyob hodisa hisoblanadi. Bunday o'tish tabiiy, silliq rivojlanishi, iqtisodiyotning takomillashuvi emas. Bu bir sifat xolatidan ikkinchi sifat holatiga, bir iqtisodiy munosabatlar tizimidan mutlaqo yangi boshqa bir tizimga o'tishdir. U boshqaruvning buyruq-administrativ tizimiga asoslangan markazlashtirilgan rejaviy-taqsimot iqtisodiyotni sindirib erkin bozor qonuniyatlariga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishdan iboratdir. Bu jarayonni, birinchidan, bir aktli hodisa deb bo'lmaydi, ikkinchidan, u stixiyali jarayon ham emas. U eski munosabatlarni tugatish yangisini o'rnatishga qaratilgan aniq maqsadli faoliyatdan iborat bo'lgan *o'tish davrini* taqozo qiladi. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, bozor iqtisodiyoti xususiy mulkni, erkin raqobatni, narxlarning

erkinlashtirilishini va boshqalarni inkor etuvchi sotsialistik iqtisodiyot bilan bir genetik ildizlarga ega emas.

Tajribaning ko'rsatishicha, bunday o'tish jarayoni, iqtisodiy inqiroz bilan birga kechadi. Ishlab chiqarishdagi odatdagi siklik inqirozga nisbatan bu inqiroz adabiyotda «*o'tish*» *inqirozi* deb nom olgan. U ishlab chiqarishning pasayishi, pulning qadrsizlanishi, ishsizlikning ortishi va aholining ko'pchilik qismining turmush darajasining keskin pasayishi bilan amalga oshadi. Bularning barchasining sababi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: rejaga asoslangan iqtisodiyotdagi noqulay sharoitlar, tuzilmaviy og'ishlar, iqtisodiyotni harbiylashtirish va b.) bu mamlakatlar xo'jaligida yangi tartibdagi ish tarziga ko'nikishdagi qiyinchiliklar, bozor infratuzilmasining tuzilishi, yangi o'zaro savdo munosabatlarining shakllantirilishi, bozor tajribasining yetishmasligi va boshqalar. Ko'pchilik hollarda bu omillar islohotchilarning noto'g'ri xatti-harakatlari, strategiya va taktikani noto'g'ri tanlashi va noto'g'ri amalga oshirishlari tufayli yana ham murakkablashib ketadi.

Har bir sobiq sotsialistik mamlakatlari inqirozdan chiqish yo'lini turlicha, o'ziga xos usullar bilan, ya'ni o'z sharoitlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan xolda bartaraf etadi. Bunda tajribaning ko'rsatishicha, ayrim davlatlar totalitar tuzumda shakllangan iqtisodiy munosabatlarni birvarakayiga ildizi bilan yo'q qilishdan iborat «shok terapiya»sining tezlatilgan shaklini ma'qul ko'radilar. Bunday usul jamiyatda juda og'ir ijtimoiy inqirozlar bilan kechadi. Boshqalar esa iqtisodiy munosabatlarni yangi bozor iqtisodiga bosqichma-bosqich o'tib borishidan iborat tadrijiy uslubni ma'qul ko'radilar. Bu yo'lda keskin ijtimoiy larzalar kamroq bo'lib, nisbatan izchilroqdir. O'zbekiston aynan shu yo'ldan bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan boshqaruvga asoslangan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bozor munosabatlariga o'tishning o'z modeli, o'ziga mos yo'lini ishlab chiqqan. Bu yo'lning bir qismini Respublika bosib o'tdi. Islohotlarning birinchi bosqichida (1991-1994) yangi tuzumning poydevorini tayyorlash vazifasi hal etildi, yangi iqtisodiy tuzumning huquqiy asoslari yaratildi, aholi tomonidan tanlangan yo'lning to'g'ri ekanligini tushunish, faqat bozor iqtisodiyotiga o'tishgina kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, jamiyatni demokratlashtirishning, har bir shaxs uchun munosib yashash sharoitlarini yaratishning asosi ekanligini tushuntirish vazifalari bajarildi. Odamlarning va xo'jaliklarning yangi sharoitlarga sekin-asta moslashish jarayoni kuzatildi.

Keyingi bosqichda xususiy mulkchilik plyuralizmiga asoslangan ko'pukladli iqtisodiyotni shakllantirish vazifasi bajarilmoqda. Buni amalga oshirish uchun iqtisodni sekin-asta va bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, keyin esa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi davlat mulkini aksiyalashtirish amalga oshirila boshladi. Qishloqlardagi xo'jaliklarda ham keng miqyosda islohotlar olib borilmoqda. Bu jarayon o'ziga xos tomonlarga ega. Bizning hududlarda dehqonchilik tabiiy sharoitlardan kelib

chiqqan holda sug'orishga moslashgan. yer suvsiz o'z qiymatini yo'qotadi. Shu bois bu yerda gap faqat yer haqida emas, balki yer-suv munosabatlari haqida boradi. Sug'orishga moslashgan dehqonchilik hududlari iqtisodiyoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi unga o'z vaqtida «ishlab chiqarishning osiyo uslubi» nomi berilishi asos bo'lgan. O'ziga xos tomoni deganda yerning davlat tasarrufida ekanligi, suv inshootlari hamda ijara munosabatlari nazarda tutiladi. Inqilobdan avval Qo'qon, Xiva xonliklari, Buxoro amirligida yerga xususiy mulkchilikning uch shaklidan – amlok (davlat), mulk (xususiy) va vaqf (musulmonlarning diniy tashkilotlari mulki) shakllari orasida amlok mulkchiligi – sug'orish inshootlariga ham egalik qiluvchi xon xukumati mulkdorchiligi shakli yetakchi va hal qiluvchi hisoblangan. Amlok mulkchiligida dehqonlarga yer hissadorlik sharti bilan ishlatishga berilgan.

Sug'oriladigan yerlarning xususiyatlarini va shakllangan an'analarini hisobga olgan holda bugungi kunda ham qishloqlarda islohotlar olib borilayotgan bir vaqtda yerni sotish huquqi bilan xususiy mulk sifatida bo'lib berish maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi. yer davlat mulki bo'lib qolaveradi va u umr bo'yi foydalanilib, meros qoldirish huquqi bilan berilishi mumkin. Shu shartlar asosida fermer (dehqon) xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari kooperativlari tuzilmoqda. Agrar sektorda yangi iqtisodiy munosabatlarga asoslangan kollektiv xo'jalik – shirkatlar xo'jalikning asosi bo'lib qolmoqda. Agrar islohotlarni amalga oshirishda qishloqlardagi ishga yaroqli aholining ko'pligi masalasi u yerlarda zamonaviy texnika bilan ta'minlangan kichik va o'rta korxonalarni tashkil etish hamda xizmatlar ko'rsatish sohalarini kengaytirish yo'li bilan hal etish muhimdir.

Islohotlarning bugungi bosqichida iqtisodiyotning *ko'pukladli* turi shakllanib bormoqda. Unga xususiy mulkchilikning turli shakllari plyuralizmi – davlat va nodavlat (xususiy, aksionerlik, jamoa, kooperativ mulki), shuningdek qishloq xo'jaligining dehqon-fermer sektoridagi ijaraviy mulki ko'proq xosdir. Shu bilan bir qatorda davlat hanuzgacha ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yo'qotmagan holda barqarorlik, himoya va adolat kafolati rolini o'ynashda davom etmoqda. Shunga ko'ra, mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichi o'zgarib borayotgan sharoitlarga to'liq javob bera oladigan talab va prinsiplarni amalda qo'llashni talab qiladi. Mustaqil taraqqiyotning birinchi o'n yilligi natijalari asosida islohotlarni chuqurlashtirish dasturi qabul qilingan edi. Unda iqtisodiyotni erkinlashtirishni davom ettirish va chuqurlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, iqtisodiyotda xususiy mulkchilik ta'sirini kuchaytirish, kichik va o'rta biznes tadbirkorlariga erkinlik va imtiyozlarni ko'paytirish kabilar nazarda tutilgan.

Adabiyotlar

2. Mamashokirov S. Usmonov E. Barqaror taraqqiyotning ekologik xavfsizlik masalalari.-T.: Ma'naviyat, 2008. -250 b
3. Shermuxamedova N.A. Filosofskie osnovы formirovavniya ekologicheskogo myshleniya //Vestnik ekologii 2003 №2 –S .3-5.
4. Girusov E.V. Osnovy sotsialnoy ekologii. -M.: 1998.
5. Globalistika: Ensiklopediya / gl. red. I.I.Mazur, A.N.Chumakov. M., 2003.
6. Kochergin A.N. Ekologiya i texnosfera. -M.: 1995.
7. Los V.A., Ursul A.D. Ustoychivoe razvitie. -M.: 2000.
8. Рыгин А.Г. Природная среда (sotsialno-filosofskiy analiz). -M.: 2004.
9. Современные глобальные изменения природной среды: в 2 т. / Otv. red. N.S.Kasimov. M., 2006.
10. Filosofiya prirody: koevolyusionnaya strategiya. -M.: 1995.
11. Filosofiya ekologicheskogo obrazovaniya. -M.: 2001.
12. Ekologicheskii ensiklopedicheskiy slovar. -M.: 2000.

7-MAVZU: JAMIYATNING IJTIMOIIY TARKIBI (2 S.)

Reja:

1. Jamiyatning ijtimoiy hayoti.
2. Ijtimoiy falsafa tarixida inson va jamiyatning o'zaro munosabati.
3. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi. Jamiyatning etnik tarkibi.
4. Jamiyatning demografik tarkibi.
5. Jamiyatning sinfiy tarkibi.

Inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy bog'liqdir: inson jamiyatdan tashqarida o'zining haqiqiy mohiyatini yo'qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig'indisidagina iborat emas. Bundan tashqari, jamiyat odamlar o'rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi; bunday munosabatlar kishilarni oila, urug', qabila, millat, davlat va nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Odamlar yig'indisini xis etish, kuzatish mumkin. Biroq odamlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish, kuzatish imkonsizdir, chunki ular yashirin xarakterga ega bo'lib, jisimsiz, nomoddiydir. Jamiyat hayotida ana shunday munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ijtimoiy falsafa tarixida inson va jamiyatning o'zaro munosabati masalasi turli tortishuvlarga sabab bo'lgan. Faqat ayrim insonlarga mavjud, jamiyat mavjud emas, deb hisoblaydigan faylasuflar davlat va boshqa ijtimoiy tashkilotlar mavjudligini inkor etganlar (Bularni so'l individualistlar, anarxistlar deb ataladi)

Boshqa bir faylasuflar faqat jamiyatgina oliy qadriyat, insonlar esa uning kichik qismlari deb hisoblaydilar. Ular jamiyat asosini tashkil etuvchi real insonni ko'rmaydi. Bular marksizm tarafdorlari bo'lib, jangovar kollektivism, totalitarizm g'oyasini ilgari surdilar. Odamlar va ular o'rtasidagi munosabatlar jamiyat strukturasi tayanch elementi bo'lsa ham, uning butun mazmunini belgilay olmaydi.

Jamiyat tarkibi (strukturasi) ikki o'lchamli emas, balki ko'p o'lchamlidir. Jamiyatni nazariy jihatdan tahlil qilish qulay bo'lishi uchun jamiyat strukturasi ikki asosiy elementga bo'linadi. Jonli, real jamiyat esa juda ko'plab aloqa, munosabat va o'zaro ta'sir birligidan iborat bo'lib, ular xilma-xil elementlar majmuasidan yaxlit ijtimoiy organizmni vujudga keltiradi. Jamiyatni yaxlit va bir butun tizim sifatida tushunish qadimgi dunyo faylasuflari uchun ham xos edi. Biroq XIX-XX asrga kelib, jamiyatni tizimiylik asosida tadqiq etishda O. Kont, G. Spenser, K. Marks, E. Dyurkgeym, M. Veber, P. Sorokin, T. Parsons kabi olimlarning xizmatlari salmoqli bo'ldi.

Jamiyat elementlari deganda ijtimoiy tizimning eng kichik qismlari tushuniladi. Ijtimoiy munosabatlar - jamiyatni tashkil etuvchi sub'ektlar o'rtasidagi muayyan aloqa va bog'liqlikdir. Barqaror va doimiy ravishda takrorlanuvchi munosabatlar asta-sekin barqaror ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, institutlarning shakllanishiga olib keladi. Jamiyatdagi

munosabatlar qanchalik boy, xilma-xil bo'lsa, bu jamiyatning demokratik xarakterga ega ekanligidan, rivojlanganligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy tizimni boshqa tizimlardan ajratib turadigan muhim xususiyatlar quyidagilardir; 1) jamiyatni tashkil etadigan elementlarning ko'pligi;

2) ijtimoiy tizim elementlarining rang-barangligi, turlicha sifat va xarakterga ega ekanligi;

3) ijtimoiy tizimning asosiy elementi va yadrosi bo'lgan insonning . betakrorligi, o'z faoliyati va xulq-atvorini erkin namoyon etishidir.

Bu holatlar jamiyat istiqboli qanday bo'lishini oldindan bilishni nihoyatda qiyinlashtiradi.

Biroq shunga qaramay ijtimoiy-falsafiy tafakkur jamiyat elementlarini bir-biri bilan uzviy bog'laydigan yagona asosni topishga intilib keldi. Bu asos inson faoliyatidir.

Inson faoliyati tufayli butun ijtimoiy tizim harakatga keladi, turli elementlar o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi.

Ijtimoiy hayotning mohiyatli asosi bo'lgan inson faoliyatining ro'y berishi uchun quyidagi to'rt element talab etiladi. Birinchi va asosiy element inson, kishilardir. U faoliyatning faol qismi, faoliyat sub'ektidir.

Inson faoliyatining ikkinchi elementi faoliyat ob'ektlaridir. Bu inson faoliyati yo'naltirilgan narsalargina emas, balki insonning o'zi ham faoliyat ob'ekti hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi, vrach faoliyati insonga qaratiladi. Lekin ko'pincha narsalar faoliyat ob'ekti hisoblanadi. Inson faoliyati uchun zarur bo'lgan uchinchi eng muhim element til, nutq, informatsiyadir. Bunday belgilersiz inson faoliyatining amalga oshishini hatto tasavvur etib bo'lmaydi. Ramzlar va belgilar inson ongiga ta'sir etib, faoliyatning uzluksiz ravishda amalga oshishini ta'minlaydi. Inson faoliyatining to'rtinchi muhim elementi barqaror aloqa va munosabatlardir. Barqaror munosabatlar inson faoliyati elementlarini harakatga keltiradi.

Demak, sxemalarda ko'rsatilganidek, ijtimoiy faoliyatning to'rt asosiy elementiga mos ravishda ijtimoiy hayotning quyidagi to'rt sohasi vujudga keladi:

1. ma'naviy soha,
1. moddiy soha,
1. siyosiy soha,
1. ijtimoiy soha.

Hozirga qadar adabiyotlarda jamiyatning moddiy va ma'naviy sohalari bir-biridan keskin farqlanar, uning moddiy jihatiga ko'proq e'tibor berilar edi. Xolbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liqdir. Huddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari jamiyatning moddiy va ma'naviy tomonlarini bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish ham mantiqqa ziddir. Prezident I. A. Karimovning asarlarida jamiyatning moddiy va ma'naviy tomonlarini

uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotning asosi ekanligi ta'kidlangan. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini singdirishga katta e'tibor berilyapti. Insonning haqiqiy mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yuksak ma'naviyat tufayligina inson o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Har qanday jamiyat hayotida ma'naviyat, ma'naviy ishlab chiqarish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kishilar ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida olamni, atrof-muhitni to'laroq biladilar, ijtimoiy hayot qoidalarini o'zlashtiradilar, birlari bilan insonlarcha munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida ilg'or g'oya, nazariya va ta'limotlar yaratiladi. Bu esa ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, Ilm-fan va texnika taraqqiyoti jamiyatning moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun zamin yaratadi. Ta'lim-tarbiya tizimi jamiyat ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Hayotga kirib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, madaniyati, hayotga va odamlarga bo'lgan munosabati maktabda shakllanadi. San'at, adabiyot, madaniyat, ilm-fan arboblarning mehnati jamiyatning yuksalishida alohida o'rin tutadi, shu boisdan ham ularning mehnati qadrlanadi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy sohalari kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda vujudga keladi. Jamiyatning moddiy hayotiga:

- kishilarning yashashlari, shaxs sifatida kamol topishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi;
- moddiy boyliklar, tabiiy zahiralarni kiradi.

Jamiyatning moddiy hayoti kishilar uchun tirikchilik ne'matlari, vositalari yaratishga qaratilgan. U kishilarning moddiy

ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi. Moddiy ishlab chiqarishda jismoniy mehnat kishisi asosiy rol o'ynaydi. To'g'ri, bu sohada aqliy mehnat kishilari, (injener, agronom, zootexnik, rahbarlar va h.k.) ham faoliyat ko'rsatadi, biroq yetakchi mavqeyi jismoniy mehnat xodimlari egallaydilar.

«Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish - bu sohadagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridir.» (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. «O‘zbekiston», 2000. 31- bet). Moddiy ishlab chiqarishsiz jamiyat hayotining normal tabiiy rivojlanishini hatto tasavvur etib bo‘lmaydi. Biroq moddiy soha ahamiyatini haddan tashqari bo‘rttirish, butun e‘tiborni moddiy ishlab chiqarishga qaratish ham jamiyatni ma‘naviy inqirozga olib kelishi mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining ko‘rsatishicha, hozirgi paytda tovar ishlab chiqarishga nisbatan xizmat ko‘rsatish sohasi foydaliroq bo‘lib qolyapti. D. Bell, 3. Bzejnskiy singari g‘arb olimlari o‘z tadqiqotlarida postindustrial jamiyatda moddiy ishlab chiqarishning ahamiyati tobora kamayib borishini ko‘rsatyaptilar.

Jamiyatning moddiy va ma‘naviy hayotini bir-biridan farqlash ijtimoiy hayot mohiyatini chuqurroq bilishga imkon beradi. Aslida real hayotda ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi. Ilmiy iazariya va amaliyotda jamiyatning moddiy va ma‘naviy hayotini bir-biridan ajratish, ulardan birini muhimroq, boshqasini nomuhim deb hisoblash jamiyatning tabiiy-tarixiy rivojlanishini izdan chiqaradi.

Jamiyatning ma‘naviy-intellektual taraqqiyoti uchun iqtisodiy zamin yaratish qanchalik muhim bo‘lsa, moddiy farovonlikni ta‘minlash uchun ma‘naviy-intellektual salohiyatni kuchaytirish ham shunchalik muhimdir. **Jamiyatning siyosiy sohasi.** Jamiyat hayotida moddiy va ma‘naviy ishlab chiqarish qanchalik muhim o‘rin tutsa, uni boshqarish ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning turli elementlari normal ishlashi, bir-biriga muvofiq faoliyat ko‘rsatishi uchun uni boshqarish talab etiladi. Boshqarish davlatdan tortib korxon va oilagacha bo‘lgan keng sohani qamrab oladi. Boshqarish bilan maxsus kishilar, siyosatchilar, rahbar xodimlar shug‘ullanadilar. Boshqarish turli darajalarda amalga oshirilsa ham, boshqarish faoliyatining eng yuqori shakli siyosiy faoliyat hisoblanadi.

Jamiyatni siyosiy boshqarishning xilma-xil shakllari mavjud bo‘lib, har bir mamlakatning milliy mentaliteti, an‘analariga mos ravishda siyosiy boshqarishning monarxiya, aristokratiya, respublika shakllari qo‘llaniladi. Bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan yangi ijtimoiy-siyosiy tuzumga o‘tish davrlarida qadriyatlarni qaytadan baxolash, jamiyat hayotida davlat, oila, mehnat, mulk, siyosiy partiyalar, din, fan va boshqa ijtimoiy institutlar mohiyatini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keladi. Bunda faqat mazmunga emas, balki shakl ham qayta quriladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillikning qo‘lga kiritilishi, mustabid tuzum mafkurasi va siyosatining inqirozga yuz o‘girishi bilan «...davlatning mohiyati butunlay tubdan o‘zgardi. Davlat dastlabki bosqichda jamiyatni yangilashning eng faol kuchiga aylangani

holda islohotlarning bosh tashabbuskori va yo'naltiruvchisi, ijtimoiy hayotdagi yangi g'oyalarning asosiy amalga oshiruvchisi bo'lib qoldi».¹

Inson ehtiyojlarining muttasil o'sib borish qonuniyati mavjud siyosiy sistema oldiga qator talablar qo'yadi. Mamlakatimizda uzoq yillar davomida xukm surib kelgan ma'muriy buyruqbozlikka asoslanuvchi siyosiy sistema o'zining tub mohiyati bilan shaxsning har tomonlama erkin rivojlanishiga imkon bermaganligi uchun ham muqarrar ravishda inqirozga yuz o'girdi. Iqtisodiy tanazzul siyosiy sistemaning yemirilishiga olib keldi. «Bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish muqarrar ravishda shu paytgacha misli kurilmagan siyosiy faollik sharoitida yuz beradi. bu hol tabiiydir. Shu paytga kelib karaxtlik holatidan halos bo'lgan jamiyat to'planib qolgan jami ijtimoiy ziddiyatlarni bir zumda yuzaga chiqaradi»²

Jamiyatni boshqarish tizimi har bir xalqning milliy xususiyat, psixologiyasi, an'nalari, madaniy salohiyatiga mos ravishda vujudga keladi. Turli jamiyatlarda siyosiy boshqarish usullarining turlicha xarakteri ularning ilg'or yoki qoloq ekanligidan dalolat bermaydi. Siyosiy boshqarishning har bir usuli turli tarixiy sharoitlarda turlicha samara berishi mumkin. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borgani sayin siyosiy boshqaruv usullari ham tobora insoniylashib boradi. Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi siyosiy boshqaruvning demokratik shakli ancha qulay va insonparvar ekanligini ko'rsatdi. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistonning respublika deb e'lon qilinishi va mamlakat Konstitutsiyasining qabul qilinishi jamiyatimizni siyosiy boshqarish jahon hamjamiyatining ilg'or tajribalariga, xalqimizning ma'naviy salohiyatiga tayanishidan dalolat beradi.

Ochiq demokratik jamiyatda davlat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar tashabbuskori, jamiyat rahnamosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Demokratik jamiyatda siyosiy boshqarish huquqiy davlatchilik asoslarini yaratishni taqozo etadi. Qonun ustuvorligi demokratik jamiyat va davlat hayotining muhim sharti hisoblanadi. Demokratik davlat jamiyatni boshqarishda konstitutsiya talablariga bo'ysunar ekan, u jamiyatni tanho boshqarish da'vosini qilmaydi. Balki jamiyatni boshqarishda turli diniy, ilmiy tashkilotlarga, jamoat tashkilotlariga, aholining o'z-o'zini boshqarish organlariga keng vakolatlar beradi. Demokratik jamiyatda dinning davlatdan, maktabning diniy muassasalardan ajratilishi, kishilarga vijdon erkinligi huquqining berilishi progressiv hodisa, jamiyat erkin rivojlanishining muhim shartidir.

Odatda dunyoviy va diniy davlatlar bir-biridan farqlanadi. Dunyoviy davlatlar konstitutsiyaga, ilm-fan xulosalariga asoslanadi. Diniy yoki teokratik

¹ И.А.Каримов. «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.», Т., «Ўзбекистон», 1997, 158-бет.

² И.А.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.», Т., «Ўзбекистон», 1997. 182-бет.

davlatlar diniy ta'limot va shariat hukmiga asoslanadi. Bunday davlatlar o'z fuqarolarining vijdon erkinligini ta'qiqalaydi; ta'lim-tarbiya asosan diniy ruhda olib boriladi.

Demokratik davlatda ta'lim-tarbiya muassasalari jamiyatni oqilona boshqarishga yaqindan yordam beradi; yosh avlodga puxta siyosiy va huquqiy bilim beradi, mavjud ahloqiy, huquqiy normalarni singdiradi, siyosiy ong va madaniyatni rivojlantiradi. «Jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash - mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning asosiy yo'nalishidir»¹

Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, yetilgan muammolarni oqilona hal etish, mamlakat fuqarolarining siyosiy faolligini oshirish-jamiyat siyosiy sistemasini tashkil etuvchi barcha boshqaruv organlari va tashkilotlarning asosiy maqsadi hisoblanadi. Jamiyat a'zolarini umumiy maqsad yo'lida yanada jipslashtirish, ijtimoiy-siyosiy faollikni kuchaytirishda milliy g'oya va milliy mafkura muhim rol o'ynaydi. G'oyaviy mushtaraklik jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh, qatlam va sinflarda birdamlik tuyg'usini kuchaytiradi, turli siyosiy harakat va partiyalar faoliyatini bunyodkorlik ishlariga yo'naltiradi.

Ijtimoiy soha. Jamiyatning insonparvarlik mohiyati uning aholi qatlamlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratishida, kishilarning ilm olishi, sog'lig'ini tiklashi, dam olishi, mehnat qobiliyatlarini tiklashi uchun g'amxo'rlik qilishida yaqqolroq; namoyon bo'ladi. Oilani, keksalarni onalik va bolalikni ijtimoiy himoyalash ijtimoiy xizmat ko'rsatishning muhim shakllaridir.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tish davrida aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berila boshlandi. «Tarix sabog'i shundayki, -deb yozadi I.A.Karimov, - uning aynan keskin burilishlarida, ijtimoiy formatsiyalar almashinayotganda ijtimoiy muammolar va zidsiyatlar g'oyat keskinlashadi, milliy xavfsizlikka, fuqarolar tinchligiga va barqarorlikka tahdid soluvchi omilga aylanadi».²

Mamlakatimizning milliy mustaqillik yillarida orttirgan tajribasi jamiyat barqarorligi, tinch-totuvligini ta'minlashda ijtimoiy sohaga ko'proq e'tibor berishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. «Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davrida biz oldindan butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan bordik. Bu chora-tadbirlar odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishda muhim rol o'ynadi. Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlab qolish omili bo'ldi»³

¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т., «Ўзбекистон» 2000, 29 бет.

² И. А. Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997.-Б.212.

³ И.А.Каримов Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., «Ўзбекистон», 1997. –Б.218.

Jamiyatning rivojlanishida kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Kishilarning qobiliyatiga qarab mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida turli kasblar bilan shug'ullanadigan qator toifalar, guruhlar, qatlamlar va sinflar vujudga keladi. Ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rinni egallaydilar; jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo'shadilar.

Sotsial stratifikatsiya aholining ierarxik mavqeiga mos ravishda ijtimoiy qatlamlarga bo'linishidir. Ijtimoiy stratifikatsiya oliy va quyi qatlamlar mavjudligini, huquq va imtiyozlarning tengsizligini, mas'uliyat va burch tengsizligini e'tirof etadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning konkret shakllari nihoyatda xilma-xildir.

Agar jamiyat a'zolarining iqtisodiy statusi turlicha bo'lsa, mulkdor va mulksizlar mavjud bo'lsa, jamiyat qanday shaklda tashkil etilishidan qat'i nazar uning iqtisodiy tabaqalanishi murqarrardir. Agar biron bir guruh ichida mansab va obro'oiga, unvon va lavozimiga qarab turli ierarxik rang (daraja) mavjud bo'lsa, bu guruhning siyosiy differensiallashganligidan dalolat beradi. Agar jamiyat a'zolari o'z faoliyat turiga qarab turli guruhlarga bo'lingan bo'lsa, ayrim kasblar boshqalariga nisbatan qadrliroq bo'lsa, professional guruh a'zolari rahbarlar va itoat qiluvchilarga bo'lingan bo'lsa, bunday guruh professional differensiallashgandir. Ijtimoiy stratifikatsiya iqtisodiy, siyosiy va professional shakllardan tashkil topadi. Barcha a'zolari har jihatdan teng bo'lgan ijtimoiy guruh, hech qachon bo'lmagan va bo'lmaydi. Ijtimoiy stratifikatsiya - har qanday uyushgan jamiyatning doimiy tavsifidir.

Har bir ijtimoiy struktura bo'sh yerda vujudga kelmaydi: balki ilgari mavjud bo'lgan ijtimoiy struktura negiziga yangilik kiritish orqali vujudga keladi. O'tmishda mavjud bo'lgan va bugungi kundagi mavjud ijtimoiy struktura o'rtasida tarixiy aloqadorlik mavjuddir. Ana shu bog'liqlik insoniyat jamiyati rivojlanishining yagona jarayon sifatida ro'y berishini taqozo etadi.

Tarix takrorlanmaydigan faktlarni o'rganadi. Shu boisdan ham fatalizm nazariyotchilarining voqeya, hodisalar, faktlarning albatta oldindan belgilanganligi to'g'risidagi fikriga qo'shib bo'lmaydi. Insoniyat tarixiga faqat takrorlanmaydigan hodisalarigina kiradi. Tarixiy davrlar individual hodisalarni namoyon etadi. Falsafada jamiyat taraqqiyotining mezoni nima, degan masalada turlicha qarash va nazariyalar vujudga keldi.

K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'ladi; barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirdi. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirdi va bu ziddiyatlarni hal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy revolyusiyani amalga oshirishni, miqdorlar sinfini tugatishni taklif etdi. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning biryoqlama va xato ekanligini ko'rsatdi. Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekanligi to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surildi. Bunday qarashga ko'ra jamiyat taraqqiyotini agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga

ajratildi. Adabiyotlarda jamiyat rivojlanishiga sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos tomonlarini saqlab qolgan holda boshqa xalqlarning tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

G'arbda ijtimoiy rivojlanishning siklli nazariyasi keng yoyilgan bo'lib, uning yirik vakillari O. Shpengler va A. Toynbi hisoblanadi. O. Shpengler o'zining «evropa quyoshining so'nishi» asarida jahon tarixini «ko'plab madaniyatlar fenomeni» sifatida tavsifladi. Har bir madaniyat bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda vujudga keladi, ularning har biri o'zining ma'naviy harakatlantiruvchi kuchiga, o'z qiyofasiga, o'z hayoti va o'limi tarixiga egadir. Shpenglarning fikricha, tarix progress nimaligini bilmaydi: ulardan har birining madaniyati betakror bo'lib, ularni bog'lab turadigan mezon yo'q.

Angliyalik sotsiolog A. Toynbi ham ana shu g'oyani davom ettirdi. Uning fikricha, butun insoniyat tarixi 21 sivilizatsiya tarixidan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan ichki bog'lanmagan. Har bir sivilizatsiya o'z rivojida: vujudga kelish, o'sish, sinish, parchalanish va halokat bosqichini kechiradi, so'ng o'rnini boshqa sivilizatsiyaga bo'shatib beradi. Toynbi barcha sivilizatsiyalardagi ijtimoiy jarayonlar bir-biriga o'xshash ekanligini ta'kidladi.

Sivilizatsiya rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi «ijodkor ozchilik bo'lib, u inert ko'pchilik» ni orqasidan yetaklashga qodirdir. «Ijodkor elita» asta-sekin ijtimoiy-siyosiy muammolarni hal etish qobiliyatini yo'qotgach, o'z hokimiyatini avtoritet orqali emas, balki zo'rvonlik bilan amalga oshira boshlaydi. Agar asosiy omma harbiy holat yoki tabiiy ofatdan qirilib ketmasa, bu sivilizatsiyani yemiradi. A. Toynbi hozirgi paytda besh sivilizatsiya (xitoy, hind, ispan, rus va g'arb) saqlanib qoldi, degan xulosaga keldi. Har bir yangi sivilizatsiyaning vujudga kelishi, Toynbi fikricha, dinning yangi shakllari paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

P. A. Sorokin jamiyat tarixini madaniy va ijtimoiy sistemalarning almashinuvi sifatida izohladi. Tarixiy jarayon madaniyatning uch tipi (xissiy, ratsional, intuitiv) almashinuidan iboratdir.

Jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarini ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Barqarorlik nisbiy sokinlik, ijtimoiy tizimning normal faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sistemaning tanazzuli alomatidir. Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashinib turishi ham mumkin. Jamiyat ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishib, ijtimoiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi. Ularni hal etish

vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy salohiyati, milliy psixologiyasiga mos ravishda mavjud siyosiy sistema kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini hayotga tatbiq etadi. Insoniyat jamiyati tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxik, aristokratik, totalitar va demokratik usullar amal qilib kelgan.

Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yuqolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat prinsiplarining buzilishida, davlat organlarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli konfliktlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Beqarorlik ichki va tashqi tahdidlar tufayli vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tizimdan yangi bir ijtimoiy-siyosiy tizimga o'tish davrida keskinlashishi mumkin. I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida bozor munosabatlariga o'tish davrida ommaviy noroziliklar, hatto fuqarolar urushi vujudga kelishi mumkinligini, jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun yetilgan muammolarni oqilona hal etish zarurligini ko'rsatdi. Jahon tajribasi har bir mamlakat xalqlarining o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy-davlatchilik asoslarini yaratish, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini belgilash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli-jamiyatning tadrijiy rivojlanishi konsepsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli butun insoniyatning ilg'or tajribasiga, xalqimizning milliy xususiyatlari va mentalitetiga tayanadi.

Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanligini, jamiyatning tadrijiy (evolyusion) taraqqiyoti normal-tabiiy rivojlanish yo'li ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini • shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashsiz evolyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish-tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir». «Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inkilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir» (I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. T., «Uzbekiston», 1992. 10-41-46-betlar). O'zbek modelining asosiy tamoyillari:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;

- kuchli ijtimoiy siyosat;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari milliy davlatchilik asoslarining barpo etilishida, milliy qadriyatlarning tiklanishida, milliy o'zlikning anglanishida, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan ustuvorligining e'tirof etilishida, milliy mentalitet xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishida, milliy g'oya va milliy mafkura ijtimoiy-siyosiy faollikning muhim omili ekanligining e'tirof qilinishida, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishida, o'z imkoniyatlariga tayanishida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishida, xorijiy mamlakatlar bilan turli sohalardagi munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi prinsiplari ishlab chiqilishida o'z ifodasini topdi. «Biz tanlab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'alariga, odatlariga, madaniyati va tiliga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalarni yangi mafkuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iborat edi»¹

. O'zbek modelining hayotiyiligi jahon jamoatchiligi, yetuk fan, siyosat, san'at arboblari tomonidan e'tirof qilindi.

O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlari rivojlanishida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish usullari milliy g'oya va mafkurada o'z ifodasini topadi. Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, xususiy mulkchilikni qo'llab-quvvatlash, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, chet mamlakatlar bilan ilmiy, madaniy va texnikaviy hamkorlikning milliy manfaatlar yo'lida xizmat qilishi milliy g'oya va mafkuraning mohiyatidan kelib chiqadi. Milliy mafkura o'zida jamiyat a'zolarining ezgu orzu-umidlarini, maqsadlarini ifodalaydi; ularning mehnat faolligi, ijtimoiy-siyosiy aktivligini oshiradi, jamiyatni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Oila-jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish mumkin va lozim. Agar oilada o'zaro hurmat va ongli intizom bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga

¹И.А.Каримов, «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...» Т., 1997. –Б.184

nisbatan ezgulik bilan' mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. U o'zining ko'p asrlik tarixiga, mustahkam va ma'naviy tayanchlariga egadir.

Oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topgandir. Shu ma'noda oilani kichraytirilgan jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va yaxshi insoniy fazilatlarni o'zida shakllantiradi. Barkamol inson shaxsini shakllantirish, insonni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi, nikohni rasman qayd etadi yoki bekor qiladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liqdir. Oila er va xotinning mavqeyi, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar avvalo oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi - o'zbekona qadriyatdir. Hadisi shariflarda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqeyi bilan belgilanishini alohida ta'kidlaganlar. Ayol-oila bekasi, bolalar tarbiyachisi, erning yaqin maslahatchisi, ishlab chiqarish dodimi, jamiyatning faol a'zosidir. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy, salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqeyi va rolini kuchaytirishga qaratilgandir. Oila muammolarini ilmiy asosda o'rganishni va ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi. Oila ma'naviyat o'chog'idir. Ona o'z bilimi, tajribalarini farzandiga til orqali singdiradi. «Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili bu millatning ruhidir... O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar»¹ Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, milliy tilimiz xususiyatlariga mos bo'lgan yangi alifboga o'tilishi milliy tilimizning mavqeyini oshirish va uni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o'rni va roli.

Davlat - jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat

¹ И.А.Каримов, Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман //«Фидокор» газ. 2000 йил 8 июнь

umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalarini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an'alarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy taraqqiyot konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy davlat, yangi demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir.

«Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g'oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo'lib kelayotgan xilma-xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir».¹

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarga ajratish mumkin. Bu tashkilotlarga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyati barpo etish-O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi.

Fuqarolik jamiyati - kishilarning yuksak ahloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'pqirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarish, jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

¹ И.А.Каримов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида...» Т.,1997. –Б.159.

«Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor boʻlib, u insonning oʻz-oʻzini kamol toptirishiga... yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkynliklari toʻla darajada roʻyobga chiqishiga koʻmaklashadi».¹ Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning oʻz-oʻzini boshqarish organlari qoʻliga oʻta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarni barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati. ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kengaytirilishi xalqimizning oʻz-oʻzini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, oʻz-oʻzini boshqarish, demokratik qadriyatlarni roʻyoga chiqarish maktabidir.

Sharqda fuqarolik jamiyatining tub negizlari asta-sekinlik bilan shakllangan va taraqqiy etgan. Sharq donishmandlari ijtimoiy

jarayonlarga har qanday sun'iy aralashuvning mudhish oqibatlarini koʻrsatganlar. Shuning uchun ham jamiyat hayotidagi barcha oʻzgarishlar xalqlarning fikrlash tarzi, milliy anʼanalari, urf-odatlariga muvofiq ravishda tadrijiy ravishda roʻy bergan. Ijtimoiy adolat, tartib-intizom, aholi tinchtotuvligini taʼminlashga alohida eʼtibor berilgan; hurfikrlilik, boshqa dinlarga nisbatan sabr-toqatlilik mavjud boʻlgan. Davlat fuqarolarning shaxsiy va oilaviy hayotsga deyarli aralashmagan.

Savdo-sotiq, hunarmandchilik, odob-axloq, milliy anʼanalar asosida rivojlangan. Davlat dehqonchilik ishlab chiqarishi uchun hayotiy ahamiyatga ega boʻlgan sun'iy sugʻorish inshootlari qurishga bevosita rahnamolik qilgan. Sharqda odamlar asrlar davomida jamoa boʻlib yashagan va mehnat qilgan, jamoatchilik asoslari xalq ongiga chuqur singib ketgan.

Tayanch tushunchalar:

Jamiyatning ijtimoiy hayoti, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, etnik tarkib, demografik tarkib, sinfiy tarkib, maʼlumot darajasiga koʻra jamiyatning tarkibi, urbanizatsiya, ruralizatsiya.

Nazorat uchun savollar:

1. «Jamiyatning ijtimoiy hayoti» tushunchasining mazmuni.
2. Jamiyatning etnik tarkibiga nimalar kiradi?
3. Jamiyatning etnik tarkibi. Milliy va millatlararo munosabatlarni tavsiflang.
4. Ijtimoiy sinf nima?
5. Ijtimoiy qatlam nima?
6. Ijtimoiy tabaqa nima?
7. Intelligensiya qanday birlikka mansub?

¹ И.А.Кармов «Ўзбекистон XXI аср бўсағасида» Т., 1997. –Б.173

8. Urbanizatsiya deganda nimani tushunsiz?
9. Ruralizatsiya qanday jarayon?

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka taxdid, bunyodkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O‘zbekiston» 1997 y., 211-220 betlar.
2. Islom Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. – T., «O‘zbekiston» 2005 y., 68-91 betlar.
3. S.E,Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya. Moskva, «VLADOS» 1998 y., 134-138, 191-198, 215-220 betlar.
4. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – T., «Sharq» nashr., 1999 y., 258-265 betlar.
5. Falsafa asoslari. – T., «O‘zbekiston» NMIU, 2005 y., 289-299, 300-336 betlar.
6. J.Tulenov Dialektika nazariyasi. T., «O‘zbekiston» 2001 y., 252-261 betlar.
7. Falsafa. Qomusiy lug‘at. – T., «Sharq» 2004 y.
8. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, FAIR-PReSS, 1999 yil, 83-130 betlar.
9. Falsafa. – Toshkent, 2006 y., 384-388 betlar.

8- MAVZU: IJTIMOIIY ONGNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI (2 S.)

Reja:

1. Jamiyatning ma'naviy sohasi
2. Kundalik ong tushunchasining mazmuni va moo‘iyati.
3. Ijtimoiy ong jamiyat ma'naviy hayotining asosi sifatida.
4. Huquqiy ongning namoyon bo‘lish shakllari.
- 5.. Sharq falsafasida insonning ichki olami to‘g‘risidagi qarashlar.

Jamiyatning ma'naviy sohasi

Jamiyatning ma'naviy sohasi ko‘pincha madaniyat bilan tenglashtiriladi. Bunday tenglashtirish unchalik to‘g‘ri emas, chunki madaniyat faqatgina ma'naviy bo‘lmasdan moddiy xususiyatga ham egadir. Buning ustiga, madaniyat integral xususiyatga ega bo‘lib, jamiyatning hamma tomonlari (iqtisodiyot sohasi iqtisodiy va moddiy madaniyatni, siyosat sohasi siyosiy madaniyatni o‘z ichiga oladi va boshqalar)ga kirib boradi. Moddiylik va ma'naviylik bir-biriga qarama-qarshi tomonlar (antitez) bo‘lmasdan, ular bir-biriga o‘zaro ta'sir qiluvchi va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ijtimoiy rivojlanish omillaridir. U yoki bu xalq ma'naviyatining shakllanishi, shu xalqning yashaydigan tabiiy-iqlimiy sharoitlari, ularning u yoki bu darajada rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ma'naviyat ijtimoiy hodisa va ilmiy tushuncha sifatida o‘zga xos ko‘plab xususiyatga ega bo‘lib, mustaqil ob'ekt sifatida falsafiy tahlil qilishni talab etadi. Barcha davrlarda yashagan mutafakkirlar «ruh», «ma'naviyat», «ma'naviylik» kabi tushunchalar to‘g‘risida bosh qotirganlar. Qadimgi Sharq (Xitoy, Hindiston, Vavilon, Misr va boshqalar), so‘ngra antik davr va o‘rta asrda yashagan mutafakkirlar ma'naviylik muammosiga katta e'tibor qaratganlar. Gilgamesh to‘g‘risidagi Shumer eposi, hind Vedalari va Upanishadlari, Konfutsiy, Avesto ta'limotlari, Aflotun, Arastu, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, A.Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlari bu masalaga qiziqish kuchli bo‘lganligi, ma'naviyat inson rivojlanishining eng cho‘qqisi ekanligi va u doimo ilmiy-falsafiy qiziqish uyg‘otganligini ko‘rsatadi.

Yangi davrga kelib, bu muammoga qiziqish yanada kuchaydi, bu qiziqish o‘sha davrlarda yuz bergan ilmiy-intellektual inqilob bilan, ko‘p narsalarga nisbatan qarashlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq edi. Fan va texnika qanchalik darajada rivojlansa, ma'naviyat to‘g‘risidagi masalaga shunchalik e'tibor kuchayib, ilmiy-texnik rivojlanishning ma'naviy mohiyati to‘g‘risidagi masala tez-tez yuzaga chiqib turdi. Ma'naviylik va onglilik, ma'naviylik va intellektuallik tushunchalarining ma'nolarini bir-biri bilan aralashtirib yuborish holatlari tez-tez yuz berib turdi. Shuni ta'kidlash kerakki, o‘zining ma'nosiga va

hajmiga ko'ra ma'naviy soha ratsional (aqllilik) sohasiga qaraganda kengroqdir. Ma'naviylikning shakllanishidagi asosiy narsa bilim olishgina emas, balki bilim olishning ma'nosi va maqsadidir. Ma'naviylik maqsadlar, mohiyatlar va qadriyatlar ierarxiyasining indikatorini bo'lib xizmat qiladi. U individni o'rab turgan voqeyelikni ma'naviy jihatdan yuksak darajada o'rganishini aks ettiradi.

Shuni aytish kerakki, ma'naviyat dunyoviy va diniy bo'lishi mumkin. Lekin ma'naviyatni faqat dinga bog'lash ham mumkin emas. Hatto o'rta asrlarda, din hukmron bo'lgan davrlarda ham ilg'or fikrga ega bo'lgan mutafakkirlar ma'naviyatni diniylikdan farq qilishini va undan kengroq ma'noga ega ekanligini qo'rqmasdan ta'kidlaganlar. Masalan, Ibn Sino o'zining buyuk asari «Donishnoma»da ma'naviylikni substansiya (moddiy substansiya bilan birga)ning ko'rinishlaridan biri, deb ta'riflaydi. O'rta asr mutafakkirlarini ateistlar deb atash mumkin emas. Lekin ular ma'naviyatni diniylikdan keng mazmunga ega deb o'ylaganlari haqiqat. Ma'naviylik va diniylik tushunchalarini ajratish tendensiyasi markaziy osiyolik ma'rifatparvarlar ijodida keyinroq paydo bo'ldi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari din va uning qadriyatlariga o'z e'tiborlarini qaratish bilan birga, ular davr uchun sof diniylikdan tashqari universallik (umumiylik) ham zarurligini tushunib yetdilar.

Zamonaviy jamiyat nafaqat texnologiya va iqtisodiyot, balki yuksak darajaga ega bo'lgan ma'naviylikdan ham iboratdir. *Ma'naviy soha – bu ma'naviy ishlab chiqarish (keng ma'noda tushunilganda), uning jarayoni va natijalarining birligidir.* U san'at, fan, falsafa, axloq, huquqiy va siyosiy ong, dindan iboratdir. Mazkur barcha ijtimoiy hodisalar jamiyat ma'naviy sohasining elementlarini (aniqrog'i kichik tizimlarini) tashkil qiladi.

Ma'naviylikning eng asosiy tomonlaridan biri milliy o'zini-o'zi anglashdir. Milliy o'zini-o'zi anglash ijtimoiy ongning alohida ko'rinishi bo'lib, unda milliy hayot o'z aksini topadi. Hozirgi davrda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jarayonlar qanday yuz berayapti hamda ular millatlar va xalqlarning ongida qanday o'z aksini topayapti degan masala to'g'risida aniq, muayyan tasavvurga ega bo'lish kerak. Millatlarning hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar ularning nafaqat hozirgi va kelajakdagi, balki o'tmishdagi ma'naviyatlarining ham qanday bo'lganligi to'g'risida o'ylashga majbur qilayapti. Yuz berayotgan o'zgarishlar lokal, mahalliy (milliy ongning alohida sohalariga taalluqli) yoki umumiy bo'lishi mumkin. Milliy o'zini-o'zi anglashning o'sishi millat turmush tarzining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa omillariga bog'liqdir.

Milliy o'zini-o'zi anglash hodisasi ongning yuqori darajasi bo'lib, u milliy ongdan bir muncha keyinroq paydo bo'ladi. O'zini-o'zi anglash bu insonning faqat o'zini-o'zi tushunib, anglab yetishi bo'lmasdan, uning o'z o'ziga, imkoniyatlariga, holatlariga bo'lgan munosabatini ham bildiradi. Bular to'liq ma'noda milliy o'zini-o'zi anglashga ham tegishlidir. Demak, milliy o'zini-o'zi anglash – bu o'zini-o'zi baholashi hamdir.

Hozirgi davrdagi milliy jarayonlarning rivojlanishini hisobga olib, ko'p tadqiqotchilar milliy o'zini-o'zi anglash bu millatning zaruriy, muhim belgilari deb hisoblamoqdalar.

Milliy o'zini-o'zi anglash tizimida quyidagi elementlarni ajratish mumkin:

- milliy identifikatsiya;
- hududiy birlikni tasavvur qilish;
- tili va madaniyat birligini anglash;
- ijtimoiy-davlatlilikka tegishli ekanini anglash;
- milliy manfaatlar¹.

Milliy o'zini-o'zi anglash murakkab va ko'pqirrali bo'lib, jamiyatning ma'naviy hayotidagi muhim hodisadir. Uning tuzilishidagi alohida tomonlarni o'rganish bilan uning bir butun hodisa sifatida anglash mumkin emas. Milliy o'zini-o'zi anglashning elementlarini birlikda va bir butunlikda olib qaralsagina, uning maxsus ma'naviy hodisa ekanligini tasavvur qilish mumkin. Bir ijtimoiy munosabatlar tizimidan boshqasiga o'tishda, bir davlat tizimidan boshqasiga o'tilishida ma'naviy hayotda ham inqirozga duch kelinadi. O'zbekiston sharoitida ma'naviy yangilanish o'z ma'naviy ildizlarimizga qaytish, jahon sivilizatsiyasi qadriyatlarini o'zlashtirish va ma'naviy hayotning yangi bozor sharoitlariga moslashish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Sovet davrida davlat mafkurasi, hukmronlik qiluvchi dunyoqarash – marksizm-leninizm edi. U sotsialistik jamiyatni qurishda, kommunistik partiya va sovet davlatining tashqi va ichki siyosatida nazariy qurol bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston davlat suverenitetiga erishgandan so'ng ijtimoiy hayotni demokratlashtirish e'lon qilindi. Bu markscha-lenincha mafkuraning yakkahokimligiga chek qo'yilganini bildirar edi. Shu bilan birga mafkuraviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik muhim edi, aks holda buning natijasida jamiyatda bir-biriga zid bo'lgan turli oqimlarning paydo bo'lishi va bu bo'shliqni turli anarxo-ekstremistik, fundamentalistik kabi yot g'oyalar egallab, jamiyatda parokandalikni keltirib chiqarish xavfi tug'ildi. Shunga ko'ra, jamiyatning umumiy g'oyalar asosida birlashuvi, jipslashuvi ob'ektiv ehtiyojga aylandi. Bu sharoitda, sovet imperiyasining bir asrdan ziyodlik zulmidan ozod bo'lgandan keyingi milliy g'oya milliy tiklanish g'oyasiga aylandi. Xalq o'zining milliy manfaatlarini anglab, ularni amalga oshirish yo'llarini izlab topishi kerak edi. Milliy istiqlol mafkurasining paydo bo'lishi va shakllanishi bunga ob'ektiv javob bo'ldi. U «millatni, jamiyatni, davlatni birlashtiruvchi bayroq» bo'lishi kerak edi².

Milliy istiqlol mafkurasining vazifasi odamlarning, ayrim shaxslarning ongiga milliy mustaqillikning jamiyatimiz uchun ahamiyatini singdirishdan iborat edi. Ikkinchidan, mustaqillikning siyosat, iqtisodiyot, ma'naviy hayot sohalaridagi mohiyati va mazmunini tushuntirib berish kerak edi. Uchinchidan, mustaqillikni mustahkamlash va fuqarolarning bu jarayonda konkret ishtirok

¹ А.С.Ачилдиев. Диалектика национального самосознания и национальной культуры. Т., 1997, 49-б.

² И.А.Каримов. Идеология – это объединяющий флаг нации, общества, государства. 7-б.

etishlari kerak edi. Va nihoyat, mamlakatni rivojlanishning yaqin kunlari va uzoqqa mo'ljallangan maqsadlari va istiqbollarini belgilab olish kerak edi. Bularning hammasi milliy istiqbol mafkurasining milliy o'zini-o'zi anglashning tiklanishiga, rivojlanishiga xizmat qilishini anglatadi.

Milliy o'zini-o'zi anglash – bu har qanday millatning asosiy belgilaridan biri bo'lib, u millatning hududiy birligi, tili, xo'jalik yuritish usuli, milliy xarakteri va boshqalar orqali aniqlanadi. Ayrim shaxs uchun o'zini-o'zi anglash – bu uning u yoki bu millatga mansubligini, uning tarixi, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini anglashdir.

Bizning sharoitimizda milliy o'zlikni anglash, birinchidan, tarixni tiklash, yurtimiz qadimgi sivilizatsiya o'chog'i ekanligini bilish, xalqimizning ko'p asrlik, tarixiy hodisalarni boshidan kechirganligi, bu tarixiy davrlarda tinch yaratuvchilik mehnati ham, ko'plab urushlar chog'ida esa g'alabalar, mag'lubiyatlar ham bo'lganini, A.Temur va Bobur kabi davlat arboblarning tarixiy ahamiyati tiklanganligini anglash demakdir. Ikkinchidan, o'zini-o'zi anglash o'tgan avlodlardan qolgan ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi bilan bog'liqdir. Bizning xalqimiz qadimgi va boy madaniyatga ega. Muhammad al-Xorazmiy va Ahmad al-Farg'oniy tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlar. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy – falsafiy fikrlar rivojlanishiga, Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro – dinshunoslikni, Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar va hokazo. Uchinchidan, o'zini-o'zi anglash va milliy ongning o'sishi milliy urf-odatlar, bayramlar va an'analarning tiklanishi bilan bog'liq. Ma'lumki, sovet davrida ularning ahamiyati yerga urilgan, ular unutilgan yoki ta'qiqlab qo'yilgan edi. Bundan tashqari, ko'p asrlar davomida xalqning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynagan islom dinining tiklanishi ham katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining o'zini-o'zi anglashi o'zining dunyoda o'z o'rnini, mamlakatimizning potensial imkoniyatlari va real rivojlanish istiqbollarini anglab yetish bilan ham bog'liqdir. Yuqorida ko'rsatilgan omillar xalqimizda hozirga va kelajakka bo'lgan ishonchni mustahkamlab, milliy g'urur, Vatanga muhabbatni, fidoiylikni uyg'otadi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zbek xalqining milliy o'zini-o'zi anglashi *umummilliy o'zini-o'zi anglashiga* qarshi bo'lmay, balki u bilan hamohangdir. Bunda O'zbekistonda istiqomat qiluvchi 100 dan ortiq millat va elatlar ko'zda tutiladi. Ularning hammasi bir xil huquqqa, o'zlarining milliy urf-odatlari va bayramlariga ega bo'lib, farzandlari o'z milliy maktablarida, milliy tillarida o'qishi, o'z ona tilidagi matbuot organlariga ega bo'lib, diniy urf-odatlarini respublikada faoliyat ko'rsatayotgan sakkizta konfessiya orqali amalga oshirishlari mumkin.

Shu bilan birga milliy mafkuraning hozirgi davrdagi judda katta ahamiyatiga qaramay jamiyatning ma'naviy hayotining hamma tomonini unga kiritish mumkin emas. Mafkura va ma'naviyat bir-biridan farq qiluvchi tushunchalardir. *Mafkura* bu g'oyalar tizimidan iborat bo'lib, *ma'lum vaqt oralig'ida* u yoki bu

ijtimoiy guruh va davlatning manfaatlarini, ayniqsa, siyosiy manfaatlarini himoya qiladi. Xalq *ma'naviyati* esa, o'zining mazmuniga ko'ra chuqur va keng tushunchadir. U chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib, u yoki bu xalqning taqdiri, milliy xususiyati va mentalitetini ifodalaydi. Ma'naviyat uchta – *ma'rifiy*, *ma'naviy* va *estetik* asosga ega. Shuning uchun ham fan va falsafa, etika (shu jumladan diniy va dunyoviy axloq) va san'at mavjuddir. Ma'naviyatning hamma sohalari bir-biri bilan bog'liqdir. Ularning yuragi axloqiylikdir.

Ma'naviyatni tushunishning yana bir yo'nalishi mavjuddir. Odatda «ma'naviyat» tushunchasi insonning hayvondan farqini bildiruvchi aql va irodasini ifodalaydi. Shaxs irodasining ma'naviy kuchi uning qobiliyati orqali ifodalanadi. Zamonaviy mazmunda *ma'naviyat* – *oliy ma'naviy qadriyatlar* sifatida qabul qilinadi. Uning asosiy kategoriyalari Haqiqat, Ezgulik, Go'zallikdir. Ma'naviyatsizlik esa ezgu maqsad va qadriyatlarning bo'lmasligi bilan ifodalanadi.

Ma'naviy qadriyatlar stixiyali ravishda paydo bo'lmaydi. Ular ma'lum maqsadga qaratilgan, ijodiy intellektual faoliyat natijasidir. Tarixda ma'naviy ijodkorlarning uch turi shakllangan – *biluvchi* (mutafakkir, donishmand), *avliyo*, *badiiy ijodkor* (shoir, yozuvchi, kompozitor va boshqalar). Har bir jamiyat uchun rivojlanishining har bir bosqichida o'ziga xos ma'naviy elitasi mavjuddir. Unga nafaqat ma'lum darajadagi professionalizmga xos bo'lib qolmasdan, unga ma'naviy xususiyatlarning elementlari – poklik, yuqori darajadagi ahloqiylik ham xos bo'ladi.

Ma'naviy qadriyatlar yaratilgandan so'ng o'zining hayotiga ega bo'ladi. Ular avloddan avlodga o'tib, yangi mazmun bilan boyib boradi. Ammo ular keng xalq ommasiga yetib borgandan keyingina haqiqiy ahamiyatga ega bo'ladilar, ular hayotining bir qismiga aylanadilar. Bu esa, faqat *ma'rifat* orqali amalga oshiriladi. Ma'rifat ta'lim tizimi, maxsus ma'rifiy muassasalar faoliyati, san'at asarlarini va unga oid bilimlarni yoyish va tashviqot qilish orqali olib boriladi. O'zbek xalqiga chuqur ma'naviy va ma'rifiy an'analar xosdir. Ulardan mamlakatda boshlangan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda foydalaniladi.

O'tish davrining murakkab, ziddiyatli davrda, Respublikada ba'zi bir ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga to'g'ri kelmaydigan salbiy hodisalar ham yuzaga keldi. Korrupsiya, poraxo'rlik, o'g'rilik, firibgarlik kabilarning ma'lum darajada rivojlanishi kuzatildi. Ayniqsa, yoshlar orasida boyishga o'ta intilish, egoizm, individualizm kabi illatlar tarqaldi. Bu bozor munosabatlari sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat hayotida pasayishi, madaniyat va ma'naviyatning ikkinchi darajaga surilib qo'yilganini tabiiylikini bildirmaydi. Gap shundaki, birinchidan, bozor munosabatlari davlat tomonidan boshqarilib, ular zamonaviy doiraga olib kirish kerak. Bizning sharoitimizda bozor munosabatlariga o'tish deganda jamiyatning har bir a'zosini farovon yashashi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish bilan birga, ma'naviyat sohasiga ham ahamiyat berishni talab qiladi. Bunday jamiyatni qurish va uning faoliyat ko'rsatishi uchun bilimli, yuqori malakali, halol, vijdonli, adolatli – umaman

olganda ma'naviyatli kishilar zarur. Mamlakatimizda o'рта va oliy ta'lim kadrlarini tayyorlash, ularni yangi sharoitga moslashtirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirila boshladi. Fan va madaniyat sohalarini, ziyolilarni hamda intellektual va ijodiy mehnat kishilarini davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash borasida ham katta ishlar qilinishi ko'zda tutilmoqda

Kundalik yoki odatdagi ong asosan tashqi aloqalar va ijtimoiy hayot hodisalariga bo'lgan munosabatlarni aks ettiradi, ularni umumlashtiradi. Ammo kundalik ong narsalar, hodisalar mohiyatiga chuqur kira olmaydi. Odatdagi ong xato fikrlarga ega bo'lishi mumkin. Bu urf-odat, an'ana, aqida kabilarni o'z ichiga oladi. Kundalik ong har bir shaxsning ishlab chiqarish, turmush, siyosat va boshqa sohalardagi kundalik faoliyati bilan bevosita bog'langandir.

Kundalik ong kishilarning kundalik hayotiy ehtiyojlarini anglab yetishi asosida vujudga keladi.

Nazariy ong narsa va hodisalar mohiyatini tushunishda muhim o'rin egallaydi. Nazariy ong g'oyalar sistemasi, tushunchalar, qonunlar va boshqa tarzdagi ma'naviyat ko'rinishlarini ifodalaydi.

G'oyalar o'z mohiyati bilan nazariy shaklda paydo bo'ladi. Ular jamiyat taraqqiyotini belgilaydi, rivojlanishga turtki beradi. Har bir nazariya va g'oya o'z vazifasini o'tab bo'lgandan so'ng ommaviy ongga aylanadi.

Ijtimoiy ongni kishilar hayotida tutgan o'rniga qarab ikki qismga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy psixologiya (ruhiyat)
2. Mafkura (ideologiya)

Ijtimoiy psixologiya kishilarning mehnat va kundalik turmush faoliyatida stixiyali ravishda vujudga keladi, uni sistemalashtirish va nazariy jihatdan asoslash qiyin. U quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Kishilarning barqaror psixik holatlari (hissiy kechinmalari, emotsiya, kayfiyati, urf- odatlar).
2. Ruhiy hodisalar: odat, udum, ko'nikma; turli kechinmalar.
3. Ruhiy jarayonlar: taqlid qilish, ishontirish va shunga o'xshash xususiyatlar.
4. Sezgi, idrok, fahm, tasavvur, tafakkur, g'oya (siyosiy, huquqiy, diniy, axloqiy belgilar) kabilar.

Yuqorida qayd etilgan xususiyatlarning barchasi asta- sekin ishonch, e'tiqod, udum, ko'nikma, ijtimoiy pozitsiyani ifoda eta boshlaydi.

Ijtimoiy psixologiya - keng ommaviy ong bo'lib, u bevosita modsiy ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ladi: odat, ko'nikma shakliga kiradi.

Ijtimoiy psixologiya ibtidoiy jamoa tuzumi davrida urug' va qabila a'zolari tomonidan guruh ongi sifatida stixiyali ravishda shakllangan. Bu ong shakli moddiy ne'matlar ishlab chiqarish uchun xizmat qilgan.

Shuningdek, ibtidoiy jamoalarning barcha sohalari odat, udum, sadoqat kabilar yordamida boshqarilgan va hayotning barcha tomonlariga keng yoyilgan.

Jamiyatning rivojlanishi bilan ijtimoiy guruhlar (sinflar, elat, oila) va boshqa ijtimoiy uyushmalar shakllandi. Natijada ularning o'ziga xos manfaatlarini, psixologiyasi, ongi ham vujudga keldi.

Ijtimoiy psixologiyadan sinf, elat, xalq, millat, oila va boshqa ijtimoiy guruhlar psixologiyasi ajralib chiqdi. Ijtimoiy psixologiya nihoyatda murakkab va zidsiyatlidir.

Ijtimoiy psixologiyaning barqaror elementlari (hissiyot, xarakteri) ijtimoiy strukturani saqlash va uni mustahkamlashga yordam beradi. Ijtimoiy psixologiyaning dinamik elementlari (ommaviy psixik holat, norozilik, ko'nikmaslik, ruhiyatning o'zgarishi) jamiyatda tub o'zgarish qilishni talab etadi. Ijtimoiy psixologiya stixiyali ravishda xalq ichida shakllanadi, har bir ijtimoiy guruh o'ziga xos psixologiyaga ega bo'ladi.

Huquqiy ong davlat bilan birga paydo bo'ladi. Huquq xulq-atvor normasi sifatida davlat tomonidan joriy etiladi, muhofaza qilinadi va qo'llab-quvvatlanadi. Xulq, eng avvalo guruh manfaatlarini, keyin xalq manfaatlarini himoya qiladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tashkil topganidan so'ng, u o'z konstitutsiyasini qabul qildi. Bunda respublikaning barcha grajdanlari bir xil huquq va erkinlikka ega ekanligi, qonun oldida teng ekanligi belgilab qo'yildi. Unda maxsus «Shaxsiy huquq va erkinliklar» (7- bob) va «Siyosiy huquqlar» (8- bob) boblari ajratildi. Huquqiy ong ikki shaklda namoyon bo'ladi:

a) huquqiy ong ijtimoiy psixologiya shaklida kishilarga qonuniy va qonunsizlik, adolat va adolatsizlik haqida, sinflar, millatlar, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar haqida tasavvur beradi. Huquqiy hodisalarga adolat hissi, jinoyatga nisbatan chora ko'rish zarurligi, burch va javobgarlik singari hodisalarni kishilar huquqiy ong darajasida baholaydilar va unga o'z munosabatlarini bildiradilar.

v) huquqiy ong ideologiya darajasida huquqiy qarashlarning ma'lum sistemasi: huquq nazariyasi, ta'limot, kodekslar va boshqalarni ifoda etadi.

Huquqiy ong ijtimoiy aloqalar tizimida qator funksiyalarni bajaradi:

a) bilish, ma'lumot berish, ma'rifat tarqatish funksiyasi: huquqiy ongning shaxs, individ tomonidan o'zlashtirilishi va boshqalar;

b) baholash funksiyasi: sub'ekt o'zining manfaat, maqsadi nuqtai nazaridan qat'i nazar ma'lum huquqiy kategoriyalarga asoslanib baho beradi. «Minnatdorlik», «ezgulik», «yaxshilik», «yomonlik», «foйда», «zarar» va boshqalar to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi;

v) boshqarish funksiyasi: huquqiy ong kishilarning huquqiy fe'l-atvori, hatti-harakatini boshqaradi. Shuningdek, ularning huquqiy munosabatlari, ehtiyojlarini ham belgilaydi va boshqaradi.

Huquqiy ong ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan, ayniqsa, siyosiy ong, axloqiy ong bilan uzviy bog'langandir. Axloqiy ong huquqiy ongga nisbatan kengroq tushunchadir.

Voqeya va hodisalarni axloqiy baholashda huquqiy ong ham hisobga olinadi.

Milliy mustaqillik xalqimiz tarixida yangi davmi – ozodlik, ilm-ma'rifat, sotsial adolat, ijodkorlik, bunyodkorlik davrini boshlab berdi. Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, nutq va maqolalarida barkamol insonni voyaga yetkazish, tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari tavsiflab berildi: ijtimoiy-falsafiy fanlar oldiga inson mohiyatini teran idrok etish, tarixan o'zini oqlamagan falsafiy aqidalardan halos bo'lish, barkamol avlodni voyaga yetkazishning nazariy va falsafiy asoslarini ishlab chikish vazifasi qo'yildi.

Milliy g'oya va milliy mafkuraning nazariy-falsafiy asoslarini yaratish umumdavlat siyosatiga aylangan bugungi kunda hozirgi zamon fani va falsafasining inson to'g'risidagi bilim va xulosalarini umumlashtirish, ayniqsa, muhimdir. Chunki milliy g'oya va milliy mafkura o'zining tub mohiyati bilan bevosita insonga, uning hayotiy maqsad, orzu-umidlarini ro'yobga chikarishga qaratilgan.

Jahon falsafii tafakkuri inson mohiyatini bilishda katta yutuqlarga erishdi, turli falsafiy oqim va maktablar vujudga keldi. Biroq, afsuski, mamlakatimizda uzoq yillar davomida hukm surib kelgan biryoqlama siyosiy mafkura va materialistik dunyoqarash inson mohiyatini biryoqlama talqin etdi, jahon falsafasi yutuqlarini buzib ko'rsatishga harakat qildi. Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganidek, jahon falsafasining ilg'or yutuqlaridan xalqimizni bahramand etish, inson to'g'risidagi ilg'or g'oyalarni chuqur o'rganish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Hozirgi zamon falsafasining inson to'g'risidagi muhim xulosalari butun insoniyatning inson mohiyatini bilish yo'lida orttirgan bilimlariga, ilg'or falsafiy qarashlariga asoslanadi. Insoniyat o'z taraqqiyotida yangi tarixii davrga qadam qo'yishi bilan o'zligini anglash va olamni o'zgartirishda salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritdi. Har bir odam bolasi o'z hayoti davomida butun insoniyatning tarixiy o'tmishini takrorlagani va unga qandaydir yangilik qo'shgani singari o'zgargan har bir tarixiy davrda inson mohiyatini chuqurroq bilish, insonning hozirgacha ochilmagan sirli qirralarini kashf etishga bo'lgan ob'ektiv ehtiyoj vujudga keladi.

Falsafiy tafakkur shakllanishidan ancha ilgariyoq insoniyatning ulug' mutafakkirlari turli diniy, mifologik ta'limotlar orqali inson mohiyatini bilishga harakat qilganlar: inson muammosi barcha muammolar markaziga qo'yila boshlagan.

Falsafiy muammolar tizimida insonning mohiyati, uning jamiyatda tutgan o'rnini bilish muhim o'rin egallaydi. Turli falsafiy ta'limotlarda inson mohiyati turlicha talqin etib kelindi. Shunday bo'lishi tabiiy va to'g'ri edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir o'zgargan tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatni ro'yobga chiqarishga intilaveradi. Sokratning «o'zligingni bil» degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi.

Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abduxoliq G'ijduvoniyni insonni «kichik olam» deb tavsiflashi bejiz bo'lmagan. Falsafa bahs yuritadigan barcha masalalar inson muammosi bilan bevosita bog'liqsir. Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish va hokazolar insoniy mohiyatning turlicha namoyon bo'lish shaklidir; ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liqdir.

Jahon falsafiy tafakkuri tarixida inson muammosi alohida o'rin egallab keldi. Insonning mohiyati, uning jamiyat hayotidagi o'rni, inson hayotining ma'nosi singari masalalarni o'rganish bilan shug'ullanadigan falsafaning alohida bir sohasi inson falsafasi yoki antropologik falsafa nomini oldi.

Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson to'g'risidagi ta'limotini batafsil tahlil qilishdan oldin falsafiy tafakkur tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' mutafakkirlarning inson mohiyati to'g'risidagi ta'limot va qarashlariga qisqacha to'xtalish mahyeadguya muvofiqdir.

Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan falsafiy qarashlari diniy-mifologik ta'limotlar bilan uyg'unlashgan bo'lib, bizgacha yetib kelgan diniy-falsafiy yodgorliklarda, xususan, «Avesto»da inson borlig'i va uning hayotining ma'nosi haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. Jumladan, ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal inson borlig'ining tub asosi, ma'naviy barkamollik inson hayotining bosh maqsadi sifatida ulug'lanadi.(Avesto. Izbrannqye gimnq. Dushanbe, «Adib», 1990. S 12-15.)

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiyni falsafiy qarashlari markaziga inson va uning kamoloti masalasining qo'yilishi bejiz bo'lmagan. Uning ta'lim berishicha, har bir inson o'z hayotida dao qonunlariga amal qilishi, ilm orqaligina ideal inson darajasiga yetishi mumkin. Har bir inson kamolotga erishmoq uchun axloqiy qoidalarga amal qilishi, o'zida odamiylik, insonga hurmat va muhabbat hissini tarbiyalashi kerak. Konfutsiy tomonidan axloqiy ongning inson borlig'ining tub asosi sifatida ta'riflanitssh muhim ahamiyatga ega edi. Bu g'oya keyinchalik ,I. Kant, VI. shovev tomonidan ijodiy rivojlantirildi.

Yaqin Sharqda va keyinchalik Markaziy Osiyoda keng yoyilgan tasavvuf falsafasida inson ilohiy mavjudot Quyosh (Olloh) Dengiz (Olloh) ning bir tomchisi, iloxiy nurning bir zarrasi sifatida tavsiflandi. Umuman Sharq falsafasi olam va insonni xudo yaratganligini e'tirof etgani holda inson va tabiatga bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda qaradi, inson kamolotining mezonini tabiat va jamiyatga oqilona munosabatda ko'rdi. Sharqsa inson o'zini tabiat va jamiyatga qarshi qo'ymagan, balki u bilan uyg'unlashishga, uning qonunlariga bo'ysunishga harakat qilgan.

Sharq falsafasi insonning ichki olamini yanada takomillashtirishga qaratilgan edi.

Sharq mutafakkirlari jamiyatdagi tartib, boshqarish va axloqning o'zgarishini insonning ijtimoiy muhitga moslashuvi bilan bog'lar edilar. Tarixan

tarkib topgan ijtimoiy tartyblarni o'zgartirish insoniyatga mislsiz kulfatlar keltirishini uqtirganlar.

Qadimgi Yunon faylasuflari inson muammosini barcha falsafiy muammolar markaziga qo'ydilar: hozirgi zamon yevropa antropologik falsafasi an'analarini boshlab berdilar.

Milet maktabi vakillari insonga koinotning ajralmas bir qismi, kichik olam sifatida qaradilar. Buyuk Yunon faylasufi Sokratning butun faoliyati va izlanishlarida inson, uning axloqi, ma'rifat masalalari yetakchi o'rin egalladi. Uni insonning ichki olami, ruhiy va axloqiy fazilatlarini ko'proq qiziqitirdi. U «bilim fazilatdir» degan hikmatni ilgari surdi. Inson hayotining ma'nosi barkamollikka intilish, o'zlikni anglash va o'z axloqiy mohiyatini ro'yobga chiqarishdadir, deb hisobladi.

Sokratning ta'lim berishicha, o'z xatti-harakati qanday oqibatlariga olib kelishini biladigan har bir odam hech qachon mavjud tartib va qonunlarga qarshi bormaydi, jinoyatga yo'l qo'ymaydi. Axloqiy erkinlik va haqiqat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Sokrat o'z hayotini haqiqat yo'lida fido qilgan ulug' faylasufdir.

Demokrit inson to'g'risidagi materialistik ta'limotga asos soldi. Uning fikricha, butun olam va uning tarkibiy qismi bo'lgan inson bitta ibtidodan, ya'ni mayda zarracha (atomlar) dan tashkil topgandir. Xatto inson joni ham atomlardan tashkil topgandir. Inson tanasi o'lishi bilan jon ham o'ladi. Chunki tana va jon mohiyatan atomlardan tashkil topgandir. Demokrit inson hayotining bosh maqsadi baxtli bo'lishdir, baxt-ruhning xotirjamligidir, degan g'oyani ilgari surdi. (Inson mohiyatini bunday sodda va jo'n tushunish falsafa rivojining ancha keyingi davrlarida marksistlar tomonidan davom ettirildi).

Qadimgi Gretsiyada bunday qarashga zid ravishda Platon inson mohiyatini idealistik asosda tushuntirishga harakat qildi. U jon va tanani, ruh va jismni bir-biridan farqladi: insonni inson qilib turgan va boshqa mavjudotlardan farqlaydigan mohiyatli asos ruhdir, degan g'oyani ilgari surdi. Tana ruhga qarshidir. Ruh tanaga nisbatan birlamchi va muhimroqsir. Chunki ruh abadiy, tana esa foniy (o'tkinchi) dir. Platon ruh darajalarini ham farqladi: oliy va quyi ruh.

Inson ruhi muttasil ravishda ilm vositasida g'oyalar dunyosiga intiladi. Insonni boshqa mavjudotlardan ustun qo'yadigan muhim fazilat ilmga tashnalikdir. Platonning ta'lim berishicha, inson hayotidagi butun ziddiyat tana va ruh o'rtasidagi ziddiyat bilan bog'liqdir. Tana istaklari insonni hayvonga yaqinlashtirsa, ruh ehtiyojlari insonni hudoga yaqinlashtiradi. Inson ikki dunyo oralig'ida ikkilanadi: uning tubanligi yoki ulug'vorligi nimani tanashiga bog'liqdir.

Platonning inson to'g'risidagi qarashlari keyinchalik turli falsafiy maktablarning shakllanishiga olib keldi. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining dunyoqarashiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Aristotel insonga ijtimoiy, siyosiy mavjudot sifatida qaradi. Insonni «siyosiy maxluq» deb ta'rifladi. Uning fikricha, insonning ijtimoiy tabiati uni boshqa mavjudotlardan yuqori qo'yadi.

Aristotel insonning haqiqiy mohiyati uning faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Faoliyat inson shaxsi rivojlanishining yagona imkoniyatidir, degan g'oyani ilgari surdi. Uning ta'lim berishicha, inson faoliyat ko'rsatmasa, uning barcha yaxshi fazilatlari namoyon bo'lmaydi. Hayotda ham xuddi olimpiya o'yinlarida bo'lgani singari g'oliblik gulchambarini tomoshabin go'zallar va kuchlilar emas, balki musobaqa ishtirokchilari oladilar. (Aristotel. Sochineniya. V 4 t. M. 1983. T. 4. S. 67)

Platon va Aristotel g'oyalari Sharq mamlakatlarida keng yoyildi. Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar aristotelizmni keng targ'ib etdilar va uni yangi g'oyalar bilan boyitib, ijodiy rivojlantirdilar. Jumladan, Forobiy insonning olloh tomonidan yaratilganligi to'g'risidagi diniy g'oyani e'tirof etgani holda, inson mohiyatini ratsional tushuntirishga, uning mohiyatini tafakkur va mantiq qonunlari asosida izohlashga harakat qildi.

Forobiyning ta'lim berishicha, inson butun olam taraqqiyotining mahsulidir. U o'zining «Fozil shahar kishilarining qarashlari to'g'risida kitob» asarida insonning barcha oliyjanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining maqsadi baxtli bo'lish ekanligini ko'rsatdi. U mamlakat obodonchiligi, el-yurt tinchligini adolatli va ma'rifatli hukmdor shaxsi bilan bog'ladi.

Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga, ilm sharofatidan aql va tafakkurning kamol topishini asoslashga harakat qildilar.

Inson mohiyatini bilishga ratsional yondashuv an'anasi musulmon ilohiyotchisi Abu Hamid G'azzoliyning inson to'g'risidagi falsafiy qarashlari rivojiga turtki berdi. U «Faylasuflarni rad etish» asarida Farobiy, Beruniy va Ibn Sino qarashlarini keskin tanqid qildi, aristotelizmning tub mohiyatini to'laroq ochib berdi. U insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aqlda emas, balki dildadir, degan g'oyani ilgari surdi; aql imkoniyatlari cheklanmaganligini isbotlashga harakat qildi.

G'azzoliy «Kimyoi saodat» asarida inson vujudi (tanasi) ni bamisoli bir mamlakatga, inson dili (ruhi) ni podshoga, aqlni esa vazirga qiyosladi. Insonning sezgi a'zolarini vazir xukmlarini bajaruvchi askarlarga o'xshatdi.

G'azzoliyning ta'lim berishicha, aql inson vujudini to'la boshqarishga ojizdir u xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Dil esa yanglishmaydi, u vujudni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal etish, mushkul muammolarni yechish vaqtidagina aql maslahatlariga murojat qilishi mumkin.

G'azzoliydan farqli ravishda uning buyuk zamondoshi Umar Xayyom inson va olamning yaratilishi, inson qismati to'g'risidagi diniy qarashlarni aql tarozisidan o'tkazishga, inson mohiyati, uning yorug' dunyoga kelib - ketish sabablarini bilishga harakat qildi. U falsafiy mushohadalarga boy ruboiylarida taqdiri azal, oxirat to'g'risidagi diniy qarashlarNing aql va mantiq nuqtai nazaridan puch narsa ekanligini, inson olamning gultoji, taraqqiyot mahsuli, aziz- va tabarruk mavjudot ekanligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda inson aqli Ollohning borligini isbotlashga ojiz ekanligini e'tirof etdi. O'z hayotining so'nggi daqiqalarida Ollohning borligiga imon keltirdi, o'z ruboiylarida olg'a yeurgan g'oyalari uning haqligini bilish yo'lidagi urinishlar ekanligini ta'kidladi.

Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan buyuk muhaddis va mutasavviflar insonning ma'niviy-ruhiy (botiniy) olamini chuqurroq tadqiq etishga, inson ma'naviyatini yuksaltirishga ko'proq e'tibor berdilar.

Tasavvuf taraqqiyotida vujudga kelgan turli tariqatlar o'zgargan davr talabiga mos ravishda barkamol inson shaxsini kamol toptirish yo'lidagi izlanishlar edi. Markaziy Osiyo va butun Yaqin Sharqda keng yoyilgan va ta'sirchan kuchga ega bo'lgan naqshbandiya tariqati insonning ma'naviy ehtiyojlari uning' moddiy ehtiyojlaridan ustuvor ekanligiga asoslangan va bu muhim g'oya «Dil bayoru dast ba kor» shiorida o'z ifodasini topgan edi.

Tasavvuf falsafasining komil inson to'g'risidagi ilg'olr g'oyalari Alisher Navoiy, Abduqodir Bedil, Mashrab, Huvaydo singari mutafakkirlar ijodida yangi bosqichga ko'tarildi. Navoiy aql va tafakkurni inson borlig'ining eng muhim asosi sifatida ta'rifladi, insonni eng tabarruk mavjudot sifatida ulug'ladi. U odamlar haqida qayog'urish va insonparvarlikni yuksak fazilat sifatida ta'rifladi. U insonga ozor berishni Kaabani vayron qilish bilan tenglashtirdi va g'arib ko'nglini shod qilishni Kaabani obod qilish bilan barobar deb hisobladi.

Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan ulug' mutafakkirlarning inson to'g'risidagi qarashlari islom dini g'oyalari bilan uzviy bog'liq ravishda vujudga kelgan va sharqona hayot, tafakkur va turmush tarzi bilan bog'liq ravishda rivojlangan edi. Sharqda shaxs erkinligi rag'batlantirilmay, o'zlikni anglash tabiat va jamiyatning kichik bir bo'laki, Ollohning gunohkor bandasi sifatida anglashdan nariga o'tmay edi. Shu boisdan ham Sharq falsafasida inson to'g'risidagi alohida bir soha - antropologiya fan 'sifatida rivojlana olmagan edi. Sharq mutafakkirlari insonga umumfalsafiy muammolarning bir bo'laki, sohasi sifatidagina qarar edilar.

Antropologiyaning mustaqil fan, falsafaning alohida bir sohasi sifatida shakllanishi XUI-XUSH asrlarda va undan keyingi davrlarda yevropada ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'ldi.

Bu davrda yevropa hayotida ro'y bergan muhim o'zgarishlar tabiatni ilmiy asosda o'rganish borasida erishilgan yutuqlar inson va jamiyat mohiyatini

ham ilmiy asosda o'rganish va ilm-fan xulosalariga tayanib, ijtimoiy ofatlarni bartaraf etish, jamiyatni oqilona boshqarishga bo'lgan ishonchni kuchaytirdi.

Sanoat ishlab chiqarishining jadal rivojlanishi shaxs erkinligi, aql va tafakkur saltanatini qaror toptirishni, tadbirkorlik, ishbilarmonlik sifatlarini rag'batlantirishni taqozo etdi. Yangi zamon faylasuflari inson mohiyatini ratsional tushuntirishga ko'proq e'tibor berdilar.

Ayniqsa, XIX asr tabiatshunoslarining butun olam taraqqiyotining evolyusion (tadrijiy) karakteri to'g'risidagi qarashlari buyuk ingliz olimi Charlz Darvinning evolyusion nazariyasida o'z takomiliga yetdi. Darvin 1859 yili e'lon qilingan «Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi» asarida tabiat va insonning xudo tomonidan yaratilganligi to'g'risidagi qarashlar biryoqlama va ilmiy haqiqatga zid ekanligini isbotladi. U o'zining «Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish» (1871) asarida Darvin birinchi bo'lib, inson organik evolyusiyaning harakatlantiruvchi kuchi ekanligini ko'rsatdi. U inson kelib chiqishining tabiiy jarayon ekanligini isbotlagani holda insonni hayvonot olamidani ajralib chiqishida ijtimoiy omillar (axloq, mehnat, til, oila, madaniyat va hokazolar) ning muhim rol o'ynaganligini ko'rsata olmadi.

Yangi zamon ijtimoiy-falsafiy tafakkuri inson mohiyati va uning kelib chiqishi to'g'risida xilma-xil va xatto bir-biriga zid bo'lgan nazariyalar, falsafiy ta'limotlarni vujudga keltirdi. Bular orasida marksizm, freydizm, ekzistensializm, germenevtika, sinergetika kabilarni ko'rsatish mumkin.

Marksizm inson mohiyati va kelib chiqishini biryoqlama tushuntirdi, insonning ma'naviy borlig'iga nisbatan moddiy borlig'ini ustun qo'ydi, tabiiy omillarga nisbatan ijtimoiy omillarning hal qiluvchi rolini ko'rsatishga harakat qildi. U ong va tafakkurning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatiga yetarlicha e'tibor bermagan edi.

Hozirgi zamon fani va falsafasi inson bioijtimoiy mavjudot sifatida ham tabiiy-biologik, ham ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning mahsulidir, degan xulosaga asoslanadi. Insonni sof biologik - tabiiy taraqqiyot mahsuli sifatida talqin etish (freydizm) ham, ijtimoiy munosabatlar majmui (marksizm) sifatida izohlash ham ilmiy haqiqatga zid va biryoqlamadir.

Butun tabiatdagi tabiiy rivojlanishning davomiyligini ta'minlash uchun inson singari aqlli mavjudot zarur edi. Inson o'z aqli tufayli bilim va tajribalarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi. U tabiiy sistemaga o'xshash ijtimoiy sistemani yaratish imkoniga egadir.

Inson bioijtimoiy mavjudot sifatida ayni bir vaqtda ham genetik, ham ijtimoiy dasturni amalga oshiradi: o'z ajdodlaridan turli layoqat, qobiliyat, iste'dod, xususiyat, xislatlarni hamda bilim, tajriba va madaniyatni meros qilib oladi.

Uzoq yillar davomida insonni boshqa mavjudotlardan farqlaydigan muhim sifat aqldir deb kelindi. Insonga berilgan biologik nom «hamo sapiens» (xomo sapiens lotincha «aqlli odam») da ham bu sifat o'z ifodasini topgan edi.

Aql-insonning fikrlash qobiliyatidir. Boshqa mavjudotlar bunday qobiliyatga ega emasdir. Aql tufayli insoniyat yuksak madaniyat, ko'rkam shaharlar, ulkan inshootlar, zamonaviy texnikalar yaratibgina qolmadi, balki ommaviy qirg'in qurollarini, atom va vodorod bombalarini, sayyoraviy urush qurollarini ham yaratdi: jahon urushlari va ijtimoiy revolyusiyalar ham aqlli insonlar tomonidan amalga- oshirildi. Tabiatni xalokat yoqasiga olib kelgan ham aqlli insonlardir. Binobarin, aql tufayli insoniyat hayvonot olamidan ilgarilab ketishi emas, balki yuz tuban quyiga ketishi ham mumkin ekan. Bunga XX asr oxirlarida butun insoniyat amin bo'ldi.

Prezident I. A. Karimov yuksak ma'naviyatni inson va jamiyatni xalokattan qutqaruvchi ibtido, tayanch sifatida ta'rifladi. Ma'naviyat asosini axloq tashkil etadi. Axloq faqat insongagina xos bo'lgan ong shakli, uni aziz va qadrlil qiladigan, odamlar o'rtasida totuvlik, do'stlik va odamiylikni qaror toptiradigan ibtidodir.

Axloq-jamiyat hayotining fundamental asosi insoniyat ma'naviyatining tub negizidir. Axloqiy ong tufayli inson hayvonot olamidan ajralib chiqdi, chinakam insoniy qiyofa va mazmunga ega bo'ldi.

Mehnat tufayli inson o'ziga munosib hayot sharoitlarini yaratdi, ma'naviy kamolot cho'qqilarini zabt etdi. Insonning har qanday faoliyati (aqliy, jismoniy, siyosiy va hokazo) axloqiy talablar, qoidalar, qadriyatlarga bo'ysunmas ekan, u muqarrar ravishda insoniyatga baxtsizlik va uqubat keltiradi.

Yangi zamon faylasuflari inson borlig'ining asosini aql va erkinlik tashkil etadi, deb hisobladilar. Buyuk fransuz faylasufi R. Dekart tafakkurni inson mavjudligining zarur sharti, muhim belgisi, deb hisobladi: «men fikrlayapman, demak, men mavjudman» degan g'oyani ilgari surdi.

Dekart, Gobbs, Spinoza va boshqa mutafakkirlarning fikricha, aql qalbdan ko'ra muhimroqdir: aql xis-tuyg'u va ehtirolarni boshqaradi.

Nemis faylasufi Gegel insonning tarixiyliigi g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha, inson o'zida mutlaq ruhni yaqqol namoyon etadi. Inson mutlaq ruh taraqqiyotining mahsulidir. Inson ma'naviy faoliyat sub'ekti sifatida madaniyat yaratuvchidir. Karl Marks inson mohiyatini mehnat faoliyati bilan bog'ladi. Uning fikricha, ijtimoiy borliq, ijtimoiy ongni belgilaydi.

Freyd insonda onglilik emas, balki ongsizlik hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisobladi. Madaniyat, san'at, ilm-fanning rivojlanishini insonga xos tug'ma jinsiy maylning cheklanishi bilan izohladi.

Ekzistensializm vakillarini ko'proq insonning individual jihatlari qiziqtirdi. Ekzistensialistlar ob'ektiv idealizm, materializm g'oyalarini inkor etib, inson mohiyatini izohlashda, uning hissiy kechinmalarini tahlil qilishga, hayot va o'lim, yolg'izlik, qo'rquv va boshqa kechinmalarni o'rganishga ko'proq e'tibor berdilar.

Ayrim tadqiqotchilar insonga xos bo'lgan biron-bir xususiyatga alohida urg'u beradilar va shu orqali insonning mohiyatni ochishga harakat qiladilar.

Masalan, I. Kant inoondagi axloqiy jihatlarga ko‘proq e‘tibor bergan va insonni ezgulikni yovuzlikdan farqlovchi mavjudot sifatida ta‘riflagan.

Nazorat uchun savollar.

1. Kundalik ong deganda nimani tushunasiz?
1. Huquqiy ong deganda nimalarni tushunasiz?
1. Ijtimoiy ong nima?
1. Nazariy ong tushunchasining mazmun-mohiyati?
1. G‘arb falsafasida insonning mohiyati.
1. Sharq falsafiy qarashlarida insonning ichki olami.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T., «O‘zbekiston», 1994 yil.
1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. –T., «Sharq», 1998 yil.
1. Tulenov J. Jamiyat falsafasi. – Oltinchi bo‘lim. – T., 2001 yil, 31-40-betlar.
1. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – T., «O‘zbekiston», 2001 yil, 252-261-betlar.
1. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya.-Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 215-258- betlar.
1. Falsafa Qomusiy lug‘at. – T., Sharq, 2004 yil.
1. Tulenov J., Qodirov B., G‘ofurov Z. Ma'naviy yuksalish sari. – T., «Mehnat», 2000 yil.
1. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya.-Moskva, FAIR-PReSS, 1999 yil, 186-202 betlar.
1. Falsafa. – Toshkent, 2006 y., 388-393 betlar.
1. Falsafa asoslari. Nazarov Q. tahriri astida. -T.: Sharq, 2005.-249 b
1. Falsafa qomusiy lug‘at. Nazarov Q. tahriri astida. -T.: Sharq, 2004.-496 b.

Tayanch tushunchalar.

Jamiyatning ma'naviy hayoti, ma'naviyat, ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy ishlab chiqarish, ma'naviy o‘zlashtirish, ma'naviy munosabat, ijtimoiy ong.

9-MAVZU FAN (2 S.)

Reja:

1. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi jarayonida fan va texnika taraqqiyoti.
2. Tafakkur tarixida texnika tushunchasi.
3. Fanning mohiyati.
4. Fan taraqqiyoti qonunlari.
5. Fan va jamiyat.

Fanning mohiyati. Fanni tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning *keng* va *tor* talqinlari shakllangan.

Keng (yig‘ma) **ma'nodagi fan** – *bu butun inson faoliyati jabhasi bo‘lib, uning vazifasi borliq haqidagi ob'ektiv bilimlarni o‘rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir.* Bu yerda «fan», «olim» tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig‘ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. «Fan» tushunchasi falsafaga tatbiqan ko‘pincha ayni shu kontekstda qo‘llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o‘rinlidir.

Muayyan ilmiy fanlar, masalan, *fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani* ifodalash uchun «fan» tushunchasiga **torroq**, binobarin, izchilroq ma'no yuklanadi. Bu yerda fanga aniq ta'rif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki doim va albatta yo *fizik*, yo *ximik*, yo *tarixchi*, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda *tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu ob'ekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan* tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o‘zigagina xos bo‘lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona sanalgan til, kategoriyalar apparati va hokazolarga ega bo‘ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to‘g‘ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to‘g‘ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqyealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq *bashorat qilish* imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo‘lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtai nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog‘liq emas. Ular mazkur sohada olg‘a siljish uchun o‘zlashtirish lozim bo‘lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o‘tgan bilimlar yig‘indisi sifatida avlodan-avlodga o‘tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo‘li bilan olingan ba'zi bir oqilona javoblar mavjud bo‘lgan. Bu javoblarni haqqoniy, ya'ni amaliyot sinovidan o‘tgan, kundalik hayotda o‘z tasdig‘ini topgan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala

«yopilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq ta'riflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch ta'sir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, ya'ni ular o'zining boshqa variantlarni istisno etadigan aniq yechimini topgan. Bu mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi tufayli o'zining har qanday ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. yechilgan masalalar va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan va shu davrdan e'tiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi *K.Yaspers* bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

Shunday qilib, azaldan yaxlit va bo'linmas dastlabki bilim sifatida amal qilgan falsafa zaminida o'sha zamonlardayoq amaliy xususiyat va tegishli yo'nalishga ega bo'lgan bilim sohaları faol shakllana boshladi. Shu tariqa asta-sekin tabiatshunoslik vujudga keldi, muayyan fanlar (*matematika, geometriya, fizika, tibbiyot, astronomiya, tarix* va boshqalar) shakllanib, o'z shakl-shamoyilini kasb etdi va mustaqil tus oldi. Ayni shu ma'noda falsafa barcha fanlarning asosi hisoblanadi. Bu fanlar falsafadan ajralib chiqqach, keyinchalik ilmiy bilimning tabaqalanishi jarayonida ba'zan parchalanib, o'z tadqiqot predmetini yanada toraytira va mufassallashtira boshladi. Ular tahlilining teranligi va narsalar mohiyatini anglash darajasi ortsa, ayni vaqtda o'rganilayotgan masalalar doirasi torayadi.

Fan dunyoqarash shakli. Bilimlarning o'sishiga qarab har xil muammolar va masalalar soni ham tinimsiz ko'payib bordi. Bu jarayon fanning rivojlanish sur'ati yanada jadallashuviga va u falsafadan yanada ko'proq ajralishiga sabab bo'ldi. Biroq fan *bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida* faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning asosiy bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Fan rivojlanishining asosiy bosqichlari. 1. Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davrni *ilk fan davri deb nomlanadi*. Bu davrda asrlar mobaynida avlodan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida

shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni yechishda foydalaniladigan ma'lumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo'limlar vujudga kelgan va keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqqan.

Jumladan, Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik optika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «ka- toprika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astronomiya, al-Beruniy mineralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astronomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi va ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy kuzatishlar va amaliyot ma'lumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eksperimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan spekulyatsiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda vujudga kelgan ilmiy fanlar bu davr mobaynida falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

Shu narsa diqqatga sazovorki, hatto XVII asr oxirida Nyuton o'zining fizika asoslarini yaratgan «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini e'lon qilgan.

Shunday qilib, falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatidagi fan hali mavjud bo'lmagan: u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai – hayot amaliyoti va hunarmandchilik san'ati bilan bir vaqtda va u bilan juda zaif aloqada rivojlangan. Xullas, bu davrda Qadimgi Yunonistonda “Platon akademiyasi”, Markaziy Osiyoda “Ma'mun akademiyasi” tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydo bo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

2. XVI-XVII asrlar – ilmiy inqilob davri bo'lib, u klassik fan davri deb nomlanadi. U Kopernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnitsning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Galiley vafoti (1642 yil 8 yanvar)dan so'ng oradan bir yil o'tgach Nyuton tug'ilgani (1643 yil 4 yanvar) ramziydir. Fanning bu buyuk ijodkorlari yashagan davr – novatorlik kashfiyotlari hamda yangi ilmiy g'oyalarning mualliflari sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi qattiq kurash olib borgan romantik davrdir.

Bu davrda hozirgi zamon tabiatshunosligining asoslari yaratilgan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo'lga kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta'riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog'liq bo'lgan yangi me'yorlari va ideallari vujudga kelgan. Fan o'z metodologiyasini

yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishga tobora faolroq yo'naltirilgan.

Biroq fan o'zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug'orilgani sari u o'z tarixiy vatani – falsafa qirg'oqlaridan uzoqlasha boshlaydi. Ko'rib chiqilayotgan davr oxiriga kelib u falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat'iy nazar rivojlanishi mumkin bo'lgan bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. Professional olimlar paydo bo'ladi, ularni tayyorlash amalga oshiriluvchi universitet ta'limi tizimi rivojlanadi. O'z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalariga ega bo'lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil topadi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va yevropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta'sis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo'lib, u tashkil etilgan paytda 55 a'zodan iborat bo'lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a'zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Ammo yevropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan bo'lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o'n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan.

3. **XVIII-XIX asrlar fani *noklassik fan*** davri deb ataladi. Bu davrda ko'plab ayrim ilmiy fanlar vujudga keladi, ularda ulkan faktik material to'planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Texnika fanlari vujudga keladi va moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o'ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o'sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

XVIII asrning o'rtalarida jahonda fan bilan shug'ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo'lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XVI asrda «olim odamlar»ning yarmidan ko'prog'i diniy ma'lumot olgan kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog'iga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shug'ullanadi. 1850 yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950 yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi. 1825 yilda nemis kimyogari Yu.Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olimga ko'p miqdorda daromad keltira boshlaydi. XIX asr oxiriga kelib bunday laboratoriyalar soni ko'payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e'tiborini o'ziga tobora ko'proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarini mablag' bilan ta'minlay boshlaydilar.

4. **XX asrdan fan rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi.** Bu davr fani *postnoklassik* deb ataladi, chunki mazkur asr bo'sag'asida fanda inqilob yuz beradi va buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to'plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko'rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo'ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me'yorlari va ideallarida olamshumul o'zgarishlar yuz beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi fanni yangi inqilobiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'zgarishlar adabiyotlarda ko'pincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu o'zgarishlar shu bilan bog'liqki, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli ko'rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Fan energetikada (atom elektrostansiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kompyuterlar) ayniqsa ulkan o'zgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish poygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablag'larni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning so'nggi o'n yilliklarida FTT **axborot (kompyuter) inqilobi** bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, *axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi.* Shu tariqa fan bilan bog'liq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak ta'lim endilikda har qanday jamiyatning sivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o'rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini topish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo'lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo'linmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy bir hol bo'lib qoldi. Natijada XX asrning ikkinchi yarmi fani jadal sur'atlarda o'sib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Ko'p sonli ilmiy muassasalar ishiga son-sanoqsiz odamlar ommasi jalb qilindi. Olim kasbi kam uchraydigan kasb bo'lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o'zlarini qiziqtirgan muammolarni yechishga buning butun xavf-xatarini o'z bo'yniga olib qo'l urgan ayrim mutafakkirlarning mashg'uloti emas, balki buyurtmaga, rejali topshiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda

bajarish va o'z ishi haqida hisobot berishga majbur bo'lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi. Fan bilan shug'ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalishi bejiz emas.

Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo'lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog'liq bo'lib qolmoqda. Ular faol o'zaro ta'sirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol shu bilan izohlanadiki, falsafa daliliy materialga, sinovdan o'tgan ilmiy ma'lumotlarga tayanib, o'z mavhum g'oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini qo'lga kiritadi. XXI asr boshiga kelib jahonda olimlar soni qariyb olti millionga yetdi, taxminan shuncha odam fanga xizmatlar ko'rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texniklar, nashriyotlarning xodimlari va h.k.). yerda qadim zamonlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o'ndan to'qqiz qismi bizning zamondoshlarimiz ekanligi ayon bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 10% ni tashkil qiladi, fanni ta'minlashga milliy daromadning 5% dan ko'prog'i sarflanadi.

Hozirgi zamon fani jamiyat, texnika, iqtisodiyot, madaniyat, turmush va kundalik hayotni yo'lga soluvchi qudratli kuchga aylandi. Ayni vaqtda odamlar bugun fanning qudratinigina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan xavflarni ham yaxshi anglaydilar. Hozirgi dunyo o'z yutuqlari uchun fan oldida mas'uliyatli. Ammo ilmiy haqiqat o'z holicha odamlarning ehtiyojlariga befarq. U beparvo va rahm-shafqatsiz. Ammo, I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, “kuch – bilim va taffakur” da bo'lsa, bu kuch ortib borgani sari insoniyatga ziyon yetkazmaslik uchun undan yanada ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur.

Shuni tan olish lozimki, hozirgi vaqtda jamiyat ko'p jihatdan fanning ulkan yutuqlari tufayli o'zini o'zi yo'q qilish yoqasiga kelib qoldi. Bu ilmiy taraqqiyotni to'xtatish kerak, degani emas. Ammo ilmiy izlanishni insoniy, axloqiy munosabatga bo'ysundirish va balki uning qaysidir yo'nalishlarini cheklash zarurligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilmoqda. Ilmiy izlanishning insonparvarlashuvi, uning yo'llari va oqibatlariga axloqiy munosabat – bu davrimizning muhim muammolaridir.

Fan va falsafaning mutanosibli. Ayni shu hol falsafa bilan ham, undan muayyan fanlar ilgari falsafiy tusga ega bo'lgan tadqiqot predmetlari bilan ajralib chiqqanida yuz berishini taxmin qilish o'rinli bo'ladi. Biroq, bunday hol yuz berayotgani yo'q. Tarix *fan falsafadan qancha ko'proq ajralsa, unda shuncha ko'proq masala va muammolar paydo bo'lishini, ya'ni falsafa nafaqat kamaymasligi, balki, aksincha, ko'payishini* ko'rsatadi. Buning sababi nimada? Bu savolga javobni fan va falsafaning o'ziga xos xususiyatlaridan, ularni alohida-alohida tavsiflovchi masalalar va ularning yechimlari o'rtasidagi tafovutdan qidirish, o'rinli bo'ladi.

Fan faqat o'zi olgan haqqoniy bilimlarga va masalalarni yopuvchi muayyan natijalarga tayanishi unda o'z muammolari va «ochiq» masalalari

mavjud emasligini anglatmaydi. Biroq aniq, shak-shubhasiz javoblarga ega bo'lmagan falsafiy masalalardan farqli o'laroq, ilmiy masalalar bilimdonlik qilishni emas, balki puxta o'ylashni talab qiladi, zero ular pirovardida dastlabki taxminlarni rad etuvchi yoki ishonchli bilimlar doirasini kengaytirib tasdiqlovchi muayyan yechimlar olish real yoki potensial imkoniyatiga egadir.

Shu tariqa vujudga keladigan ilmiy fanlar qaynayotgan suvdagi ko'piklar kabi kattalashib, falsafiy mushohada yuritish jabhasini, anglab yetilgan narsalar anglanmagan narsalar bilan yuzma-yuz keluvchi sohani ham kengaytiradi, chunki tabiatshunoslik doirasida javob berishning iloji bo'lmagan yangi masalalarni yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda eski falsafiy muammolardan yangi falsafiy jumboqlar sari o'tilmoqda. «*Xudo bormi?*», «*Haqiqat nima?*», «*Ruhning tabiati qanday?*» qabilidagi falsafiy masalalarni aniq va uzil-kesil yechish mumkin emas, balki ularni yechishning umuman iloji yo'qdir, Shu bois bu savollar ham javobsiz qolmoqda.

Nima uchun «balki»? kabi savollar shuning uchunki, qadimda donishmandlarni bugungi kun nuqtai nazaridan mutlaqo falsafiy bo'lmagan va tom ma'noda falsafiy sanalgan masalalar qiziqtirgan. Misol uchun: «*Yulduzlar kunduzi, quyosh esa – tunda qaerga yo'qoladi?*», «*Nima uchun ayrim jismlar suvda cho'kadi, ba'zi jismlar esa suvda suzadi?*», «*Chopqir Axilles sudralib borayotgan toshbaqaga qanday yetishi mumkin, basharti har safar ularning o'rtasidagi masofani bosib o'tish uchun u mazkur masofaning teng yarmidan o'tishi lozim bo'lsa?*» va h.k. va sh.k.

Biroq bu va shunga o'xshash masalalar falsafadan tabiatshunoslik sohasiga o'tgach, ko'pincha yangi va yangi falsafiy muammolarni yuzaga keltiradi. Masalan:

- yer va boshqa sayyoralarni, ayni bir yo'nalishda aylantirgan kuch qaerda?

- Agar bizning quyoshimiz o'rtacha kattalikdagi yulduz bo'lsa, unga o'xshagan milliardlab yulduzlarning hych bo'lmasa ayrimlari bizning yerimizdagiga o'xshash hayot mavjud bo'lgan yo'ldoshlarga ega bo'lishi mumkinmi? Biroq inson hatto eng yaqin yulduzlarga yetishi uchun nafaqat inson hayoti, balki uning sivilizatsiyasi tarixidan ham ko'proq vaqt talab etilar ekan, buni qanday qilib isbotlash yoki rad etish mumkin?

- Nihoyat, biz kuzata oladigan olam kengayib borayotgan bo'lsa, bu harakat zamirida qanday sabablar va kuchlar yotadi?

Bu va boshqa ko'pgina shunga o'xshash muammolar odamlarni falsafaga qayta va qayta murojaat etishga majbur qiladi, chunki fan hozircha bunday savollarga aniq javob berishga qodir emas. Aksildunyolar va aksilgravitatsiya, qora materiya va qora energiya, boshqa makon va vaqt o'lchovlaridagi dunyolar haqidagi har xil falsafiy g'oyalarning mavjudligi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Shunga qaramay, fan va falsafaning roliga baho berishda ayrim qarama-qarshiliklar mavjud. Xususan, ba'zi bir ilmiy va falsafiy davralarda fanning roli va ahamiyatini mutlaqlashtiruvchi yondashuv mavjud bo'lib, u «ijobiy», «foydali» bilim sifatida fanni «mavhum» va «tajribaga asoslanmagan» falsafaga qarshi qo'yadi. Bunday qarashlar ssientistik deb, nazariy tafakkur yo'nalishi esa – ssientizm (lot. *scientia* va ingl. *science* – fan, bilim) deb ataladi. **Csientizm** fan texnika taraqqiyotining ijobiy jihatlarini mutlaqlashtiradi. **Antissientizm** falsafiy bilishni ilmiy bilishdan ajratadi, uni ilmiy bilish bilan muvofiq emas, deb e'lon qiladi, u oqilonalikni kamsitadi va *mistika, intuitsiya, iroda* va shu kabilarni mutlaqlashtiradi.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi sanoat va texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Uni industrial sivilizatsiya yoki texnogen jamiyati deb atalmoqda

Hozirgi jamiyat mavjud adabiyotlarda texnogen olam industrial sivilizatsiya deb ham yuritilyapti. U an'anaviy, yovvoyi (podachilik) jamiyatdan farqlanadi va kelgusi jamiyat manzarasini quyidagi izchillikda tasavvur qilish imkonini beradi: industrial post industrial ekologik jamiyat.

Texnogen olam, sivilizatsiya bevosita «fan », «texnika», «ratsiaonallik» singari tushunchalar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, fan va texnika ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, inson faoliyatiga kirib bormoqda. Fan va texnikani falsafiy idrok etishning ahamiyati kuchaymoqda. Falsafaning «texnika falsafasi», «fan falsafasi» singari nisbatan mustaqil sohalari tez rivojlanmoqsa.

Fan va texnika elementlari garchi antik davrda vujudga kelgan bo'lsa-da, unga falsafiy baho berish XX asrda tubdan o'zgardi. Yunonistonda «texne» tushunchasi «mohirlik», «san'at», tabiiy materiallardan sun'iy ravishda nimalarnidir yaratish, «ishlab chiqish» ma'nosini anglatgan. Yashash uchun mavjud tabiiy materiallardan sun'iy predmetlar yaratishga, tabiiy narsalarni insoniyashtirishga intilgan. inson ishlab chiqaruvchi, mavjud bilimlarini predmetlashtiruvchi, qobi-liyatlarini ro'yobga chiqarishga xarakat qiluvchidir.

Tafakkur tarixida texnika tushunchasi turlicha talqin etib kelindi:

1) marksizm texnikani ijtimoiy organizmning sun'iy sistemasi, jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining tarkibiy qismi, moddiy ashyoviy elementi sifatida talqin etdi;

2) Martin Xaydegger texnika bu birinchi asos , inson ibtidosining ildizi, tomiri, insoniyatning o'z-o'zini ro'yobga chiqarish, namoyon etish usuli deb tushundi.

3) Ellyulning fikricha, texnika qandaydir mexanizmlar yig'indisi, maqsadni amalga oshirish tartibidir.

4) Nemis olimlari: Lenk va Porol texnikaning quyidagi muhim elementlarining ko'rsatdilar:

5) tabiiy bilimlarning amaliyotga tatbiq qilinadigan tarmog'i;

6) elementlar va vositalar kompleksi;

- 7) tabiatni bo'ysundirish va uning ustidan hukmronlik qilish vositasi;
- 8) tabiatning «kashf etilishi» va «tartibga solinishi»;
- 9) g'oyaning ro'yobga chiqarilishi;
- 10) sun'iy muhit yaratish va boshqalar;

Texnika mohiyati injenerlik, qayta qurish, loyihalash ishlarini olib borishdagi pretmetlarining antifakt

(sun'iy yaratilgan) yig'indisi deb ham talqin qilinmoqda.

Adabiyotlarda ko'proq texnikaning fundamental xususiyatini hisobga olib, uni tub o'zgarishlar qilish vositasi ekanligi qayd etilyapti. Texnika shunday qudratga egaki, uning yordamida iison :

- a) tabiatni,
- b) o'z-o'zini ,
- v) jamiyatni tubdan o'zgartiradi.

Texnika insonning sun'iy qo'li bo'lib, uning vositasida ob'ektga, mehnat pretmetlariga ta'sir etadi va uni o'zgartiradi.

Texnologiya - texnika bilan uzviy bog'liqdir. «Texnologiya» yunoncha so'z bo'lib, pretmetlarga ta'sir etish ishlov berish, tayyorlash, o'zgartirish metodlari majmui degan ma'noni bildiradi.

Agar texnika insonning ob'ektga nima vositasida ta'-sir ko'rsatishini anglatsa, texnologiya insonning ob'ektga qanday ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Texnika tarixan insoniyat faoliyatining ob'ektiv shart-sharoitidir. U tosh sanoati, hunarmandchilik, yuqori texnologiya jarayoni davrlarini, texnika taraqqiyoti davrlarini ifodalaydi va uning inson faoliyatidagi rolini ko'rsatadi.

1. Texnika odsiylikdan murakkablikka tomon rivojlanadi. A) qo'l mexnat qurollari davri: B) xunar- manufaktura davri V) mashinalashgan texnika: G) avtomatlashgan sistema

Insoniyat tarixi qo'l mexnatining texnika zimmasiga o'tib borishidan guvoxlik beradi. Inson «tabiiylikni» sun'iy predmetlar ishlab chiqarish bilan almashtiradi, tashqi olamni o'zgartiradi, o'zini takomillashtiradi. Inson va texnika o'rtasidagi aloqadorlik tobora ortib boradi.

Hozirgi olam bu «texnikalashgan» makon va «texnologiyalashgan» zamon birligidan iboratdir.

Biz tabiatning ibtidoiy bosqichida emas, texnosferada yashayapmiz.

. Texnik rivojlanish davrini belgilashda AQSh faylasufi va sotsiologi L. Mamfordning qarashlari muhimdir. Uning fikricha, hozirgi davr texnikasining dastlabki kurtaklari bizning eramizdan ikki ming yil ilgari vujudga kelgan bo'lib, quyidagi 3 davrni kechirdi

1. 1000 - 1750 yillardagi «ekotexnik» davr. Uning texnologiyasi asosini suv, daraxt, yog'och tashkil etadi.

2. XVIII asrning 2- yarimi - XX asr o'rtalaridagi «politexnik» davr. U ko'mir va temir kompleksiga tayanadi.

3. Hozirgi davr «neotexnik» davr boʻlib, «elektr quvvati va qotishma» dan keng foydalanilyapti. Demak, L. Mamford texnikada qoʻllanadigan energiya turi va moddani oʻz taʼlimotiga asos qilib olgan.

4. Faylasuf T. F. Sunyagin texnikaning rivojlanish konsepsiyasini yaratishda texnika funksiyalarining mexnat tipi va turiga qarab oʻzgarishini asos qilib olgan:

a) qadimgi texnika va uning «xonavayron» qiluvchi xarakteri ovchilik va teruvchilikka nisbatan «isteʼmolchilik» munosabatida boʻlgan;

b) dexqonchilik mexnati neolit revolyusiyasi jarayonida qaror topdi. Unda konstruktivlik, ishchanlik xususiyatlari va texnika belgilari shakllandi.

v) ishlab chiqarishda mashinaning qoʻllanilishi bilan texnika taxirida sifat oʻzgarishi vujudga keldi.

Ayniqsa, yevropada oʻrta asrlarda texnika yangiliklari, soat, oyna, shisha, kitob nashr etash rivojlandi. Soatning yaratilishi kishilarni tabiiy sikl, organik vaqt doirasidan chiqishini taqozo etdi. Inson vaqtni tajashni, uni qadrlashni oʻrgandi. Vaqtni orqaga qaytmasligiga iqror boʻldi. Vaqtga boylik sifatida qarash odat tusiga kirdi.

Oyna, shisha makonning bir xil ekanligini tushunishga imkon berdi. Osmon haqidagi «muqaddaslik» niqobini fosh qildi. Oddiy koʻrish, sezish, texnik oʻzgarishlar iqtisodiy va gʻoyaviy munosabatlarni, inson mentalitetini tubdan oʻzgartirdi. Texnika mutasil ravishda rivojlanib bordi. Oddiy qoʻl dastgoxlaridan tortib, to avtomatlashtirish va kompyuterlashtirishgacha rivojlandi.

Inson va jamiyat «texnosfera» da joylashgan boʻlib, texnika bir joyda toʻxtab turmaydi. Texnika innovatsiyasi («yangiliklari») inson xayotini toʻxtovsiz oʻzgartirib turuvchi katalizator (oʻzgarturuvchi), xarakatga keltiruvchi sifatida inson ongida joy oldi. Kishilarning texnikaga munosabati turli davrlarda turlicha boʻlgan ishonchsizlik hadiksirash, texnofobiya (texnafobiya- fobiya-yun. qoʻrquv) qoʻrqish va boshqalar texnikaga boʻlgan munosabatning bir koʻrinishi edi.

Texnika insonni xoldan toydiradi, ezadi. XUSH-XIX asrlarda maʼlum guruxdagi kishilar (lundlar) stanok, dastgoxlarni sindirganlar, mashinalarga nafrat bilan qaraganlar. Bu davrda kishilar mexnat qilishga qiziqmay qoldilar, ishchi mashinaning shunchaki bir vintiga (qoʻshimchasiga) aylandi, nuqul bir hil maromda ishlash vujudga keldi. Texnika taraqqiyotidan qoʻrqadigan va texnikaga nafrat bilan qaraydigan kishilarni keyinchalik neolundlar deb atay boshladilar.

Ulugʻ mutafakkirlar ham texnikaning inson nazratidan chiqib ketmasligi haqida koʻp qaygʻurganlar. Bu masalani dastavval Arietotel koʻtargan edi. Hozir ham bu masala dolzarbdir. Osvald Shpengler XX asrning 30- yillarida «Inson va texnika » asarida inson olamning hukmdori edi, u mashinaning quli boʻlib qoldi, deb yozgan edi. Mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish ijtimoiy

hayotga tobora chuqurroq kirib keldi. Mashina va inson organizmi bir -biri bilan qo'shildi. Xayot tarzi, inson psixologiyasi o'zgardi.

Texnika inson borlig'ining barcha sohalariga: iqtisod, siyosat va mafkuraga kirib keldi.

«Inson va mashina » munosabatlari yangicha mazmun kasb etyapti. Elektron kibernetika, kompyuterlashtirish komplekslari, texnika, mexanizm, texnologiya keng targ'ib qilinmoqda.

Kibernetikalashtirish konsepsiyasi. Keyingi vaqtlarda inson muammosiga « texnikalashtirish» asosida bir yoqlama qarash vujudga keldi. Shulardan biri insonning jismoniy, tabiiy strukturasi haqidagi kibernetikalashtirish konsepsiyasidir. Bu konsepsiyaga ko'ra inson kelajakda o'z tanasi, jismidan voz kechishi kerak. Hozirgi odamlar o'z tanalarini «kiborlar» bilan almashtiradi, ya'ni tirik texnik qotishma vujudga keladi. Texnika istiqbolini bunday tavsiflash va xotirjamlikka berilish qo'rqinchli va gumanizmga ziddir.

Tanasiz holda inson borligini tasavvur qilib bo'lmaydi. Tana , jism yo'q bo'lsa, demak, inson ham yo'q bo'ladi. Albatta, inson tanasiga har hil sun'iy organlarni qo'yish, ulash aqlga muvofiq va zarurdir. Lekin shaxsning shaxs ekanligini ko'rsatadigan mezonlardan chetga chiqmaslik kerak. Inson o'z tanasidan maxrum bo'lmasligi lozim .

Texnika va texnologiya fetishizmi (sig'inish) ancha kuchaydi. Hozirgi sharoitda bu g'oya texnik ziyolilar, siyosiy sfera elitasi o'rtasida tarqalmoqda, texnika mutlaqlashmoqda. Bu mustaqil va yaxlit hodisadir. Uning yordamida har qanday ijtimoiy (ijtimoiy) muammolarni hal qilish jarayonida tarix sub'ekti bo'lgan ijtimotiy munosabatlarning o'rni va roli hisobga olinmaydi. Texnitsizm tizimida «megamashina» g'oyasi muhim o'rin tutadi. U texnik tafakkurning johil, yovuz shaklidir (mega -yunoncha yirik, ulkan, katta demakdir).

Falsafa barcha hodisalarni «mashinalashtirish», texnik mifologiya inson tabiatiga ziddir, degan ta'limotga asoslanadi. Inson va insoniyat mashina ham, texnik sistema ham' emas. Texnika insoniy bo'lishi kerak. Texnika insoniyat tomonidan yaratilgan barcha yutuqlarni o'ziga singdirib, inson qudrati va aqliga xizmat qilishi lozim. Har qanday rivojlangan texnika ham ijtimoiy masalalarni insonsiz hal eta olmaydi.

I. A. Karimov «O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» (T. 1995 y) asarida ko'rsatilganidek, «jamiyatning biryoqlama demografik rivoji millat salohiyatini pasaytirib yuborishi, og'ir ijtimoiy- ma'naviy va siyosiy yo'qotishlariga olib kelishi mumkin va olib kelmoqda ham.

... Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jixatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik va mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak ». (O'sha asar 22- 46 betlar).

Hozirgi davrda, albatta, planetada texnosferaning vujudga kelishi, tabiatning «madaniylashuvi» insonlar aqli va erkiga ta'sir etadi va dolzarb masalalarni keltirib chiqaradi.

Yangi tabiiy muhit vujudga kelyapti, insonning unga moslashuvi ancha murakkab kechyapti. Chunki insonning texnosferaga moslashuvi, ko'nikishi sekinlik bilan bormokda, bu insonning psixik holatiga ta'sir etyapti.

Texnikaning rivojlanishi o'ziga xos bo'lgan bema'ni holatni ham shakllantiradi. Texnik tarmoqlardagi kommunikatsiyaning tarqalishi: telefon, radiotelefon, kompyuter shahobchalari va boshqalar inson tomonidan o'zlashtirishga nisbatan ilgarilab ketmoqda. Ko'pgina texnika innovatsiyalari: ixtirochilik, konstruktorlik iqtisodiy jihatdan deyarli foyda bermayapti. Omma ongi texnika mexanizmlarini ishlab chiqish va turmushga tatbiq etishdan orqada qolmoqda. Hayot oqimining barcha sohalarini texnika bilan to'ldirish, ayniqsa keyingi davrlarda, halokat, avariya, texnik hodisalar ko'paymoqda

Lekin texnik taraqqiyotni, uning jamiyatdagi o'rni va rolini t.o'xtatish, inkor etish mumkin emas. Taraqqiyot oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab ilgarilab boraveradi. Bu jarayon texnikaning o'sishi va rivojlanishi uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatdir. Texnika insoniylashuvi, inson ma'naviyati bilan uyg'unlashuvi, inson manfaatlari har bir insonning ongi va faoliyatiga singishi lozim.

Fanning ahamiyatiga yuqori baho berish kuchaydi. Hozirgi davrda sotsiotexnologiya revolyusiyasi keng quloq yoydi. Ayniqsa, u inforatsiyali kompyuter, biotexnologiya, ekologiya sohalarida ro'y bermokda. Fanga bo'lgan munosabat turlicha namoyon bo'la boshladi: bir guruh olimlar fanga sajda qilmoqda, bir guruh olimlar esa uni la'natlamoqda.

Fanni ta'riflash uchun ikki muammo qo'yilmoqda.

1. Fan nima, u qanday rivojlanadi, uning natijalari nimalardan iborat?
2. Fan qadriyati nimadan iborat? U Xind kosmologiyasi, Aristotelning nazariy tuzilmasidan, qadimgi Xitoylarning dao ta'limotidan, afsona va rivoyatlardan farqlanadimi?

Falsafa fan, madaniyatni talqin qilishda uning ratsional tomoniga alohida urg'u beradi.

Ratsionalizm problemi, uning modifikatsiyasi (shakliy o'zgarishi), ratsionallikdan tashqari irratsionalizm (aqldan tashqari) oqimlari bilan munosabati keng o'rganilmoqda.

Ratsionalizm (aqlga muvofiq, oqilona) hayot bilan bog'langan. Ratsionallik olim hayotining prinsipi, inson pozitsiyasi, olamga munosabati, shaxsiy muammosi bilan chambarchas bog'langan. Tafakkur tarixida ratsionallik tushunchasi («ratsio»- aql) oqilona, ya'ni insonning olamga ongli munosabati, olam va inson haqidagi fikr, ta'limot tushunchalari faqat aqldan kelib chiqadi. Aql inson fikrlash qobiliyatining eng yuqori shaklidir.

I. Kantning fikricha, aqldan yuqori hech narsa yo‘q. Aql insoning bilish qobiliyatidir. Dastlabki mantiqiy asos, mantiqiy belgi har qanday fikr yuritish, mulohaza natijalarining shart- sharoiti, zamini hisoblanadi.

Prinsiplar ma'lum ma'noda o‘z mohiyati bilan aksiomadir. Aksioma fanda isbotsiz qabul qilinadigan haqiqatdir. U «postulat» (isbotsiz asos qilib olinadigan qoida) g‘oyalari ancha yaqin atamadir. Bu tushunchalar o‘z - o‘zidan ma'lum bo‘lgan va to‘g‘riligini, haqiqiylikni isbotlash uchun dalil talab qilmaydigan tushunchalardir.

Prinsip- fikrlashga yo‘naltiruvchi moment, fursat, shart - sharoitdir.

Klassik ratsionalizmning barcha oqimlari fikr, mulohazalar rivojlanishining dastlabki asosi sifatida u yoki bu prinsiplarga tayanadilar. Xususan, Fales birinchi asos qilib «suv»ni ; Gegel «mutlaq g‘oya»ni; Shopengauer- «erk»ni; Marks- «materiya»ni olganlar.

Yuqorida zikr etilgan ratsional sistemalar mantiqiy xulosalarni faqat yagona ildiz, dastlabki asos prinsipidan keltirib chiqaradilar.

Olamni bunday konseptual tushunish olamni muxokama orqali hosil qilinadigan mantiqiy dalil, isbotlash asosida tushunish olamni bevosita intuitiv tushunishga, haqiqatni egallash (diniy ta'limot)ga, yaxlit bilishga zid bo‘lgan yo‘nalishdir.

Hozirgi davrda ratsionallik tushunchasi qaytadan ko‘rib chiqilyapti, yangicha baholanyapti. Ratsionallik tarixiy tushuncha bo‘lib, «aqlning o‘zi ham doimo o‘zgarib, rivojlanib turadi. Uning ayrim tomonlari eskirib xayotdan chiqib ketdi ».

Ratsionallik tushunchasiga yangicha yondashish shundan iboratki, ratsionallik sub'ektning o‘z faoliyatini tashkil etishidagi universal vositadir. Bu faoliyat aqlga, mulohazaga asoslanib, sub'ektning niyatiga yetishini ta'minlaydi.

Ratsionallik haqida hozir turlicha qarashlar, talqinlar mavjud. Shulardan ayrimlarini ko‘rib chiqamiz:

M. Veberning yozishicha, ratsionallik maqsadga erishishning adekvat (aynan) vositasidir.

Vitgenshteynning fikricha, ratsionallik, bu konformizm, ya'ni vaziyatga moslashishdir.

Tolmenning fikricha, ratsionallik faoliyat qoidalarining mantiqiy asoslanishidir.

Demak, ratsionallik haqida turli- tuman qarashlar, talqin etishlar mavjud. Lekin har qanday qarash ratsionallikni vaziyatni mantiqiy dalil asosida tahlil qilish bilan bog‘laydi.

Ratsionalizm keng ma'noda tabiat, jamiyat va shaxs sub'ektivligini yaxlit qamrab oluvchi aql qobiliyati, layoqati demakdir.

Fan haqiqatni bilishning ratsional mag‘zidir. Fan inson madaniyatining ajralmas qism bo‘lyb, olam va inson to‘g‘risida ob'ektiv

ahamiyatga ega bo'lgan yangi bilimlar hosil qilish bilan maxsus shug'ullanadi.

Fan haqiqiy borliqni, real voqeyelikni o'rganishga «ob'ektiv» qaratilgan bo'lib, sub'ektiv baho berishdan holdir. Ob'ekt qanday bo'lsa, uni shunday ko'rsatish kerak.

Fan asosan amaliyotdan kelib chiqdi, uning alohida bir sohasi sifatida rivojlandi. U barcha sohalarni tadqiq etish imkoniyatiga ega bo'lib, ham nazariya, ham amaliyot bilan shug'ullanadi.

XX asr oxirlariga kelib, texnogen sivilizatsiyasi ilmiy ratsionallikda o'z ifodasini topdi. Ilmiy ratsionalizm olamga bo'lgan munosabatda inson qudratini, uning yaratuvchan rolini kuchaytirdi. Insonning tabiat bilan birga uyg'unlashishga bo'lgan ishonchi ortdi.

F. Bekon bir vaqtlar «bilim - kuchdir» g'oyasini olg'a surgan edi. Lekin kuch- hokimiyat tayanchidir. Hokimiyat siyosiy hayot jarayonlarini va inson faoliyatini to'la qamrab oladi; egalik qilish va o'zini nazorat qila bilish ham hokimiyat elementidir.

Ilmiy ishlarni amalga oshirish uchun xukmronlikka intilish inson obro'sini oshiradi, ishonchini mustahkamlaydi.

Hozirgi zamon jamiyatida fan ixtisoslashdi, kasbga, ijtimoiy faoliyatga aylandi. Fan texnika va texnologiyaga tobora ko'p yangiliklar olib kiryapti (atom, lazer, kompyuter, bioinjener texnologiyasi va x.o.)

Fan va uning yutuqlari jamiyatda salmoqli o'rin egallaydi. Inson o'z faoliyatida undan foydalanmoqda, intellektual saloxiyati kuchaymoqda. Lekin fanning roli va o'rnini bir tomonlama, tor doirada baholash, uni inson ma'naviyatining (ruxining) boshqa tor qismlariga qarshi qo'yish yaramaydi.

Inson va jamiyat xayotida axloqiy qadriyatlar, hissiy jarayonlar, badiiy did (izlanish), diniy e'tiqod, tajriba va boshqalar ham katta rol o'ynaydi.

Hozirgi davrda eng muhim masalalaridan biri ilmiylikdan tashqarigi bilimdir. Ilmiylikdan tashqarigi bilim (ilm, bilish) ni baholashda ratsionallikni ma'rifatga zid, ilmga qarshi soha sifatida inkor etadilar. Lekin inson ruhi faqat xato fikrda bo'lmaydi, balki uning fikri «adashib, sarsonbo'lib», yurishi ham mumkin. U haqiqatni izlaydi, hych qanday to'siqlardan cho'chimaydi. Ruh qaerni xohlasa, o'sha joyda bo'lishi mumkin. Aql ko'p qirrali hodisa bo'lib, minglab yillardan beri haqiqatni izlaydi, unga intiladi. Buni inkor etish mumkin emas. Germes Trigamis (chorva va savdo xudosi, sehrgarlar himoyachisi) ning ruhi bo'lishi, Injil va Qur'on matn (tekst) lari, «O'zgarishlar kitobi», Veda va Upanishadlar (Veda - Qadimgi Hindiston adabiyoti yodgorliklari, diniy madxiya, ashula, duolar, udum, mif va boshqalar bayoni). Upanishadlar - qadimgi Xindistondagi falsafiy oqim bo'lib, asosan ustoz va talaba o'rtasidagi muloqot shaklida ifodalangan, asrlar davomida yaratilgan va saqlangan.

Yuqorida sanab o'tilgan ta'limotlar fan emas. Lekin ular olamni anglashning ma'naviy shakllari hisoblanadi. Ularni inkor etish o'ylamasdan qilingan hulosa hisoblanadi.

Olamga ratsionallik asosida qarash hozir ham mavjud. Fan barcha istaklarni bajara olmaydi, bajargan taqsirda ham insoniyat muammosi bitmas - tunganmasdir, uning barchasini to'plab, fan doirasiga kirita olmaymiz.

Sevgi fan emas. Lekin inson ruhiy olamida fanga nisbatan salmoqli o'rin egallaydi.

Hozirgi davrda fan alternativi (muqobili) vujudga kelmoqda va eskilari qayta tiklanmoqda. Transpersonal psixologiya (transgipnoz asosida miya qo'zg'alishi) o'z- o'zini kashf etish, ekstrasens «bashorat qilish», nimadir aytish, oldindan ko'rish. b. «Ufologiya» (charchash, yengillashish) s. Olamni tushunish (anglash) ning sharq sistemasi

Sharq sistemasiga nisbatan qanday munosabatda bo'lish kerak? Olam bepoyon, inson ruxiyati cheksiz, chegarasizdir. Bilib olingan tomonlar , sohalarga nisbatan bilinmagan narsalar ko'p.

Fan - madaniyat mahsuli, ijtimoiy ong shakli sifatida nisbatan keyinroq vujudga keldi. Insonlar minglab yillar davomida yerga ishlov berdi, uy-joy qurdi, sevdi, istirob chekdi, fikrladi va baholadilar. Ya'ni olamni o'zlaricha angladilar, mushohada qildilar, tushundilar. Hali fan yo'q edi. Avlodlar almashuvi davom etdi. Insonlar traditsiyaga, empirik tajribaga tayandilar. Olamga mifologiya yoki din orqali qaradilar. Bilishga intilish bor edi. Inson bor ekan hamisha bilishga intilgan. Lekin inson bilimi ilmiy bilishdan uzoqda yoki ilmiy bilishdan tashqarida edi.

Olamni anglash, tushunish, mif, sehrgarlik tajribalarning t.o'planishi sifatida ustozdan shogirdga o'tib borgan, inson hayoti davom etgan.

Ma'lumki, yevropa antik davrida va Qadimgi Sharqda tom ma'nodagi nazariy bilim va fan arboblari yo'q edi. Noilmiy elementlar mavjud edi. Paliolitdan to antik davrgacha turli- tuman ko'rinishdagi bilimlar to'planib bordi, lekin ular ijtimoiy hayotning zaruriy sharti hisoblanmas edi.

Davrning madaniy va ijtimoiy - iqtisodiy talabiga xos bo'lgan fan yevropada . o'rta asr oxirlari va yangi zamonning dastlabki vaqtiga to'g'ri keladi: XVII asrning ulug' olimi F. Bekon (1561-1625) fanning ikki vazifasini aniqladi:

A) Fan insoniyat bilimini ko'paytirish vositasi;

B) Fan insoniyat farovonligini yaxshilygi vositasi; Bu g'oya hozir ham qimmatli va e'tiborga loyiqsir. Fanning rivojlanish tarixi haqida turlicha qarashlar va konsepsiyalar vujudga keldi. Yangi konsepsiyalardan biri (1993yil Kravets A. S) fan rivojlanishiga asos qilib sotsiol - madaniy paramet (o'lcham) ni oldi va yevropa fani taraqqiyotining to'rt davrini ko'rsatib berdi. 1-davr . XV asrdan to XVIII asrgacha romantizm ruhida bo'ldi. Bu davrning xususiyati : bozor iqtisodiyotining qaror topishi; buyuk kapitalizm; dastlabki kapital jamg'arish, fan bilan shug'ullanishning kasbga aylanishi; inson bilish faoliyati-

ning din doirasidan chiqib tabiiy tajribaga tayana boshlashi; fan strukturasi yangi sohalarning vujudga kela boshlashi; fan tarmoqlarining kengayishi; maorifning fan xuloalarini bevosita singdira boshlashi. 2- davr. XVIII- XIX asrlardagi klassik davr. Uning muhim xususiyatlari :

- bozor munosabatlari qaror topdi:
- ishlab chiqarish mashinalashtirildi:
- kapitalizm g'alaba qildi:
- fundamental nazariyalar yaratila boshladi:
- fan tarmoqlari rivojlandi:
- fan maxsus nazariyasi yig'indisi sifatida shakllandi. Fan bevosita davlatga xizmat qila boshladi. Olim obro'si ortdi.

3-davr . XX asrning 70- 80 yillari post klassik davr uning xususiyatlari:

A) «katta fan » vujudga keldi.

Olam mohiyatini talqin qilishga qaratilgan nazariyalar yaratildi; B) Ilmiy g'oyalar texnika innovatsiyasiga, ishlab chiqarish va turmushga bevosita keng tatbiq etila boshladi. 4- davr . Birinchi postklassik davri, hozirgi davr .

«katta fan» soxasidagi rivojlanish jadallashdi. Davlat fani har tomomnlama rivojlantirish himoyasiga oldi, fan davlat tizimining muhim elementiga yaylandi. Yirik loyihalar vujudga keldi (atom, kosmos, «inson» , ekologiya). Fan strukturasi ichki tuzilishi turli - tuman ko'rinishga ega bo'ldi. Ilmiy izlanish ikki yo'nalishiga : tabiiy olam va inson olamiga qaratildi. Shunga asoslanish dastlab fan :

a) tabiiy fanlarga

b) sotsiol ijtimoiy- gumanitar fanga ajraldi.

Bu fanlar o'zaro bog'lab va shu bilan birga o'z ob'ektiga ega bo'lgan muchtaqil sohalardir. Hozirgi zamon faning uyg'unligi , yaxlitligi turli-tuman bo'lib, uning tavsifi har hildir. Pretmetlar, fan sohalari bo'yicha tavsif qilish prinsipi mavjud. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, hozirgi paytida 10 mingdag ortiq mustaqil fan mavjud. Har bir fan o'z atamasi, o'z metodikasi, tadqiqot pretmetiga ega. Olam yaxlit, lekin u ko'p qirrali ichki aloqador sistemadir. Fanni sohalariga qarab uyushtirish o'zini oqladi.

Lekin, bu doimo nazariy sintezga katta ahamiyat berishni talab etadi. Bu joyda falsafa muhim rol o'ynaydi. Falsafa ma'naviy olamga munosabat masalasida bilimlarning umumiy asoslarini tuplash, yig'ish funksiyasini bajaradi. Har bir tadqiqotchi fan bilan shug'ullanishda juda ko'plab muammolarga duch keladi, . umumiylikni izlaydi. Inson muammosi, insoniyatning umumbashariy muammolari, universium muammolari, yirik texnika muammolarini bironbir fan doirasida hal etish g'oyat mushkuldir. Shuning uchun ham falsafiy umumlashtirishga ehtiyoj tug'iladi. Fan ilmiy bilimlar sistemasi sifatida o'ziga xos ichki tuzilishiiga egadir. Adabiyotlarda uning turi farqlanadi:

1) empirik darajadagi ilmiy bilim;

2) nazariy darajadagi ilmiy bilim.

Empirik darajadagi ilmiy izlanish olimning tadqiqot ob'ekti bilan bevosita aloqa o'rnatishini bildiradi. U kuzatish, taqqoslash, o'lchash, eksperiment, tasvirlash va h. k tayanadi.

Nazariy darajadagi ilmiy izlanish empirik dalilga asoslanadi, ob'ektdan ancha uzoqlashgan bo'ladi:

Ideal model tuzish, aqliy eksperiment, mavjud materiallarni matematik asoslash, nazariy konstruksiyalash (loyihalash) va boshqalar nazariy izlanish metodlari hisoblanadi. Bu darajada eng avvalo o'rganiladigan ob'ekt va jarayonning mavxumlashgan sistemasi tuziladi.

Bu ikki izlanish o'zaro bir- biri bilan bog'langan bo'lib ular o'rtasidagi aloqadordir. Nazariy esa faktga tayanadi.

Ilmiy bilish o'z mohiyati bilan qonunlarni ochishga qaratilgan, chunki ular ilmiy bilim shakllari bo'lib, narsalardagi barqaror, takrorlanib turadigan, zaruriy aloqalarni ifoda etadi.

I. Kant qonunni mavjudlikning zaruriy qoidasi deb ta'riflagan edi. Tatqiqotchil o'rganadigan ob'ekt yoki hodisani tasvirlash, tushuntirish (ya'ni mohiyatini ochish, uning ichki imkoniyatlarini topish) va o'zgarish jarayonini ko'ra bilishni bashorat qila olishi kerak.

Gumanitar fanlar (inson haqidagi fanlar) ning vazifasi tasvirlash, tushuntirish bilan birga , yana muhimi, fahmlashdir. Fahmlash, idrok etish o'rganiladigan ob'ekt yoki sohaning insoning maqsadi va idialiga muvofiqligini izohlash (interpretatsiya) demakdir.

Fahmlash, idrok etish insoniylik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Fanning yashashi va rivojlanishi ayrim zaruriy asoslarga tayanadi.

Hozirgi tatqiqotchilar quyidagi asoslarni ko'rsatmoqdalar:

- Tadqiqot ideallar va normalari:
- Olamning ilmiy manzarasi:
- Fanning falsafiy asoslari:

Hozirgi zamon fanida tez- tez qo'llanilayotgan «paradigma» tushunchasi mavjud, uni fanga T. Kunt kiritdi.

Paradigma tushunchasi o'z ichiga :

A) ilmiy izlanishlar umum qabul qilgan ideallar va normalar yig'igdisi, B) ilmiy jamoatchilik asosiy ko'pchiligining roziligi bilan tan olingan. Demak , paradigma- ideal va normalar, olam manzarasi holatini ifodalandi. Paradigmaning almashinuvi fanda katta o'zgarish ro'y berganini va yangi sohaga o'tilganini bildiradi. XX asr o'rtalariga kelib, paradigma sifatida olam manzarasi va inson muammosi qo'yildi. Bu fandagi o'zgarish, postklassik davr, noklassik davrning vujudga kelishi bilan bog'liq edi. Ayni shu davrda, fanga aksiologik yondashuvi shartlari kiritildi. Fan ob'ektivlik bilan o'ziga u yoki bu shaklda «Antrop prinsip»ni qabul etdi. (Antrop, antropologiya- odamning biologik xususiyatlari). Olamda inson yashaydi, har qanday bilim , o'zgarish , inson, manfaatiga xizmat qilishi, insonga yo'naltirilgan bo'lishi shart. Ya'ni

olamni o'rganish, bilishga inson manfaatlari nuqtai nazaridan qaramoq kerak. Klassik tabiiy fanlar olamning tabiiy asoslarini o'rgandi. Olam boshqa, uni o'rganuvchi inson boshqa. Inson tabiatda yashaydi, lekin bu haqiqat inson tamonidan har doim ham tan olinmagan.

Fan inson zotini saqlash va uning abadiyligini ta'minlashga qaratilgandir.

Inson omon- eson saqlash, uning tarixini davom ettirishi jahon fanining vazifasidir. Fanda gumanizm ruhi kuchaymoqda, har qanday haqiqat inson baxt-saodat uchun xizmat qilishi kerak. Mavjud adabiyotlarda fan hamma vaqt to'g'ri chiziq bo'ylab harakt qilmaydi: Olam «tartib» va «tartibsizlik» mavjud bo'ladi, uning kelib chiqish sabablari turlisa, bu esa kosmos, biosfera, sotsiol hayot bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Fan ham shu qonunga asoslanadi. Ya'ni to'g'ri chiziq bo'ylab rivojlanmaydi.

Ma'lumki, olamni sinergetik asosda anglash fundamental tushunchadir. Bu tushuncha matematika fanidan olingan U yoki bu sistemalardir, shu jumladan, ijtimoiy masalalarni hal etishda, faqatgina bir yo'l va birgina ehtimollik bo'lishi mumkin emas. Aksincha, ular ko'p hatto bir- biriga zid bo'lishi ham mumkin.

Rivojlanishning beqarorlik nuqtalarida (bifurkatsiya- «uchqun», alanga) vaziyatning keskinlashishi, taranglashuvi asosida sodir bo'lishi- fannig neoklassik paradigmasi xazinasiga kiradi.

Sinergetik asosida qarashda ko'pgina hodisalar mutatsiyaga(mutatsiyalat. O'zgarish: to'satdan vorislikda tabiiy sun'iy o'zgarish) uchraydi. Bizning asrimizda fan uzoq galaktikaga, kosmosga, elementar zarachalar va kvant, tirik organzm, insonning ruxiy holati vaijtimoiy hayoti sohalariga kirib bordi.

Fan yutuqlari qator kamchiliklariga qaramay, inson zoti tarixini davom ettirish imkoniyatini yaratmoqda. Fan bevosita ishlab chiqruvchi kuchga ayland. Fan ijtimoiy kuch sifatida insonhamjamiyatida bo'layotgan o'zgarishlarga o'z ta'sirini kuchaytirmoqda. Bu esa ilmiy- texnik sohalarni: fundamental va amaliy, tabiy va ijtimoiy- gumanitar, texnik va tashkiliy jihatlarni o'z ichiga oladi.

XX asr oxirlariga kelib inoniyat tarixida inson olamiga va tabiat olamiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, Bu o'zgarishlar turlicha ifodalanyapti:

- ilmiy- texnik revolyusiya (Marksizm)
- Ijtimoiytexnik revolyusiya (O. Tofflarning sivilizatsiyali topologiyasi) .

- Informatsion - kompyuter yoki informatsion- ekalogik davr. Uning yadrosi, markazi sifatida elektron kompyuter va biotexnologiya ko'rsatilyapti. Buning natijasida yangi sivilizatsiya vujudga kelishi mumkinligi aytilyapti. U «informatsion », «informatsion- ekalogik» davr jamiyati deb atalishi mumkin.

Sivilizatsiya jamiyat endigina shakllanmoqda. Bu jamiyatda asosiy o'rinni informatsiya va bilim egallaydi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda sanoat, qishloq xo'jaligi, aloqa va kommunikatsiya, turmush va dam olish, maorif va ma'naviy hayot fundamental fan yutuqlariga tayanmoqda, inson faoliyati va turmushida bilimga intilishi, uni kengaytirish va saqlash, fikrni transformatsiyalash, ko'paytirish va tarqatish va asosiy o'rinni egallamoqda.

Informatsiya qimmatli mahsulot va asosiy tovar. bo'lib qolmoqda.

Informatsiya faqatgina xabar, ma'lumot berish emas. Kibernetikaning rivojlanishi bilan informatsiya go'yo bir substansiyaga aylandi. Undan tatqiqotchilar, ishlab chiqaruvchilar, ijtimoiy hayotni boshqaruvchilar keng foydalanmoqdalar. Informatsiya haqida falsafiy konsepsiya shakllandi. Informatsiyani manzil va xarakat bilan bir qatorga qo'yimoqdalar:

manzil- xarakat- informatsiya. Bu yerda informatsiya universum va uning tarmoqlariga xos xususiyat deb talqin etilmoqda. Univesum va uni tashkil etuvchi har bir tarmoqning muhim xossasi informatsiyadir. Ko'pchilik mualliflar informatsiyani har xillikning in'ikosi, noaniqlikning yo'qotilishi, turli - tuman xabarlashish, strukturani tashkil topish me'yori tanlash extimollari, talant, iste'dod onasi; har qanday bilim mazmuni, ichki qo'zg'atuvchi, chuqur xabardorlik sifatida talqin etmoqdalar.

Shakllanayotgan jamiyat «Informatsion» jamiyat ekanligini hisobga olib, unga xos quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

A) inson borlig'idagi barcha sun'iy «energetik» va «ashyoviy» (narsalar) holat, momentlar «informatsion» ga ko'chib o'tadi. Energetika, ashoviy tomonlarini informatsiya egallaydi. Inson doimo energiyaga muxtojlik sezadi, tabiat ustidan xukmron bo'lishga intiladi. Dastlabki olovdan tortib - to gidrostansiya, atom raektorigacha energiya yaratiladi.

Texnika va texnologiya ilmiylikka asoslangan bo'lib .ilm- fan va ko'nikmani talab qiladi. Asrimiznin eng yuqori texnologiyasi :

Elektronika, informatika, kosmosga xos ishlab chiqarish biotexnologiya va x.k. keng. ravishda ishlab chiqarish faoliyati revolyusion, radikal o'zg'armoqda, insoniyatga va tabiatga bo'lgan munosabat o'zgarimoqda. Intelektual faoliyat keng miqyosda «texnologiyalashmoqda» kompyuterlashmoqda. Har bir sohada bilim va fanning salmog'i kuchaymoqda. Uni inkor etuvchi davlat muqarrar ravishda inqirozga yuz tutadi.

Hozirgi davrda «insoniy kapital» boshqa kapitallarga nisbatan ustivor o'rinni egalladi, ya'ni umuman, inson hayoti bevosita insonning intellektualligiga, aql zakovatiga, ma'naviy -ahloqiy qiyofasiga bog'liqsir. Informatsiya- kompyuter revoliyusiyasi chuqur ijtimoiy o'zgarishlar uchun asos tayorlaydi. Ijtimoiyo'zgarishlar: ijtimoiy tuzum, xo'jalik hayot va mexnat, siyosat va ta'lim kabilarni qamrab oladi.

Jamiyat strukturasi o'zgardi, ishlab chiqarishda aqliy mexnat xodimlari (mutaxassislar, oq ko'ylaklilar) va robotlar asosiy o'rinni egalay boshladi. Yuqori intellektual malakali xodimlar qatlami vujudga keldi (ularni A. Toffler «kognetariya» deb atadi.)

Jamiyatning madaniy- ma'naviy sohasi nixoyatda tez o'zgarmoqda. Informatsion texnologiya madaniyatga va innovatsiyaga ta'sir etmoqda, turli ziddiyat va jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Har bir inson individual elektron vositalar orqali zaruriy informatsiya olmoqda. Ommaviy madaniyat, ma'orif sistemasi, bilim doirasi kengaydi. Ma'naviyatga xos bunday o'zgarishlar o'ziga xos tasodifiy, rejalashtirilmagan salbiy holatlarini vujudga keltiradi, madaniyat sifat jixatidan yangi bosqichga chiqmoqda.

Informatsion revolyusiya o'z navbatida siyosiy munosabatlar sferasiga ta'sir etadi.

Bir tomondan, har bir fuqaroning demokratik o'zgarishlarda qatnashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkichi tomondan, insonlar ustidan nazorat qiluvchi strukturani kuchaytiradi.

Informatsion revolyusiya insonga, uning hayot tarziga kasbiga ruxiy holatiga ta'sir qiladi. Sotsiallashtirish jarayoniga informatsiya o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Kompyuterlashtirish yangi reallikka - «virtual reallik» (Extimolga yaqin reallik) ka, sun'iy muxitga kirmoqda, bu muxitni asl nusxa, andoza sifatida qabul qilishi mumkin. Bu yangi texnologiya insoni ruxiyatiga salbiy ta'sir etish ham mumkin. «Extimolga yaqin reallik» sifatida manyak (bir tomonlama rivojlangan, avldan maxrum kimsa) larga xos finnomillarni kompyuter o'yinlarida ko'rish mumkin. Kompyuter texnologiyasi inson ijodiy imkoniyatini kuchaytirishi, yangi tipdagi shaxsni yaratishi mumkin. Buning qanday shaxs bo'lishi esa noma'lum.

Kompyuter texnologiyasi asosida kelajakda vujudga keladigan jamiyat informatsion jamiyat deb ataladi. Lekin, ayrim faylasuflar kelgusi jamiyatga informatsion va ekalogik jamiyat deb qaramoqdalar. Postindustrial jamiyat informatsion muammolarini birinchi o'ringa chiqarmoqda. Lekin u jamiyat tabiatga bo'lgan munosabatga xos barcha kolliziya (ziddiyatlarni) hal qila olmaydi. yetilgan umumbashariy ekalogik inqiroz jamiyatni koevoliyusion munosabatlarni, ya'ni insoniyat va uning tabiiy - ekalogik muxitining optimal munsabatlarini yaratishni talab etmoqda. Ishlab chiqarish ekalogiyalashtirilmasa, insoniyat o'z- o'zini nobud qilish mumkin. Inson va tabiat o'zaro bog'langan jarayon. Tarix taqozosi shuni ko'rsatmoqdaki, yer yuzidagi ashyoviy narsa va energetik resurslar (ko'mir , neft, gaz va boshqalar) ma'lum davrda tugaydi yoki "insoniyatning o'sib boruvchi extiyojini qondirolmay qoladi. U holda qanday resurslar qoladi?

Bu resurs hozir juda tez rivojlanayotgan intellektual, informatsion va eng avvalo, ilmiy- texnik bilimlar, ma'lumotlilik, insonlarning informatsiyaga ega bo'lishi (xabardorligi) resurslaridir.

Insoniyat bu resursga tayanib va unga yana ma'naviy- axloqiy boylilikni ham qo'shib, umumbashariy barqarorlikni ta'minlaydi va rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tariladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Texnika tushunchasining mazmuni va mohiyati.
1. Texnogen olam deganda nimani tushunasiz.
1. Fan nima, u qanday rivojlanadi, uning natijalari nimalardan iborat?
4. Fanning o'ziga xos xususiyatlari.
5. Fanning shakllanishi va taraqqiyoti qanday davrlarni o'z ichiga oladi.
6. Fan va jamiyat orasidagi dialektik aloqadorlikni qanday tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston» 1997 yil, 258-266 betlar.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., «O'zbekiston» 1997 yil.
3. Omonulla Fayzullaev. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – T., «Falsafa va huquq» nashriyoti, 2006 yil.
4. Shermuhamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. – T., 2005 y., 7-122 betlar.
5. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS» 1999 g., str. 258-281.
6. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NMIU, 2005 yil, 328-337 betlar.
7. Falsafa – T., 2006 y., 323-325 betlar.
8. Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni. – T., 2007 yil.

Tayanch tushunchalar:

Fan, texnika, «texnikalashgan» makon, «texnologiyalashgan» zamon, ekotexnika, politexnikaishlab chiqarish, inofrmatsion jamiyat, fundamental fan, amaliy fan.

10- MAVZU: O‘ZBEKISTONNING ILMIY SALOHIYATI (2 S.)

Reja:

1. Fan ilmiy bilimlar tizimidir.
2. Ilm taraqqiyoti jamiyat iqtisodiy hayotining asosi.
3. Fanning vujudga kelishi va rivojlanishida Sharq va G‘arb mamlakatlari olimlarining jahon fani rivojiga qo‘shgan hissalarini.
4. Mustaqil O‘zbekistonning ilmiy hayoti va taraqqiyoti.

Insoniyatning keyingi ikki yuz yillik tarixi davomida tabiatni o‘zlashtirish, inson mohiyatini bilish, jamiyatni takomillashtirish borasida erishgan yutuqlari fan taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Inson tabiiy va ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashish, tabiatning stixiyali kuchlari oldida ojiz va chorasiz bo‘lib qolmaslik uchun fanga murojaat qiladi. Shuningdek, u fan tufayli ijtimoiy munosabatlarni o‘z maqsadlari va manfaatlariga mos ravishda takomillashtiradi.

Fan o‘z oldiga haqiqiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo‘yadi. Ilmiy faoliyat moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish faoliyatidan keskin farq qiladi. Kishilar mehnat" faoliyati, siyosat, san'at, din va hokazo sohalardagi faoliyatlari jarayonida ham bilimlar orttiradilar. Lekin ilmiy bilimlar izchilligi, sistemaliligi, ishonchliligi va haqiqiyliigi bilan ajralib turadi.

Fan ilmiy bilimlar tizimidir. Fan o‘zining ilmiy metodlari va metodologiyasiga ega bo‘lgan, olamni bilish va o‘zlashtirishning maxsus usulidir. Shuningdek, fan ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Uning inson va jamiyat hayotidagi rolini bilishda fan:

1) inson faoliyatining o‘ziga xos turi,

2) alohida ijtimoiy institut ekanligini ehtiborga olish muhimdir. Fan ilmiy bilimlar yig‘indisi sifatida insoniyatning mahnaviy salohiyati, olam, tabiat, jamiyat va inson to‘g‘risidagi tasavvur va qarashlarni shakllantiradi, olamni o‘zlashtirish va o‘zgartirish vositasi hisoblanadi. Olamni ilmiy bilish olamga yangicha munosabat, yangicha qarashni taqozo etadi. U olamni diniy, badiiy, axloqiy, siyosiy bilishdan keskin farq qiladi. Voqyelikka ilmiy munosabat har qanday aqidaparastlik va fatalizm (taqdiri azalga isho-nish) ni istisno etadi. Ilmiy bilish avval boshdanoq falsafiy dunyoqarash bilan uzviy bog‘liq ravishda vujudga keldi. Falsafa ilm- fan xulosalariga tayanib, olamning yangicha manzarasini yaratish imkoniga ega bo‘ldi.

Ilmiy bilishning ikkinchi darajasi - empirik (tajribaga asoslanuvchi) va nazariy darajalari farqlanadi. Empirik bilim asosan tajriba va eksperimentlar jarayonida olinadigan va haqiqiyliigi tajribalar jarayonida sinab ko‘rilgan bilimlardir. Bilishning nazariy darajasida ilmiy qarashlar, bilimlar qat‘iy sistemaga solinadi. Ilmiy tushunchalar, prinsiplar o‘rganilayotgan

predmetning ko'pqirrali tomonlarini chuqurroq va to'laroq bilishga imkon beradi.

Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab, fanlarni eksperimental va fundamental fanlarga ajratiladi. Shuningdek, fanlar o'rganish ob'ektiga qarab tabiiy, ijtimoiy- gumanitar va texnik fanlarga bo'linadi. Tadqiqot predmetini chuqurroq o'rganish jarayonida fanning yangi soha va tarmoqlari vujudga keladi. Masalan, tabiatshunoslik fanlarining botanika, zoologiya, ximiya, matematika, fizika va hokazo sohalari ; ijtimoiy- gumanitar fanlarning tarix, arxeologiya, etnografiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, etika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalari vujudga keldi.

Ularning har biri yana qator tarmoqlardan iboratdir. Masalan, tarix fanining qadimgi dunyo tarixi, o'rta asrlar tarixi, yangi zamon tarixi, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, falsafa tarixi va hokazo sohalari mavjud.

Fanning vujudga kelishi va rivojlanishida Sharq va G'arb mamlakatlari olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalarini biryoq-lama tavsiflash, ularning bir- biriga ko'rsatgan o'zaro ta'sirini inkor etish ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojida yevropatsentrizm va osiyosentrizm oqimlarini vujudga keltirdi. Qadimgi Sharq jahon madaniyati va sivilizatsiyasining beshigi bo'lganligi, dastlabki ilmiy bilimlar Sharq mamlakatlarida vujudga kelganligi jahon olimlari tomonidan ehtirol qilingan. Qadimgi Sharq mamlakatlari (Hindiston, Xitoy, Misr, Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona, Shosh, Afrosiyob)da astronomiya, matematika, meditsina, falsafaga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelishi kundalik hayotiy ehtirol, dehqonchilik rivoji, inson salomatligini muhofaza qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Yil fasllarining almashinuvi bilish zaruriyati astronomiyaga oid ilmiy bilimlarni rivojlantirishga olib kelgan.

Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi bilan tabiat va borliqqa ongli munosabat, tabiat va insonni qadrlash hissi shakllangan. Ilmiy va falsafiy tafakkur insonning tabiat va jamiyatg'a biryoqlama qaramlikdan ozod bo'lishiga, mehnat tufayli borliqqa faol munosabatda bo'lishga imkon bergan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarning olam, odam va tabiatga bo'lg'an falsafiy qarashlari «Avesto» da, hikmat, maqol va rivoyatlarda o'z ifodasini topdi. Qadimgi yunonlarning sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari ilmiy- madaniy sohalardagi aloqalari uchun keng yo'l ochgan. Qadimgi Yunonistondagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar ilmiy bilimlarning rivojlanishi uchun qulayliklar yaratgan.

Qadimgi yunonlar eramizdan avvalgi X1-1X asrlarda ilmiy bilimlarni sistemalashtirdilar va tasnif qildilar. Evklid , Arximed, Fales, Aristotelning ilmiy bilimlar rivojidagi xizmatlarini alohida tahkidlash joizdir. Qadimgi yunon olimlari ko'proq tabiat va koinot sirlarini bilishga, kuzatish va mantiqiy fikrlash vositasida olamning sodda, biroq diniy- mifologik qarashlardan farqli manzarasini yaratishga, borliqqa ozod va erkin inson ko'zi bilan qarashga intilganlar. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik,

hurfikrlilik, turli falsafiy oqim va maktablarning shakllanishiga olib kelgan. Antik dunyo yaratgan fan va falsafa o'rtasidagi hamkorlik, bir- biriga ko'rsatgan barakali tahsir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy- falsafiy faoliyatida yangi bosqichga ko'tarildi. Ularning ilmiy qarashlari hozirgi zamon fanining taraqqiyotida muhim rolg' o'ynagan.

Eramizning V asrlariga kelib, qadimgi Rim imperiyasining qulashi faqat siyosiy sohadagina emas, balki ilmiy- madaniy sohalarda ham tanazzulni kuchaytirgan. Biroq ilmiy- falsafiy tafakkur butunlay to'xtab qolmagan. Qadimgi yunonlarning ilg'or falsafiy va ilmiy ananalari Markaziy Osiyoda yanada rivojlandi va fan sohasiga yangi kashfiyotlar berdi.

IX-XP asrlarda arab xalifalari Xorun ar- Rashid, uning o'g'li Ma'mun va xorazmshoh Mahmudning xomiyligida o'sha davrning o'ziga xos fanlar akademiyalari vujudga kelgan. Xususan, IX asr o'rtalarida Bag'dodda «Bayt al-hikma» (Donishmandlar uyi), Xorazmda «Ma'mun akademiyasi» vujudga keldi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso al Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Marg'iloniy va boshqalar matematika, astronomiya, meditsina, jamiyatshunoslik, fiqx va siyosatga oid fanlarni rivojlantirdilar. Sharqda ijtimoiy-falsafiy bilimlarning rivojlanishi diniy aqidalarni inkor etmagani holda insonni yanada kamol toptirishga, ijtimoiy borliq mohiyatini aql va tafakkur vositasida bilishga asoslangan edi. Sharq olimlari qadimgi Yunon olimlarining ilg'or an'alarini davom ettirganlar, ilmiy bilishning yangi usullarini taklif etganlar.

Sharq falsafiy tafakkuri barkamol inson shaxsini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni yanada takomillashtirishga, tabiat va jamiyat, inson hayotini mohiyatini sirlarini bilish va undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg'or ilmiy ijtimoiy-falsafiy qarashlari va asarlari yevropada ilm-fanning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. yevropaliklar Albaron (Al- Beruniy), Avitsenna (Ibn Sino), Al-Ferganus (Al- Farg'oniy), Ulug'bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o'rgandilar, ularning an'alarini davom ettirdilar. Buyuk italyan mutafakkiri Dante Alegeri o'zining «Ilohiy komediya» (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkirlarni jahonning buyuk allomalari qatoriga qo'ydi va ulug'ladi.

Markaziy Osiyo olimlarining jahon fani rivojiga qo'shgan hissalar matematika, algebra, astronomiya, mineralogiya, geodeziya, geografiya, meditsina, tarix, tilshunoslik, mantiq, falsafa rivojida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muso al Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo'lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» asari bilan meditsinani ilmiy asosga qo'ydi va uning asarlari yevropada ko'p asrlar davomida muhim qo'llanma bo'lib keldi. Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga oid «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari fanga qo'shilgan muhim hissa bo'ldi. Bu hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu tadqiqotlarning barchasini zaminida inson aqli-zakovati, jamiyat va davlat taomili masalasi yotgan

Mavjud adabiyotlarda tahkidlashicha , yevropada fanning alohida faoliyati shakli sifatida rivojlanishi XVI- XVII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Iogann Kepler, Galileo Galiley, Jordano Bruno, Isaak Ng‘yuton asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri Frensis Bekon, fransuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish metodlarini ishlab chiqdilar. Fanning tabiatni o‘zlashtirish va jamiyatni takomillashtirishdagi ahamiyatiga yuksak baho berdilar, «Bilim-kuchdir» shiorini ilgari surdilar.

Bu davrda fan falsafa va jamiyat falsafasi bir- biridan keskin ajralmagan edi. Ularlar o‘z asarlarini «pozitiv eksperimental falsafa» deb atar edilar. yevropada ilm- fanning rivojlanishi ayniqsa sotsium fonarasi inson xaqidagi badiiy qarashlarini tubdan o‘zgartirdi. Jamiyatga dunyoviy fanlar nuqtai nazaridan qarash imkoniyati vujudga keldi, ya'ni ijtimoiy vo‘qyelikka diniy qarashdan keskin farq qiladigan ilmiy qarash shakllandi.

Jahon ijtimoiy-falsafiy ta'limotining vujudga kelishi va rivojlanishiga Sharq va G‘arb olimlari munosib hissa qo‘shganlar. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir davrlarida Sharq mamlakatlari yetakchi mavqeyi egallaganlar. Osiyo va yevropa mamlakatlari xalqlarining jahon falsafa fani rivojidlari rolini biryoqlama bo‘rttirish yoki kamsitish nazariy jihatdan xatodir. Har qanday fan o‘z mohiyatiga ko‘ra umumbashariydir. yer yuzidagi har bir xalq katta-kichikligidan qathi nazar, uning rivojiga o‘z hissasini qo‘shib keldi.

XIX asrning o‘rtalarida tabiatshunoslik fanlarida qilingan buyuk kashfiyotlar (evolyusion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o‘zgarishi qonuni) falafiy dunyoqarashning o‘zgarishiga, jamiyat to‘g‘risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki berdi.

XIX asrning oxirlariga kelib, fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyotida yangi davr boshlanganligidan dalolat berdi. Fizika sohasida : optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o‘rganilishi, ximiya sohasida kimyoviy birikmalar xossalariining o‘rganilishi, D. I. Mendeleevning elementlar davriy sistemasining yaratilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabilarda yaqol ko‘rindi.

Bu davrda sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy ziddiyatlarni oqilona hal etish va jamiyag‘t istiqbollarini belgilash imkonini berdi.

yevropa olimlarining tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsaiy tahlimotlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Xususan, I. Ng‘yuton tomonidan fizika sohasida qilingan kashfiyotlar tabiat va jamiyatning ilmiy manzarasini yaratishga, Charlz Darvinning ilmiy kashfiyotlari esa, butun olam evolyusiyasi to‘g‘risidagi falsafiy qarashning shakllanishiga, olamning yaxlit birligi, organik va noorganik tabiat hamda jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi falsafiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining mashhur vakillari : Ismoilbek Gaspirali, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Ahmad Donish, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar O‘zbekistonda

fan va ma'rifatni keng rivojlantirish g'oyasini ilgari surdilar. O'zbekistonda o'rta asrchilik bidhatlariga qarshi mavjud siyosiy tuzumni isloh qilish zarurligini anglab yetdilar. Jahonning ilg'or fan va texnika yutuqlaridan o'lka aholisini bahramand etishga harakat qildilar. Biroq Rossiya tomonidan Turkistonning mustamlakaga aylantirilishi oqibatida jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari rivojlana olmadi.

Mustabid tuzum Turkiston xalqlarining ilm- fan va zamonaviy texnika sirlarini egallashi uchun ma'lum shart- sharoitlar yaratgan bo'lsa ham uning boy mahnaviy merosidan bahramand bo'lishi, ajdollarining ilg'or ilmiy- madaniy anhanalarini rivojlantirishga imkon bermadi.

Milliy mustaqillik tufayli xalqimizning ko'pasrlik tarixga ega bo'lgan ma'naviy - intellektual merosini o'rganish, jahon ilm-' fan va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo'lish, jahonning mashhur ilm dargohlarida o'qish- o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Ayniqsa, bozor munosabatlariga o'tish, zamonaviy ishlab chiqarishni rivojlantirish, barkamol inson shaxsini shakllantirishda ilm- fan xulosalariga tayanish hayotiy zaruriyatga aylandi.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov o'zining «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» va boshqa asarlarida ilm - fanni rivojlantirish islohotlar muvafaqqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosi ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Uzbeg'yekistonning jahondagi "taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, taraqqiy etishi, shubxasiz, uning ilm- fan salohiyatiga bevosita bog'liqsir.

Mamlakatimizda 1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon standartlari talablariga javob bera oladigan mutaxassis- kadrlar tayyorlash vazifasini qo'ydi.

6. S.E.Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya.-Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 83-112 -bet.

7. Falsafa. – Toshkent, 2006 y., 374-378 betlar.

Tayanch tushunchalar

Ilmiy bilim, nazariy bilim, evolyusion nazariya, texnologiya, yevropatsentrizm va osiyosentrizm.

Nazorat uchun savollar:

1. Ilmiy faoliyat deganda nimani tushunasiz
1. Fan ijtimoiy ong shakllaridan biri deyilganda nima nazarda tutilgan.
1. Fanning inson va jamiyat hayotidagi rolini bilishda fan.
1. Fanning soha va tarmoqlari.

1. Fanning rivojlanishida G‘arb va Sharq mutaffakkirlarining o‘rni.
1. Zamonaviy fan rivojlanishining xususiyatlari.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «O‘zbekiston», 2003 yil, 15-bet.
2. Islom Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T., «O‘zbekiston», 1992 yil.
3. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O‘zbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
4. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
5. Falsafa. O‘quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.

11-MAVZU. MADANIYAT VA QADRIYATLAR (2 S.)

Reja:

1. Qadriyat falsafiy kategoriya sifatida
2. Falsafa tarixida qadriyat muammosi
3. Qadriyat tushunchasi
4. Qadriyatlar turlari va qadriyaviy yondashuv
5. Qadriyaviy orientatsiyalar va tizimlar
6. Markaziy Osiyo va O'zbek xalqlarining qadriyatlari

Qadriyat falsafiy kategoriya sifatida

Yangi davrning uch ming yilligiga qadam qo'ygan hozirgi zamon madaniyatning mohiyati va tushunchasi haqida bosh qotirishda davom etmoqda. *Madaniyat* atamasi ko'p ma'nolarga ega – ekin ekish, qayta ishlov berish, asrash, avaylash, ma'lumot, ta'lim-tarbiya, taraqqiyot. Har qanday holatda ham, bu yerdagi bosh masala shundaki, madaniyat o'ta darajada *ijtimoiy ko'rinishga* ega bo'lib, insonni boshqa barcha tabiiy-biologik dunyodan ajratib turadi. Madaniyat tarixi davomida uning barcha hodisalari va jarayonlari ijtimoiy fanlarning barcha majmuasi – falsafa, tarix, qadimshunoslik, jamiyatshunoslik, ruhshunoslik va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Oxir oqibatda, bu shunga olib keldiki, *madaniyatshunoslik* deb atalgan mustaqil integral ilmiy fan shakllandi.

Hozirgi zamon fanida madaniyatning 600 dan ko'proq ta'rifi mavjud bo'lib uni quyidagi guruhlarga tasnif qilish mumkin:

- madaniyatni inson faoliyati natijasining majmuasi sifatida o'rganuvchi *bayoniy ta'rif*;
- madaniyatni an'analar va ijtimoiy meros orqali ifodalovchi *tarixiy ta'rif*;
- madaniyatni uning me'yorlar tizimi va qoidalardagi urnini ta'kidlovchi *me'yoriy ta'rif*;
- madaniyatni muayyan qabul qilingan qadriyatlarni amalga oshirish natijasi deb biluvchi *qadriyat ta'rifi*;
- insonni tabiat va ijtimoiy muhitga o'rganishiga asoslangan *psixologik ta'rifi*;
- madaniyat-g'oyalari oqimidan o'zga narsa emas, deb biluvchi *mafkuraviy ta'rif*;
- madaniyatni oldindan belgilab qo'yilgan qonunlar majmuasi sifatida qarab chiquvchi *semiotik ta'rif*¹.

Bulardan tashqari, madaniyat mohiyatini tushunishga olib keluvchi *texnik, tuzilish-vazifaviy, tizimli, tajribaviy, faol* va boshqa yo'nalishlarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Eng umumiy ko'rinishda *madaniyat tushunchasi deganda odamlar hayoti va faoliyatini tashkil qilish shakllari va turlarida, hamda ular tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarda o'z ifodasini topgan jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan tarixiy saviyasi tushuniladi*².

¹ Қаранг: Философия. Минск. 1999. 297-б.

² Қаранг: Гимопинов В.И. Культурология. Алмата 1997. 225-б.

Madaniyat – murakkab va ko‘p vazifalarga ega tizimdir. Uning bosh vazifalari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

Adaptatsion (moslashuvchanlik) vazifa. Uning tufayli inson muayyan tabiiy va ijtimoiy muhitga moslashishga imkon topadi. Agar madaniyat qancha yuqori bo‘lsa, odatda, uning adaptatsion imkoniyati shuncha ko‘p bo‘ladi.

Ma'rifaiy (evristik) vazifa. Uning mohiyati shundan iboratki, madaniy yutuqlar dunyoni bilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Madaniyatning shunday qismi bo‘lgan fan, butunlay ushbu vazifani bajarishga bag‘ishlangan. Bu yerda bilish ob'ekti sifatida tabiat, jamiyat va insonning o‘zi xizmat qiladi.

Informatsion (Xabar yetkazuvchi) vazifa. Uning vazifasi doirasiga ijtimoiy tajribani to‘plash (jamg‘arish), uni bir avloddan boshqasiga yetkazish, ya'ni tarixiy vorislikni ta'minlash kiradi. Xabar yetkazish faqat vaqtinchalik bo‘lmasdan, balki makoniy xususiyatga (bir jamoa yoki guruhdan boshqasiga xabar berish va hokazo) ega bo‘lishi mumkin.

Kommunikativ (munosabat o‘rnatish) vazifasi. U xabar yetkazuvchanlik vazifasi bilan yaqindan bog‘langan bo‘lib nutq (til), ramziy qiyofa (san'at), belgilar (fan) vositasida amalga oshiriladi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi qancha yuqori bo‘lsa, bevosita aloqa shunchalik ko‘p darajada bilvosita, ya'ni texnik vositalar yordamida (telefon, telegraf, internet va hokazolar bilan) amalga oshiriladi.

Me'yoriy (boshqaruvchilik) vazifasi. U o‘z ifodasini ijtimoiy boshqaruvchilik (avvalo, huquqiy va axloqiy me'yorlar) tizimini shakllantirishda topadi. Bunda muayyan o‘rinni norasmiy boshqaruvchilar bo‘lgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar ham egallaydi.

Qadriyatlilik (baholash) vazifasi. Insoniy hayot jarayonlarida qadriyatlarni tanlash ro‘y beradi. Vaqti kelib, alohida olingan shaxs va ijtimoiy tajriba barcha zaruriy va foydali narsalarni ajratib olishga imkon bersa, bunday holatda qadriyatlar yo‘nalishini qayta ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi. Bunday holatda nimalardir barham topadi, qandaydir narsalar paydo bo‘ladi, nimalarir qayta shakllanadi.

Sotsializatsiya (ijtimoiylashuv) vazifasi. Bu madaniyatning bosh, tizim tashkil qiluvchilik vazifasidir. Insoniy hayot faoliyatining shakli sifatidagi madaniyatning o‘ziga xos xususiyati aynan shunda o‘z ifodasini topadiki, u insonga maksimal darajasidagi ijtimoiylik, jamoaviylik ko‘rinishini ato etadi.

Madaniyat vazifalarining umumiy sharhi bir qator quyidagi madaniyatga oid qonuniyatlarni ifodalashga imkon beradi:

- madaniyat jamiyat hayotining tabiiy va sun'iysharoitlariga (uning turi, xususiyati, kelib chiqishi, vazifalari, sub'ektlari va hokazo) bog‘liqdir;
- jamiyat hayoti barcha tomonlarining taraqqiyoti, o‘zgarishlari, mavjudligiga madaniyatning ta'siri;
- madaniyat taraqqiyotida vorislik. U faqat xronologik bo‘lmay, balki ko‘p ko‘lamli bo‘lishi mumkin.

- ikki jihatdan kelib chiqadigan madaniyat taraqqiyotidagi notekislik: tashqi tomondan (madaniyatning gullab yashnagan va inqirozli davrlari jamiyatning boshqa doiralaridagi xuddi shunday davrlariga muvofiq kelishi shart emasligi) va ichki tomondan (madaniyatning turli ko‘rinishlari bir-biriga nisbatan notekis rivojlanishi);

-madaniy qadriyatlarning shakllanish jarayonida shaxsning o‘ziga xos o‘rni, ijodiy yagonaligi.

Madaniyatning shakllanishi, amaliy vazifalarni bajarishi va rivojlanishi uchun fan, texnika va texnologiyadagi sifatiy o‘zgarishlar muhim ahamiyatga egadir. Shu ma'noda insoniyat tarixida, shartli ravishda eng asosiy, sifatiy uch sakrashni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Birinchi, bu ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lgan *yozuvning paydo bo‘lishidirki*, uning tufayli madaniy qadriyatlarni saqlash, ularni ayriboshlash, bir avloddan boshqasiga yetkazib berish va hokazolar mumkin bo‘ldi.

Ikkinchi, *bu kitob nashr etishning* ixtiro qilinishi o‘ldiki, uning tufayli madaniy mahsulotlarni ishlab chiqarishni sezilarli darajada ko‘paytirish va tarqatish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Uchinchi, *bu hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridirki*, (radio, kino, televidenie, ovozni yozib olish, video, kompyuter tarmoqlari va hokazolar), uning tufayli madaniy qadriyatlardan foydalanish jarayoni haqiqatan ham ommaviy tus oldi.

Madaniyat doirasini ilmiy-texnik jihatdan jihozlanishining miqdoriy va sifatiy o‘sishi shunga umidvor bo‘lishga imkon beradiki, undan har bir kishi bahramand bo‘lishi mumkin, hamda madaniy ijtimoiylashish jarayoni borgan sari tezlashib, chuqurlashib, uning samarasi oshib boradi. Ammo, afsuski, ilmiy-texnika taraqqiyoti imkoniyatiga mos keladigan umumiy madaniy saviyaning keskin o‘sishi hali yuz bermadi. Bundan tashqari, madaniy makonning haddan tashqari «to‘lib ketishi», ma'lum ma'noda, shunga olib keldiki, insonning madaniy dunyoni qabul qilish butunligi yo‘qoldi. U borgan sari ko‘p darajada bir-biri bilan kam bog‘langan turli madaniy axborot bo‘laklari mozaikasidan iborat bo‘lib qola boshladi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining gurkirab o‘sishi ilgari ma'lum bo‘lmagan *ommaviy madaniyat* kabi o‘ziga xos hodisaning shakllanishiga olib keldi. «Ommaviy madaniyat» degan tushunchaning o‘zi XX asrning 20-30-yillarida «ommaviy jamiyat» va «ommaviy inson» kabi ta'limotlarning bir tushunchasi sifatida paydo bo‘ldi.

Bu ta'limot shunday aqidaga tayanadiki, XX asr – bu omma, olamon asridir. Bunda «omma»: faqat miqdoriy tushuncha emas, balki maxsus sifatiy ko‘rsatkichlar bo‘lgan shunday xususiyatlarga egaki, masalan, alohida olingan shaxs qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilgan xatti-harakatlarga shaxsiy mas'uliyat hissini yo‘qotgan va unda his-hayajonga berilish aqlga

tayanishdan ko'ra ko'proq va hokazo. Masalan, fransuz tadqiqotchilari bo'lgan G.Tard va G.Lebon¹

madaniyat va uning qadriyatlariga bo'lgan munosabat jihatidan jamiyatni uch qismga buldilar:

- a) hiech narsani tushunmaydigan. Tabiiy instinklarga tayanadigan, «yo'l boshchiga» ehtiyoj sezadigan omma (olomon);
- b) ba'zi narsalarni tushunadigan guruhiy oqim;
- v) hamma narsalarni ko'li yetadigan (elita) imtiyozli guruh.

Ommaviy madaniyatning asosiy xususiyatlaridan biri uning avval boshdanoq umumiy iste'molga yo'naltirilganligidir. Unga xos bo'lgan hammaga tushunarli bo'lishi, yengilligi, qiziqarliligi va lazzatbaxshlikka yo'naltirilganlik kabi belgilari ana shu yerdan kelib chiqadi. Madaniyatning ushbu shakli ko'p darajada to'g'ridan to'g'ri ijtimoiy buyurtma asosida o'z vazifasini bajaradi. Ana shuning uchun ham uning taraqqiyotining ichki manbalari qandaydir sezilarli o'rin kasb etmaydi.

Hozirgi zamon ommaviy madaniyati quyidagi asosiy belgilarga ega:

- a) ommaviylik iste'molga ham, ishlab chiqarishga ham taalluqli;
- b) ommaviy axborot va aloqa vositalarining barcha majmuasi bilan yaqindan bog'langanlik;
- v) uncha yuqori bo'lmagan ma'naviy- mazmuniy va estetik saviya;
- g) makoniy va zamoniyl jihatdan ham doimiy ravishda o'z-o'zini yangitdan namoyon qilib turish.

Ommaviy madaniyat o'zining vazifalaridan biri bo'lgan jalb qilishlik va bo'shliqni o'rnini to'ldirishlik xususiyatini oshirib yuborib, uni madaniy ijod jarayonining asosiga aylantiradi. Hozirgi zamon ommaviy madaniyatiga xos bo'lgan misollar quyidagilardir: ommaviy musiqaviy janrlar (estrada, pop-muzika, rok va hokazo), teleseriallar (ayniqsa, lotin amerikasi mamlakatlariniki), plakatlar va boshqa badiiy saviyasi yuqori bo'lmagan tashqi tasvir shakllari va hokazolar.

Biroq ommaviy madaniyat elementlari qatoriga «tushish»ning bosh mezoni *ommani jalb qilishlikdir*. Masalan, dunyo kinoekranlari va televizion tarmoqlarida keng namoyish etilgan «Titanik» filmi, shak-shubhasiz, badiiy jihatdan yuqori saviyadagi asardir. Ammo uning orasida mashhurligi shunchalik yuqori bo'ldiki, u to'la ravishda ommaviy madaniyat unsuriga aylandi. Uning ko'p nusxada ishlab chiqilgan va sotilgan videokassetalari, lazerli disklari va shu filmning musiqasi yozilgan audikassetalar, bosh qahramonlari tasvirlangan plakatlar va hokazolar bundan guvohlik beradi. Hozirgi zamon ommaviy madaniyatining eng o'ta ko'rinishi sifatida *kitch*, ya'ni ommaviy ravishda va didsizlarcha ko'p nusxada bosilgan mahsulot, mashhur asarlarning qolipga solinganlari (Mona Liza ichki ko'ylakda!), hamda qalbaki ommaviy madaniyat ishlab chiqarish mahsulotlari maydonga chiqdi.

¹ Каранг: Тард Г. Общественное мнение и толпа. –М., 1902. Лебон Г. Психология народов и масс. СПб., 1908

Shunday qilib, hozirgi zamon madaniyatiga katta xavflardan biri uning ommaviy-jozibakorlik xususiyatini kasb etganligi bo'lib, uning oqibatida umumiy saviya pasayib ketishi mumkin. Shuning uchun madaniyat va san'at muassasalari faoliyatida tijoratchilik asosini yagona va hal qiluvchi omil bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik juda muhimdir.

Insoniyat taraqqiyoti tarixi bizning oldimizda turli mintaqalar, davlatlar, irqiy guruhlar va jamoalar, ayrim olingan shaxslar o'rtasidagi turli darajadagi milliy o'ziga xos madaniyatlarning xilma-xil shakllari orasidagi uzluksiz aloqalar tarixi sifatida gavdalanadi. Madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar ijtimoiy hodisa sifatida juda uzoq davrlardan buyon vujudga kelgan. Ammo irqiy qobiqqa o'ralish, qabilachilik, turg'unlik, an'anaviylik, konservatiklikka yo'nalish uzoq vaqt boshqa etnik guruhlariga mansub bo'lganlar madaniyati elementlarining o'zlashtirishga imkon bermadi.

Etnoslar orasidagi madaniy ayrboshlash faqat madaniyat taraqqiyotining oliy bosqichidagina paydo bo'lishi mumkin. Siyosiy, savdo-sotiq, madaniy aloqalar, sayyohlik, o'zga yerlarni o'zlashtirish, ko'chib borish bularning barchasi etnik madaniy ayrboshlash uchun zamin bo'ladi. Bu yerda shuni qayd etish lozimki, madaniy boyish hamma vaqt o'zaro bog'lanishga ega bo'ladi. Hatto turli saviyadagi madaniyatlar o'rtasidagi aloqa va ayrboshlash hamma vaqt o'zaro xususiyatga ega, garchi, odatda, ko'proq yuqori darajada tashkil topgan madaniyat hamma vaqt ko'proq narsa beradi va ko'proq undan bahramand bo'lishga undaydi. Shunga muvofiq ravishda kam darajada tashkil topgan madaniyat ko'proq narsa oladi va ko'p narsani qabul qilishga tayyor bo'ladi. Shunday bo'lsa ham, madaniy jihatdan boyish hech qachon bir yo'nalishdagi jarayon bo'lmasdan – bu shunday narsaki, hajm, sifat va o'zlashtirish darajasi jihatidan o'zaro farq qiladigan madaniy axborot oqimi bir-birining istiqboli tomon boradigan ikki yo'nalishdir. Deyarli bir xil saviyadagi etnos madaniyatlarning o'zaro aloqasi davrida, odatda, madaniy axborotlar ayrboshlashda muammo yuq.

Falsafa tarixida qadriyat muammosi

Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan.

Dastlabki paytlarda bu xususiyat buyumlarning amaliy foydasi bilan bog'lanar edi. Keyinchalik qadriyat maqomi boshqa ijtimoiy institutlar va ma'naviy hodisalarda ham tan olina boshlandi.

Inson o'z faoliyatini yo'naltirishi lozim bo'lgan ne'matlar va qadriyatlar muammosi *qadimgi sharq falsafasi* va falsafaga qadar bo'lgan fikr tarixida muhim o'rin tutadi. *Braxmanlikda* - bu qayta tug'ilish orqali yanada yuksakroq

varnaga¹ erishish. Insonning keyingi hayotida qaerda tug‘ilishi uning taqvodorligi bilan bog‘liq, taqvodorlik esa o‘z varnasining dxarmasiga xizmat qilish va uning ko‘rsatmalaridan chetga chiqmasligini anglatar edi. Oliy maqsadga faqat braxmanlar erishishlari mumkin bo‘lib, u hamma narsadan (oiladan, boylıkdan, olimlikdan) voz kechish va sansaradan ozod bo‘lish yo‘li. Zohidlik, xayr-ehson, poklik, kuch ishlatmaslik, yaqin kishilarga hamdard bo‘lish, o‘z ehtiroslarini jilovlash - braxmanlikning yetakchi qadriyatları. Upanishadlarda ideal braxman hyech narsaga ko‘ngil qo‘ymaydigan, qayg‘u, baxillik, umid tuyg‘ularidan ozod, osoyishta, yolg‘on va hatto o‘z-o‘zini idrok etishdan ham xoli bo‘lgan tafakkuri berilgan kishi sifatida tasvirlanadi².

Braxmanlikda salmoqli o‘rin tutuvchi qadriyatlar qadimgi hind jamiyatidagi kastalarga bo‘linish bilan chambarchas bog‘liq. Bunday bog‘liqlik (bunga har bir kasta vakili amal qilishi kerak) braxmanlikka nisbatan muxolifatda bo‘lgan *bxagavatgizm*, *jaynizm* va boshqa oqimlarda ham mavjud. Biroq *charvaklar* falsafasida bunday xildagi aloqaning asoslanganligi shubha ostiga olinadi. Bundan tashqari charvaklarda asketizmning targ‘ib qilinishi o‘rnini baxtni lazzat sifatida tushunishga yo‘naltirilgan *gedonistik* dastur egallaydi.

Qadimgi Xitoy falsafiy tizimlarida ham qadriyaviy ideallar shakllantirilgan. *Konfutsiylikda* bu qadimiylıkka yo‘naltirilganlik, «oltin o‘rtaliq», «insonsevarlik», «hamdamlik» singari tamoyillardir. Konfutsiylikning asosiy tamoyili shunday: «o‘zingga ravo ko‘rmaganni o‘zgalarga ravo ko‘rma»³. Konfutsiylikning axloqining asosida - fuqaroning podshohga, xotinning erga, o‘g‘ilning otasiga, kichikning kattaga hurmati va bo‘ysunish yotadi.

Daosizmda konfutsiylik qadriyatları inkor etiladi. «Mutlaq donolarcha» xulq-atvorning asosiy tamoyili - faoliyatsizlik tamoyilidir: hamma narsa tabiiy yo‘l hisoblanuvchi *dao* yo‘lida ketishi kerak.

yevropa falsafasida qadriyatlar muammosi *Qadimgi Gretsiyada* qo‘yilgan edi. Bu muammoni birinchilardan bo‘lib *Suqrot* ko‘tarib chiqdi. U aksiologiyaning asosiy masalasini «Ne‘mat nima?» degan savol bilan ifodaladi. Uning bu savolga murojaat etishi tasodifiy emas edi. Bu hol Afina demokratiyasining tanglikka uchrashining qonuniy natijasi sifatida yuzaga keldi. Mazkur savolga javob berish yangi ijtimoiy ideallarni qidirishda yordam berishi lozim edi. Keyingi davrlarda ham qadriyatlar falsafasi tarixning burilish davrlarida, an'anaviy qadriyatlar qadrini yo‘qotgan, jamiyatning ijtimoiy negizları obro‘sizlangan paytlarda dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko‘rishimiz mumkin.

Antik an'ana doirasida qadriyatlar muammosini ishlab chiqishda *Demokrit* katta rol o‘ynadi. Qadriyatlar tabiatini naturalistik (ob'ektivistik) talqin qilish an'anasini u boshlab berdi. Antik faylasufning fikriga ko‘ra, baxt-saodat,

¹ Қадимги хинд жамияти 4 варналардан – брахманлар, кшатрийлар, вайшьялар ва шудралар табақаларидан иборат эди.

² Чанышев А.Н. Начало философии. М., 1982. 138-б.

³ Древнекитайская философия. В 2-хт. М., 1972. Т.1.167-б.

ezgulik, adolat, go‘zallik mezonlari tabiatning o‘zida, hamma narsaning o‘z tabiiy oqimida ketishidadir. Nimaiki tabiatga mos bo‘lsa - yaxshi, nimaiki unga zid bo‘lsa - yomon. Bizning xuzur-halovatimiz va azoblarimiz, qoniqishimiz va noroziligimizning asosi ana shunda.

Aflotunga ham qadriyatlarni ob'ektivistik tushunish xos edi. Biroq materialist Demokritdan farqli o‘laroq Aflotun ularning manbaini tabiatda (narsalar olamida) emas, balki vujudsiz mohiyatlar (ob'ektivlashtirilgan tushunchalar) - g‘oyalar olamida ko‘radi. «Katta Gippiy» asarida Aflotunning Suqrot ismli qahramoni Gippiy bilan suhbatda u yoki bu narsalarni go‘zal qiluvchi narsa nima ekanligini bilishga urinadi. Go‘zallikning ayrim narsalardagi in'ikosini namoyish qilish orqali go‘zallikning nima ekanligini idrok etish mumkin emasligi faylasufni *go‘zallik* «*g‘oya*»siga olib keladiki, ana shu go‘zallikning qandaydir bir narsaga qo‘shilishi uni go‘zal qiladi. Aflotun g‘oyalari bir-biriga bo‘ysunuvchi muayyan tartibda joylashadi. Mazkur g‘oyalar piramidasining cho‘qqisi *baxt-saodat* g‘oyasidir. Aynan shu g‘oya ijobiy fazilatlarining, go‘zallikning, haqiqat va uyg‘unlikning manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarning boshqa bir relyativistik (sub'ektivistik) konsepsiyasi ham mavjud bo‘lib, unga *Protagor* asos solgan. Mazkur konsepsiyaga muvofiq qadriyatlarning bahosi nisbiy bo‘lib, u insonga bog‘liqdir.

Qadriyat muammosiga antik davrdayoq shakllangan yondashuvlar o‘z ko‘rinishlarini muayyan darajada o‘zgartirgan holda keyingi falsafiy tizimlarda ham saqlab keldilar. Aksiologiya muammosini ishlab chiqishga *I.Kant*, *G.Lotse*, *G.Rikkert*, *N.Gartman*, *F.Nitsshe* va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Qadriyat tushunchasi

XIX asr o‘rtasiga qadar falsafada «borliq» va «qadriyat» tushunchalari bir-biridan ajratilmagan edi. *Aksiologiya* (yunoncha *axia* - qadriyat va *logos* ta'limot so‘zlaridan) mustaqil fan sifatida borliq tushunchasi ikki komponentga ajralgan paytda yuzaga keladi: bir narsaning mavjud bo‘lishi va uning mohiyati. Boshqacha qilib aytganda, ob'ekt va sub'ektning o‘zaro ta'siri paytda sub'ekt uchun ob'ektda shunday bir narsa ayon bo‘ladiki, uni ob'ektning mavjud bo‘lishining o‘zigagina bog‘lab bo‘lmaydi, ya'ni u go‘yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi. Ob'ekt va sub'ektning o‘zaro ta'sirini ana shunday tushunish qadriyat tushunchasini hozirgi zamon falsafasining kategorial apparatining elementi sifatida shakllanishi uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qildi.

Qadriyatlar - voqyelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo‘lib, u mazkur hodisaning sub'ekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo‘ladi.

Qadriyatlarning tabiati haqida so‘z ketar ekan, falsafiy adabiyotlarda bir-biri bilan raqobat qiluvchi to‘rtta asosiy yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. *Birinchi yondashuvga* ko‘ra, qadriyatlar dunyosi alohida, mustaqil, sub'ektga ham, ob'ektga ham nisbat berib bo‘lmaydigan olam sifatida talqin etiladi.

Neokantianlikning klassiklaridan biri G.Rikkert yozganidek, «qadriyatlar sub'ekt va ob'ektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil saltanatni tashkil etadi».¹ *Ikkinchi yondashuv*ga ko'ra esa, qadriyaviy xususiyatlar narsalarning o'zida mavjuddir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlar manbai tashqi voqyelik xususiyatlarida ko'rinadi. Ana shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar narsalarning muayyan ehtiyojlarni qondira olishga bo'lgan ob'ektiv qobiliyati sifatida qaraladi. *Uchinchi yondashuv*ning mohiyati shundan iboratki, tabiatda qadriyatlar mustaqil mavjud emas. U yoki bu narsalar faqat sub'ektning baholash faoliyati tufayli o'z qadr-qimmatiga ega bo'ladi. Bunga misol sifatida g'arb estetikasi antologiyalaridan birining tuzuvchisi bo'lgan M.Reyderning fikrini keltirish mumkin: «Haqiqatlarga qarama-qarshi o'laroq, qadriyatlar shunchaki tasavvur qilinadi xolos... Faktlar kuzatuvchilar guruhi uchun bir xil xususiyatga ega bo'lsa, qadriyat har bir baholovchining sub'ektiv fikri bilan bog'liq ravishda turli tabiatga ega bo'ladi»². Bir kishi uchun qimmatli bo'lgan narsa boshqa kishi uchun unday bo'lib ko'rinmaydi. *To'rtinchi yondashuv*da esa oldingi yondashuvlarning o'ziga xos sintezi amalga oshiriladi va qadriyatlarining ikki yoqlama (ob'ektli va sub'ektli) tabiatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Qadriyatlar turlari va qadriyaviy yondashuv

Qadriyat tasnifi

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarining turli tiplari ajratib ko'rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo'yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog'liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining ob'ektlari, ya'ni voqyelikdagi sub'ekt uchun muayyan qimmatga ega bo'lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- tabiiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar;
- ijtimoiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar.

b) *sub'ektli qadriyatlar* - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi:

-me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko'rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihalar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog'liq ekanligiga qarab ham bir-biridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib *axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy* va boshqa qadriyatlar farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylik darajasiga qarab, ya'ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi sub'ektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko'rsatiladi;

- *individual qadriyatlar*;

¹ Риккерт Г. О понятии философии. – «Логос», Кн.1. СПб.ю 1910. 33-6.

² Современная книга по эстетике. Антология. М., 1957.

- *guruhiy qadriyatlar* (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida *g'arb va sharq qadriyat* tizimlari haqida so'z yuritish mumkin.

- *umuminsoniy*;

4. Qadriyatlar ular sub'ekt tomonidan qay darajada o'z xususiy maqsadi yoki tamoyillari sifatida tan olinishi yoki tashqi sharoitdan kelib chiquvchi bir narsa sifatida qabul qilinishiga ko'ra farq qilishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda *tashqi* va *ichki* qadriyatlar ajratiladi.

5. Qadriyatlar inson hayoti va faoliyatining negizlari uchun, uning ehtiyojlari va mo'ljallarining mohiyatini ifodalash uchun qayo darajada qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu munosabat bilan ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- *mutlaq* yoki boqiy qadriyatlar (konstantalar);

- *vaziyatli*, o'tkinchi yoki qadriyatlar va qadriyaviy mezonlarining muayyan tarixiy shakllari (empirik o'zgaruvchan qadriyatlar).

6. Qadriyatlar ular bajaradigan funksiyaga ko'ra ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar *mezon usuli* sifatida, qadriyatlar ijtimoiy guruhlarda *nazorat usuli* sifatida, qadriyatlar ijtimoiy tartibni yaratish va saqlashda *funksional zarur* bo'lgan me'yorlar sifatida ajratiladi.

Qadriyaviy yondashuv

Aksiologiyada juda ko'p an'anaviy va hozirgi zamon falsafiy muammolari yangicha ko'rib chiqiladi. Masalan, an'anaga ko'ra, *haqiqatga* yetish ilmiy bilishning ideali, shaksiz ne'mat, yaxshilik deb hisoblangan. Biroq XX asr ushbu qarashga o'z tuzatishlarini kiritdi. Industrializmning va texnitsistik yondashuvlarning salbiy oqibatlari, ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi va qo'llanishi, gen muhandisligining paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, muammoga sof gnoseologik yondashuv yetarli emas. Bugungi kunda «faqat haqiqatning qadri haqidagina emas, balki uning bahosi haqidagi masala ham paydo bo'ladi, bunda boshlang'ich hisob nuqtasi sifatida inson va uning baxt-saodati namoyon bo'ladi»¹. Haqiqat tobora ko'proq aksiologik kategoriyalar ko'zgusi orqali qarala boshlanmoqda.

Lozim va zarur narsalar haqida qadriyaviy ideallar sifatida so'z yuritar ekan, aksiologiya borliqning muammoli masalalari borasida bizning tasavvurlarimiz doirasini kengaytirdi. Ilgari me'yoriy hodisa deb hisoblangan narsalar hozirgi zamon aksiologik yondashuvlari ko'zgusida unday bo'lib ko'rinmaydi. Qadriyaviy mezon va qadriyaviy qarash amalda hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda shu narsa ayon bo'lyaptiki, biron bir ijtimoiy institut, biron bir muhim ijtimoiy muammo, jamiyatning biron bir sohaga aksiologik yondashuvlardan tashqarida ko'rib chiqilishi mumkin emas. Bunda qadriyatlarni qayta baholash lokal masalalarga ham, global masalalarga ham birdek tegishlidir. Texnik taraqqiyot baxt-saodat keltiradimi? Insonni klonlashtirish mumkinmi? Evtanaziya - bu ezgulikmi yoki qotillikmi? Agar

¹ Фролов И.Т. О человеке и гуманизме. М., 1989. 215-6.

uning kashfiyotlaridan foydalanish odamlarning halok bo'lishiga sabab bo'lsa, olim o'z kashfiyotining oqibatlarini uchun javobgar bo'ladimi? Ilmiy va siyosiy ongda asta-sekin sof iqtisodiy, sof texnologik, qadriyaviy komponentlardan tashqarida qaraluvchi sof tadqiqotchilik loyihalaridan voz kechish tamoyili yuzaga kelayotganini ko'rish mumkin.

O'z navbatida qadriyatlarining o'ziga, munosabat va qadriyaviy ongga gnoseologik, sotsiologik, psixologik, semiotik va boshqa yondashuvlar nuqtai nazaridan qaralmoqda.

Qadriyaviy orientatsiyalar va tizimlar

Qadriyaviy orientatsiyalar Turli tarixiy davrlarda, turli mamlakatlarda va xalqlarda, ijtimoiy guruhlarda va ayrim individlarda turli-tuman qadriyaviy orientatsiyalar (mezonlar) mavjud bo'lgan. Ular guruhiy darajada ham individual darajada ham mavjuddir. Qadriyaviy orientatsiyalarning xilma-xilligi turli omillar tomonidan taqozo etilgan. Bular qatoriga atrofni o'rab turuvchi tabiiy muhit ham, yashash uchun mablag'lar topish vositalari ham, siyosiy voqyealar, oiladagi tarbiya, shaxsiy hayotiy tajriba va boshqalar kiradi. Muayyan bosqichda, rivojlangan shaklda qadriyaviy mezonlar tizimli xususiyat kasb etadi.

Turli-tuman qadriyaviy orientatsiyalarning qadriyatlar tizimi sifatida tashkil topish ular orasida boshqa dunyoqarash mezonlarini bo'ysundiruvchi, belgilovchi va shakllantiruvchi, ulardan ustun bo'lgan qadriyatlar paydo bo'lgan vaqtda yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, qadriyatlar tizimining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi substansional negiz paydo bo'ladi. Bu negiz *paradigma* (ustunlik qiluvchi qadriyatlar) xususiyatiga ega. Jamiyat darajasida olganda (ijtimoiy guruhlar darajasida) ushbu ustun qadriyatlar oxir-oqibatda muayyan tarixiy davrning ijtimoiy jamiyatiga xos tamoyillar bilan belgilanadi.

Individual darajada olganda qadriyaviy orientatsiyalar tizimining shakllanishi shaxsning yetukligini, uning butunligini anglatuvchi ko'rsatkichdir. Shaxsning qadriyaviy orientatsiyalari eklektik va qarama-qarshi xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bunday hollarda biz yagona, bir butun tizim sifatida shakllanmagan, rivojlanmagan qadriyaviy mezonlarga duch kelamiz. Qadriyaviy orientatsiyalarda yetuklikning, yaxlitlikning va tizimlilikning yo'qligi ularning tashqi, ko'p hollarda tasodifiy omillarga bog'liq bo'lib qolishga, xulq-atvordagi hatti-harakatlar izchilligining mavjud bo'lmasligiga, o'z fikriga ega bo'lmaslikka, qashshoq, o'z qiyofasiga ega bo'lmagan ehtiyojlar tuzilmasiga olib keladi.

Shakllangan qadriyat orientatsiyalari asosida esa shaxsning dunyoqarashi, tarbiya va va hayotiy tajriba tufayli ishlab chiqilgan xulq-atvor kodeksi tamoyillariga, hayotiy maqsadlar, chuqur va barqaror ehtiyojlar yotadi. Inson xulq-atvorining motivatsiyasi, yo'nalish va strategiyasini belgilovchi ehtiyojlar,

vaziyatlar va omillar pogʻonasida qadriyaviy orientatsiyalar tizimi, odatda, eng yuqori pogʻonada turadi.

Shaxsning qadriyaviy mezonlarining faoliyatida ongli va ongosti darajalarini ajratib koʻrsatish mumkin.

Qadriyaviy tizimlar tahliliga asosiy yondashuvlar

Falsafiy adabiyotda jamiyatning tarixiy rivojlanishidagi qadriyaviy tizimlarni tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlarning har biri boshqalarini toʻldiradi, chunki qadriyaviy tizimlarni koʻrib chiqishning bir darajasini koʻrsatadi. Stadiyal va madaniy-sivilizatsion yondashuvlar eng koʻproq umumlashtirilgan yondashuvlardir, zero ularda ijtimoiy tizimlar yaxlit koʻrib chiqiladi.

Stadiyal yondashuvning yorqin namunasi *formatsion yondashuv*dir (K.Marks). Ushbu yondashuvga koʻra jamiyatning rivojlanishi - bu sifat jihatdan muayyan ishlab chiqarish usuliga asoslangan, ketma-ket almashinuvchi bosqichlar (ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalari) zanjiri. Har bir ishlab chiqarish usuli jamiyatning muayyan siyosiy-ijtimoiy tuzilmasini yuzaga keltiradi. Ana shunga muvofiq ravishda qadriyaviy tizimlar ham qaror topadi. Masalan, ishlab chiqarish vositalariga jamoat tomonidan egalik qilishga va urugʻchilikka asoslangan ibtidoiy jamoa tuzumida qadriyaviy tizimlar jamoaviylikning, urugʻchilikning shaxsiylik va individuallikka nisbatan, anʼnaviylikning yangiliklarga nisbatan ustuvorligi tamoyillariga yoʻnaltirilgan. Xususiy mulkning paydo boʻlishi va qaror topishi bilan individuallikning rivojlanishi uchun iqtisodiy zamin yuzaga keladi. Ayni paytda mulk muayyan guruhga mansub kishilar (hukmron sinflar) qoʻlida toʻplangan jamiyatlarda mazkur sinflarning qadriyaviy mezonlari hukmron boʻlib qoladi va odatda qonunchilik tomonidan rasmiylashtirib qoʻyiladi.

Formatsiyali yondashuv bilan bir qatorda *stadiyal yondashuv* doirasida bir-biri bilan raqobat qiluvchi bir qator nazariyalarni ajratib koʻrsatish mumkin. (D.Bell, O.Toʻffler. G.Diligenskiy va boshqalar).

Hozirgi zamonaviy qarashlardan biriga muvofiq (G.Diligenskiy) jamiyat rivojida quyidagi sivilizatsiyaviy bosqichlarni ajratib koʻrsatish mumkin: kosmogen (anʼnaviy jamiyatlar), texnogen (industrial jamiyatlar), antropogen (kelajak jamiyati).

Kosmogen sivilizatsiya urugʻchilikning individuallik, anʼnalarning yangiliklarga nisbatan ustuvorligiga yoʻnaltirilgan. Shunga muvofiq asosiy xususiyati anʼnaga yoʻnaltirilganlikdan iborat boʻlgan qadriyat tizimlari shakllanadi. *Texnogen sivilizatsiya* ilmiy-texnik taraqqiyotga, texnologik va ijtimoiy yangiliklarga yoʻnaltirilgan qadriyat tizimlarini shakllantiradi. Biroq industrializm sharoitlarida avtonom shaxsning rivojlanishi odamlar oʻrtasida asrlar davomida yuzaga kelgan ijtimoiy aloqalarning yoʻqolishga, insoniy muloqotning yetishmasligiga, «yolgʻizlik»ka, individualizmga, xudbinlikka olib keladi. *Antropogen sivilizatsiya* - jamoaviylik va individuallikni

uygʻunlashtirish, xilma-xillikdagi mushtaraklikka erishishga urinishdir. Qadriyaviy mezonlar tizimining oʻzagi - gumanizm.

Turli xalqlarga xos qadriyat mezonlarini ularning madaniy-sivilizatsiyaviy asoslari (etnik, mintaqaviy, diniy va hokazo) nuqtai nazaridan koʻrib chiqishga asoslangan yondashuv muhim ahamiyatga ega. (O.Shpengler, A.Toynbi, P.Sorokin). Ushbu yondashuv doirasida koʻp hollarda oʻz xususiyatlariga ega boʻlgan *gʻarb va sharq qadriyatlari ajratib koʻrsatiladi*. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish turli islohotlar strategiyasini ishlab chiqishda tamoyiliy ahamiyatga egadir. Masalan, Markaziy Osiyoda tarixan vujudga kelgan qadriyatlar betakror oʻziga xoslikka ega va isloh qilishning hozirgi strategiyalari global - sivilizatsiyaviy jarayonlarni mavhum nazariy tushunishdan kelib chiqmasligi kerak. Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyat tizimlarining milliy-madaniy oʻziga xosligini hisobga olish ushbu strategiyalarning muhim tarkibiy qismidir.

Insoniyatning kelajagi va qadriyat

XX asrda turli madaniy dasturlarning (maqsadlar, qadriyaviy mezonlar, manfaatlar, ehtiyojlar va boshqalarning) yonma-yon mavjud boʻlishi haqidagi masala global-planetar xususiyat kasb etganligi munosabati bilan turli qadriyaviy tizimlar integratsiyasining ahamiyati keskin ortib boradi. Bunday integratsiya turli darajadagi sub'ektlar (individlari, ijtimoiy guruhlar, jamoatchilik tashkilotlari, davlatlar, davlatlararo tuzilmalar) tomonidan umumiy manfaatlarining anglab olinishini taqozo etadi. Umumiy manfaatlar oʻzaro bir-birini tushunish, «oʻzga»ga nisbatan bagʻrikenglik va hurmatni chuqurlashtirish uchun zamin boʻlib xizmat qiluvchi bazadir.

Turli madaniyatlarning va qadriyaviy tizimlarning oʻzaro ta'siri bir-biriga kirib borishi va ularning yangilanishga boʻlgan tamoyili butun tarixiy taraqqiyot davomida mavjud boʻlganiga qaramay, butun tarix davomida unga qarama-qarshi boʻlgan tamoyil-an'anaviy ukladni, madaniyatlarning oʻziga xosligini saqlashga boʻlgan intilish ham yashab keldi. Madaniy oʻziga xosligini va madaniy-qadriyaviy tizimlarning xilma-xilligini saqlash muammosi gʻarbiga xos «*ommaviy*» madaniyatning tarqalishi sharoitlarida ayniqsa dolzarflik kasb etdi. «*Ommaviy*» madaniyatning kuchli ekspansiyasiga qaramasdan, oʻzining oʻziga xosligini saqlash, milliy madaniyatlarni birxillashtirishni (unifikatsiyani) va standartlashtirishni qabul qilmaslikka intilish ham butun oʻtgan asr davomida koʻzga tashlanadi.

XX asrning asosiy tamoyillari yaxlitlikka (birlikka, integratsiyaga) tomon harakat qilish va madaniyatlarning rang-barangligini saqlash, xuddi ilgaridek, XXI asrda ham rivojlanadi.

Vazifa ana shu ikki qarama-qarshilikni uygʻunlashtirishga - xilma-xillikdagi mushatarklikka erishishdan iborat. Mazmun jihatdan XXI asrda ham XX asrda rivoj topgan qadriyatlar bilan bir qatorda insoniyat ongida va ijmtioiy amaliyotdagi yangi paradigmalar bilan bogʻliq yangi qadriyaviy mezonlar paydo boʻlishi kerak.

Insoniyatning turli tarkibiy qismlarining qadriyaviy mezonlari (G'arb-Sharq, Shimol-Janub) bugungi kunda turli xil vektorga va turlicha darajada xususiyatga ega. Tranzit va rivojlanayotgan jamiyatlar uchun ularning kelajagini belgilovchi qadriyaviy mezonlar haqidagi masala - eng muhim va dolzarb masala. Ularni XX asrning texnogen jamiyati (industrial jamiyat) qadriyatlariga yo'naltirilish mumkin. Ammo bu holda eng rivojlangan industrial mamlakatlardan butunlay orqada qolib ketish xavfli tug'iladiki, buning o'ziga xos iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-psixologik oqibatlar mavjud. Bundan tashqari texnogen (industrial) sivilizatsiya o'z imkoniyatlarini tugatib bo'ldi hisob va eng rivojlangan industrial mamlakatlarning anada progressiv tarixiy bosqich sifatida postindustrial, axborotli jamiyatga o'tishi shundan dalolat beradi. Jamiyatning mazkur tipiga orientatsiya etish «industrial» bosqichning muammosini hal qilishga imkon beruvchi butunlay yangi strategiyalarni qidirib topishni taqozo etadi.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyatlarini

Sharqning an'anaviy qadriyatlarini Asrlar davomida (qariyb XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshigacha) Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyat tizimlari an'anaviy jamiyat me'yorlari doirasida rivojlandi. An'anaviy jamiyatning eng asosiy tasnifi qadimdan qaror topgan ijtimoiy-madaniy tuzilmalar va stereotiplarning saqlanishi va qayta tiklanishiga yo'naltirilganligidir. An'anaviy madaniyatlarning aksiologik tizimlarida tarixan vujudga kelgan va qaror topgan hayot va faoliyat usullarining barqarorligi eng oliy qadriyatlardan biri sifatida qabul qilinadi. Bunda faoliyatning har qanday novatorli, islohcilik va inqilobiy shakllari asrlar davomida muqaddaslashtirilgan, oldingi ajdodlarning qadriyaviy tajribalarini o'zida jam qilgan me'yorlar va andozalarga qasd qilish sifatida qabul etiladi.

An'anaviy jamiyatning ma'naviy sohasi, odatda, diniy-mifologik poydevorga suyanadi, mafkuraviy tizimlar eng avvalo tarkib topgan ijtimoiy madaniy ukladning saqlanishiga yo'naltiriladi.

An'anaviy jamiyatning mentalligi-introvertiv, ratsional-mantiqiy tuzilishdan ko'ra ko'proq obrazlarga tayanuvchi intuitiv tafakkurdir. Aynan shu sababli an'anaviy sharq jamiyatining falsafiy tizimlari mifologiya, din, she'riyat, folklor bilan chambarchas bog'liq.

XX asrda Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlarining transformatsiyasi

XX asrning murakkab tarixiy voqaealari barcha sobiq sovet va sobiq sotsialistik mamlakatlarining qadriyat tizimlariga turlicha ta'sir ko'rsatdi, biroq ular Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos madaniy hayotida alohida muhim rol o'ynadi. Mazkur xalqlarning butun qadriyaviy tizimi (diniy qadriyatlar, milliy ehtiyojlari ma'naviy madaniyatning o'ziga xos hodisalari, ona tillari xalqlarning mentaliteti va boshqalar) jiddiy transformatsiyaga uchradi. Bugungi kunda yuz berayotgan milliy tiklanish jarayonlari sharoitida Markaziy Osiyo xalqlarining qadriyaviy tizimining tushuncha va mohiyatini ularning XX asr va

XXI asr boshlaridagi transformatsiyasini falsafiy anglab yetish zarurati tuzildi. Mazkur transformatsiyalar «umuminsoniy-milliy» kontekstda ko‘rib chiqilishi mumkin.

Bir tomondan shuni esda tutish zarurki, har qanday jamiyatning butun qadriyaviy tizimi - fan, falsafa, san'at, adabiyot - faqat milliy an'analar bilan cheklanmaydi, chunki inson faqat biologik mavjudot sifatida emas, ijtimoiy mavjudot sifatida ham yagonadir. Bu ayniqsa, axborotlashtirish, kompyuterlashtirish, tezkor aloqaning zamonaviy tizimlari rivoj topgan hozirgi dinamik davrga dahldordir. Barcha mamlakatlar va qit'alarning hayotiy manfaatlari, asosiy muammolari eng muhim jihatlar bo'yicha mos keladi. Umuminsoniy muammolar umuminsoniy qadriyatlar tizimini shakllantirish zaruratini taqozo qiladi.

Boshqa tomondan, milliy (yagona sifatida), mintaqaviy (alohida sifatida), umuminsoniy (umumiy, yalpi) qadriyatlar dialektikasini hisobga olgan holda yoshlarni milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlarga, milliy til va san'atga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Agar inson o'z xalqining milliy madaniyatini, tarixini, ma'naviy qadriyatlarini yaxshi bilsa va qabul qilsa, u holda u dunyodagi boshqa xalqlarning madaniyati va falsafasini ham yaxshi qabul qiladi, ular haqida o'z mustaqil fikriga ega bo'ladi deb ishonish mumkin.

Xalqlarning ko'plab an'analari, urf-odatlari, udumlari va qadriyat tizimining boshqa unsurlari butun XX asr davomida saqlanib kelgan bo'lishiga qaramay, bu tizimning ko'plab komponentlari transformatsiyaga uchradi. Bir qator an'analar butunlay yo'qolib ketgan bo'lsa, boshqalari o'zlarining ichki qadriyaviy mazmunini o'zgartirdi. Oilaviy, maishiy, bayram urf-odatlari sirasiga ko'plab yangi unsurlar kirib keldi, badiiy madaniyatning tubdan yangi turlari (portet xaykaltaroshligi, portret rasmchiligi, opera, balet, operetta va boshqalar) paydo bo'ldi.

Markaziy Osiyo xalqlari tillarida, shu jumladan o'zbek tilida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Alifbo va imlo bir necha marta isloh qilindi: arab alifbosining transformatsiyasi va uni o'zbek tili xususiyatlariga moslashtirilishi (XX asrning 20-yillari boshida), lotin yozuvining birinchi davri (1929-1940), kirillitsa davri (1940 yildan XX asrdan 90-yillarigacha), lotin yozuviga ikkinchi marta o'tish (XX asrning 90-yillari). Leksika sezilarli darajada o'zgardi: eski turmush tarzi bilan bog'liq butun bir leksik qatlam yo'q bo'lib ketdi va ko'plab yangi so'zlar paydo bo'ldi.

O'zbek xalqining qadriyatlari

O'zbek jamiyatida qadimdan o'z qadriyatlar tizimi, dunyoqarash mezonlari va odamlarning xulq-atfor me'yorlari shakllangan. Bu me'yoriy doira - an'anaviy maishiy madaniyatning o'ziga xos o'zagi. Uning asosida odamlarning bir necha avlodlari tomonidan ishlab chiqilgan, o'zbeklar uchun an'anaviy bo'lgan dunyoqarash tushunchalari yotadi. An'anaviy xulq-atvorning qoliplari ongning etnik va diniy shakllari bilan chambarchas bog'liqdir. Axloqiy-ma'naviy an'analar va tushunchalarning katta qismi islom aqidalari bilan

mustahkamlangan yoki aholi tomonidan shunday (islom an'analari sifatida) qabul qilinadi.

O'zbek jamiyatida *jamo'a institutlari* ulkan ahamiyat kasb etadi. Sharq kishisi ularsiz o'zini tasavvur eta olmaydi va ular uning qadriyaviy mezonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Asrlar davomida har bir kishining hayoti qat'iy reglamentga bo'ysungan holda kechgan va bosqichma-bosqich belgilanib qo'yilgan. Mazkur hayot bosqichlarining har biri jamoaning tajribasi, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Oilaviy-qarindoshlik va qo'ni-qo'shnicilik jamoalari singari integratsion institutlar yuksak qadriyat mezonlari deb hisoblanishining sababi mana shundadir. Bir hayotiy bosqichdan boshqasiga o'tishi faqat ayrim oila doirasidagi voqeya bo'lib qolmasdan, bunday marosimlarga butun oilaviy-qarindosh jamoalar va qo'ni-qo'shnilar jamoasi jalb etilar edi. Sharq sotsiumi alohida bir shaxsning manfaati emas, balki ijtimoiy manfaatlar, oila va jamoa manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishga asoslangan. An'anaviy jamoalarda esa shaxs manfaatlari guruh manfaatlarini sanaladi. Sharqda shaxs o'zini jamiyatdan alohida tarzda tasavvur eta olmaydi. Shu bois o'zbek jamiyatida jamoa an'analari, rasm-rusum va urf-odatlar qadrlanib avlodan-avlodga o'tib kelmoqda. Bular insonning nafaqat ma'naviy-madaniy talablarini qondirishga, balki sharq jamiyatida insonning sotsial statusini belgilashda ham juda katta ahamiyat kasb etadi.

Kollektivning ma'naviy hayot tarzi O'zbekistonda keng tarqalgan, o'zbeklarning ma'naviy dunyosini tavsiflovchi sotsio-normativ madaniyatning qatlamini tashkil etuvchi mahalla nomli qo'shni-hududiy jamoa tashkilotlarida juda yaxshi saqlanib qolgan.

Mehmondo'stlik - o'zbek hayotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri, mehmon har bir oilada hurmat va izzat qilinadi. Mehmon kutishning an'anaviy udumlariga rioya qilinadi. Bu udumlar taklif qilingan mehmonlarni kutishda ham, taklifsiz kelgan mehmonlarni qabul qilishda ham saqlanadi. Barcha hollarda ham ushbu udum mehmonga hurmat, uning mazkur xonadonda o'zini bemalol his qilishga sharoit yaratishga tayyorlik ruhi bilan sug'orilgan.

O'zbek sotsiumida atrofdagi kishilarning fikri va ularning hurmatiga sazovor bo'lishdan iborat qadriyaviy mezon har doim yuksak bo'lib kelgan. O'z xulq-atvorining an'anaviy standartlarga muvofiqligi - o'zbek mentalitetining eng muhim tarkibiy qismi.

O'zbeklarning ijtimoiy me'yoriy madaniyatida inson xulq-atvorining amalda hayotdagi barcha standart holatlar uchun an'ana tomonidan belgilab qo'yilgan qoidalarini ko'rish mumkin. Ular bolalikdan boshlab shakllantiriladi. Ayrim neordinar, istisno holatlarda ham insonning an'anaviy xulq-atvor me'yorlarining tashuvchilari sifatida namoyon bo'luvchi oqsoqollar va hurmatli kishilar bilan maslahat qilmay, mustaqil qaror qabul qilishi kamdan-kam uchraydi.

O'zbeklarning qadriyaviy mezonlar tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri katta yoshli, keksa kishilarga hurmat va izzat bilan qarashdir. Ko'p hollarda bobolar va buvilar oilaning nominal boshliqlari hisoblanadi (hatto

ular keksalıkları sababli boshchilik qila olmagan hollarda ham). Oilaning barcha qolgan a'zolari ularning qarorlari va maslahatlariga quloq soladilar. Bayramlarda, hayitlarda keksa qarindoshlarni ziyorat qilish, ularga sovg'alar va noz-ne'matlar olib borish an'anasi saqlanib qolmoqda. Keksalar haqida g'amxo'rlik qilish birinchi o'rinda turadi va ko'p hollarda namoyon bo'ladi. Bolalarning o'z ota-onalari hamda keksa, yolg'iz qolgan qarindoshlarini boqishlari va ularga vasiylik qilishlaridan iborat an'anaga qat'iy rioya qilinadi.

O'zbek tilida «savob ish» degan tushuncha bor. Bevalarga, yetimlarga yordam berish ana shunday ishlardan hisoblanadi. Urishib qolganlarni yarashtirish ham ezgu ish hisoblanadi. Ana shu savob olish an'anasi doirasida uyda non yopilgan kunlari qo'shnilariga chiqarish yoki tovoqda taom kirgizish odati mavjud.

Iltimos bilan murojaat qilgan kishiga rad javobi berish rasm emas, unga qo'ldan kelganicha yordam berish zarur. Uning iltimosini qondirishning iloji bo'lmagan hollarda ham iltimos birdaniga rad qilinmaydi, balki uning ko'nglini ko'taruvchi so'zlar aytiladi.

O'zbeklarning qadriyaviy tizimlarining shakllanishida ajdodlarning ma'naviy merosi katta ahamiyat kasb etadi. Xalq orasida tarqalgan hikmatli so'zlar, mashhur arboblarning ishlari va faoliyati haqidagi rivoyatlar, avliyolar hayotidan olingan diniy hikoyalarning axloqiy-ma'naviy tarbiya uchun ahamiyati katta. Shu sababli ular omma orasida keng tarqalgan.

O'zbek jamiyatida inson xulq-atvorining an'anaviy etikasi butun bir hayotiy tizimni tashkil etgan. Unda shaxsning ma'naviy xulq-atvoriga hamma vaqt alohida ahamiyat berilgan. Yuz bergan jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalarga qaramay, unda davr davomida jamiyatdagi o'zaro munosabatlarni tartibga solib kelgan va me'yoriy vazifasini bajargan an'anaviy axloqiy negiz saqlanib qolgan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «O'zbekiston», 2003 yil, 15-bet.
2. Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T., «O'zbekiston», 1992 yil.
3. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
4. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
5. Falsafa. O'quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.

12-MAVZU INSON FALSAFASI (ANTROPOLOGIYA)

Reja:

1. Insonning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar
2. Insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi haqidagi nazariya
3. Antropogenez haqidagi hozirgi zamon fani
4. Antropogenezning hozirgi zamon ilmiy manzarasi

Insonning kelib chiqishi haqidagi nazariyalar

Insonning kelib chiqishi eng murakkab va jumboqli fenomenlardan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan boshlab ushbu fenomenni tushuntirishda bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan ikki paradigma mavjud: insonning xudo tomonidan yaratilganligi gʻoyasi va tabiiy tarixiy evolyusiya gʻoyasi.

Yaratish nazariyasi

Ibtidoiy *miflarda* odamlarning kelib chiqishi koʻpincha mifik qahramonlarning transformatsiyasi, totem ajdodlar, butun mavjudot yaratilgan mifik davrdagi personajlarning transformatsiyasi natijasi yoki ularning ijod mahsuli sifatida tasavvur etiladi. Ayrim miflarda odamlarning paydo boʻlishi tasodifiy xususiyatga ega boʻlsa, boshqalarida demiurglar – totem ajdodlarning ongli ishi sifatida aks ettiriladi.

Yangi Gvineyadagi papuaslarning tangu qabilasi miflarida afsonaviy qahramon odamlarni qapqonga ilingan toʻngʻizlarning maydalangan boʻlaklaridan yaratadi. Tasmaniyaliklarning tasavvurlariga koʻra dastlabki odamlar Mopxerni nomli mifik mavjudot tomonidan dumli, boʻgʻinsiz oyoqlarga ega boʻlgan hayvon qiyofasida yaratilgan. Keyinchalik boshqa bir afsonaviy mavjudot Drumerdim ularning dumlarini kesib tashlagan va yogʻlar yordamida tizzalarini boʻkiladigan qilgan. Avstraliya aborigenlari va Yangi Gvineyadagi papuaslarning marind-anim qabilasining afsonalariga koʻra odamlar dastlab yarim odam, yarim hayvon qiyofasida, koʻzlersiz va ogʻizsiz, oyoq-qoʻllarining uchlari yopishgan holda mavjud boʻlgan. Demiurglar pichoqlar yordamida ularni hozirgi holatga keltirganlar.

Ancha keyinroq paydo boʻlgan miflarda birinchi odamning paydo boʻlishi xudolar tomonidan yaratilish gʻoyasi bilan bogʻlanadi. Jahon dinlarida mavjud boʻlgan yaratilish aktining barcha tasvirlari oʻz ildizlariga koʻra aynan mifologiyaga borib taqaladi. Masalan, jahon dinlarida keng tarqalgan insonning xudo tomonidan loydan yaratilganligi haqidagi tasavurning mifologik ildizlarga ega ekanligi yaqqol koʻrinib turadi. Vavilonda yaratilgan poema - "Enum Elish»da tasvirlanishicha dastlabki odam tartib xudolari va tartibsizlik (xaos) xudolari oʻrtasida boʻlib oʻtgan urushdan soʻng loy va qondan paydo boʻlgan. Qadimgi Misrdagi afsonalardan birida Xnum degan xudo odamni kulolchilik charxi yordamida loydan yasalganligi aytiladi. Ayolning erkak kishining qovurgʻasidan yasalganligi motivi Mesopotamiyada yaratilgan

miflarga borib taqaladi. Insonning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi paradigma har doim *diniy e'tiqodlar* va ishonchlarga asoslangan. Fan antropogenez jarayonini yoritib bera boshlashi va dindan bu sohani tortib olishi munosabati bilan *kreatsianizm* o'z mavqeyini mustahkamlay boshladi. Bu hol tegishli institularning yaratilishi, ilmiy anjumanlar o'tkazilishi, kreasinistik adabiyotlar va filmlarning paydo bo'lishida o'z aksini topdi.

Hozirgi zamon kreatsianizmi quyidagi yondashuvlarga asoslanadi.

Birinchidan, bu odamning azaldan mavjud bo'lganligi g'oyasidir va u odamning eng qadimgi davrlarga oid qazib topilgan hayvonlar (masalan, dinozavrlar) bilan bir paytda mavjud bo'lganligini isbotlovchi dalillarni qidirib topishda ifodalangan. XX asr 60-80 yillarda Texasdagi Palluks daryosi havzasida topilgan 120 million yil ilgari qoldirilgan bir izni ana shunday dalillardan (insonning eng qadimgi davrdagi izi) biri sifatida ko'rsatishga urinishlar bo'lgan edi. Ammo keyinchalik ma'lum bo'ldiki, u qadimgi kaltakesakning izi ekan.

Ikkinchidan, bu insonning va qazilmalar orqali topilgan primatlarning tadrijiy taraqqiyotida qandaydir oraliq bo'g'inlar bo'lganligini inkor etishdan iborat. Kreatsianistlarning fikricha, qazilmalar chog'ida topilgan barcha suyaklarni yoki odamniki, yohud maymunniki sifatida tasnif qilish lozim. Boshqacha qilib aytganda xudo hamma turlarni ular qanday bo'lsa shunday yaratgan va odam ham avval boshdanoq odam bo'lgan. Biroq, fanga ma'lum barcha qazilmalar chog'ida topilgan gominidlar bunday bir xillikka ega emas, chunki ularda maymunlarga xos xususiyatlar bilan odamga xos xususiyatlar birlashib ketgan.

Uchinchidan, bu - yetarli ma'lumotlar bo'lmaganligi uchun gipoteza sifatida qaraluvchi antropogenezga oid bir qator nazariyalarning tanqid qilinishidir.

Kreatsianizm bugungi kunda ham keng tarqalgan. Bir qator mamlakat(davlat)larda insonning kelib chiqishi haqidagi kreatsianistik va evolyusion qarashlarni maktablarda o'qitish masalasida keskin kurash bormoqda. 1925 yilda (AQShning) Tennesi shtatidagi Dayton shahrida o'qituvchi Djon Skops ustidan o'tkazilgan sud bugungi kunda barchaga ma'lum. U o'quvchilarga Darvin nazariyasi va uning odamning maymundan kelib chiqqanligi haqidagi gipotezasi xususida so'zlab bergan edi. 1986 yilda esa Mobayla shahri sudi Alabama shtatining ta'lim boshqarmasiga qarshi da'vo bilan ish qo'zg'adi. Bunga ta'lim boshqarmasining «dinga va xudoga qarshi mazmundagi 45 darslikdan o'rta maktablarda foydalanishga ruxsat berganligi»¹ sabab bo'lgan edi. Kaliforniyaning ayrim shaharlarida evolyusiya nazariyasini o'z ichiga olgan darsliklardan foydalanish taqiqlangan.

Shu sababli yaqinda amerikalik yirik 72 ta olimlar - Nobel mukofotining sovrindorlari kreatsianistlarning insonning xudo tomonidan yaratilganligi g'oyasi va evolyusiya nazariyasini «teng huquqli» ravishda o'quv dasturlariga kiritish va o'qitish uchun urinishlariga qarshi chiqdilar. Bironta boshqa hujjat

¹ Каранг: Лалаянц И.Э. Шестой день творения. // Мироздание и человек. М., 1900. 263-6.

shunchalik ko'p sonli Nobel mukofoti sovrindorlari tomonidan nizolanmagan edi. Ularning mazkur qadami shu bilan taqozo etilgan ediki, zamonaviy, ilmiy bilishning yutuqlariga asoslangan ta'lim fan mezonlariga javob bera oladigan nazariyalarga asoslanadi. Bu eng avvalo, tegishli tarzda asoslab berish va isbotlashdir, kreatsianizm esa o'zining haqligini ko'rsatuvchi isbot-dalillarga ega emas.

Keyingi paytda «*kosmik tajriba*» nazariyalari paydo bo'ldiki, ularning markazida ham odamning yaratilganligi haqidagi g'oya turadi. Diniy talqinlardan farqli o'laroq, ushbu nazariyalarda inson qandaydir o'zga planetaga mansub sivilizatsiya tomonidan yaratilgan deb tasdiqlanadi.

Ushbu konsepsiyaga ko'ra, yerdagi ko'plab noyob inshootlar (Misr ehromlari, Pasxa orolidagi toshdan yasalgan ulkan haykallar, faqat tepada qaraganda ko'rinadigan benihoyat ulkan rasmlar va hokazo) ana shu o'zga sayyoraliklar tomonidan yaratilgan deb hisoblanadi.

Fan o'zga sayyoralarda sivilizatsiyaning mavjudligini va ular yerga kelgan bo'lishlari mumkinligini prinsip jihatidan inkor etmaydi. Biroq, insonning o'zga sayyoraliklar tomonidan *yaratilganligini* tasdiqlovchi hеч qanday dalillar mavjud emas. Bu mavzuga oid barcha mulohazalar hozirga qadar mushohadagipoteza bo'lib qolmoqda.

Insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi haqidagi nazariya

Eng qadimgi miflardayoq, odamning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi g'oya bilan bir qatorda antropogenezni tabiiy-tarixiy idrok etish unsurlari ham mavjud edi. Insonlarning paydo bo'lishi ularda mo'jizali shakliga ega, ammo ushbu tasavvurlarda insonning xudo tomonidan yaratilganligi akti mavjud emas. To'g'ri, miflarda ko'pincha tabiiy-tarixiy va diniy elementlar shunchalik qorishib ketadiki, aks hollarda ularni bir-biridan ajratish qiyin bo'ladi.

Avstraliyadagi *dieri* qabilasining afsonasida odamlarning kelib chiqishi shunday bayon qilinadi. Perigundi ko'lining o'rtasida yer yorilib u yerdan *mardu* deb ataluvchi totem mavjudotlar chiqqan. Ular kuchga kirib olgunlariga qadar oftobda yotdilar, keyin esa odamlarga aylanib yer yuziga tarqaldilar. *Keraki* qabilasida mavjud tasavvurlarga ko'ra odamlarni hеч kim yaratmagan: afsonaviy qahramon Kambel daraxt kesayotib, ularni urug'lari bilan yashayotgan joyidan topib olgan. Qadimgi xitoy mifologiyasiga ko'ra esa, odamlar Pan-Gu deb ataluvchi kosmik odamning jasadi ustida o'rmalab yurgan parazitlardan kelib chiqqan.

Qadimgi falsafiy tasavvurlarda ham insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi haqidagi gipotezani uchratish mumkin. Hind faylasuflari *charvak-lokayatlar* ta'limotiga ko'ra onga ega bo'lgan tirik tan ham butun dunyo singari to'rt unurning, ya'ni yer, olov, havo va suvning qo'shilishdan paydo bo'lgan.

Odamning tabiiy ravishda kelib chiqqanligi g'oyasi qadimgi yunon falsafasida ham o'z aksini topgan. Odamning hayvondan kelib chiqqanligi haqidagi gipotezani birinchi bo'lib *Anaksimandr* oldinga surgan edi. Uning ta'limotiga ko'ra odamlar baliqlar qornida paydo bo'lgan va xuddi akulalar

singari parvarish qilingan. Ular kuchga kirib o'zlarini eplay oladigan bo'lganlaridan so'ng tashqariga chiqqanlar va yerga yetib borganlar. Qadimgi yunon faylasufi *Empedokl* dastlab inson tanasining ayrim qismlari: boshlar, qo'llar va h.k. paydo bo'lgan deb hisoblagan. Birlashtirish va ajratish qudratiga molik bo'lgan *sevgi* kuchlarining dunyoda ustuvor bo'lishi bilan turli xil qismlar bir-biri bilan qo'shila boshlagan. Buning natijasida turli kombinatsiyalar yuzaga kelgan: ikki boshli odamlar, ho'kizpeshona odamlar, inson boshi singari boshga ega bo'lgan ho'kizlar, ayollarga xos belgilarga ega bo'lgan erkaklar va hokazl. Ular orasidan mukammallikka ega bo'lganlari yashab qolgan, qolganlari esa qirilib bitgan, shu jumladan yuqorida sanab o'tilganlar tipidagi mavjudotlar ham yo'qolib ham ketgan. Atomizmning asoschisi bo'lgan *Demokrit* esa inson loy va suvdan paydo bo'lgan deb hisoblar edi. yer paydo bo'lgandan so'ng uning loyqasimon yuzasida plyonka bilan qoplangan pufaklar (badbo'y va suvli) yuzaga kelgan. Ularni kunduzi quyosh qizdirar, tunda esa namlikni o'zlariga singdirar edilar. Ular shu tariqa ko'payib borgan va so'ngra yorila boshlagan hamda ulardan odamlar va hayvonlar paydo bo'lgan.

Insonning tabiiy-tarixiy kelib chiqishi to'g'risidagi falsafiy konsepsiyalar to XIX asrning oxiriga qadar faqat mushohadalardan iborat bo'lib, hych qanday isbot-dalillarga ega emas edi. Biroq ilmiy ma'lumotlarning to'planishi bilan mazkur yondashuv ilmiy hamjamiyatda tobora ko'proq ustunlikka ega bo'la boshladi.

Insonning hayvonlarga o'xshab ketishini odamlar juda qadimgi zamonlardayoq payqaganlar. Antik fanning paydo bo'lishi bilan inson va hayvonlarni qiyosiy tahlil qilish yo'lidagi dastlabki urinishlar ham yuzaga keldi. Bunday harakatlarning dastlabkilaridan birini Qadimgi Gretsiyada *Arastu* amalga oshirdi, Qadimgi Rimda yashagan vrach va anatom *Klavdiy Galen* esa birinchilardan bo'lib odam bilan maymun o'rtasidagi o'xshashliklarni tavsiflab berdi.

1610 yilda faylasuf va olim *Lyuchilio Vanini* odam va maymunning qarindoshligi haqidagi g'oyani ilgari surdi va buning uchun gulxanda kuydirildi. 1699 yilda esa ingliz anatomi *E.Tayzon* «Orangutan yoki o'rmon odami: maymun, pigmey va insonning qiyosiy anatomiyasi» nomli asarini e'lon qildi.

XVIII asrga kelib olimlar endi inson va hayvonlar o'rtasidagi o'xshashlikni shunchaki qayd etish bilan cheklanib qolmadilar. Tirik organizmlarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan shved olimi *Karl Linney* (1707-1778), garchi insonning xudo tomonidan yaratilganligi haqidagi g'oyani tan olsada, o'z tasnifida uni hayvonlar dunyosining boshqa vakillari orasiga joylashtirgan va bunda u Homo turini alohida ajratgan edi. *J.B.Monboddo* va *J.E.Doornik*ning ilmiy ishlaridan boshlab odamlarning insonga o'xshash maymunlardan kelib chiqqanligini haqidagi fikr to'g'ridan-to'g'ri tasdiq etiladi.

Antropogenezning tadrijiy xususiyati haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvurlarning shakllanishida *Jan Lamark*ning (1744-1829) «Zoologiya falsafasi» deb atalgan va 1809 yilda e'lon qilingan asari muhim bosqichni tashkil etdi. Lamarkning

fikriga ko'ra qadimgi maymunlar o'rmonlarning kamayib ketishi natijasida daraxtlardan tushib yerda yashashga va tik turib yurishga majbur bo'lganlar. Bu ularning umurtqa pog'onalari, oyoq kaftlari, qo'l bo'g'inlari, jag'lari, tishlari va bosh miyalarining o'zgarishiga olib kelgan. To'da-to'da bo'lib ijtimoiy hayot kechirish sharoitlarida esa ularda nutq rivojlana boshlagan. 1818 yilda esa *Bilenshtedning* asari dunyoga keldi, unda muallif inson va ungacha bo'lgan hayvoniy shakllarni bir butun evolyusion zanjirga bog'lovchi oraliq shakllar mavjud bo'lganligi haqidagi fikrni bayon qildi.

Odamning kelib chiqishi haqidagi tabiiy-ilmiy qarashlarning uzil-kesil tasdiqlanishida *Ch.Darvinning* «Tabiiy tanlanish natijasida turlarning kelib chiqishi» (1859) va «Insonning kelib chiqishi va jinsiy tanlanish» (1871) kabi asarlarida bayon etilgan evolyusiya nazariyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

XIX asrning o'rtalariga qadar antropogenezning talqinlari tabiiy-ilmiy xususiyatga ega bo'ldi, ya'ni antropogenez faqat tabiiy fanlar (anatomiya, embriologiya, evolyusiya nazariyasi va boshqalar) doirasida izohlandi. Shunga muvofiq antropogenezning harakatga keltiruvchi kuchlari sifatida tabiiy-biologik olimlar tushunilar edi. Antropogenez jarayonida ijtimoiy olimlarning roli *F.Engels* antropogenezning mehnat nazariyasida («Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli», 1873-1876) o'z aksini topdi. Uning mohiyati «*Mehnat -insonni yaratdi*» degan formulada ifoda etilgan edi.

Antropogenez haqidagi hozirgi zamon fani

Antropogenez nazariyasi fanlararo tadqiqotlar sohasi sifatida

Antropogenezning hozirgi zamon ilmiy nazariyasi endilikda tor tarmoq sohasi emas, balki tabiiy va ijtimoiy fanlarning tutashuv chegarasidagi majmuaviy fanlararo tadqiqotlardan iborat.

Bugungi kunga kelib fan odamning kelib chiqish jarayonini muayyan darajada tiklash imkonini beruvchi ko'p sonli ma'lumotlarni to'plagan. Ushbu muammoni hal etishda arxeologiya va antropologiyadan tortib to molekulyar biologiya hamda atom fizikasigacha bo'lgan ko'plab fanlar ishtirok etmoqda.

Hozirgi zamon tasniflari ma'lumotlariga ko'ra, odam turiga, umurtqalilar kichik turiga, sut emizuvchilar sinfiga, primatlar guruhiga, gominoidlarning katta oilasiga, gominidlar oilasiga, Homo turiga mansubdir.

Odamning hayvondan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi dalillar qiyosiy anatomiya, fiziologiya, embriologiya, paleontologiya, genetika fanlari bergan ma'lumotlarga suyanadi. Barcha tirik organizmlarda hujayra tuzilishi, odam va hayvonlarning skeletlarining hamda a'zolarining o'xshashligi, odamdagi rudimentar a'zolar (kopchik umurtqalar, ohirgi jag' tishlar, ko'richak va hokazo hammasi bo'lib 90dan ortiq), atavizmlar (jabra yorig'i, tananing to'liq jun bilan

qoplanishi va boshqalar), inson embrionida hayvonot dunyosiga xos evolyusiya bosqichlarining takrorlanishi va hokazo.

Odam hozirgi zamon biologiya fani tomonidan yaxshi o'rganilgan primatlar bilan eng ko'p genetik va anatomo-fiziologik o'xshashliklarga egadir. Odamning primatlardan kelib chiqqanligi paleoantropologiya tomonidan ham qazishmalar chog'ida topilgan gominidlar va antropoidlar shakllarini morfologik tahlili asosida tasdiqlanadi. Molekulyar biologiyaning so'nggi yillardagi yutuqlari odam bilan primatlarning nasli bir ekanligini ko'rsatuvchi yangi dalillarni aniqladi. Ma'lumki, yaqinda inson genomi sirlari ochildi va e'lon qilindi. Genetika bergan ma'lumotlarga ko'ra genlar bo'yicha biz insonning hozir yashayotgan qarindoshlaridan eng yaqini bo'lgan shimpanzedan atigi 1% dan sal ortiqroq farqqa egamiz. DNK molekulalari nukleotid izchilligining o'zgarish tezligiga asoslangan ma'lumotlarga ko'ra («molekulyar soatlar» metodi) bizning hozirgi maymunlar bilan ajdodimiz bir bo'lgan. Ularning ajdolari bilan odamga kelib tutashuvchi gominid liniyaning ajralish bundan 5-7 mln yil ilgari yuz bergan. Agar shimpanze nazarda tutilsa, u holda bu divergensiya 5 mln yil ilgari bo'lgan, gorillalar va orangutanlar ildizlarining ajralishi esa undan ham oldinroq ro'y bergan¹.

Antropogenez nazariyasida topilgan suyak qoldiqlari va tosh artefaktlarning sanasini belgilash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda fizika va ximiya yordamga keladi. Zamonaviy tabiiy-ilmiy usullardan (uranning spontan bo'linishi treklari bo'yicha sanani aniqlash, kaliy-argonli, paleomagnet, termolyuminessent usullar) antropogenezning mutlaq xronologiyasini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Arxeologik topilmalarning mikrotuzilmasini o'rganishda fizikaviy-kimyoviy usullardan (rentgen nurlanishi, elektron mikroskopiya) ham foydalaniladi.

Antropogenezning hozirgi zamon ilmiy manzarasi

So'nggi o'n yilliklardagi kashfiyotlar antropogenez haqidagi oldingi tasavvurlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Ma'lum bo'ldiki, odamning tik holatda yurishga o'tishi ilgari taxmin qilganidan bir necha million yil oldin yuz bergan ekan. Toshidan yasalgan qurollarning paydo bo'lgan davri ham million yil oldinga surildi. Hozirga qadar mavjud bo'lib kelgan «avstralopitek – pitekanthrop-neandertal - Homo Sapiens» shaklidagi to'g'ri chizikli sxemadan voz kechildi. Arxeologlar qayd etganlaridan, antropogenezning hozirgi manzarasi «odamlarning shakllanishining bir xil va to'g'ri chizikli g'oyasi emas, balki murakkab va ko'p tomonlama shakllanish g'oyasiga ko'proq yaqinlashmoqda².

Bugungi kunda u shoxlarga ega bo'lgan to'g'ri daraxt (evolyusiyaning boshi berk chiziqlari bilan) sifatida emas, balki buta sifatida tasavvur qilinmoqdaki,

¹ 5 млн йил деган маълумот 60-йиллардаёқ одам қони ва шимпанзе қони оксиллари тақлили асосида олинган эди. Бироқ у йилларда полеониологлар улар орасидаги бўлиниш 10-25 млн йил илгари содир бўлган деб қисоблар эдилар.

² Ларичев В.Е. Поиски предков Адама. // Мироздание и человек. М., 1990. 242 б.

unda evolyusion rivojlanishning har bir davrida gomonidning ko'plab raqobatlashuvchi liniyalari yonma-yon mavjud bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, uzoq o'tmishda primatlarning ko'plab turlari gominizatsiya yo'ldan borgan. Bu insonning antropoid ajdodlariga ham va shuningdek, Homo turiga ham tegishlidir. Hozirgi biologik turdagi odam hatto o'zining paydo bo'lish vaqtida ham Homo turiga mansub nasllarning vakili bo'lgan xolos.

Fanda to'plangan ma'lumotlar odamning paydo bo'lishiga olib keluvchi evolyusiyaning iqlimning o'zgarishi, o'rmonlarning siyraklashuvi va ochiq maydonlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq ravishda boshlangan haqidagi gipotezani tasdiqlaydi. Oziq ovqat manbalarining bo'linishi (o'rmonda va ochiq maydonlarda) tufayli qadimgi primatlarning bir nechta guruhleri yerda yashay boshlaganlar. Ular orasida olimlar 5,3 - 1,5 million yil ilgari yashagan *avstralopitekklar* guruhini (ichki turini) ajratadilar. Ularni bizning ajdodlarimizning umumiy modeli sifatida qarash mumkin.

Agar Homo Australopithecus habilis va rudolfensis larning odam yoki hayvon sifatida tasnif etilishi borasida bahslar mavjud bo'lsa, Homo crectus (tik yuruvchi odam)ning chindan ham Homo turining vakili ekanligi hych shubhasizdir¹.

Eng qadimgi odamlar (arxantroplar) bosqichi *paleantroplar* (qadimgi odamlar) bosqichi bilan almashadi. Paleantrolarga 20-28 ming yil ilgari yashagan neandertallarni va arxaik sapienslar vakillarini kiritish mumkin. Neandertallarga oid eng muhim topilmalar Germaniya, Eron, Falastin va O'zbekistonda qo'lga kiritilgan.

Bugungi kunda neandertallar arxaik sapienslarga qaraganda yaxshiroq o'rganilgan va ko'proq topilgan. O'zining morfologik xususiyatlariga ko'ra neandertallar hozirgi biologik turdagi odamga yanada yaqinlashdi. Ularda miyaning hajm jihatdan o'sishi uning tuzilmasida ham o'zgarishlar yuz berishiga olib keldi. Hayotning ijtimoiy-ishlab chiqarish sohasi ham o'zgarishlarga uchradi. Differensiallashgan ish qurollari paydo bo'ldi, ularni tayyorlash 100 ortiq akti o'z ichiga olgan bir nechta operatsiyalardan iborat jarayon edi. Ayollar va erkaklar mehnati o'rtasida differensiatsiya ko'zga tashlandi. Neandertallar uchun sodda diniy tasavvurlar xos bo'lgan deb hisoblanadi. Neandertallar dafn qilingan go'rlar, shu jumladan, O'zbekiston hududidagi topilmalar shundan dalolat beradi.

Yaqin davrga qadar neandertallar hozirgi biologik turga mansub odamlarning to'g'ridan-to'g'ri ajdodlari deb hisoblanar edi. Biroq, yaqinda neandertallarning 28000 yil ilgari yashagan vakillarining suyaklari topildi. Bu vaqtda neoantrop (hozirgi turga mansub odam) allaqachon paydo bo'lgan edi. Bu hol bir vaqt oralig'ida Homo shajarasiga mansub ikki turning birga yashaganligidan dalolat beradi. Ular umumiy ajdoddan tarqagan, neandertal va neoantropga kelib ulanuvchi shajaralarning ayrilib ketish bundan 690 ming - 550 ming yil ilgari

¹ Klein R., Blake E., The Dawn of Human Culture. N,-Y.2002. P.77

yuz bergan. Neandertallarning va hozirgi tipdagi odamlarning DNKlarini tadqiq etish shuni tasdiqladiki, neandertallarning genetik materialini bizning genetik fondimizga qoʻshilmagan. Boshqacha qilib aytganda, neandertallar bizlarning qarindoshlarimiz, ammo ajdodlarimiz emas.

Bundan 100-150 ming yil ilgari neoantroplar – hozirgi biologik tipdagi odamlar paydo boʻladi.

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «Oʻzbekiston», 2003 yil, 15-bet.
2. Islom Karimov. Oʻzbekistonning oʻz istiqbol va taraqqiyot yoʻli. – T., «Oʻzbekiston», 1992 yil.
3. Islom Karimov. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «Oʻzbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
4. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
5. Falsafa. Oʻquv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.

12-MAVZU: INSON VA SHAXS

Reja:

1. Falsafiy fikr tarixida inson muammosi
2. O'rta asr falsafasida inson
3. Musulmon Sharq falsafasida inson
4. Inson XIX-XX asrlar falsafasida
5. Inson konkret fanlar va falsafada

Antik falsafada inson Antik falsafa insonga mikrokosm, kosmosning bir qismi, ya'ni makrokosm – umuman dunyo bilan doimiy aloqada bo'lib turuvchi qism sifatida qaragan. Aynan ana shu antik davrda «O'z-o'zingni o'rgan» degan so'zlar aytilgan edi (Suqrot).

Suqrotning shogirdi *Aflotun* (eramizgacha bo'lgan 428-347 yillar) insonning ruhi o'lmaydi, u har gal yangi tanaga ko'chib o'tadi, deb taxmin qilgan edi. Insonning o'zini o'rab turgan atrof dunyoni o'rganishga urinishi – bu ruhning tanga kirgunga qadar mushohada etgan abadiy g'oyalar olami haqidagi xotirotlaridir. Aflotun uchun inson ideali - donishmand, faylasuf bo'lib, uning ruhi ko'p «sayr qilgan» va shu sababli uning bilimlari eng to'g'ri va qimmatlidir. Bunday komil faylasufni Arastu «o'zini tafakkur etuvchi tafakkur» deb atagan edi.

Inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishga antik materialistlar *Demokrit*, *Epikur*, *Lukretsiy Kar* va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning qarashlariga ko'ra, inson hayotining maqsadi - ongli lazzatlanish, azob-uqubutlarga chap berish, ruhning sokin va tinch holatiga erishishdir. Shu sababli ular falsafaning asosiy vazifasi insonga baxtli bo'lish yo'lini ko'rsatishdan iborat deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, jon ayrim atomlardan tashkil topgan va o'limga mahkum, tana halokatga uchragandan so'ng atomlar yemiriladi. Inson o'limdan qo'rqmasligi kerak, zero toki u hayot ekan - o'lim yo'q, o'lim kelganda esa inson yo'q bo'ladi.

Umuman olganda antik falsafa «Inson nima?» degan savolga javob bermadi, balki ana shu savolni kun tartibiga qo'ydi.

O'rta asr falsafasida inson

O'rta asr falsafasi asosan diniy falsafa o'laroq, insonni unda ikki negiz: oliy (ruh) va past (tan) bir-biri bilan uzluksiz kurash olib boruvchi mavjudot sifatida qaradi. O'rta asr yevropa diniy falsafasining «otasi» *Avreliy Avgustin Avliyo* insonning mohiyatini aynan ruh va faqat u tashkil etadi, deb hisoblendi. Tana esa vaqtinchalik qobiqdan, ruh qamalgan joydan, ruh «zindoni»dan boshqa narsa emas. *Foma Akvinskiy*ning fikriga ko'ra odam ruh bilan tanning uyg'un birligidan iborat va bu hol uni quyi, hayvoniy dunyo bilan oliy, ilohiy, farishtalar olami o'rtasida arosatda qolgan mavjudot qilib qo'yadi. Unda jismoniylik qancha ko'p bo'lsa, u hayvonga shunchalik yaqinlashadi, ruhiyat qancha ko'p bo'lsa u shuncha farishtalarga yaqinlashadi.

O'rta asr sxolastikasi vakillari (Buyuk Albert, Anselm Kenterberiyskiy) nuqtai nazariga ko'ra insonning asosiy vazifasi o'z mohiyatini anglash emas, balki yanada yuqori – ilohiy mohiyatga qo'shilishga intilishdir. O'z-o'zidan ayonki, inson ruhi boqiydir va inson yerdagi butun hayoti davomida faqat uni qutqarish to'g'risida o'ylashi kerak.

Musulmon Sharq falsafasida inson

Sharq-musulmon falsafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, shu sababli insonning qo'lidan keladigan birdan-bir ish - bu o'zini ana shu taqdirda belgilab qo'yilganidek tutish. Biroq, *Forobiy, Beruni, Ibn Sino, Alisher Navoi, Mirza Bedil*, XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar - *Axmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Sattorxon Abdulg'afforrov* va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qo'ydilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchiga, aqliga, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar.

Inson yangi davr falsafasida

Yangi davr falsafasi insonning mohiyati va o'z-o'zini anglashi muammolariga qaytishi bilan ajralib turadi.

Tomas Gobbs, mexanik materializm tarafdori o'laroq, insonning ruhiy dunyosi mexanik kuch-g'ayrat va harakatlar majmuasidan boshqa narsa emas, deb hisobladi. Uning fikricha, inson faqatgina murakkab tuzilgan mexanizmdir xolos, u mexanika qonunlariga bo'ysunadi. Gobbs ruhning alohida substansiya sifatida mavjudligini inkor etdi.

Rene Dekart insonning dualistik konsepsiyasini ishlab chiqdi. U inson o'lik mexanizm (tana) bilan irodaga va fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan substansiya (ruh)ning qo'shiluvidan tashkil topgan, deb hisobladi.

Benedikt Spinoza o'zining inson haqidagi ta'limotini insonning tabiatning bir qismi ekanligi, tana va ruhning birligi asosida yaratdi. Insonning butun ruhiy hayoti idrok va affektlar (quvonch, g'am, lazzat)dan iborat. Insonni harakatiga keltiruvchi kuch - o'zini saqlash va manfaatga intilishdir.

XVIII asr fransuz materialistlari *J.O.Lametri, K.A.Gelvetsiy, P.A. Golbax, D.Didro* va boshqalar inson haqidagi ta'limotini ishlab chiqishga katta xissa qo'shdilar. Buni hatto ularning asarlarining nomlari ham tasdiqlab turadi: Lametrining «Inson-mashina», Gelvetsiyning «Inson haqida» va hokazo.

Lametri ijtimoiy rivojlanishning asosiy sabablari ulug' shaxslarning faoliyati va ma'rifatdir, deb hisoblar edi. Didro insonni oliy qadriyat, koinotning idrok markazi, butun madaniyatning yaratuvchisi deb hisobladi. Golbaxning nazarida esa, inson tabiatning bir qismi, u tabiat qonunlariga bo'ysunadi. Gelvetsiyning fikriga ko'ra, insonning shakllanishida atrof muhit asosiy rol o'ynaydi. U barcha odamlar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlariga ko'ra tabiat tomonidan teng qilib yaratilgan, ularning qanday bo'lishi faqat tarbiyaga bog'liq deb hisobladi.

Inson XIX-XX asrlar falsafasida

XIX asr falsafiy fikrning inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishdagi eng muhim yutuqlaridan biri - bu *Lyudvig Feyerbaxning* (1804-1872) falsafiy antropologizmidir. U inson mohiyati muammosini falsafasining «birdan-bir, universal va eng oliy» muammosi sifatida qaradi va birinchi planga olib chiqdi. Biroq Feyerbax, aslida, insonga biologik nuqtai nazardan qaraydi, uning ijtimoiy mohiyatini izohlamaydi.

Antropologik tamoyil (ya'ni, ob'ektiv olamni inson mohiyatining hosilasidan iborat bir narsa sifatida qarash) ekzistensializm, hayot falsafasi, falsafiy antropologiya, antroposotsiologiya, freydizm va boshqa ko'plab falsafiy va ijtimoiy oqimlarning asosida yotadi.

Ekzistensialistlar (*J.P.Sartr*, *A.Kamyu* va hokazo) falsafaning asosiy muammosi deb insonning mavjud bo'lishi masalalarini hisoblaydilar (Ekzistensiya). Inson faqat o'zini anglashi mumkin. *K.Yaspers* yozganidek: «Mavjud bo'lish bilish demakdir va men ong sifatida mavjudman». Ekzistensializmning asosiy tamoyili - erkinlik tamoyilidir. Inson «ozod bo'lishga mahkum etilgan» (*J.P.Sartr*). Ijtimoiy hayotning tangliklaridan chiqishning yo'li - shaxsning individualistik borlig'ida. Insonning o'z diqqat markaziga qo'yuvchi yana bir oqim – «*falsafiy antropologiya*». Bu oqimning asoschisi - Maks Sheler (1874-1928) falsafaning asosiy masalasi «Inson nima?:» degan savoldan iborat deb hisobladi.

Freydizmga avstriyalik psixolog *Zigmund Freyd* (1856-1939) asos solgan. U shaxs tuzilmasida uchta asosiy qatlamni ajratib ko'rsatdi «U» ongosti, «Men» yoki «EGO» (ong), Yuksak «Men» (yuksak ong).

2-§. Inson konkret fanlar va falsafada

Inson muammosi tabiiy va gumanitar fanlarda

Inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni *Homo sapiens* turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun - turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun - madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun - asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo.

Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya, antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi, somatologiya, seksologiya va hokazo) paydo bo'ldi. Ijtimoiy bilim sohasida ham «eski» fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida «yangi» fanlar (aksiologiya, germenevtika) kabilar faoliyat ko'rsatishadi.

XX asrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differentsiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Bu hol falsafaning inson muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb etib qo'yadi.

Falsafada inson

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, inson ko'p fanlar tomonidan predmet sifatida qaraladi, shu sababli bizning oldimizda muhim bir vazifa – inson muammosining aynan falsafiy aspektlarini ochib berish turadi.

Tabiatshunoslik va jamiyatshunoslikda insonni tadqiq etishning hozirgi darajasi shundayki, bunda inson hozirgi to'plangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish masalalari tobora ko'proq birinchi planga chiqmoqda.

Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin: a) inson mohiyati; b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati; v) shaxsning erkinligi; g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi; d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Bu albatta inson muammosining falsafiy spetsifikasi faqat yuqoridagilar bilan cheklanadi, degan emas. Biz faqat asosiylarini sanab o'tdik xolos.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «O'zbekiston», 2003 yil, 15-bet.
2. Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., «O'zbekiston», 1992 yil.
3. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
4. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
5. Falsafa. O'quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.

13-MAVZU: INSON, INDIVID, SHAXS. SHAXS VA JAMIYAT(2 s.)

Reja:

1. Individ, individuallik va sub'ekt
2. Shaxs
3. Shaxs va jamiyat

Individ, individuallik va sub'ekt

Falsafa va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda «individ», «individuallik», «shaxs» singari tushunchalar ko'p qo'llaniladi. Ularning o'xshashligi va farqlari nimada? Bu tushunchalarning har birining mohiyati nimadan iborat?

Yuqoridagi tushunchalar qatorida «*individ*» tushunchasi birinchida turadi. U eng avvalo, muayyan insonning boshqa odamlardan alohidaligiki, «chegaralanib» olganligini ifoda etadi. Individ - bu Homo sapiens biologik turining ayrim olingan, yakka vakili. Individning asosiy xususiyati - bu uning boshqalardan ajralganligi, alohidaligidir. Individ - bu insonning eng oddiy va abstrak tavsifi.

Shunisi qiziqki, turli fanlar «individ» tushunchasini turlicha talqin etadilar. Masalan, *psixologiya* ushbu tushunchani ikki aspektda ko'radi: a) individ ayrim olingan tabiiy mavjudot, tug'ma va orttirilgan xususiyatlarning mahsuli, individual, o'ziga xos xususiyatlarning sohibi sifatida; b) insonlar jamoasining alohida olingan vakili; o'zining biologik cheklanganlik doirasidan chiquvchi qurollardan, belgilardan foydalanuvchi va ular vositasida o'z xulqi hamda psixik jarayonlarini kasb etuvchi ijtimoiy mavjudot.¹

Psixologiya individning asosiy qirralari deb quyidagilarni hisoblaydi: 1) psixofiziologik tashkillashuvning yaxlitligi; 2) atrof dunyo bilan o'zaro ta'sirdagi barqarorlik; 3) faollik².

Sotsiologiya nuqtai nazaridan individ - bu inson naslining ayrim olingan vakili va insoniyatning barcha ijtimoiy va psixologik xususiyatlarining: aql, iroda, ehtiyojlar, manfaatlar va boshqalarning muayyan sohibi. Bu holda «Individ» tushunchasi muayyan, aniq bir insonni anglatadi³.

Va nihoyat, *falsafa* uchun individ ijtimoiy atom, alohida ajralib turuvchi mohiyat, ancha keng bo'lgan ijtimoiy yaxlitlikning (guruhning, sinfnig, millatning, insoniyatning) ayrim olingan vakili⁴.

Individ - eng avvalo qandaydir ko'plikni bir vakili, ko'plarning biri. Shu ma'noda deyarli har bir odam - individ (ba'zan individium ham deyiladi va yoziladi).

¹ Қаранг: Психология. Словарь. М., 1990. 135-б.

² Ўша ерда. 136-б.

³ Қаранг: Радугин А.А. Радугин К.А. Социология. М. 1995. 85-б.

⁴ Қаранг: Философия. Ростов-на-Дону, 1996. 264-б.

Bu o'rinda bir narsani ta'kidlash lozim: ajralib turish, alohidalik insonning spetsifik xususiyati emas, ob'ektiv dunyodagi barcha predmetlar va hodisalar u yoki bu tarzda ajralib turadi. Ammo insonga nisbatan ko'proq boshqa bir tushuncha nisbat beriladi - «*individuallik*». U muayyan insonning noyobliki, betakrorligini anglatadi. Muayyan ma'noda individuallik - individdan shaxsga olib boruvchi pog'onadir. Inson tug'ilishidan individ bo'lib tug'iladi, biroq shaxs sifatida u o'z individualligining barcha imkoniyatlarini ochish orqaligina shakllana oladi.

Individuallik individning o'ziga xosligini, ichki dunyosining o'ziga xosligini aks ettiradi, bu insonga xos umumiy (universal) va ayrim (noyob, o'ziga xos) xususiyatlarning uzviy birligidir.

Inson falsafasidagi yana bir muhim tushuncha «*sub'ekt*» tushunchasidir. Sub'ekt sifatida ayrim olingan individ ham va qandaydir jamoa (guruh, sotsium va xatto umuman insoniyat) namoyon bo'lishi mumkin. Bu o'rinda bizni individual sub'ekt qiziqtiradi. Uning asosiy tavsiflari quyidagilardir: faollik, onglilik, maqsadning mavjudligi, o'z-o'zini anglash, xatti-harakatlar erkinligi. Sub'ekt sifatida inson muayyan ijtimoiy rolni o'ynaydi. Odam sub'ekt bo'lib tug'ilmaydi, balki tarbiya jarayonida sub'ektga aylanadi.

Sub'ektivlik haqida so'z ketganda mazkur tushunchaning ikki ma'nosi borligini esda tutish lozim. Birinchidan, u ayrim individning tanlovi sifatidagi sub'ektivlikni anglatadi, ikkinchidan esa ushbu individ insoniy sub'ektivlik doirasidan tamoyilan chiqa olmasligini bildiradi¹.

Shaxs

Shaxs tushunchasi falsafada va umuman insonni o'rganuvchi fanlar majmuasida eng murakkab tushunchadir. Inson shaxsi rivojlanishining eng muhim biologik omili inson miyasidir. Ammo shaxs mohiyati - bu ijtimoiy xususiyatga molik hodisa. Miya esa moddiy organ bo'lib, u orqali shaxs o'z-o'zini namoyon etadi.

Inson mazkur sotsiumga xos bo'lgan me'yorlar, bilimlar, qadriyatlarning muayyan tizimini o'zlashtiradi. Muayyan jamiyatning real shart-sharoitlari shaxsning ijtimoiy mohiyatini belgilaydi. Shaxsning shakllanishi jarayoni *sotsializatsiya* deb ataladi.

Falsafada shaxs muammosi - bu eng avvalo insonning mohiyati, uning dunyodagi, tarixdagi va jamiyatdagi o'рни muammosidir. Muayyan ijtimoiy munosabatlar muayyan tarixiy tipdagi shaxsning shakllanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Antik davr odami uchun eng asosiy deb yaxshi fikrlar, intilishlar, istaklar hisoblangan va ular ijtimoiy amaliyotda qanchalik ro'yobga chiqishiga umuman olganda katta ahamiyat berilmagan: «Insonni faqat uning ishlariga qarab emas, intilishlariga qarab ham baholash lozim» (Demokrit), «Inson qanday fikrlasa, u hayotda shundaydir» (Sitseron), «Bizning hayotimiz

¹ Қаранг: Сартр- Ж-П. Экзистенциализм – это гуманизм // Сумерки богов. М., 1989. 323-6.

biz u haqda nima o'ylasak ana shudir» (Mark Avreliy), «Axloqiy fazilatlar niyatlar bilan bog'liqlikda ko'zga tashlanadi» (Arastu).

Antik davr mutafakkirlari nazarida chinakam shaxs deb shunday odamni aytish mumkinki, birinchidan, u axloqli, ikkinchidan, aql-idrok egasi, uchinchidan, boshqalar bilan muloqotga kirishadigan, to'rtinchidan siyosiy va davlat mavjudotidir.

O'rta asrlar bizga shaxsning boshqacha tipini ko'rsatadi. Mazkur davr uchun jamiyatning tabaqalanganligi, kastalarga bo'linishi va qat'iy korporativlik xosdir. Shu sababli muayyan tabaqaga, kastaga, sexga, gildiyaga mansublik, uning qonunlariga, odatlariga, an'analariga bo'ysunish shaxsning individual sifatlarining namoyon bo'lishidan ko'ra muhimroq va kuchliroq edi.

Faqat yangi davrga kelib ayrim olingan inson shaxsining qimmatini, avtonomligi, o'ziga xosligi qaror topadi. Bu ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy fikr uchun xosdir. Ijtimoiy faollik, tadbirkorlik, ongli va foydali faoliyat, mustaqillik, individualizm, shaxsiy mas'uliyat, o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi - mana bular shaxsning *g'arb, yevropa-amerika konsepsiyalari* yuksak qadrlanadigan sifatleri hisoblanadi.

Shaxsning sharq modeli esa boshqachadir. Shaxsning *sharqqa xos modelining* bir nechta modifikatsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin (islom, budda, konfutsiy va hokazo). Shunday bo'lsa-da, ular o'rtasida ularni shaxsning *g'arb* modelidan ajratib turuvchi muayyan mushtarakliklar mavjud.

Shaxsning sharq tipiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardir: mas'uliyat va majburiyatlarning inson huquqlari oldida ustuvorligi, xulq-atvordagi traditsionalizm, hulq-atvorning, jamoaviy modellarining individual me'yorlardan ustunligi, sotsiumga ko'proq qaramlik, ijtimoiy muhit bilan aloqaning ko'pligi.

Shuni esda tutish lozimki, shaxs tipi ijtimoiy munosabatlarning real tizimining in'ikosidir. Shaxsning shakllanishi va rivojlanishining muhim omili sifatida uning ijtimoiy faoliyati, sotsium hayotida muayyan rol ni bajarishi namoyon bo'ladi. Individual shaxs sifatida faqat turli tuman ijtimoiy munosabatlardagina o'z-o'zini namoyon etishi mumkin. O'z vaqtida Arastu «insonning vazifasi uning ongli faoliyatidan iborat» deb hisoblagan edi. A.Jomiy «Qo'llaring baquvvat ekan, mavjud ekan kundalik mehnatga ko'ngil qo'y» deya da'vat etgan bo'lsa, Ibn Sino «Bekorhilik va ishyoqmaslik faqat nodonlikka sabab bo'libgina qolmay, ayni paytda kasalliklarga ham sabab bo'ladi» deb ogohlantirgan edi.

Shaxs - bu muayyan ijtimoiylashuv jarayonining natijasigina emas, bu uzluksiz o'sib boruvchi jarayon. Agar doimiy rivojlanish, kamolotga intilish, olg'a harakat bo'lmasa, u holda shaxs buzilishi, degradatsiyaga duchor bo'lishi mumkin.

Shaxs va jamiyat

Faollik va doimiy kamolotga intilish bilan bir qatorda shaxsning muhim xususiyatlaridan biri uning *erkinligidir*. Erkinlikning yo'qligi turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: qullik, krepostnoylik, qamoq, ma'naviy qullik va

hokazo. Erkinlikning yoʻqligi shaxsiy mas'uliyatning yoʻqligini anglatadiki, u siz shaxs haqida soʻz ham yuritish mumkin emas. Bunda shuni esda tutish kerakki, erkinlik bu anarxiya emas, zero «jamiyatda yashab undan ozod boʻlish mumkin emas».

Erkinlik va mas'uliyat ikkita oʻzaro dialektik bogʻlangan qarama-qarshilikni tashkil etadi.

Inson oʻzining ijtimoiy majburiyatlarini, jamiyat oldidagi burchini, oʻz mas'uliyatini tabiiy bir hol, oʻz erkinligi va ijtimoiy faolligining uzviy bir qismi sifatida qabul qilgandagina chinakam shaxsga aylanadi.

Insonning hayotiy *faolligi* uning shaxsining shakllanishining asosiy omili sifatida namoyon boʻladi. Mazkur jarayon davomida faqat tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish yuz berib qolmasdan balki inson uni oʻz xohishiga mos ravishda oʻzgartiradi. Bunda chinakam insoniy, shaxsiy, ijtimoiy taqozo etilgan olam shakllantiriladi. Jamiyatning oʻzi, uning tizimi va tuzilishi, undagi munosabatlarni tashkil etuvchi unsurlar - bularning hammasi shaxsning bunyodkorlik faoliyatining, uning dunyoni oʻzgartiruvchi ijodiy faoliyatining natijasi.

Ushbu oʻzgarish jarayoni cheksizdir, chunki faoliyat, faollik inson shaxsining mohiyatini tashkil etuvchi kuchlarning namoyon boʻlishi, ochilishi va rivojlanishi demakdir. Dunyoni oʻzgartirar ekan, faol shaxs ayni paytda oʻz qobiliyatlari, mahorati, koʻnikma va bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borgan holda oʻz-oʻzini yaratadi. Faol hayoti va ishi davomida shaxs doimiy ravishda sotsium ichidagi oʻz aloqalarini kengaytiradi. Bunda insoniy ehtiyojlar doirasi kengayib boradi va shu bilan bir paytda mazkur ehtiyojlarni qondirish vositalarining sifat va son jihatdan oʻsishi yuz beradi.

Individ ijtimoiy fazilatlar va sifatlar majmuasini kasb etish butun insoniy sivilizatsiya, jamiyatning butun tarixi tomonidan toʻplangan tajribani uzluksiz va har tomonlama oʻzlashtirish orqali shaxsga aylanadi.

Shaxsning jamiyatdagi oʻrni va rolini Kantning quyidagi soʻzlari bilan tavsiflash mumkin: «Inson faqat vosita sifatida emas, balki maqsad sifatida ham oʻz-oʻzicha mavjud boʻladi..., oʻzining barcha xatti-harakatlarida u maqsad sifatida ham qaralishi zarur».¹

Inson shaxsi – sotsium markazi. Jamiyatning rivojlanish tarixi shaxsning, ayrim olingan insonning oʻrni va ahamiyatining oshib borishi bilan uzviy bogʻliqdir.

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «Oʻzbekiston», 2003 yil, 15-bet.

2. Islom Karimov. Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli. – T., «Oʻzbekiston», 1992 yil.

¹ Кант И. Соч. Т.Н.Ч 1. М., 1965. 269-б.

3. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O‘zbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
4. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
5. Falsafa. O‘quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.

14-MAVZU: IJTIMOYIY TARAQQIYOT TABIIY-TARIXIY JARAYON SIFATIDA (4 S.)

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot nazariyalari
2. Evolyutsiya va koevolyutsiya nazariyalari
3. O'zbekiston taraqqiyoti va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv
4. Taraqqiyotning o'zbek modeli-jamiyatning tadrijiy rivojlanishi kontseptsiyasi sifatida

Ijtimoiy taraqqiyot nazariyalari

Ijtimoiy taraqqiyotga yondoshuvlar xilma-xilligi, Tarixiy jarayon mazmuni va uning yo'nalishi muammosi qadimgi dunyo mutafakkirlaridayoq qiziqish uyg'otgan. Antik faylasuflar chiziqli tarix falsafasining uch muhim yo'nalishi: progressiv, regressiv va tsikli yo'nalishlarni farqlaganlar. Shuni qayd etish muhimki, bu yo'nalishlarning barchasi hozirgi vaqtda ham o'z izdoshlariga ega. Shu bilan bir qatorda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tarixiy rivojlanishning noxiziq kontseptsiyasi ham asoslangan. Bu yo'nalishlarni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Antik davr mutafakkirlarining aksariyati, shu jumladan Protagor va Demokrit jamiyatning rivojlanishi asosan yovvoyilikdan «oltin asr» sari yuksalib boruvchi yo'nalishda kechgan deb hisoblagan. Ularni progressiv yo'nalish asoschilari deb hisoblash mumkin. Boshqa mutafakkirlar (Gesiod, Seneka), aksincha, jamiyatning rivojlanishi regressiv yo'nalishga ega, ya'ni u «oltin asr»dan jamiyatning tanazzuli, axloqning buzilishi va hokazolar bilan tavsiflanuvchi «temir asr» sari rivojlanadi, degan fikrni ilgari surgan. Yana bir toifa faylasuflar (Platon, Aristotel, Polibiy) jamiyat yuksalib boruvchi yo'nalishda, lekin tutash doira bo'ylab harakatlanadi va har doim ortga, dastlabki bosqichga qaytadi, deb hisoblagan.

O'rta asrlar faylasuflari, tarix muayyan yo'nalishda rivojlanuvchi jarayon ekanligini rad etmagan holda, uning yo'nalishini Xudo belgilaydi, deb hisoblaganlar.

O'z asarlarida tarixning yo'nalishi, shuningdek tarixiy jarayonda yagonalik va rang-baranglikning o'zaro nisbati muammolarini ayniqsa to'la qamrab olgan dastlabki tadqiqotchilardan biri ital'yan faylasufi Jambattista Viko (1668-1744) bo'lgan. O'zining «Millatlar umumiy tabiati haqidagi yangi fan asoslari» deb nomlangan risolasida u jahon tarixining barcha xalqlar uchun yagona bo'lgan tarixiy aylanma harakat sifatidagi dunyoviy kontseptsiyasini ilgari surgan. Viko fikriga ko'ra, barcha xalqlar o'z rivojlanishida bir xil bosqichlardan o'tadi (ibtidoiy varvarlik («xudolar asri»))dan feodalizm («qahramonlar asri») orqali demokratik respublika yoki konstitutsiyaviy monarxiya («sivilizatsiya asri») sari harakatlanadi. Har bir tsikl mazkur jamiyatning umumiy inqirozi va parchalanishi bilan tugaydi. Tsikl

yakunlangach, rivojlanish jarayoni yangilanadi va ayni shu bosqichlardan, lekin yuqoriroq darajada o'tadi. Shunday qilib, Viko g'oyalari madaniyatlar va sivilizatsiyalarning rivojlanishida tsikllilik nazariyalari (Danilevskiy, Shpengler, Toynbi¹)ga asos bo'lgan.

Hozirgi zamon tarix falsafasida tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud. Ularga batafsilroq to'xtalamiz.

Formatsion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar olinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiy-tarixiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi ta'limotni Karl Marks o'zining «Kapital», «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» kabi asarlarida ilgari surgan. Marks nazariyasining mohiyatini uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo'lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o'rtasida o'rnatiladigan moddiy (iqtisodiy), ma'naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqalar va munosabatlardir. Moddiy va ma'naviy munosabatlarning o'zaro aloqasida moddiy munosabatlar etakchi rol o'ynaydi. Ularning o'zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim faoliyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo'lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o'rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma'naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko'pgina tomonlari takrorlanishining va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichi – kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko'p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham mumkinligi (ya'ni har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan. SHunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi, tarixiy davrni, bu ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va o'zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan.

Bu qoidalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to'xtamga kelish mumkin.

¹ Тойнби.А. Постигание истории.- М.: 1997.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat boʻlgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

XIX asrda ishlab chiqilgan formatsion yondashuv oʻzini oqlamadi.¹ Bunda tarixiy rivojlanish jarayonini tushuntirishga nisbatan Marksning yondashuvi emas, balki uni dogmaga aylantirish va mutlaqlashtirish shakllandi. Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarini qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga belgilaydi, deb aytish oʻrinli boʻlmaydi. Ikkinchidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yoʻllarini tanlashga oʻrin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq boʻylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sigʻmaydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning oʻziga xosligi va betakrorligi yoʻqoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

Shunday qilib, hozirgi davr sharoitida tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat boʻlgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi ayniqsa boʻrtib namoyon boʻladi. Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. Shu sababli ushbu talqinni tarixni tushunishga nisbatan oʻzgacha, nochiziq yondashuv bilan toʻldirish talab etiladi. Sivilizatsion yondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir.

Falsafani tushunishga nisbatan sivilizatsion yondashuv XIX-XX asrlarda vujudga kelgan. U asosan koʻp sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi gʻoyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu erda ijtimoiy taraqqiyotning qatʼiy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Mazkur yondashuv asoschilaridan biri tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822-1885) boʻlgan. U har biri alohida-alohida mavjud boʻlgan, faoliyatning toʻrt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» - diniy, madaniy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon boʻluvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi kontseptsiyani ilgari surgan. Madaniy-tarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida boʻladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok boʻlish bosqichlaridan oʻtadi. Jahon tarixining mazmunini Danilevskiy oʻzining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining oʻz-oʻzini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat deb bilgan. Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini taʼriflagan: 1) bir tilda yoki oʻxshash tillarda soʻzlashuvchi xalqlar bir madaniy-tarixiy tipni tashkil

¹ Gʻarb falsafasi.-T.: Sharq,.2004.-B.506.

etadi; 2) madaniy-tarixiy tip vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muayyan siyosiy mustaqillik talab etiladi; 3) sivilizatsiyaning muvaffaqiyatlari madaniy-tarixiy tipning turli elementlariga bog'liq bo'ladi; 4) sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni uzoq davom etadi, ularning ravnaq topish davri esa qisqadir; 5) sivilizatsiyalar alohida va berk sharoitda rivojlanadi, lekin bu ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Danilevskiyning qarashlarini nemis mutafakkiri Osva'd Shpengler (1880-1936) rivojlantirgan. U ham ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli evropotsentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. Shpengler falsafasida madaniyat asosiy kategoriya hisoblanadi. Faylasuf madaniyat deganda o'ziga o'xshash boshqa «organizmlar»dan ajralib turadigan alohida «organizm»ni tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo'q va bo'lishi mumkin emas degan xulosa kelib chiqqan. Shu sababli Shpengler jahon tarixining yaxlitligi va yagonaligini, unda «o'zgaras va umumiy» jihatlar mavjudligini rad etgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Evropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab etishdan iborat, deb hisoblaydi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining yana bir tarafdori ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnol'd Toynbi (1889-1975)dir. U Danilevskiy va Shpenglarning tarixning tsiklliligi haqidagi fikr-mulohazalarini rivojlantirib, uni ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan (dastlab u 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa ularni 13 tagacha qisqartirgan). Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyutsion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Toynbi bu sivilizatsiyalarda oldinma-кетин yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash deb hisoblab, shunga asoslangan holda yaqin kelajakda dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi ijtimoiy rivojlanish takroriyiligining ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyutsiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan.

Shunday qilib, sivilizatsion yondashuv nuqtai nazaridan tarixiy jarayon hujumkor xususiyati «yuqori - quyi» ko'rsatkichlari bilan emas, balki har bir sivilizatsiya o'z rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilash jarayonida insoniyat filogenetik yo'lining barcha asosiy bosqichlaridan o'tishi va o'z tarixi va

betakror individualligiga ega bo'lgan noyob ijtimoiy tuzilma sifatida qaralishi bilan belgilanadigan izchil noxiziq jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: 1) formatsion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi va asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa statik deb e'tirof etadi; 2) formatsion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizatsion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

Tarix falsafasi¹ rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalardan foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rnini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv monadaga doir yondashuv degan nom olgan.

Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sotsiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi. Bunda monadaga doir yondashuvning formatsion elementi tarixiy rivojlanishning ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizatsion element esa ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va ro'yobga chiqariladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday kontseptsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi. Bu kontseptsiyalarning mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Taniqli nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969) yaratgan nazariyaga muvofiq, tarixning mazmuni tarixning chegarasidan tashqarida yotadi. Tarixning mazmuni va negizi butun insoniyat uchun umumiy bo'lgan e'tiqod bilan belgilanadi. Mazkur e'tiqod insoniyat vakillarini bir-biridan ajratmaydi, balki jiplashtiradi. Insoniyatga bunday e'tiqodni biron-bir jahon dini yoki milliy din taklif qilolmaydi.

Yaspers jahon tarixining «vaqt o'qi» amal qilgan davrda vujudga kelgan falsafiy e'tiqodgina insoniyat uchun umumiy e'tiqodga aylanishi mumkin, deb hisoblagan. Faylasuf qadimgi yunon faylasuflari, yahudiy xalqining payg'ambarlari, eronda zardushtiylik dinining, Xitoyda – konfutsiychilik va daoichilikning, Hindistonda – buddizm va jaynizmning asoschilari bir vaqtda ijod qilgan miloddan avvalgi 800 va 200 yillar oralig'idagi davrni tarixning

¹ Mamatov.O, Norqo'ziev. S. Abdullaev A. Ijtimoiy falsafa. (Ma'ruzalar matni)- Namangshan, 2012-B.384.

universal mazmunini namoyon etgan «vaqt o`qi» davri deb hisoblashni taklif qilgan. Mazkur davrda majusiylik o`rnini egallagan jahon dinlari paydo bo`lgan va mifologik dunyoqarash o`rnida falsafiy tafakkur vujudga kelgan; jahonda deyarli bir vaqtda ichdan o`zaro mushtarak bo`lgan bir nechta qudratli ma`naviy markazlar paydo bo`lgan. «Vaqt o`qi» davri insonga o`zini inson sifatida his qilishga yordam bergan, uning ma`naviyatini uyg`otgan, uni madaniyat va axloq asoslari bilan oshno etgan, uning oldiga insonning mavjudligi va hayotning mazmuni haqidagi masalalarni qo`ygan. Yaspers fikriga ko`ra, inson o`z-o`zini anglab etishi, inson ma`naviyatining uyg`onishi shu vaqtgacha o`zaro bog`lanmagan lokal madaniyatlarga bo`lingan insoniyat umumiy tarixining ibtidosiga aylangan. Shundan beri insoniyat umumiy taqdir va yagona e`tiqod bilan bog`langan. Aks holda uning tarixi halokat bilan tugashi mumkin. Yaspers ta`limotiga ko`ra, odamlarni umumiy ma`naviy asoslarda birlashtirish, ular o`zaro til topishini ta`minlashda kommunikatsiya ulkan rol o`ynaydi, shu bois uning tarix falsafasi ba`zan kommunikativ tarix falsafasi deb ham ataladi.

Evolyutsiya g`oyasining paydo bo`lishi

Sharq uyg`onish davri faylasuflarida evolyutsiya tushunchasi falsafiy kategoriya darajasiga ko`tarilgan bo`lmasa-da, uning mazmuni Ibn Sino, Beruniy, Forobiy kabi jahon falsafasi tarixida muhim o`rinni egallagan faylasuflarning fikrida yaqqol sezilib turadi. Jumladan: Forobiyning quyidagi fikri buni yorqin ifodalaydi: «...rahbar kelajak uchun rasm-rusum, yo`l-yo`riqlarni isloh qilishni lozim va foydali topsa, turmush taqozosiga qarab ularni o`zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o`zida ifodalovchi o`tmishni ham o`zgartirmog`i kerak. Aks holda o`tmishning talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o`zgarish va o`sish ham bo`lmaydi»¹. Forobiyning bu fikridan kelib chiqadiki, o`tmish va bugun o`rtasida ijobiy va salbiy aloqadorlik mavjud. Bu aloqadorlik shakli bugun bizni evolyutsiya deb atalayotgan narsaga olib boradi.

Dekart *evolyusiya* g`oyasini ishlab chiqqanlarning birinchilaridan biridir (garchi mexanistik asosda bo`lsa ham). U bu g`oyani tabiat haqidagi barcha soha ta`limotlariga – yulduzlar va sayyoralarning tashkil topishidan tortib o`simliklar, hayvonlar va insonlarning paydo bo`lishlarigacha tatbiq etdi. Dekart fikricha, yulduz va sayyoralarning tizimlari moddaning quyunsimon harakati natijasida tashkil topadilar. Dunyoviy modda cheksiz, bir xil bo`lib, bo`shliqqa ega emas va cheksiz ravishda bo`linishi mumkin. U mexanik qonunlar tomonidan belgilangan to`xtovsiz ravishda miqdoriy va sifatiy jihatdan o`zgarib turadigan holatdadir. Tirik mavjudotlar dunyosi ham ushbu qonunlarga bo`ysunadi: hayvonlar – bular murakkab mashinalardir. Inson esa, hayvonlardan farqli

¹ Forobiy. Fozil odamlar shaxri -T.: 1993. -B. 189-190..

o'laroq, aqlga ega, shuning uchun u mexanika qonunlari doirasidan tashqariga chiqadi.

Spenser ta'limotining yetakchi mavzularidan biri ham umumiy tadrijiy (evolyusion) rivojlanish haqidagi ta'limot edi. U «...yoyilgan harakat hamrohligida moddani nomuayyan bog'lanmagan bir xillikdan muayyan bog'langan harxillikka o'tkazish va shuning barobarida saqlanib qoladigan moddaning harakatini qaytadan o'zgarishini amalga oshirilishi demakdir»¹.

Evolyutsiyaning o'ziga xos belgilarini Spenser quyidagi qonularda ko'radi: tarkibiy tubdan o'zgartirilgan oqibatlar miqdorini oshishi, differentsiatsiya (bir xillikdan har xillikka o'tish), nomuayyanlikdan tarkibiy muayyandikka o'tish, uyg'unlik, muvozanatga intilish. evolyutsion taraqqiyot Spenser tomonidan mexanik tarzda talqin qilinib, universal xarakterga ega deb bilindi: u tabiatning jonsiz va jonli mavjudotlarida, inson jamiyatda namoyon bo'lishligi ta'kidlandi. «Umumjahon o'limining holati nima, - deb yozadi u, - bu shunday narsaki, hamma joyda ro'y beradigan jarayonning chegarasi bo'lib, buning shunday ekanligi har qanday shubhadan xolidir... bu yerda tasvirlagan barcha o'zgarishlarning xotimasi osoyishtalik holati bo'ladi»². Jamiyatga nisbatan tadbiq qilinganda bu aholi miqdorining muvozanati va hayotni qo'llab - quvvatlash uchun vosita, qarama-qarshi g'oyalar va hokazolar demakdir.

Spenser jamiyatshunoslikda *organik maktabning* asoschisidir. Jamiyatning tarkibiy va vazifaviy tuzilishini u biologik organizm bilan o'xshashlikda qarab chiqadi. Ammo, agar biologik organizmda unsurlar butun uchun mavjud bo'lsalar, ijtimoiy organizmda – bilaks: «jamiyat a'zolari jamiyat baxt-saodati uchun mavjud bo'lmasdan, balki jamiyat uning a'zolarining baxt-saodati uchun mavjuddir». Spenser uchun ijtimoiy ideal shunday jamiyatki, unda davlatning vazifalari qisqara borib, yakka tarzdagi va kooperativ omili oshib boradi. Jamiyatni Spenser ikki turga bo'ladi: «harbiy» va «sanoatlashgan»; tarixiy rivojlanish birinchi turdan ikkinchisi tomon boradiki, unda zambaraklar va nayzalar kurashini sanoat sohasidagi raqobat egallaydi. Jamiyatning tadrijiy rivojlanishi yashashga eng ko'p darajada moslashganlarning yashab qolish qonuni asosida amalga oshadi. U kambag'allarga, bevalar va yetimlarga yordam berishni tadrijiy rivojlanishning tabiiy jarayoniga aralashish deb hisoblab, unga qarshi chiqdi. Shuningdek Spenser inqiloblarning dushmani va asta-sekinlik bilan boradigan tadrijiy rivojlanish tarafdori edi.

Ijtimoiy falsafiy ta'limot yaratishga ingliz olimi va faylasufi Gerbert Spenser munosib hissa qo'shdi. U «Sintetik falsafa» asarida tabiiy va ijtimoiy hodisalarni sintetik asosda talqin etdi. Spenser yana «Boshlang'ich asoslar», «Ilmiy-siyosiy va falsafiy tajribalar» kabi asarlarida jamiyatning organik nazariyasini yaratdi.

¹ Антология мировой философии в у-х томах. Т.3. –М., 1971. –С.618 Г.Спенсер. Основные начала- СПб., 1886. –С. 373.

² Ўша жойда. 340-б.

Unda jamiyat rivojlanishida biologik va ijtimoiylik tomonlarning o'zaro ta'sirini ko'rsatdi. Jamiyatga biologik va ijtimoiy omillarning yaxlit birligi sifatida qaradi. Jamiyatni ijtimoiy-tabiiy birlik sifatida ta'rifladi.

G.Spenser evolyutsiya muammosini o'ziga xos tarzda hal etdi, evolyutsiyaga xos quyidagi muhim belgilarni ko'rsatdi:

- a) oddiydan murakkabga o'tish (integratsiya);
- b) bir xillikdan ko'p xillikka o'tish (differentsiatsiya);
- v) beqarorlikdan barqarorlikka o'tish.

Aurobindo Gxoshning vedantacha-yogacha integralizmi Zamonaviy hind falsafasining eng yirik vakillaridan biri Aurobind Gxosh (1872-1950) edi. Aurobindo falsafasining markaziy g'oyasi – «hamma narsa Braxmandir». Vedanta va upanishadlarda Braxman ikki shaklda ifodalangan: namoyon bo'lgan – *Aparada*, va namoyon bo'lmagan, oliy – *Parada*. Aurobindo ikkinchi shakldan foydalanadi: uning Para –Braxmani – bu shaklsiz, sifatsiz narsa bo'lib, borliqning o'zgarmas ma'naviy birinchi asosidir. Para-Braxmanning mohiyati – uch birinchi ibtido bo'lgan borliq, bilish nazariyasi va axloqiy tartibning birligidirki ular: *sat* (borliq), *chit* (bilim) va *ananda* (rohat-farog'at) dirlar. Faylasuf aqlning faol ijodiy-yaratuvchilik tabiatini tan oladi, ammo buning inson aqliga taalluqligi yo'q. Aurobindo fikricha, inson aqli faqat yaratuvchilikdagina emas, balki dunyoni bilishda ham ojizdir.

Aurobindo falsafasining xususiyatlaridan biri – uning involyusiya va evolyusiya haqidagi qoidasidir. Mutafakkir shundan kelib chiqadiki, «g'arbning» tadrijiy rivojlanish g'oyasi fizik va biologik tabiat tomonidan chegaralangan, «uning harakatida hech qanday ruhiy uyg'otish manbasi yo'q, balki faqat tolmas moddiy zaruriyat kuchi bor xolos»¹. U o'zining tadrijiy rivojlanish haqidagi tushunchasini olg'a surib, unga qo'shimcha sifatida involyusiya kategoriyasini kiritadi. Involyusiya evolyusiya (tadrijiy rivojlanish) dan oldin kelib, umumiy aql dunyoning tabiatidan kelib chiqadi. Dunyoning demiurgi (yaratuvchisi) sifatida taraqqiyotini boshlab beradi.

Evolyusion va involyusion jarayonlar majmuasida inson alohida o'rin tutadi. Inson Aurobindo ta'limotida – bu tarixdan tashqarida turuvchi, abstrakt – metafizik mohiyatdir. Inson uchun uning taqdiri sifatida tayyorlangan narsa – «ilohiy hayot» dir: har bir kishi «oliy ilohiy Voqyeylikka qadam qo'yishi, u bilan o'zini birikib ketgan his qilishi, unda yashashi, uning o'zining ijodkori bo'lishi lozim; ... uning fikr-zikrlari, his-tuyg'ulari, hatti-harakatlarining barchasi uning tomonidan chegaralangan va uning o'ziga aylanib qolgan bo'lishi zarur...

Bularning barchasi faqatgina shundagina tugallanishi mumkinki, kishi bilmaslikdan bilishlikka chiqib va bilish orqali oliy ongga erishsa»².

¹ Aurobindo Sri. Birth Centenary Library, rol. 16, -Pondicherry, 1972. -p. 232

² Aurobindo Sri. The Future Evolution of man, The Divine Sefe upron Earth.- Madras – London. 1974- p.132

Yangi davr nemis faylasufi Gegel' falsafani fikrda qamrab olingan davr deb aytgan. Haqiqatan ham har bir falsafiy ta'limotda shu davr ijtimoiy xayoti, ma'naviyati dunyoqarash kategoriyalari yordamida aks etadi. Bu kategoriyalarni ularning paydo bo'lish shart-sharoitlari va evolyutsiyasida o'rganish ma'naviyatni yaxlit holda va tarixiy taraqqiyotida olib o'rganish imkoniyatini beradi. I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bu murakkab dunyoning azaliy va abadiy muammolari, shu bilan birga, har bir davrning dolzarb masalalariga har tomonlama asosli ilmiy javoblar topilgan taqdirdagina ma'naviyat olami yangi ma'no-mazmun bilan boyib boradi"¹. Turli tarixiy davrlarda falsafiy danyoqarashning mohiyati, fundamental masalalari, tushunchalari va printsiplari saqlanib qolgan xolda, falsafiy fikr rivojidadagi vorisiylik mavjud bo'lgani xolda, ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq ravishda falsafaning predmeti, vazifalari, hal etadigan muammolari o'zgarib borgan va turlicha talqin qilingan. Xususan, har bir davr falsafasi o'ziga tegishli jihatlariga ega: antik falsafaga kosmotsentrizm, o'rta asrlar falsafasiga – teotsentrizm, G'arb uyg'onish davri falsafasiga – antropotsentrizm, yangi davr falsafasiga – ko'proq metodologizm xosdir. Biz falsafiy fikr evolyutsiyasini ana shu xolatni xisobga olgan holda o'rganishimiz zarur.

Evolyutsiya va koevolyutsiya nazariyalari

Ijtimoiy evolyutsiya- jamiyat pivojlanishining progressiv usuli

Vernadskiy jamiyatga jonli va jonsiz tabiatning birligi sifatida, inson faol sub'ekt sifatida hukmronlik qiluvchi yaxlit sistema sifatida yondashib, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasida inson faoliyati ta'sirida yuz bergan sifat o'zgarishlarini ilmiy asoslashga harakat qildi. Jamiyat va tabiatning o'zaro aloqasida insonning oqilona faoliyati eng muhim omilga aylanadigan holatga erishishni u «noosfera» (yunon. noos – aql, idrok va sphaira – soha), ya'ni aql-idrok sohasi deb nomladi.² SHundan beri noosfera insonning har qanday o'zgartiruvchi faoliyati tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tushunishga asoslanadigan va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlari bilan muvofiqlashtiriladigan materiya mavjudligi barcha shakllari birlashuvining oliy bosqichi sifatida tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu «jamiyat-tabiat» sistemasi tadrijiy rivojlanishining oliy bosqichi, hali mavjud bo'lmagan, lekin shakllana boshlagan va agar insoniyat bo'hronlar yuz berishini xohlamasa va kelajakda munosib hayot kechirishni istasa, albatta mavjud bo'lishi kerak bo'lgan bosqichdir.

Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko'ra, bunday bosqichga erishish jamiyat va tabiat bir yo'nalishda – o'zaro aloqasini optimallashtirish yo'lida tadrijiy rivojlanishni taqozo etadi. Mushtarak rivojlanishga tabiat va jamiyat koevolyutsiyasi deb ataladi va noosferaga erishish uning tadrijiy yakuni hisoblanadi.

¹ Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch - T.: Ma'naviyat, 2008.- B. 39-40.

²Raximov I, O'tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari -T.: 2005.-B.80.

«Noosfera» atamasi ilk bor XX asrning 20-yillaridan frantsuz olimlar e.Lerua va P.Teyyar de SHarden tomonidan ishlatila boshladi. Ular noosferaga ideal tuzilma, sayyoraning biosferadan tashqaridagi alohida «tafakkur pardasi» sifatida qaradilar. V.I.Vernadskiy «noosfera» tushunchasiga butunlay boshqacha ma`no yukladi. Mazkur atamani 30-yillarning boshlarida qabul qilib, u noosferaga biosferani va umuman tabiatni o`zgartirishga qaratilgan inson faoliyati natijasi sifatida yondashdi. Uning fikricha, yer atrofida kelib chiqishi antropogen xususiyatga ega bo`lgan «parda» vujudga keladi, ammo bu ideal soha emas, balki biosferaning rivojlanishidagi muayyan bosqichdir. Bunda odamlarning ongli o`zgartiruvchi faoliyati amalda mazkur rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, shu tariqa yuzaga kelgan «aql-idrok sohasi» esa moddiy hodisa hisoblanadi, chunki biosferaga ham, inson aql-idrokiga ham, uning faoliyatiga ham materialistik nuqtai nazardan yondashiladi.

Jamiyat va tabiat munosabatlarining tadrijiy rivojlanishi g`oyalari er yuzida organik, keyinchalik esa – ijtimoiy dunyoning vujudga kelishi va rivojlanishini belgilagan qonuniyatlarning yangicha talqiniga asoslanadi. Jonli va jonsiz tabiatning o`zaro aloqasi natijasi o`laroq yer litosferasi, gidrosferasi va atmosferasining yangi holati yuzaga keldiki, bu «biosfera» va «noosfera» kabi sintetik tushunchalarda o`z aksini topdi. Mazkur tushunchalarning ilmiy muomalaga kiritilishi va falsafiy asoslanishi o`zgartirilgan tabiatni tushunishda butunlay yangi bosqich bo`ldi.

O`tgan asrning 70-80-yillarida tabiat va jamiyatning o`zaro aloqasi masalalari atrofida olib borilgan qizg`in munozaralar natijasida noosfera tushunchasi hayotga qaytarildi va keyinchalik ekolog olimlarning butun bir avlodi uchun amalda metodologik mo`ljalga aylandi.

Noosferani biosferadan ajraladigan, mustaqil mavjud bo`lgan alohida qobiq yoki borliqqa hech qanday aloqasi bo`lmagan sof nazariy konstruktsiya sifatida emas, balki biosferaning bir holatdan boshqa holatga o`tishi, buning natijasida butunlay yangicha sifat kasb etishi sifatida tushunish lozim.

Demak biosfera va noosferaning sof geografik parametrlari mos kelmaydi.

Inson raketalar, sun`iy yo`ldoshlar, orbital stantsiyalar va boshqa kosmik texnikadan foydalanib, tabiiy shakllangan biosfera chegaralaridan tashqariga chiqadi, biroq, shu biosferaning tarkibiy qismi sifatida, u o`zining mazkur harakati bilan biosfera chegaralari – uning yangi sifati chegaralarini ham kengaytiradi. Ayni vaqtda, jamiyat tabiat bilan o`zaro aloqaga kirishib, biosferaga kirib boradi, uni yangicha mazmun bilan boyitib «ijtimoiylashtiradi». Biosfera ijtimoiy borliq doirasiga tobora kuchliroq «tortiladi», uning cheksiz rivojlanish va takomillashish jarayoni esa ijtimoiy jabhaga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Bunda tabiatning bir qismi bo`lgan inson mazkur jarayonni to`xtata olmaydi. Zero, buning aksi inson o`z ijtimoiy borlig`ini, binobarin, insoniy borlig`ini ham to`xtatishini anglatgan bo`lar edi.

Shunday qilib, biosferaning noosferaga o'tishi avvalambor inson o'zining o'zgartiruvchi faoliyatida «**Ziyon etkazma**» degan qoidaga so'zsiz amal qilib, biosferaning ham, o'z-o'zining ham keyingi evolyutsiyasi uchun butun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga majbur ekanligini anglatadi.

Bunday vazifani hal qilish uchun jamiyat hamda «jamiyat-tabiati» sistemasi haqida keng bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Aslida, mazkur bilimlar falsafiy, tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarning mazmunini tashkil etadi. Bunda falsafaning aksiologik jihati - qadriyatlar va axloqiy ideallarni belgilash, axloqiy qoidalar va tamoyillarni ta'riflash qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi.

O.Kontning ijtimoiy falsafaga oid qarashlari hozirgi davr uchun ham ahamiyatlidir. U jamiyatga yaxlit ijtimoiy sistema sifatida qaradi. Jamiyat rivojlanishining qonuniyatli va progressiv xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu jarayonda mehnat taqsimotining rivojlanishi, kishilarning siyosiy faolligi, fan va ma'naviy madaniyatning katta rol' o'ynashini alohida ta'kidladi.

Kont tomonidan ilgari surilgan jamiyatning garmoniyali rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlik omillari va ijtimoiy sub'ektlar manfaatlarini moslashtirish zarurligi to'g'risidagi g'oyalar bugun kun uchun ham ahamiyatlidir.

Kontning pozitiv ta'limotida falsafa, tabiiy va ijtimoiy fanlarning dalillaridan keng foydalanish, jamiyatga ijtimoiy organizm deb qarash etakchi o'rinni egalladi.

Ijtimoiy evolyutsiya jamiyat rivojlanishining progressiv usuli, ijtimoiy institutlar faoliyatining murakkablashuv va takomillashuv sari yo'nalishidir. Ijtimoiy evolyutsiya insonlar ehtiyoji bilan shartlangan ob'ektiv jarayondir. Ijtimoiy evolyutsiya insonlar faoliyatini va har xil ijtimoiy institutlarning ahamiyatini oshiradi, shuningdek, u individlarni ham hisobga olishi zarur.

Ijtimoiy evolyutsiya kishilarning turli-tuman avlodlari tomonidan amalga oshiriladi. Natijada jamiyatning ko'pgina funksiyalari, hajmi, turli-tumanligi, muayyanligi va murakkabligi o'zgaradi, kengayadi va rivojlanadi.

G.Spenser ham O.Kont singari jamiyatga muvozanat, garmoniya va barqarorlik zarurligini ta'kidladi. Ijtimoiy muvozanat deganda kishilar xatti-harakatining moslashuvini, ular manfaatlarining uyg'unlashuvini, ijtimoiy guruh va institutlar harakatida murosasozlik, o'zaro kelishuvlar bo'lishini nazarda tutdi. Ijtimoiy muvozanat kishilar va ijtimoiy institutlarning o'zaro aloqalarining tengligi sharoitida amal qiladi. Bu omil ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltiradi.

Spenserning fikricha, jamiyatning inqirozga yuz tutishi ijtimoiy muvozanat, garmoniya va ijtimoiy barqarorlikni istisno etadi. Jamiyatning inqirozi (tanazzuli) Spenserning fikricha, davlat institutlari faoliyatining samarasizligi tufayli vujudga keladi. Hokimiyat, armiya, tashkilot institutlarning yaroqsizligi ham inqirozni yanada kuchaytiradi. Omma harakatiga ayrim shaxslar, siyosatchilar xalaqit beradilar, xarakatlarning birlashishi

buzuladi, markazdan qochish tendentsiyasi kuchayadi. Tartibsizlik sanoat va savdo tashkilotlarining faoliyatini izdan chiqaradi.¹

Spenserning ta'limoti hozirgi sharoitda katta ahamiyatga egadir. SSSR parchalangandan so'ng vujudga kelgan mustaqil respublikalardagi harakatlar bu g'oyaning hayotiy ekanligini tasdiqlamoqda. Pozitivizm falsafasi asoschilari O. Kont va G. Spenserning jamiyatdagi garmoniya va muvozanat ijtimoiy barqarorlikning asosidir, degan g'oyasi g'oyatda qimmatlidir. Pozitivizm ijtimoiy hayotning turli hodisalarini, ayniqsa, turli-tuman ijtimoiy institutlar strukturasi va barqarorligini tahlil qilishga alohida e'tibor berdi. Natijada ijtimoiy falsafiy tafakkurda strukturali funktsional tahlil oqimi vujudga keldi. Unga Amerakilik faylasuflar: T.Parsons (1902-1979) R.Merton (1910) asos soldilar.

Strukturali funktsional tahlilda asosiy e'tiborni ijtimoiy sistema barqarorligiga, uning normal yashashiga qaratildi. Bu nazariya tarafdorlarinig fikricha, jamiyat o'zgaradi, inqirozga uchraydi, har hil ijtimoiy tashkilotlarning funktsiyalari o'zgarib turadi.

Bu oqim ijtimoiy sistemadagi funktsional tomonlarning paydo bo'lishini, adaptatsiya (moslashuv, ko'nikish) va maqsadga erishish, integratsiya birlashuv, qo'shilish, strukturani qayta tashkil etish, ijtimoiy keskinlikni yumshatish yo'llarini o'rganadi. Ijtimoiy garmoniya ijtimoiy kelishuvga qarama-qarshi bo'lgan muammolarni o'rganadi. Ijtimoiy sistemani buzishga, inqirozga olib keladigan har qanday holatlarni tahlil etadi.

Darendorfning fikricha, ijtimoiy konfliktlar:

a) ijtimoiy sistemadagi muvozanat holatining buzilishini va shu jarayonda rivojlanishning ro'y berishini anglatadi.

b) chunki konfliktlar bo'lmasa, jamiyat inqirozga yuz tutadi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos ravishda yangicha qarashlarni ilgari surdi. Taniqli nemis faylasufi Maks Veber (1869-1920) ijtimoiy falsafa rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. U ijtimoiy falsafa va sotsiologiyaga oid ilmiy manbalarni chuqur o'rgandi.

Maks Veber o'zining «Protestantlik axloqi va kapitalizm ruhi», «Xo'jalik va jamiyat», «Sotsial-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilishning ob'ektivligi», «Tushunish sotsiologiyasining ayrim kategoriyalari to'g'risida» va boshqa asarlarida ijtimoiy falsafa muammolarini hal etishga harakat qiladi.

M.Veber ijtimoiy falsafani nazariy sotsiologiya deb ta'rifladi: ijtimoiy falsafa kishilar faoliyatini va xulq-atvorini o'rganishi kerak. Jamiyat ayrim individlardan yoki ijtimoiy gruppalardan iborat bo'lishi mumkin. Ular inson faoliyatining dastlabki uyushmalaridir. SHunga muvofiq ijtimoiy falsafaning muhim masalasi ijtimoiy harakatlarni o'rganishdir. Ijtimoiy harakat, M.Veberning fikricha, kishilarning ongli, anglangan o'zaro munosabatlari

¹ к.:Спенсер Г. Система синтетической философии.-М.1998.- С. 314

sistemasi, o'zaro bir-biriga ta'siridir. Inson harakati uning boshqa kishilarning harakatiga nisbatan javobidir. Ijtimoiy harakatdagi motivlarni, qadriyatlarni hisobga olish kerak. Ijtimoiy harakat sub'ektining ma'naviy dunyosini, qadriyatli yo'nalishini tushunmoq zarur. Xarakat ma'nosini tahlil qilish, sezish, tushunuvchan sotsiologiyani vujudga keltirdi.

Tushunish sotsiologiyasida sub'ektning ijtimoiy xarakati va ichki dunyosi mantiqiy fikrlar, tushuncha va hissiyot psixologiyasi orqali ochib beriladi.

M.Veber sotsiologik jarayonlarni ilmiy darajada anglash va tushunishga intildi va bu usulni keng qo'lladi. Bu ijtimoiy harakat sub'ektining ma'naviy olamini o'rganishda qadriyatlar, axloq, siyosat, estetik, diniy qadriyatlarning o'rni katta ekanligini ko'rsatdi.

Shaxs o'z harakatida, niyatida qadriyatlarga asoslanadi. Bu esa inson faoliyati va xulq-atvorining mohiyati va mazmunini belgilaydi. Sotsiolog, filosof ham qandaydir qadriyatlarga tayanadi. M.Veberning fikricha, qadriyatlar hayotiy bo'lib, insonning ongli faoliyati bilan bog'langandir. Har qanday qadriyat ijtimoiy tarixiy asosga egadir.

M.Veber¹ ijtimoiy falsafada ideal tiplar kontseptsiyasi (g'oyasi)ni rivojlantirdi. Ideal tip nazariyasida ideal modelni yaratdi. Bu model inson uchun foydali bo'lib, uning manfaatlarini ifodalaydi. Ideal tiplarda axloqiy, siyosiy, diniy va boshqa qadriyatlar asosiy o'rin egallaydi. Shunga muvofiq kishilarning faoliyati va axloqining qoida va normalari belgilanadi. Ideal tiplarning ijtimoiy holati hokimiyat, shaxslararo munosabat, individual va guruh onglari holatlariga qarab belgilanadi. Ma'naviy va boshqa qadriyatlarning o'zaro aloqasi ideal tiplarni ijtimoiy ahamiyatli hodisalar darajasiga ko'taradi, inson xatti harakatining maqsadini belgilaydi, uni faollikka undaydi.

Tarixiy jarayonda inson harakati tobora oqilona tus oladi, inson faoliyati ratsionallasadi. Inson hayotiga yangiliklar, ijtimoiy o'zgarishlar tobora qo'proq kirib boradi. Shuningdek, Veber huquqiy davlat haqidagi nazariyasida bu davlat fuqarolarning munosabatlarini ratsionallashtiradi, qonunga asoslanadi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy normalarga tayanadi, degan g'oyani ilgari surdi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy jarayon xarakteriga mos qarashlarni ilgari surmoqda. Ijtimoiy falsafa yo'nalishlari ko'pqirrali bo'lganligi sababli tarixiy jarayonning mohiyati va uning harakatlantiruvchi kuchlari to'g'risida ham turlicha qarashlar vujudga keldi. Ayrim nazariyotchilar tarixiy qonunlarning o'rni salmoqli ekanligini e'tirof etadilar. Ayrimlari esa buni inkor etadilar.

Tarixning ma'nosi masalasidagi qarashlar ham bir xil emas². Chunki tarixiy jarayon tahliliga turlicha metodlar asosida yondashadilar. Shunday bo'lishi tabiiydir. Insoniyat tarixi murakkab va xilma-xil reallikdan iborat bo'lib, unda turli kuchlar va omillar amal qiladi. Turli ijtimoiy makon, har xil madaniyat va sivilizatsiyada turlicha omillar amal qiladi.

¹ Giddons. E. Sosiologiya -T.: Sharq.2002-B.792.

² Бердяев. Н.А. Смысль истории.-М.: 1990-Б.521.

Inson tarixiga va ijtimoiy hayotiga geografik muhit, ishlab chiqarish kuchlari, texnikaning rivojlanish darajasi, mafkura, axloq, qadriyat, iqlim va boshqalar ham ta'sir ko'rsatadi. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langandir. Tarixiy rivojlanish qanday bo'lishidan qat'i nazar, u umumiy ob'ektiv xarakterga egadir. Insonning hayotiy faoliyati uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini, manfaatlarini qondirishga qaratilgan jarayondir. U muayyan qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Ijtimoiy falsafaning vazifasi ana shu qonunlarni xolisona o'rganish va izohlashdir. Tarixiy jarayonning ob'ektivligi uning yaxlitligi, birligi, ajralmasligi va bir butunligidadir. Tarix albatta ko'pqirrali va xilma xildir, lekin u bir butundir. Tarixiy rivojlanish sharoitiga, vaziyatga, muammolarni hal etishga qarab turlichadir. Lekin insoniyat tarixi yaxlit jahon tarixidir.

Xalqlar tarixi jahon tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Jahon integratsiyasi ob'ektiv jarayon bo'lib, u murakkab va ziddiyatlidir. Unda qatnashadigan turli mamlakat va xalqlar o'z manfaatlarini, maqsadlarini, istaklarini amalga oshirishga harakat qiladilar. Insoniyat tarixining ziddiyatli xarakterga ega ekanligi unda ob'ektiv va sub'ektiv omillarshng o'zaro ta'siri mavjudligidadir. Uning yaxlitligi va turli - tumanligi tarixiy jarayonning bir xil va to'g'ri chiziqli rivojlanish bo'ylab emas, aksincha ko'p variantli xarakterga ega ekanligidadir.

Ijtimoiy falsafa o'z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko'ra oladigan fandır. Uning asosiy vazifasi tarixiy voqealarni va ijtimoiy sistemaning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlari (tendentsiyalari)ning hal qiluvchi omillarini aniqlashdir.

Ijtimoiy falsafa bilishning turli-tuman nazariy modellaridan foydalanadi. Bilish ob'ektiga har tomonlama yondashadi. Tarixiy jarayonga jahon tarixi nuqtai nazaridan yondashadi. Unda formatsiyali, sivilizatsiyali, ko'p variantli shakllar mavjud. SHuningdek, tsikli rivojlanish jamiyatning rivojlanishida tarixiy bosqich va xakozolar o'z ifodasini topadi. Turli-tuman yondashuv jamiyat xaqida to'liq tasavvur beradi. Ijtimoiy falsafa insonga tarixning sub'ekti va ob'ekti sifatida qaraydi. Insoniyat tarixi turli-tumanliqtsan iboratdir.

Milliy mustaqillik ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, falsafani bir yoqlama kommunistik mafkura zug'umlaridan ozod qilib, uning har tomonlama rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Prezident I. A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» singari asarlarida ijtimoiy falsafa oldida turgan eng muhim masalalar ko'rsatildi. Jamiyatshunos faylasuflarimizning e'tibori eng dolzarb muammolarga jalb etildi

XIX asrda G'arbiy Evropa mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y bergan muhim o'zgarishlar, tabiiyotshunoslikda erishilgan yutuqlar jamiyat to'g'risida yaxlit va bir butun falsafiy ta'limot yaratishni, ijtimoiy falsafaning shakllanishini taqazo etdi. Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishida

buyuk faylasuflar: Gegel', Marks¹, G.Spenser, M. Veberning asarlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Gegelning ta'lim berishicha, ijtimoiy strukturaning tub asosini ma'naviy madaniyat tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, uning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim individlarning xohish-irodasiga bog'liq emasdir. Balki aksincha, har bir individ jamiyatga xos bo'lgan ma'naviy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi, madaniyat talablariga bo'ysunadi. Agar ayrim kishilar ijtimoiy shartlangan madaniy qadriyatlarni tushunmasa va anglamasa, madaniy qadriyatlar unga nisbatan tashqi majbur qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Gegelning fikricha, ma'naviy madaniyat «jahoniy aql» («mutlaq ruh») muqarrar va to'xtovsiz ravishda amal qiladi.

Gegel' faqat ma'naviy madaniyatgina jamiyatning bir butun sistema sifatida rivojlanishi uchun imkon beradi, deb hisobladi. U ayniqsa o'ziga zamondosh bo'lgan G'arbiy Evropa madaniyatiga alohida e'tibor berdi. U ana shu madaniyatning keng yoyilishi, barcha qit'a va mamlakatlarniy jipslashuviga, jahon hamjamiyatining qaror topishiga olib keladi, deb ta'kidladi.

Karl Marks ijtimoiy hayotning fundamental asosini iqtisodiy munosabatlarda ko'rdi. U ijtimoiy hayot realliklaridan kelib chiqdi: sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi bilan inson tabiatni faol o'zlashtiruvchi va o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ldi. Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarishning keng tarmoqlarini vujudga keltirdi.

Ishlab chiqarish rivojlana boshladi; iqtisodiy munosabatlar ijtimoiy hayotning zarur sohalaridan biri bo'lib qoldi. Marks ingliz iqtisodchilari: A.Smit va D. Rikardoning «iqtisodiy inson» g'oyasini bir yoqlama rivojlantirdi. Inson hamisha iqtisodiy manfaat, foydani ko'zlar ekan, barcha ijtimoiy munosabatlar asosida iqtisodiy munosabat hal qiluvchi rol' o'ynaydi, deb hisobladi.

Biroq iqtisodiy munosabatlar avtomatik ravishda o'z-o'zidan amal qilmaydi, har qanday iqtisodiy taraqqiyot asosida ilm-ma'rifat, ma'naviy madaniyat yotadi. Jamiyat moddiy hayotning asosini tashkil etsa ham, uning normal ishlashi uchun ma'naviy salohiyat, bilim, iymon-e'tiqod va hakoza zarurdir.

Jamiyat hayotining fundamental asosini nima tashkil etadi degan masala ijtimoiy falsafada hamisha muhim o'rin egallab keldi. Mamlakatimizda ma'naviyat, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan hozirgi sharoitda yuksak ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini yangicha tushunish muhim ahamiyatga egadir.

Buyuk frantsuz mutafakkiri Ogyust Kont (1798-1856) jamiyat to'g'risidagi ilmiy nazariyaga, pozitiv falsafa va sotsiologiyaga asos soldi. U birinchi bo'lib metafizik falsafani keskin tanqid qildi: real ijtimoiy hayotdan ajralib qolgan metafizik falsafiy ta'limotlar o'rniga kishilar uchun foydali va

¹ Raximov I, O'tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari- T.: -2005.-B.117.

ahamiyatli bo`lgan jamiyat to`g`risidagi pozitiv fan yaratishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ydi.

O.Kont jamiyat to`g`risidagi yangi fanni «pozitiv falsafa» deb atagan bo`lsa ham, uning qarashlarida ijtimoiy falsafa va sotsiologiya bir-biridan ajralmagan edi (dastlabki qadam sifatida shunday bo`lishi tabiiy edi).

Kontning fikricha, jamiyat individlarning oddiy majmuidan iborat emas: «ijtimoiy atomlar» ham emas, balki rivojlangan individlar uyushmasidir. Ijtimoiy sub`ektlarning o`zaro aloqadorligidir.

Kontning ta`kidlashicha, jamiyat vujudga kelishi va rivojlanishiga ko`ra yaxlit ijtimoiy organizm bo`lib, u sub`ektlar (individ, tabaqa, sinf)ning rivojlanishiga bog`liqdir. Kont ijtimoiy falsafaga «ijtimoiy statika» tushunchasini olib kirdi. Uning yordamida jamiyat strukturasi tavsifladi. Ijtimoiy falsafa tushunchalarini rivojlantirdi. U «Pozitiv falsafa kursi», «Pozitiv siyosat sistemasi» va boshqa asarlarida falsafa va sotsiologiyani pozitiv fan deb atadi. Bu fanlar ilmiy dalillar va ilmiy kuzatishlarga asoslanadi. Kont falsafa yo`nalishida yangi oqimga - pozitivizmga asos soldi.

Kontning pozitiv ijtimoiy falsafasida jamiyat rivojlanishining bosh negizi va uning qonuniy xarakterga ega ekanligi muammosi muhim o`rin tutadi. Kont insoniyatning intellektual evolyutsiyasini «**uch bosqich qonuni**» orqali tushuntirishga harakat qildi. Bu qonunga muvofiq insoniyatni bilish faoliyati uning ijtimoiy ongi butun insoniyat tarixi o`z taraqqiyotida quyidagi uch bosqichni: a) teologik-iloxy rivojlanish; b) metafizik bosqich; v) pozitiv yuksalish bosqichlarini kechiradi.

Kont jamiyatining intellektual evolyutsiyasining uch muxim bosqichlari mavjudligini e`tirof etib; birinchi bosqichni u teologik bosqich bunda barcha xodisalar diniy tasavvurlar yordamida izoxlanadi, ikkinchi bosqichni – metafizik bosqich bo`lib, bunda eski e`tiqodlar tanazzulga yuz tutib uning o`rinni tanqidchilik egallaydi, uchinchi bosqich esa Kont fikricha pozitiv ya`ni ilmiy bosqich bo`lib, natijada jamiyat to`g`risidagi fan vujudga keladi.

O.Kont ta`limotida uning ikki jixati; bir tomondan pozitivizm falsafasining asoslari, ikkinchi tomondan esa sotsiologiya ya`ni ijtimoiy falsafasi ko`zga yaqqol tashlanadi.

Biz agar uning ijtimoiy qarashlariga nazar tashlasak O.Kont jamiyat xayotini bir butun tizim sifatida taxlil qilar ekan uni ikki qismga **birinchi ijtimoiy statistika – bu jamiyat mavjudligining nisbatan barqaror, sifatli jixatlarini xarakterlasa, ikkinchi ijtimoiy dinamika – bu jamiyatni xarakterlab uning rivojlanishda bo`lgan tomonlari xarakterlab uning rivojlanishning tabiiy qonunlarini ochib beradi.**

Tabiat va jamiyat koevolyutsiyasi

Insonning paydo bo`lishi va evolyutsiyasi. Inson faol asos sifatida o`z shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridanoq o`zini qurshagan muhitga

o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsata boshladi. Arxeologik qazishlarning natijalari va antropologik tadqiqotlar «omilkor odam» mehnat qurollari yasab, nafaqat tabiat va uning predmetlaridan foydalangan, balki uni o'z manfaatlari yo'lida o'zgartirishga harakat qilganligi 2-4 million yil muqaddam yuz berganini ko'rsatadi. Inson o'zini qurshagan dunyoga bungacha tabiatda mavjud bo'lmagan predmetlarni olib kira boshladi. Avvaliga bu mehnat, ro'zg'or va turar joy predmetlari edi. So'ngra ariqlar, to'g'onlar, binolar, inshootlar va inson faoliyatining shunga o'xshash natijalari paydo bo'ldi.

Endilikda, uchinchi ming yillikda inson butun sayyora bo'ylab joylashib, o'zining o'zgartiruvchi imkoniyatlarini ko'p karra ko'paytirib, tabiatda ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan yangi narsalar va hodisalarning katta bir dunyosini yaratdi. U izchil ish ko'rib, shaharlar va aholi yashaydigan joylar, sanoat korxonalarini va texnik qurilmalar, yo'llar, mashinalar, aerodromlar va shu kabilardan iborat infratuzilma tarmog'ini yaratib, Erning tabiiy shakl-shamoyilini tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirdi. Bularning barchasi ham jonsiz tabiatdir, ammo inson tomonidan yaratilgan bo'lsa, u tabiiy emas, balki sun'iy xususiyat kasb etadi. SHu bo'lsa u tadrijiy rivojlanadigan, insonning xohish-istagi va aralashuvidan qat'iy nazar mavjud bo'lgan «birinchi» tabiatdan farqli o'laroq, «ikkinchi tabiat» sifatida talqin qilinadi.

«Ikkilamchi tabiat». Inson yaratgan narsalar borlig'i ko'p jihatdan insonning o'z borlig'i bilan bog'lanadi, zero u bunyod etgan «ikkilamchi tabiat» avvalo uning turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. SHu sababli «ikkilamchi tabiat»ning aksariyat predmetlari borlig'i odamzot borlig'i kabi o'tkinchidir. Umuminsoniy ahamiyat kasb etadigan muhim asarlar, odamlarning ko'plab avlodlari uchun qimmatli bo'lgan moddiy madaniyat mahsullarigina o'z borlig'ini ma'lum darajada uzaytirish imkoniyatiga egadir.

Ammo tarix «birlamchi tabiat»ga xos bo'lgan vayronkor jarayonlar parchalanish, emirilish, oksidlanish va sh.k., shuningdek tez-tez takrorlanib turadigan tabiiy ofatlar va ijtimoiy tangliklar bu oz sonli imkoniyatni yanada kamaytiradi. Shunga qaramay insonning yangi narsalar yaratish jarayoni ularning yo'q bo'lish jarayonidan ildamroq kechmoqda. Shuningdek, kuni bitgan eski narsalar o'zining avvalgi borlig'ini yo'qotib, asosan chiqindi, axlatga va tabiiy muhitga yot bo'lgan o'zga lash-lushlarga aylanadi.

Pirovardida sun'iy muhit tinimsiz yangilanib, hajman ko'payadi va kengayadi, tabiiy muhitni chetga chiqarib, uning o'rnini egallay boshlaydi. Erda odamlar soni o'sgani sari bu jarayon tobora faollashib boradi.

Ammo yer, ayniqsa uning inson yashashi uchun yaroqli hududlari sayyoraning olti milliarddan ortiq aholisi uchun torlik qilmoqda. Holbuki, ko'rsatilgan vaziyatga qaramay, Er aholisi soni jadal sur'atlarda o'sishda davom etmoqda. Bu nomutanosiblik so'nggi vaqtda «birlamchi» va o'ta kattalashgan «ikkilamchi» tabiat o'rtasida yuzaga kelgan ziddiyatni yanada kuchaytirmoqda.

Noosfera. Echimini topmagan ekologik muammolar xavfi kuchayishiga qarab odamlar tang vaziyatdan chiqish yo'llari haqida ko'proq bosh qotira

boshladilar, uni bartaraf etish yo`lida muayyan qadamlar tashlashga harakat qildilar. SHu munosabat bilan to`plangan tajribadan, o`zgargan sharoitlardan o`z vaqtida chiqarilgan to`g`ri xulosalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim xulosalardan biri shundan iboratki, yaqin o`tmishda ijtimoiy hayot ikki mutlaqo zarur shart: tirikchilik vositalarini uzluksiz ishlab chiqarish va insonning ko`payishiga rioya etgan holda kechishi mumkin edi. Bunda tabiiy muhit go`yoki oldindan berilgan bo`lib, insonga nisbatan muayyan konstanta vazifasini bajarardi. Undan faqat foydalanish lozim edi.

Hozirgi davr bu tabiiy muvozanatga jiddiy tuzatish kiritdi. endi ishlab chiqarishning yangi turi – tabiiy muhitning o`zini ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishga zarurat tug`ildi, bu esa inson nafaqat ijtimoiy jarayonlarda, balki o`ziga bo`ysunuvchi tabiiy jarayonlarda ham faol asosga aylanganini anglatadi.

Jamiyat va tabiatning o`zaro aloqasida yuz bergan o`zgarishlar mohiyati, shuningdek bunday o`zaro aloqaning istiqbollari taniqli rus olimi *V.I.Vernadskiy* (XX asrning 30-40-yillarida ilmiy jihatdan ancha teran yoritib berdi. U insonning tabiatni o`zgartiruvchi faoliyati ta`sirida biosferada dunyo miqyosida yuz bergan sifat o`zgarishlariga birinchilardan bo`lib e`tiborni qaratdi va mazkur faollikning misli ko`rilmagan miqyosi va shakllarini tahlil qilib, hozirgi bosqichda insoniyat qudratli geologik kuchga aylanadi, degan xulosaga keldi¹.

Vernadskiy jamiyatga jonli va jonsiz tabiatning birligi sifatida, inson faol sub`ekt sifatida hukmronlik qiluvchi yaxlit sistema sifatida yondashib, jamiyat va tabiatning o`zaro aloqasida inson faoliyati ta`sirida yuz bergan sifat o`zgarishlarini ilmiy asoslashga harakat qildi. Jamiyat va tabiatning o`zaro aloqasida insonning oqilona faoliyati eng muhim omilga aylanadigan holatga erishishni u «noosfera» (yunon. noos – aql, idrok va sphaira – soha), ya`ni aql-idrok sohasi deb nomladi. SHundan beri noosfera insonning har qanday o`zgartiruvchi faoliyati tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tushunishga asoslanadigan va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlari bilan muvofiqlashtiriladigan materiya mavjudligi barcha shakllari birlashuvining oliy bosqichi sifatida tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu «jamiyat-tabiat» sistemasi tadrijiy rivojlanishining oliy bosqichi, hali mavjud bo`lmagan, lekin shakllana boshlagan va agar insoniyat bo`hronlar yuz berishini xohlamasa va kelajakda munosib hayot kechirishni istasa, albatta mavjud bo`lishi kerak bo`lgan bosqichdir.

Aksariyat tadqiqotchilar fikriga ko`ra, bunday bosqichga erishish jamiyat va tabiat bir yo`nalishda – o`zaro aloqasini optimallashtirish yo`lida tadrijiy rivojlanishni taqozo etadi. Mushtarak rivojlanishga tabiat va jamiyat koevolyutsiyasi deb ataladi va noosferaga erishish uning tadrijiy yakuni hisoblanadi.

¹ Каранг: Вернадский В.И. Химическое строение биосферы Земли и ее окружения – М.: 1965. – С.328.

«Noosfera» atamasi ilk bor XX asrning 20-yillaridan frantsuz olimlar E. Lerua va P.Teyyar de SHarden tomonidan ishlatila boshladi. Ular noosferaga ideal tuzilma, sayyoraning biosferadan tashqaridagi alohida «tafakkur pardasi» sifatida qaradilar. V.I.Vernadskiy «noosfera¹» tushunchasiga butunlay boshqacha ma`no yukladi. Mazkur atamani 30-yillarning boshlarida qabul qilib, u noosferaga biosferani va umuman tabiatni o`zgartirishga qaratilgan inson faoliyati natijasi sifatida yondashdi. Uning fikricha, yer atrofida kelib chiqishi antropogen xususiyatga ega bo`lgan «parda» vujudga keladi, ammo bu ideal soha emas, balki biosferaning rivojlanishidagi muayyan bosqichdir. Bunda odamlarning ongli o`zgartiruvchi faoliyati amalda mazkur rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, shu tariqa yuzaga kelgan «aql-idrok sohasi» esa moddiy hodisa hisoblanadi, chunki biosferaga ham, inson aql-idrokiga ham, uning faoliyatiga ham materialistik nuqtai nazardan yondashiladi.

Jamiyat va tabiat munosabatlarining tadrijiy rivojlanishi g`oyalari er yuzida organik, keyinchalik esa – ijtimoiy dunyoning vujudga kelishi va rivojlanishini belgilagan qonuniyatlarning yangicha talqiniga asoslanadi. Jonli va jonsiz tabiatning o`zaro aloqasi natijasi o`laroq Er litosferasi, gidrosferasi va atmosferasining yangi holati yuzaga keldiki, bu «biosfera» va «noosfera» kabi sintetik tushunchalarda o`z aksini topdi. Mazkur tushunchalarning ilmiy muomalaga kiritilishi va falsafiy asoslanishi o`zgartirilgan tabiatni tushunishda butunlay yangi bosqich bo`ldi.

O`tgan asrning 70-80-yillarida tabiat va jamiyatning o`zaro aloqasi masalalari atrofida olib borilgan qizg`in munozaralar natijasida noosfera tushunchasi hayotga qaytarildi va keyinchalik ekolog olimlarning butun bir avlodi uchun amalda metodologik mo`ljalga aylandi.

Noosferani² biosferadan ajraladigan, mustaqil mavjud bo`lgan alohida qobiq yoki borliqqa hech qanday aloqasi bo`lmagan sof nazariy konstruktsiya sifatida emas, balki biosferaning bir holatdan boshqa holatga o`tishi, buning natijasida butunlay yangicha sifat kasb etishi sifatida tushunish lozim.

Demak biosfera va noosferaning sof geografik parametrlari mos kelmaydi.

Inson raketalar, sun`iy yo`ldoshlar, orbital stantsiyalar va boshqa kosmik texnikadan foydalanib, tabiiy shakllangan biosfera chegaralaridan tashqariga chiqadi, biroq, shu biosferaning tarkibiy qismi sifatida, u o`zining mazkur harakati bilan biosfera chegaralari – uning yangi sifati chegaralarini ham kengaytiradi. Ayni vaqtda, jamiyat tabiat bilan o`zaro aloqaga kirishib, biosferaga kirib boradi, uni yangicha mazmun bilan boyitib «ijtimoiylashtiradi». Biosfera ijtimoiy borliq doirasiga tobora kuchliroq «tortiladi», uning cheksiz rivojlanish va takomillashish jarayoni esa ijtimoiy jabhaga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Bunda tabiatning bir qismi bo`lgan inson mazkur jarayonni to`xtata

¹ Raximov I, O`tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari.- T.: 2005.-B.80.

² Raximov I. O`tamurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari.- T.:2005.-B.80.

olmaydi. Zero, buning aksi inson o'z ijtimoiy borlig'ini, binobarin, insoniy borlig'ini ham to'xtatishini anglatgan bo'lar edi.

Shunday qilib, biosferaning noosferaga o'tishi avvalambor inson o'zining o'zgartiruvchi faoliyatida «**Ziyon etkazma**» degan qoidaga so'zsiz amal qilib, biosferaning ham, o'z-o'zining ham keyingi evolyutsiyasi uchun butun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga majbur ekanligini anglatadi.

Bunday vazifani hal qilish uchun jamiyat hamda «jamiyat-tabiat» sistemasi haqida keng bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. Aslida, mazkur bilimlar falsafiy, tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarning mazmunini tashkil etadi. Bunda falsafaning aksiologik jihati - qadriyatlar va axloqiy ideallarni belgilash, axloqiy qoidalar va tamoyillarni ta'riflash qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi.

O'zbekiston taraqqiyoti va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv Taraqqiyotning o'zbek modeli jamiyatning tadrijiy rivojlanishi kontseptsiyasi sifatida

I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» asarida bozor munosabatlariga o'tish davrida ommaviy noroziliklar, hatto fuqarolar urushi vujudga kelishi mumkinligini, jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun etilgan muammolarni oqilona hal etish zarurligini ko'rsatdi. Jahon tajribasi har bir mamlakat xalqlarining o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy-davlatchilik asoslarini yaratish, o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyot yo'lini belgilash. rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli butun insoniyatning ilg'or tajribasiga, xalqimizning milliy xususiyatlari va mentalitetiga tayanadi.

Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbul va yaroqsiz ekanligini, jamiyatning tadrijiy (evolyutsion) taraqqiyoti normal-tabiiy rivojlanish yo'li ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini shunday izohlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashlarsiz evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish-tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir»¹. «Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inkilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»² O'zbek modelining asosiy tamoyillari:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy siyosat;

¹Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida -T.: 1997.-B.184.

² Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li -T.: O'zbekiston, 1992. -B.10-41-46.

- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari milliy davlatchilik asoslarining barpo etilishida, milliy qadriyatlarning tiklanishida, milliy o'zlikning anglanishida, umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan ustuvorligining e'tirof etilishida, milliy mentalitet xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishida, milliy g'oya va milliy mafkura ijtimoiy-siyosiy faollikning muhim omili ekanligining e'tirof qilinishida, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquqlarining kafolatlanishida, o'z imkoniyatlariga tayanishida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishida, xorijiy mamlakatlar bilan turli sohalaridagi munosabatlarni yo'lga qo'yishning yangi printsiplari ishlab chiqilishida o'z ifodasini topdi. «Biz tanlab olgan yo'l o'zbek xalqining asriy an'analariga, odatlariga, madaniyati va tiliga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga asoslangan holda mazkur tuzilmalarni yangi mafkuraviy negizga o'tkazish, moslashtirishdan iborat edi».

O'zbek modelining hayotiyliigi jahon jamoatchiligi, etuk fan, siyosat, san'at arboblari tomonidan e'tirof qilindi.

O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy hayot va iqtisodiy rivojlanishni bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy salohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlari rivojlanishida zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish usullari milliy g'oya va mafkurada o'z ifodasini topadi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, xususiy mulkchilikni qo'llab-quvvatlash, taraqqiy etgan mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, chet mamlakatlar bilan ilmiy, madaniy va texnikaviy hamkorlikning milliy manfaatlar yo'lida xizmat qilishi milliy g'oya va mafkuraning mohiyatidan kelib chiqadi. Milliy mafkura o'zida jamiyat a'zolarining ezgu orzu-umidlarini, maqsadlarini ifodalaydi; ularning mehnat faolliigi, ijtimoiy-siyosiy aktivligini oshiradi, jamiyatni takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Davlat-jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida bir muassasadir. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim yutug'idir.

Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalarini yangicha tushunish zaruriyati vujudga keldi.

Mustaqillik yillarida milliy davlatchilik an`analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy taraqqiyot kontseptsnyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi rol' o`ynaydi.

Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga, yurtimizda huquqiy davlat, yangi demokratik jamiyat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o`tishga qaratilgandir.

«Yangi sharoitda davlatning, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining g`oyat muhim vazifasi siyosiy partiyalar, nodavlat, ijtimoiy strukturalar, fuqarolik jamiyatining endigina paydo bo`lib kelayotgan xilma-xil institutlari bilan ishlash va hamkorlik qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topishdan iboratdir».¹

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko`rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarga ajratish mumkin. Bu tashkilotlarga siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg`armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo`mitalari va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyati barpo etishga qaratilgandir.

Fuqarolik jamiyati - kishilarning yuksak ahloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko`pqirrali aloqasi bo`lib, davlat qonunlarini hurmat qilish va bajarish, jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o`zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o`ziga xos turmush tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O`zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ydi.

«Biz uchun fuqarolik jamiyati ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo`lib, u insonning o`z-o`zini kamol toptirishiga yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkynliklari to`la darajada ro`yobga chiqishiga ko`maklashadi».²

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o`z-o`zini boshqarish organlari qo`liga o`ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarni barpo etish kishilarning yuksak

¹ Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari - T.: 1997.-B.159.

² Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: 1997.-B.173.

siyosiy va huquqiy madaniyati. ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kengaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yoga chiqarish maktabidir.

Sharqda fuqarolik jamiyatining tub negizlari asta-sekinlik bilan shakllangan va taraqqiy etgan. Sharq donishmandlari ijtimoiy jarayonlarga har qanday sun'iy aralashuvning mudhish oqibatlarini ko'rsatganlar. Shuning uchun ham jamiyat hayotidagi barcha o'zgarishlar xalqlarning fikrlash tarzi, milliy an'analari, urf-odatlariga muvofiq ravishda tadrijiy ravishda ro'y bergan. Ijtimoiy adolat, tartib-intizom, aholi tinch-totuvligini ta'minlashga alohida e'tibor berilgan; hurfikrlilik, boshqa dinlarga nisbatan sabr-toqatlilik mavjud bo'lgan. Davlat fuqarolarning shaxsiy va oilaviy hayotiga deyarli aralashmagan.

Savdo-sotiq, hunarmandchilik, odob-axloq, milliy an'analar asosida rivojlangan. Davlat dehqonchilik ishlab chiqarishi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan sun'iy sug'orish inshootlari qurishga bevosita rahnamolik qilgan. SHarqda odamlar asrlar davomida jamoa bo'lib yashagan va mehnat qilgan, jamoatchilik asoslari xalq ongiga chuqur singib ketgan.¹ Fuqarolik jamiyatida davlatning ayrim muhim vazifalari saqlanib qoladi, u jamiyat bilan yonma-yon yashashda davom etadi.

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida ma'naviy etuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. SHunday etuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Milliy istiqlol g'oyasining hayotbaxshligi taraqqiyotning O'zbek modelini amalga oshirishda yakqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston — ulkan imkoniyatlar mamlakati. Bu zaminda tabiiy boyliklar, unumdor er, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy saloyuiyat mavjud. eng muhimi, bu diyorda mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi.

O'zbekiston – o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat. Bu yo'l jahonda O'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolyutsion – tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

O'zbek modelining asoschisi Islom Karimov rahbarligida amalga oshirilayotgan taraqqiyot yo'lining ko'pchilik boshqa milliy modellardan farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir. Shu sababdan, u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladi.

¹Karimov I. A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.-T.: O'zbekiston, 1993.-B.106..

O'zbek modeli tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiy nazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi (davlat siyosati deganda hokimiyatning har uchala bo'g'ini faoliyati nazarda tutilmoqda).

Demak, ushbu taraqqiyot modeli o'zining nazariy va amaliy jihatlariga ega. Uning nazariy jihati mamlakatning yuzaga chiqqan salohiyat va imkoniyatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlari rivoji, infratuzilmasi, yurtimizning tabiiy boyliklari, demografik vaziyati, aholining ongi, bilimi, kasbiy salohiyati kabi omillarni hisobga olgan holda rivojlanish kontseptsiyasini, oddiy til bilan aytganda, bizning o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limizni asoslaydi. U bir necha nisbatan mustaqil yo'nalishlardan iborat: iqtisodiy siyosat tamoyillari va makroiqtisodiy nazariya; davlat qurilishi va jamiyatni demokratiyalash tamoyillari; mulkdorlar sinfini shakllantirish va ijtimoiy stratifikatsiyani (jamiyatning ijtimoiy, tabaqaviy tuzilmasi) takomillashtirish tamoyillari; milliy g'oya, milliy mafkura kontseptsiyasi va ma'naviy-madaniy rivojlanish masalalari; tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tamoyillari va xokazo.

Modelning amaliy tomoni ham bir necha yo'nalishlarga ega:

1. Islohotlarning huquqiy bazasini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan siyosat;
1. Davlatning nazariy xulosalarni, muljallarni amalga oshirish yuzasidan tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o'zida aks ettirgan farmonlar, qarorlar, maqsadli dasturlarni (shu jumladan investitsiya dasturlarini) kabul qilishi;
1. Amaldagi investitsiya siyosati, soliq siyosati, moliya-kredit siyosati, iqtisodiy-tarkibiy siyosat, fond bozorini, kimmatli kog'ozlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish, iste'mol bozoriga ta'sir ko'rsatish va xokazo;
1. Farmonlar va xukumat qarorlari mohiyatini odamlarga to'g'ri etkazish, ularni birlashtirish, ularda eski tuzum inertsiyasini engishga qodir irodani shakllantirish borasida targ'ibiy-tashviqiy va tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish.

Xo'sh, O'zbek modelining asosiy ustuvor xususiyatlari nimalardan iborat O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, balki milliy davlatchilik asoslarini, milliy qadriyatlarini, xalqning o'zligi va g'ururini qayta tiklashi, rivojlantirishi, jamiyatning ijtimoiy-sinfy tuzilmasini tubdan yangilashi va mustaqillik g'oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalarni ham hal etishi lozim edi.

Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Frantsiya, Xitoy kabi mamlakatlarning taraqqiyot modellari ko`proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu mamlakatlarning birortasida, iqtisodiy islohotlar davrida, milliy davlatchilikni, madaniy merosni va ona tilini tiklash singari masalalar ham dolzarb bo`lmagan (faqat Janubiy Koreyada davlat qurilishi muhim ahamiyat kasb etgan).

Shunday qilib, o`zbek modeli iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan birga, davlat qurilishi, jamiyatni demokratiyalashtirish, mulkdorlar sinfini va xususan, o`rta sinfni shakllantirish, ijtimoiy-sinfy tuzilmani takomillashtirish va kadrlar tayyorlash, madaniy meros va ma`naviyat bilan bog`liq jihatlari singari bir qator keng qamrovli hayot sohalarini qamrab oladi. Bu uning o`ziga hos ustuvor xususiyatlaridan biridir.

Istiqlolning dastlabki yillarida Prezident Islom Karimov rahbarligida islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o`tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. SHu tariqa jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi:

Birinchi tamoyil iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo`ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo`lishi lozim.

Birinchi tamoyil. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi O`zbek modelining tamoyili nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini aks ettiradi, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg`or tajribalar va oqilona tashabbuslarga ochiqligini ham ko`rsatadi.

Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish iqtisodiy munosabatlarni to`g`ri tushunish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishning omilidir. U ob`ektiv iqtisodiy qonunlarni tan olishga, mulkchilik shakllariga, taqsimotga nisbatan sub`ektiv munosabatdan qutulishga ma`naviy shart-sharoit yaratadi. Islom Karimov ta`kidlagani kabi: «Mafkuraviy aqidalarni bartaraf etish xo`jalik yuritishning turli ijtimoiy shakllariga nisbatan xayrixoh bo`lgan ijtimoiy fikrning, bozor munosabatlariga mos bo`lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishiga ko`maklashadi».

Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma`naviyatning ahamiyati nechog`lik muhim ekanini, uning nozik qirralarini ochib beradi.

Ikkinchi tamoyil. Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo`nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o`zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.

Mustabid tuzum asoratlaridan xalos bo`lish jarayonida o`zini o`zi tartibga soladigan etuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib

qolmaydi. Shu boisdan ma`muriy-buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish, bu yo`ldagi turli ziddiyat va qarshiliklarni engib o`tish, yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o`tish davri kerak. Ziddiyatlarga boy bo`lgan o`tish davri sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o`z holiga tashlab qo`yib bo`lmaydi.

Islom Karimov, o`zbek modelining mazkur tamoyilini ilmiy asoslar ekan, quyidagilarni ta`kidlaydi: «o`tish davrida davlat xalq xo`jaligining, Ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo`llab-kuvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko`rsatish yo`li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim».

Bu so`zlar davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarning, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlarining, alohida shaxslarning islohotchilik tashabbuslari va faoliyatlari cheklanmasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil. Jamiyat hayotining barcha soxlarida qonunning ustuvorligi. Demokratik yo`l bilan kabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og`ishmay rioya etishi lozim.

Birinchidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining teng huquqiy asosda rivojlanishini ta`minlaydi. Mulkchilik shakllari va xo`jalik yurituvchi sub`ektlar o`rtasidagi munosabatlar, raqobat kat`iy huquqiy me`yorlar yordamida tartibga solinadi. Iqtisodiyotni boshqarishda o`zboshimchalik va sub`ektivizmga, turli iqtisodiy zo`ravonliklarga yo`l qo`ymaslik uchun zarur huquqiy shart-sharoit vujudga keladi. Ikkinchidan, demokratiya rivojlanadi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi rivoji, mafkuraviy plyuralizm qaror topishi uchun huquqiy kafolat paydo bo`ladi. Inson huquqlari ta`minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga yoki aksincha, kamsitilishlarga chek qo`yiladi. Uchinchidan, alohida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari to`liqroq hisobga olinadi va ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, ijodiy salohiyati samaraliroq ruyobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining o`rni va ahamiyati yil sayin ortib boradi. Fuqarolik jamiyati shakllanadi. Demak, qonunning ustuvorligi tamoyili, keng ma`noda, O`zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyat yangilanishiga, inson shaxsining yuksalishiga xizmat qiladi.

O`zbek modelining mazkur tamoyili o`zidan avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog`liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning asosiy kafili bo`ladi. Ushbu tamoyil jamiyat hayotida birdaniga to`liq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning to`liq qaror topishi uchun o`zaro mushtarak bo`lgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. jamiyatning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan puxta va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi;
1. jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligi darajasi va qonunga itoatgo'yiligining yuksak bo'lishi;
1. mavjud qonunlarni hayotga tatbiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

To'rtinchi tamoyil. Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinlari yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'minlashgacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish O'zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir.

Beshinchi tamoyil. Bozor iqtisodiyotiga ob'ektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o'ylab, bosqichma-bosqich o'tish. Bu ish islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirish, aholini ijtimoiy himoyalash va uning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish bilan birga olib borilishi lozim. «Soxta inqilobiy sakrashlarsiz evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish-tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir»¹. «Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inkilobiy qayta o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar qanchalik qulay bo'lishiga, aholining mehnat faoliyatiga bog'liqdir»²

Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. U uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo'lib, tegishli infrastrukturani va huquqiy asosni yaratishnigina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o'zgarishlarni, xo'jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslashni ham ko'zda tutadi.

O'zbekistonda aynan shunday yo'l tutildi. Bunday siyosat yuritish nafaqat mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bermogda, shuningdek,

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlarini.-T.: 1997 -B.184.

² Karimov I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li -T.: O'zbekiston, 1992. -B.10-41-46.

odamlarning safarbarligini oshirmoqda, ijtimoiy larzalarning oldini olmoqda, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlantirmoqda.

Ushbu tamoyillar O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosini, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta'minlamoqda. Taraqqiyotning O'zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an'analari, qadriyatlar va mentalitetiga tayangani, ayni vaqtda, jamiyatni isloh etish borasidagi dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslangani tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Xullas, milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda barpo etilayotgan jamiyat va taraqqiyotning O'zbek modeli bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida bu g'oya xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi omil, ijtimoiy faoliyatning ma'naviy mezoni sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishish bilan deyarli bir asrdan ko'proq davom etgan tashqi olamdan uzilishga barham berildi. o'z vaqtida, Chor hukumatining bosqinchilik siyosati natijasida Qo'qon xonligi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi, deb atalgan odatiy mustamlaka hudud tashkil etilgan edi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi protektoratga aylantirilgan edi. Ular tashqi dunyo bilan mustaqil aloqalar o'rnatish huquqidan mahrum etilgan. Sho'rolar davrida xalqaro – siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa munosabatlarda markaz imtiyozli huquqlarga ega bo'lgan. O'zbekiston SSR ularni tegishli ittifoq tuzilmalari orqaligina amalga oshirgan. Shu bilan birga O'zbekiston sho'rolar ittifoqi ichidagi mehnat taqsimotida paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, paxta hamda boshqa milliy boyliklar – oltin, rangli metall va h.k.larni eksport qilish faqat ittifoq organlari tomonidan olib borilgan.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilinishi bilan u xalqoro munosabatlarning teng huquqli sub'ektiga aylandi. U jahonning 182 mamlakati tomonidan tan olingan, 142 mamlakat bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan¹. Ko'pgina xalqaro, davlatlararo va nodavlat tashkilotlarining vakolatxonalari ochilgan. O'zining tashqi iqtisodiy strategiyasi ishlab chiqilgan, mamlakatning milliy va geostrategik manfaatlarini, milliy xavfsizlik konsepsiyasi aniqlangan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari uning Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. Ular davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa

¹ Adhamjon Yunusov, Yakov Umanshy, D.Zainutdinova. National Interest and Pragmatish in the Foreign Policy of Uzbekistan//Burling. A common Future: Indian and Uzbek Perspectives in security and Economic Issuls. Delhi, 1999.P.31.

qaoidalari va normalariga asoslanadi¹. Respublikamizning tashqi siyosatiga mafkuradan xolislik, ochiqlik xos – u Sharq va G‘arbning barcha mamlakatlari bilan, ularning mafkuraviy va boshqa mo‘ljallaridan qat’iy nazar, xalqaro huquq tamoyillari va qoidalari asosida hamkorlik qilishga tayyor.

Tashqi siyosat mamalakatning ichki hayoti uchun osoyishta sharoitlarni yaratib berish, yangi jamiyatni shakllantirish maqsadida chuqur islohotlarni amalga oshirishga, shuningdek, milliy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. U xalqaro munosabatlarning barcha asosiy yo‘nalishlari va xillari – siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy, fan va texnika sohasi va h.k. larni qamrab oladi. Shundan kelib chiqqan holda oldiga mamlakatni jahondagi siyosiy, madaniy-intellektual, iqtisodiy makonga integratsiyasini ta'minlash vazifasini qo‘yadi. O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatini XXI asrda yuzaga kelgan jahondagi xalqaro barqarorlikka tahdidlar, mojaroli vaziyatlar xususiyatlaridagi keskin o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qurmoqda. Endilikda xalqaro terrorizm, mintaqaviy ekstremizm, separatizm va narkotrafik tahdidi, shuningdek, yadro va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalishi miqyoslari jadal kengayib bormoqda. Bu esa mojaroli vaziyatlarni hal etishda yangicha yondoshuv va uslublarni talab qilmoqda. 2002 yil 11 sentyabrda Nyu-Yorkda, 2005 yil may oyida Londonda sodir etilgan va minglab kishilarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan terroristik aktlar, boshqa mamlakatlarda ham terrorizmning avj olishi buning tasdig‘i bo‘lib, bunday tahdidlarga qarshi kurashda xalqaro kuchlarning birlashuviga va xavfsizlikni ta'minlashning yangicha uslublarini izlab topilishiga olib keldi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarning izchil amalga oshirilishi, ob‘ektiv xarakterdagi qiyinchiliklarning bartaraf etilishi respublikamizni ijtimoiy hayoti bozor iqtisodiyoti va demokratik tizimga asoslangan ilg‘or davlatlar qatoriga olib chiqish kerak.

O‘zbekistonning siyosiy munosabatlar, diplomatik faoliyat sohasidagi muhim yo‘nalishlaridan biri – davlatlararo, shuningdek, nodavlat xalqaro tashkilotlar ishidagi ishtirokidir. Bu, eng avvalo, BMT va yevropa Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YEXHT) tuzilmalariga taalluqli. O‘zbekiston 1992 yildan boshlab BMTning a'zosi. Respublika yevropada xavfsizlik va hamkorlik Kengashining yakuniy bitimini imzolagan. O‘zbekiston Parlamenti yeXHTning parlamentlararo ittifoqi va parlament assambleyasining a'zosi. O‘zbekiston qo‘shilmaslik harakatining a'zosi sifatida hech qachon harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi.

Tegishli bitim va kelishuvlar asosida ikkiyoqlama va ko‘ptomonlama davlatlararo munosabatlarni qaror toptirishi tashqi siyosiy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. MDH doirasidagi faoliyat ustuvor ahamiyat kasb etadi. MDH mamlakatlari bilan ikkiyoqlama o‘zaro manfaatli aloqalar ayniqsa samaralidir. Unda Rossiya bilan o‘rnatilgan aloqalar muhim ahamiyatga ega.

¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 17-modda - T., O‘zbekiston, 2003.- B.6.

O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan yana biri Markaziy Osiyo suveren davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashdan iborat. Ular bilan o‘rnatilgan aloqalar tarixiy taqdirining birligi, chegaralarning umumiyligi, madaniyat, til, urf-odat va an‘analarning yaqinligiga asoslanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning umumiyligi bilan belgilanadi xamda ularga Hind, Atlantika va tinch okeani portlariga chiqadigan transport kommunikatsiyasi va quvurlarning yagona tizimini vujudga keltirish; mintaqadagi suv va energiya zahiralardan oqilona foydalanish; dolzarb ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishda sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish; sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimini rivojlantirish; xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi harakatlarni birlashtirish kabilar kiradi. Mintaqada yashovchi barcha xalqlarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda Markaziy Osiyoda yagona iqtisodiy, ma‘naviy va siyosiy muhitning barpo etilishi – davr taqozosidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab sovet davrida uzilib qolgan chyeegaradosh va yaqin sharq mamalakatlari bilan aloqalarni qayta tiklashga alohida e‘tibor qaratib kelmoqda. Bu borada xalqaro aksilterroristik koalitsiya yordamida Afg‘onistonda 20 yil davom etib kelgan urushga chek qo‘yilishi, mamlakatni xalqaro terroristlar, ekstremistlar va aqidaparastlar poligoniga aylantirgan, Markaziy Osiyo mintaqasi va butun dunyo barqarorligiga tahdid solib turgan tolibonlar hukumatining yo‘q qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu yerda hukumat tepasiga kelgan yangi siyosiy boshliqlar mamlakatdagi etnik, hududiy va diniy kuchlarni tinchlik, barqarorlik, taraqqiyot va keyingi sivilizatsion rivojlanishni ta‘minlash yo‘lida birlashtira olsa, Afg‘onistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi integratsion jarayonning tarkibiy qismlaridan biriga aylanish imkoniyatlari vujudga keladi.

O‘zbekistonning boshqa Osiyo mamlakatlari, xususan Xitoy va Hindiston bilan aloqalari keng shartnomaviy asosda qurilmoqda. Shu munosabat bilan respublikamizning 2003 yilda tashkil topgan va Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya va Xitoyni birlashtirgan Shanxay Hamkorlik tashkiloti (ShHO)ga a‘zo bo‘lib kirishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu nufuzli tashkilotning bosh vazifasi xalqaro terrorizm, keskin, tajovuzkor fundamentalizm va separatizmga, narkotrafik va yuushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘lib, shu maqsadda uning doirasida shtab kvartirasi Toshkentda joylashgan mintaqaviy aksilterroristik markaz tashkil etildi. Istiqbolda ShHO faoliyatining so‘nggi maqsadi mintaqada yashovchi xalqlarning turmush sharoitlarini yaxshilash va munosib kelajakni ta‘minlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy vektorning salmog‘i oshirib borishga qaratiladi.

O‘zbekiston Janubiy-Sharqning yangi industrial mamlakatlari bilan ham faol aloqalarni o‘rnatgan bo‘lib, mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalashni jadallashtirishda ularning tajribasidan foydalanish va investitsiyalarini jalb etishdan manfaatdordir.

O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan teng huquqli aloqalarining o'rnatilishi alohida ahamiyatga ega. Uning AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Italiya va boshqa yetakchi mamlakatlar bilan o'zaro aloqalari kengayib bormoqda. Bu zamonaviy texnologiyalarga yangi investitsiyalarni jalb etishga, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi yangi mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojiga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun yo'l ochadi. Xalqaro tashkilotlar doirasida samarali siyosiy faoliyati, xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqli ikki tomonlama va ko'ptomonlama aloqalarning o'rnatilishi respublikamizning xalqaro madaniy makonga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Madaniy aloqalar sohasida mamlakatimizning jahonga dunyoviy sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri, umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan boy madaniy qadriyatlarning egasi sifatida qaytadan ochilishi nihoyatda muhimdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabzdagi tarixiy-arxitektura obidalari nafaqat bizning milliy boyligimiz, balki inson ruhining buyuk ijodi, uning bunyodkorlik imkoniyatlarining guvohi sifatida butun insoniyatga tegishlidir. Shu o'rinda bunday yodgorliklarning mamlakatimiz iqtisodining tarmoqlaridan bo'lgan xalqaro turizm va turistik industriya tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmaganini ta'kidlash joizdir. YuNeSKO rahbarligida xalqaro miqyosda Amir Temur tavalludining 660-yilligi, Buxoro va Xivaning 2500-yilliklarining nishonlanganligi ham jahon madaniyati rivojida o'zbek xalqining o'рни va ahamiyatining tan olinganligidan dalolat beradi.

Respublikamizning jahon iqtisodiy hayotiga integratsiyasi muammolari nihoyatda muhimdir. Mustaqillik yillarida bozor shart-sharoitlari doirasida amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy va normativ hujjatlari qabul qilindi. Respublika o'zining tashqi iqtisodiy siyosatini eng avvalo, ko'pgina nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning a'zosi sifatida amalga oshiradi. Bu esa bir qator yirik transnatsional va mintaqaviy loyihalarni hamjihatlikda amalga oshirish imkoniyatini beradi. Xususan, O'zbekiston uchun Hind va tinch okeanlaridagi, Qora dengiz va O'rta dengizdagi, Fors ko'rfazidagi katta portlarga chiqishni ta'minlaydigan davlatlararo avtomobil va temir yo'l magistrallari qurilishida ishtirok etish nihoyatda muhimdir.

Sharq va G'arb, Shimol va Janubdan o'tuvchi yo'llar chorrahasida joylashgan O'zbekiston, o'zining geosiyosiy mavqeidan kelib chiqib, faqatgina vositachi ko'prik sifatidagina emas, balki o'zining raqobatbardosh mahsulotlari va ishlab chiqarishni eksport sektorini rivojlantirishi orqali zamonaviy tarzda Buyuk Ipak yo'li marshrutini tiklashni maqsad qilib qo'ygan. Bu respublikamizning xalqaro savdo tizimida o'z o'rnini topishga imkoniyat beradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga tobora ko'proq ochiqlik xos bo'lib bormoqda. Xorijiy sarmoyalarning kiritilishi, qulay shart-sharoitlar, sarmoyadorlar uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilmoqda. Xorijiy hamkorlar ishtirokida ko'pgina qo'shma korxonalar, ishga tushirildi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «O‘zbekiston», 2003 yil, 15-bet.
2. Islom Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T., «O‘zbekiston», 1992 yil.
3. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O‘zbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
4. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
5. Falsafa. O‘quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.

15-MAVZU: IJTIMOYIY TARAQQIYOTNING SUB'EKTLARI VA XARAKATLANTIRUVCHI KUHLARI (2 S.)

Reja:

1. Jamiyat qonunlari ularning namoyon bo'lish shart-sharoitlari.
2. Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy tarixiy jarayon sifatida. Ijtimoiy ehtiyojlar, manfaatlar taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi sifatida.
3. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektlari. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektlari va xarakatlantiruvchi kuchlari to'g'risidagi qarashlar.
4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kishilardan jamiyat rivojlanishi qonunlarining shakllanish xususiyatdari.

Jamiyat qonunlari bilan ularning namoyon bo'lish shart-sharoitlarining o'zaro bog'liqligi muammosi hozirgi kunda O'zbekiston amaliyotida muhim o'rin tutadi.

XX asrning oxiriga kelib "dunyo xaritasida yangi mustaqil davlat paydo bo'ldi. Ular, hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o'tmishga ega bo'lgan, o'z siyosiy mustaqilliginitinch yo'l bilan qo'lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga qadam qo'ydi. Ular dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o'z mavqeyini mustahkamlashga intilmoqda. Tenglar orasida teng bo'lishga, jahon maydonining tarkibiy qismiga aylanishga xarakat qilmoqda. Bu davlatlar oldida muvaffaqiyatsiz, chippakka chiqqan tarixiy tajribaning fojiali oqibatlarini qisqa davr ichida bartaraf etish vazifasi turibdi. Ular zamonaviy bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan, odamlar munosib turmush kechirishini ta'minlay oladigan, insonning xuquq va erkinliklari ximoya qila oladigan chinakam demokratik jamiyat qurishdek murakkab vazifani hal etishi zarur" ekanligini, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitning jamiyat qonunlarining amal qilishga, ro'yobga chiqishiga bo'lgan ta'sirini nazariy jixatdan chuqur o'rganishga talab qilmoqda. Eski tuzumda amal qilgan qonun va nazariyalarni inkor etib, bugun ijtimoiy xayotimizda ro'y berayotgan muhim va chuqur o'zgarishlarni zamon talabalari asosida atroflicha tushuntirib beradigan yangi ilmiy g'oyalar, prinsiplar, nazariyalarni yaratish zarur. Bu nazariyalarning qanchalik xaqiqatligi, to'g'riligi aynan shu shart-sharoit muammosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Avvalo, "qonunlarning amal qilish shart-sharoiti" deganda nima tushuniladi? Qonunlarning amal qilishida, ro'yobga chiqishida har xil sharoitlar bir xil ahamiyat kasb etadimi? Umuman, qonunlarning namoyon bo'lishida shart-sharoitning ta'sirini qanday bilish va hisobga olish mumkin? Ushbu savollarga javob topish hozirgi kundagi eng dolzarb iqtisodiy-falsafiy muammalardan hisoblanadi.

Biz yuqorida qonunga ta'rif berganimizda, uning tuzilishiga "shart-sharoit" tushunchasini ham qiritgandik. Ya'ni har qanday qonun ma'lum shart-

sharoitda ijtimoiy hodisa va jarayonlar rivojlanishining tabiati va yo'nalishini belgilab beradi. Shunday ekan "shart-sharoit" tushunchasi qonunlarning ta'sir doirasi, qonun namoyon bo'lish shakli bilan o'zaro nisbati, umumiy va juz'iy qonunlarning o'zaro aloqadorligi, tarixiy xususiyati, qonunlarni bilish va ulardan amalda foydalanish masalalarini o'rganish va ularning mohiyatini ochib berish uchun kalit bo'lib xizmat qiladi. Xullas, qonun muammosini o'rganishning hamma jixatlari "shart-sharoit" tushunchasi bilan umumiy, muhim va zaruriy aloqada bo'lib, bunda "shart-sharoit" tushunchasi "qonun" kategoriyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Har qanday ijtimoiy hodisa va jarayonlarning rivojlanishi nafaqat qonunlar bilan, balki ma'lum tarixiy shart-sharoit bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ijtimoiy jarayonlarni ilmiy bilish va boshqarish vazifasi faqat qonunlarni emas, balki shu qonunlar ta'sirini belgilab beradigan shart-sharoitni ham chuqur va batafsil o'rganishni talab etadi.

Shunday ekan, biz o'z tadqiqotimizda "shart-sharoit" tushunchasini hamda uning qonunlar bilan o'zaro aloqadorligi va munosabati masalasini atroflicha ko'rib chiqishni zarur deb topdik. Bu masala nafaqat qonun muammosini balki bugun mamlakatimizda olib borilayotgan isloxlarning mazmuni, mohiyati va bozor munosabatlariga o'tishning O'zbekiston modeliga xos jixatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

"Qonun" kategoriyasi quyidagi uchta tarkibiy qismdan iborat: 1) qonunga bo'ysunadigan voqeya va hodisalar, 2) qonun tomonidan belgilanadigan aloqalar va bog'lanishlar hamda 3) shu bog'lanishlarni belgilab beradigan muayyan shart-sharoitlar.

Bizga ma'lumki, hodisa – turli xususiyatga ega bo'lgan bog'lanishlar va aloqador tomonlarning birligi, qonun esa hodisadagi turli xil aloqalar va bog'lanishlarning barchasini emas, faqat ayrimlarini, ya'ni biz yuqorida aytib o'tganlarini aks ettiradi. O'z-o'zidan ravshanki, hodisaning qolgan barcha bog'lanishlari, tomonlari qonunning ro'yobga chiqishi, amal qilishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Qonunning shart-sharoit bilan bog'liqligi masalasi qonunlarning o'zaro aloqadorligi masalasi bilan uzviydir. Chunki ijtimoiy borliq, undagi hodisa va jarayonlar, ular o'rtasidagi aloqadorlik va bog'lanishlarni kuzatsak, jamiyatning bir tizimidagi qonunlar uning ikkinchi tizimidagi qonunlarga shart-sharoit bo'lishini payqaymiz.

Jamiyat doimo yaxlit bir tizim shaklida mavjud bo'lib, uning har bir tizimidagi o'zgarishlar, rivojlanishlar ikkinchi bir tizimdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunga misol qilib respublikamizning bugungi hayotini olishimiz mumkin. Unda iqtisodiy islohatlar siyosiy islohotlarga, siyosiy islohotlar esa huquqiy islohotlarga, ularning samarali natijalar berishiga qulay shart-sharoit bo'lib xizmat qilmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda, "shart-sharoit" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Ijtimoiy shart-sharoit deb ijtimoiy borliqdagi voqeya, hodisa va jarayonlarning vujudga kelishi, amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmuiga aytiladi. Bu ta'rifda biz,

falsafiy adabiyotda shu kungacha mavjud nuqtai nazarlardan farqli o'laroq, "shart-sharoit" tushunchasiga sub'ektiv omillarni ham kiritdik, chunki sub'ektiv omil, eng, avvalo, inson va uning ongli faoliyati bo'lib, shart-sharoitni vujudga keltirishda asosiy, belgilovchi kuchlardan biri hisoblanadi. Har qanday ob'ektiv shart-sharoit inson, ya'ni sub'ektiv omillar tufayli vujudga keladi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilishga qaratilgan besh asosiy prinsip mamlakatimizning o'tish davrida rivojlanishini belgilab beruvchi ob'ektiv qonunlarning ruyobga chiqishi uchun asosiy, hal qiluvchi shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni ana shu besh prinsip "o'z istiqloq, rivojlanish va taraqqiyot yo'limizga asos qilib olingan bo'lib, o'tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozir bu qoidalarning amalga oshirilishi respublikada ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng uhami, bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil rakat qilishni ta'minlaydi".

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz tomonidan ishlab qilgan mazkur besh prinsip aynan ana shu ob'ektiv tarixiy suratni to'g'ri anglash, chuqur ilmiy bilish, iqtisodiyotning rivojlanish qonunlarini hamda shu qonuniyatlarning sababini o'z vaqtida va atroflicha tahlil qilish asosida yaratilgan.

Sobiq sho'rolar tuzumi tanazzulga yuz tutganidan so'ng uning o'rnida vujudga kelgan mustaqil davlatlarning deyarli barchasi o'z oldiga bozor munosabatlariga asoslangan xuquqiy demokratik davlat qo'rish vazifasini qo'ydi. Mana shu qisqa vaqt ichida ushbu davlatlarning erishgan natijalarini qiyosiy tashkil etadigan bo'lsak, ularning bir-biridan keskin farq etishini ko'ramiz.

Bozor iqtisodiyotining qonunlari va qoidalari mavjud. Bu qonun va qoidalarning amal qilishi, namoyon bo'lishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishga asos bo'ladigan konsepsiyani ishlab chiqish lozim edi. Ko'pgina sobiq Respublikalar ana shunday tayyorgarliksiz asosiy bo'lmagan "shart-sharoitlar"ni yaratishga kirishdilar. Masalan, Rossiyada 1992 yil 1 yanvarida bozor munosabatlarining asosiy shartlaridan biri bo'lgan uning infrastrukturasi yaratilmasdan turib, nurxlar to'liq erkinlashtirib yuborildi. Natijada iqtisodiyot chuqur tanazzulga yuz tutdi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlar vujudga kelishining sabablariga qarab shu hodisalarni, voqyealarni keltirib chiqaradigan bosh shart-sharoitlar bo'ladi. Respublikamiz, xalqimiz uchun ana shunday bosh shart-sharoit mustaqillikdir. Chuqur o'zgarishlar bizning hayotimizga shiddat bilan qirib bormoqda. Sodir bo'layotgan tub siljishlar dinyoning hozirgi qiyofasini o'zgartirib yubormoqda. Xalqlarning ozodlik, mustaqillik va baxt-saodatga azaliy intilishi, o'z taqdirini o'zi belgilashga azmu qarori mana shunday o'zgarishlarning harakatga keltiruvchi kuchidir. O'zbekiston chinakam mustaqillikka erishish maqsadida birinchilar qatori bildirganligini jonajon o'lkamiz uchun faxr-iftixor tuyg'usi bilan qayd etib o'tish kerak. Sobiq Ittifoqdagi Respublikalardan birinchi bo'lib prezidentlik boshqaruvini yanada joriy etgan ham, keng miqyosdagi isloxlarni

amalga keltirish, jamiyatni tubdan o'zgartirish va yanilash yo'liga o'tib ham bizning respublika bo'ldi".

O'zbek xalqining ajralmas xuquqi, o'z taqdirini o'zi belgalash xuquqi ro'yobga chiqarildi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining hamma sohalarida amalga oshirilayotgan izlanishlar imkoniyati faqat mustaqillik tufayligina vujudga keldi. Mustaqillik o'zbek xalqining o'z taqdirini o'zi belgilashi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Faqat mustaqillik tufayligina sobiq sho'rolarning totalitar siyosiy tizimidan demokratik jamiyatga o'tish uchun, planli iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish uchun qulay shart-sharoit vujudga keldi. Mustaqillik bizning jamiyatimiz uchun yana "zaruriy shart – sharoit" ham xisoblanadi. "Zaruriy shart-sharoit" deganda biz sabab va oqibat zanjiridagi bog'lavchi xalqani tushunamiz. Chunki faqat "zaruriy shart-sharoit" dagina ma'lum oqibatlar vujudga kelishi mumkin. Mustaqillikgimizning "zaruriy shart-sharoiti", avvalo, iqtisodiyotimizda mustaqillikka erishmog'imiz zarurligidir. Bu mustaqil davlatning zaruriy sharti, avvalo shu mamlakat iqtisodiyotining mustaqil bo'lishi .. ligini bildiradi. Biz o'z xalq xo'jaligimizni yaratib, xam iqtisodiy ixtiyojlarimizni ya'ni mustaqil ishlab chiqarish munosabatlarimizni yo'lga qo'yish asosida xalqi xo'jaligining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlashimiz mumkin bo'ladi.

Jamiyat qonunlarining amal qilishi va ta'sir shakllarining qay tarzda kechishi, avvalo, shart-sharoitga bevosita bog'liqdir.

Jamiyat qonunlarining ta'siri va namoyon bo'lishi, ba'zan anglangan, ba'zan esa anglanmagan shaklda ro'yobga chiqadi. Jamiyat rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon sifatida ikki siyosiy xususiyatga ega.

Birinchi, odamlar o'z tarixlarini faqat ma'lum ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitda yaratadilar. Har bir avlod undan ilgari avlod yaratgan va ma'naviy boyliklarga ega bo'ladi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini rivodlantirib borish uchun o'tmish avlodlar faoliyatiga tayanib ish ko'radi.

Ikkinchi, inson moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish jarayonini jamiyatning uzoq kelajakdagi oqibatlarini hisobga olib emas, balki o'zining shaxsiy va guruxiy ehtiyoj hamda manfaatlaridan kelib chiqqan holdatakomillashtirib boradi. Shu jarayonda kishilarning turli xil manfaatlari ba'zan to'qnash kelib qoladi. Albatta, inson har bir xatti-xarakati bilan ma'lum maqsadni ko'zlasada, ushbu maqsadga kamdan-kam holatlardagina erishadi. Ko'pincha inson faoliyatining natijasi kutilmagan salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu shundan dalolat beradiki, har bir avlod ijtimoiy hayotga qadam qo'yar ekan, jamiyatda muqim o'rnatilgan munosabatlarga duch keladi va o'z hoxishirodasiga qarshi ravishda unga bo'ysunishga majbur bo'ladi. Bu o'rinda biz qonunlarning anglanmagan rivishda amal qilishini kuzatamiz.

Jamiyat qonunlarining anglangan kuch shaklida namoyon bo'lishiga, avvalo, jamiyat va inson tomonidan ongli rivishda ba'zi qonunlar ta'sir doirasini cheklash va ba'zilar uchun esa, aksincha, keng sharoit yaratish orqali erishiladi. Jumladan "O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li

respublikani rivojlantirishning... asosiy o‘ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi”.

Inson jamiyat qonunlarning ob'ektiv talablarini va ular amal qilishi uchun qulay shart-sharoit yaratish zarurligini anglab yetmas ekan, bu qonunlar uning xoxish-irodasiga teskari ta'sir etish orqali uni o‘zining passiv qo‘liga aylantirib qo‘yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida kishilardan jamiyat rivojlanishi qonunlarining xususiyatini, ta'sir kuchini va namoyon bo‘lish shakllarini chuqur bilish talab qilinadi. Xususan kishilar: 1) ijtimoiy jarayon va hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini va ulardan kelib chiqadigan ob'ektiv talablarni; 2) bu ob'ektiv talablarni anglab yetish natijalarining ijtimoiy jarayonlarni rejalashtirishda va boshqalarda aks etishini; 3) jamiyat va insonlar uchun oldindan ko‘zlangan maqsadlarga, natijalarga erishish yo‘llarini anglashlari zarur.

Shuning uchun ham ijtimoiy jarayonlarni, tarixiy hodisalarni oldindan ko‘rish, bashorat qilish imkoniyati, avvalo, aloxida bir mamlakat rivojining, ma'lum tarixiy davrlar, ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini umumlashtirish asosida yuzaga keladi. Ayni paytda shuni alohida ta'kidlab o‘tish zarurki, tarixiy jarayonlarni oldindan ko‘ra bilishning dastlabki sharti ijtimoiy hodisalar o‘rtasidagi ob'ektiv aloqadorlikni anglashdir. Biroq har qanday ilmiy bashoratning poydevorini qonunlar tashkil qiladi, chunki ular hodisalar, jarayonlar o‘rtasidagi ichki, zaruriy, muxim bog‘lanishlarni va aloqadorliklarni ochib beradi, shu asosda ijtimoiy hodisa hamda jarayonlar tarixini va hozirgi holatni bilish orqali ularning kelajagini taxmin qilish mumkin bo‘ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan bugungi tub islohatlar –agar ular iqtisodiyotida bo‘lsa, iqtisodiy qonunlarning; sotsial sohada bo‘lsa, ijtimoiy qonunlarning – xuddi shu tariqa siyosiy, axloqiy, ekologik va demografik qonunlarning ob'ektiv talablarini o‘z vaqtida bilishni va ulardan amaliy faoliyatimizda, jamiyatimiz va fuqarolarimizning ehtiyoj va manfaatlari yo‘lida foydalanishimizni taqozo etadi.

Kishilarning jamiyat qonunlarini bilishga va ulardan o‘z amaliy faoliyatida foydalanishga intilishlari tabiiydir. Lekin ijtimoiy jarayonlar juda murakkab, bir-birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘zining rivojlanish bosqichlarida juda ko‘p hollarda ziddiyatli munosabatlar ta'sirida bo‘lganligi tufayli “xukmror yo‘nalish shaklida” namoyon bo‘ladi. Bunda qonun talabidan kelib chiqadigan ijtimoiy-tarixiy jarayon umumiy rivojlanish yo‘nalishidan bevosita emas, balki juda ko‘p chetga chiqishlar, buzilishlar bilan birga kelib chiqadi. Natijada bu jarayonlarning bizga oldindan ma'lum bo‘lgan qonuniyatlarini ham o‘z vaqtida va to‘g‘ri anglamay qolamiz.

Qonunlarning “xukmron yo‘nalish shaklida” namoyon bo‘lishining o‘ziga xos belgisi bu qonunda ifodalangan jarayon natijaning birdaniga emas, balki ijtimoiy jarayonning oxirida vujudga kelishi, yuzaga chiqishidir. Odatda tarixiy jarayon o‘z rivojlanishining ma'lum bosqichlarida qonunning umumiy

yoʻnalishga, tartibga zid kelishi mumkin, lekin oxir-oqibatda xodisa, jarayon qonunda belgilangan holatda roʻy beradi, amalga oshadi.

Ijtimoiy qonunlarning xususiyatlaridan biri ularning sof holda emas, balki, maʼlum maʼnoda “taxminiy” holda, “xukmron yoʻnalish shaklida” namoyon boʻlishidir, chunki ijtimoiy jarayonlar oʻz rivojida doimo turli xil tamoyillar va imkoniyatlar bilan bogʻliq boʻladi. Bu qoidaga rioya qilish jamiyat qonularini oʻrganishda aloxida metodologik ahamiyat kasb etadi. Qonunlarning “xukmron yoʻnalish” shaklida namoyon boʻlishi “qonun” tushunchasini hodisalar oʻrtasidagi muxim bogʻlanishlarni, “xukmron yoʻnalish” tushunchasi esa qonunlarning namoyon boʻlish shaklini ifodalash imkonini beradi.

Jamiyat qonunlari muayyan tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib, “mutlaq zaruriyat” shaklida, yaʼni aniq namoyon boʻladi.

Jamiyat qonunlarining aniq namoyon boʻlishi, qonun talablaridan kelib chiqadigan va unga mos keladigan natijalarga erishishi uchun zarur boʻlgan shart-sharoit yetilgan vaqtda roʻy beradi. Bunday hollarda tarixiy jarayonlarning kechishi, jamiyat aʼzolarining yaratuvchanlik yoʻlidagi saʼy-harakatlari tezlashuviga sabab boʻladigan qonunlar talablarini oʻz vaqtida anglab yetish va zaruriy shart-sharoitni taʼminlash asosida amalga oshadi. Bunga misol qilib biz totalitar tuzumdan demokratik tuzimga oʻtish davrida davlatning isloxlarga boshchilik qilishini keltirishimiz mumkin, chunki bozor iqtisodiyotiga oʻtish davrida davlatning aralashuvisiz mavjud resurslardan samarali foydalanib boʻlmaydi; davlat esa iqtisodiyotini tartibga solib, talab hamda takliflarni oʻzaro muvofiqlashtiradi va shu asosda iqtisodiyotni tanazuldan olib chiqadi.

Biz yuqorida taʼkidlaganimizdek, har qanday ijtimoiy qonun kishilarning amaliy faoliyati natijasidagina namoyon boʻladi. Shu tufayli ham bu qonunlar baʼzan jamiyatdagi maʼlum guruxlar, qatlamlarning duch keladi, oqibatda qonunlar “toʻliq boʻlmagan” holda, “kam kuch” bilan namoyon boʻladi, amalga oshadi. Jamiyat qonunlarning yetarlicha namoyon boʻlmasligi baʼzan boshqa bir qonunlarning taʼsiri sabab boʻlishi mumkin. Qonunlarning bunday oʻzaro taʼsiri natijasida ularning taʼsir kuchi baʼzan bir-biriga qarshi, toʻqnash holda amal qilishi tabiiydir.

Jamiyat qonunlarining “kam kuch” bilan namoyon boʻlishining sabablaridan yana biri ularning roʻyobga chiqishi uchun noqulay shart-sharoitning mavjudligidir. Tarixiy tajriba shuni koʻrsatadiki, muayyan jamiyat, davlat, ijtimoiy guruxlar, siyosiy partiyalar mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy guruxlar, tabaqalarning ehtiyoj va manfaatlarini hamda ular oʻrtasidagi mutanosiblikni, mavjud iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlarni yetarli darajada eʼtiborga olmasliklari va atroflicha bilmasliklari tufayli koʻpincha oʻz oldilariga qoʻygan maqsadlariga toʻliq erisha olmaganlar. Masalan, XX asrdagi siyosiy inqiloblarning hancha biri oʻz oldiga qoʻygan vazifani deyarli uddalay olmadi. Sovetlar davrida oʻtkazilgan isloxlarning deyarli barchasi amalda oʻzini oqlamadi, kollektivlashtirish va industrilashtirish kompaniyalari xalq xoʻjaligida majburan oʻtkazilgan boʻlib, ayniqsa, qishloq xoʻjaligida oʻrta xol dexqon va

yakka xo‘jalik egalarining sinfiy dushman sifatida “quloq qilinishi”, jumladan, O‘rta Osiyodagi bunday oilalarning Sibir va Ukrainaga surgun qilinishi natijasida 30-yillarda qishloq xo‘jaligining izdan chiqishiga, ocharchilik z berishiga, buning oqibatida ko‘plab odamlarning qirilib ketishiga, axoli tabaqalari o‘rtasida esa sinfiy dushmanlikning kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Bularning barchasi xalqning isloxotlarga bo‘lgan ishonchini chippakka chiqardi. Bu isloxatlarning barchasi jamiyatning ob'ektiv rivojlanish qonunlarini inkor etish va zo‘rlikka asoslangan siyosat edi. Oqibatda bu tadbirlar mamlakatning iqtisodiy-siyosiy rivojiga, uning qonunlarning amal qilishiga, ro‘yobga chiqishiga “noqulay shart-sharoit” sifatida salbiy ta'sir ko‘rsatdi.

Shunday qilib, qonunlar o‘z xolicha amal qilsada lekin, baribir, faqat kishilarning ijtimoiy faoliyatlari orqaligina namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat, o‘z navbatida, qonunlarning amal qilishini ba'zan tezlashtirishi, ba'zan sekinlashtirishi, ba'zan esa jamiyatning rivojlanish yo‘nalishiga umuman qarama-qarshi bo‘lishi ham mumkin.

Insoniyatning tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatning bosqichma-bosqich rivojlanishi faqat zigzagsimon emas, balki ma'lum makon va zamonda ijtimoiy taraqqiyotning qonuniyatlaridan chetga chiqish shaklida ham bo‘ladi.

Jamiyat qonunlarining amal qilishi va muayyan shakllarda namoyon bo‘lishi ijtimoiy shart-sharoitga bevosita bog‘liqdir. Shu bois ijtimoiyshart-sharoitlar jamiyat qonunlarining zaruriy tarkibiy qismidir.

Tayanch tushunchalar:

Manfaat, extiyoj, olomon, zaruriy shart-sharoit, hukmron yo‘nalish, kam kuch, mutlaq zaruriyat.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy manfaat, deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi nimadan iborat?
3. Tarixiy jarayonlarning sub'ekti deganda nimalar nazarda tutiladi.
4. «Xalq» tushunchasining tavsiflang.
5. «Xalq – tarix ijodkori» degan fikrni asoslang.
6. Volyuntarizm falsafiy qarashining mazmuni?
7. Fatalizm qanday oqim?
8. Jamiyat taraqqiyotida inson omilining tutgan o‘rni.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» - T., «O‘zbekiston» 1998 yil.

2. Karimov I.A. «Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barxayotdir» - Prezident Islom Karimovning Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimidagi nutqi – «Guliston» 1997 yil 1-son.
3. Krapivenskiy S.E. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS» 1998 yil 55-101, 335-354 betlar.
4. Vvedenie v filosofiyu. Chast 2-1 – Moskva, 1990 g., str. 466-479.
5. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya – Moskva, 1999 g., str. 311-328.
6. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo‘lim. – T., 2001 yil.
7. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – T., «Sharq» nashr., 1999 yil, 299-300

16-MAVZU: QONUNLARDA IJTIMOYIY EHTIYOJLAR VA MANFAATLARNING IFODALANISHI

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining shakllanish va amal qilishi.
2. Ehtiyoj va manfaat ijtimoiy qonunlar talablarining dastlabki ifodasidir.
3. Qonunlar shakllanishida ijtimoiy manfaatlar.
4. Qonunlar umumiy manfaatlarning birligi sifatida.

Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining shakllanish, amal qilish, namoyon bo'lish mexanizmining asosiy ob'ektiv omillaridan biri insonlarning ehtiyoj va manfaatlaridir. Ehtiyoj va manfaatlar qonunlarning ob'ektiv talabalarini sub'ektlar, ya'ni insonlarning o'ziga xos odati, xususiyati va motiviga aylantirish orqali, ularni hayotning ob'ektiv shart-sharoiti bilan bevositabog'laydi. Ehtiyoj va manfaat ijtimoiy qonunlar talablarining dastlabki ifodasidir. Hozirgacha falsafiy adabiyotda "extiyoj" va "manfaat" tushunchalari ko'pincha aynanlashtiriladi, tenglashtiriladi. Haqiqatdan ham, ular mazmun jihatidan bir-biriga yaqin va o'zaro chambarchas bog'liqdir. Biroq ularni inson faoliyatining zanjiridagi turli bo'g'inlar sifatida farqlash zarur.

Ehtiyoj-biologik va ijtimoiy tizimlarning muhim xossasi. Umuman olganda, biz "ehtiyoj" deganda muayyan tabiiy yoki ijtimoiy predmet, hodisaning mavjud bo'lishi, yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni tushunamiz. Har bir tizimning mavjudligi uning hayotiy ehtiyojlari qondirilayotganligidan darak beruvchi axvoli va ko'rsatkichlarida ifodalanadi. Mavjud tizimning ob'ektiv zaruriy holati bilan real mavjud holati o'rtasida farq, ziddiyat paydo bo'lsagina ehtiyoj va zarurat tug'iladi.

Shunday ekan, ehtiyoj muayyan tizimning shunday ichki, qonuniy ziddiyatiki, u ehtiyojning soxibi, egasi bilan muhit o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi va oqibatda o'zining real mavjudlik holati, faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy quvvat, energiya, axborot komponentlarini oladi. Biologik va ijtimoiy tizimlar o'zini o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhim bilan bo'ladigan o'zaro aloqa va munosabatlarida o'zlariga xos bo'lgan faolliklari tufayli ushbu ziddiyatlarni bartaraf etib boradi. Shuning uchun ham ijtimoiy ehtiyoj mavjud tizimning ichki ziddiyatlarni hal qilishga qaratilgan faoliyatga, harakatlarga qodirligi bilan chambarchas, bog'liqdir.

Demak, ehtiyoj deganda biz muayyan ijtimoiy tizim qonunlari asosida kelib chiqadigan zaruriyatning ko'rinishi, namoyon bo'lishini, organizm, inson shaxsi, ijtimoiy guruh, millat, xalq va, umuman, jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi uchun ob'ektiv ravishda zarur bo'lgan faoliyatni yuzaga chiqaruvchi ichki sababiyatni tushunamiz.

Ijtimoiy hayotda ehtiyoj sub-yektning ob'ektiv xossasi shaklida mavjud bo'lib, uning zaruriy parametrlari, real, xaqiqiy ahvoli bilan ob'ektiv xossasi bo'lmish ehtiyoj o'rtasida bo'lgan ziddiyat shaklida, ya'ni shu ijtimoiy xodisa mavjudligining sub'ektiv shart-sharoiti sifatida namoyon bo'ladi. Kishilarning yashashlari va inson sifatida kamol topishlari uchun zarur bo'lgan barcha narsalar ularning hayotiy ehtiyojlarini tashkil etadi.

Demak, biz inson ehtiyojlari deganda, uning yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarning ma'lum zaruriyatga aylanish shaklini tushunamiz. Bu jarayonni kuzatib borish, o'rganish va tahlil qilish uchun, avvalo, ijtimoiy sub'ektlarning ehtiyojlarini ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Bizga ma'lumki, "jamiyat hayoti ham biologik, ham ijtimoiy ehtiyojlarni o'z ichiga oladi. Shu tufayli insonning ijtimoiy hayoti undagi biologik jihatlarini, ya'ni ehtiyojlarini inkor qilmasdan, aksincha, ularni takomillashtiradi. Ijtimoiy hayotda bu ikkila ehtiyoj aloxida-aloxida, parallel holda emas, aksincha, o'zaro chambarchas uzviy bog'lanishda bo'ladi, biroq ijtimoiy ehtiyojlar bunda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi".

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, kishilik jamiyatining vujudga kelishida, avvalo, inson hayotini ta'minlab beruvchi tabiiy ehtiyojlarning asta-sekin ishlab chiqarish vositasi yordamida inson organizmining tashqi muxit bilan bo'lgan munosabatining, avvalgi biologik moslashuvdan farq qiladigan yangicha usul bilan almashuviga va shu asosda biologik ehtiyojlarning ijtimoiylashuviga olib keladi. Pirovard natijada esa faqat moddiy is'temolga bo'lgan ehtiyoj emas, balki aynan shu moddiy ehtiyojni qondirishda uning yo'llari, usullari va vositalarini yaratib beradigan amaliy faoliyatga qaratilgan g'oyalar, bilimlar, ma'naviy-ruhiy faoliyatga ham ehtiyoj paydo bo'ldi. Demak, ehtiyojni faqat insonga hos bo'lgan faoliyat, ya'ni mehnat qilish faoliyati bilan birgalikda olingandagina to'g'ri anglash mumkin bo'ladi. Ma'lumki, mehnatga bo'lgan ehtiyoj ikki omildan kelib chiqadi. Birinchi omil mehnatsiz hayotiy ehtiyojlarni qondirib bo'lmasligi bo'lsa, ikkinchi omil inson o'z aql-idroki va qobilyatining o'sib borishi orqali hayotda o'z maqsadlariga erishish yo'lini, o'z o'rnini topishidir.

Insonlarning tabiiy-biologik ehtiyojlari muayyan tarixiy davrdagi aniq bir ishlab chiqarish usuli sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni iste'molni ishlab chiqarish yaratadi, vujudga keltiradi.

Inson o'zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirmas ekan, uning mavjudligi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas, lekin ehtiyojlarni qondirish ishlab chiqarish, ya'ni ularning hayotiy mavjudligining ob'ektiv shart-sharoiti bilan bog'liqdir. Ehtiyoj shu muayyan ishlab chiqarish usulining mavjudligi va rivojlanishini belgilab beradigan qonunlarning sub'ektiv ifodasidir.

Ijtimoiy ehtiyojlar doimo kishilarning ijtimoiy hayotning u yoki bu jihatlariga, jumladan, o'zi yashayotgan jamiyatda ma'lum ijtimoiy mavqyega ega bo'lish va shu mavqyeni saqlab turish imkoni beradigan muhim faoliyatga, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi. Demak, kishilarning

ijtimoiy ehtiyojlari jamiyat qonunlarida ob'ektiv talablarning namoyon bo'lishi, ifodalanishi shaklidir.

Ehtiyojlar sub'ektning ob'ektiv, ichki, ziddiyatli xususiyati sifatida qonun talabidan kelib chiqadigan, insonfaoliyatini ijtimoiy hayotning pishib yetilgan muammolari, ziddiyatlarini belgilovchi va hal etishga undovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar o'zaro bir butun ehtiyojlar tizimini tashkil etadi, bu tizimda jamiyatning mavjudlik va rivojlanish qonunlari bir-biri bilan o'zaro bo'ysunish (ierarxiya) munosabatida bo'ladi. Bu munosabatlarda ijtimoiy ehtiyojlar ustunlik qiladi, chunki ular ijtimoiy qonunlarning talablarini ifoda etadi. Sub'ektning muayyan ijtimoiy tizimdagi mavjudligi, avvalo, ijtimoiy sharoitga bog'liq bo'ladi. Bunda biz biologik ehtiyojlarning bevosita ijtimoiy ehtiyojlar orqali namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shu asosda ehtiyojlar manfaatga aylanadi.

Sub'ektning "ijtimoiy manfaati" uning o'zi yashayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan, o'z ehtiyojlarini qondirayotgan muayyan ijtimoiy tizimga bo'lgan munosabati sifatida vujudga keladi, namoyon bo'ladi.

Bu munosabatlarni shakllantirish uchun, avvalo, ijtimoiy tizimni va shu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektning ehtiyojlari o'rtasidagi umumiylik tomonini aniqlash zarur. Bu jarayon esa, ayni paytda mulkning vujudga kelishi, tovar almashuv jarayonining shakllanishi va mehnat taqsimoti orqali ta'minlanadi. Bunday sharoitda sub'ekt ehtiyojlarining qay darajada qondirilishi nafaqat mehnat faoliyati natijalariga, balki ko'proq shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiga, ya'ni uning mulkka bo'lgan munosabati va jamiyat moddiy boyligining taqsimotidagi ishtirokiga bog'liq bo'lib qoladi. "Manfaat"ning vujudga kelishiga esa, avvalo, inson ehtiyojlarini qondirish jarayonida vujudga keladigan, unga qarshilik qiladigan, qiynchiliklar tug'diradigan shart-sharoit sabab bo'ladi.

Demak, insonning ehtiyojlari ham, shu ehtiyojlarni qondirish vositalari, usullari va shart-sharoitlari ham hammasi muayyan jamiyatda, real ijtimoiy hayotda vujudga keladi. Lekin jamiyatdagi mavjud tuzum, siyosiy rejim va ijtimoiy munosabatlar sub'ekt ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga to'siq bo'lishi mumkin. Faqat shundagina ijtimoiy sub'ekt, gurux, tashkilot yoki uyushmaning mavjud tuzumga nisbatan o'ziga xos munosabati vujudga keladi. Faqat shu asnoda, ya'ni ehtiyojlar sub'ekti bila uni qondirish shart-sharoitlari o'rtasidagi ob'ektiv dialektik ziddiyatlar negizida "manfaat" shakllanadi.

"Manfaat" deganda biz sub'ektning shart-sharoitga, ya'ni o'zining turli xil ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq munosabati va faoliyatining majmuini tushunamiz. Ijtimoiy jarayon va hodisalar mavjudligining asosiy shartlaridan biri ijtimoiy faoliyatdir. Manfaatning shakllanishi aynan shu faoliyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Faoliyatsiz manfaat, manfaatsiz faoliyat yuzaga kelmaydi. Shunday ekan, faoliyat deganda biz sub'ektning ob'ektga ongli va maqsadga muvofiq holda ta'sir ko'rsatishini tushunamiz.

Insoniyat tarixida aloxida ahamiyatga ega bo'lgan manfaaddan biri guruxiy manfaatdir. Sotsiologiya fani nuqtai nazaridan, kshilar o'zlarining ma'lum bir maqsadlaridan kelab chiqib har xil ijtimoiy birliklar – gurux, qatlam, partiya kabi jamoat tashkilotlariga birlashadilar, qo'shiladilar. Bu uyushmalar, avvalo, shu birlik a'zolarining turmush tarzi shart-sharoitining o'xshashligiga, ularga xos bo'lgan umumiy bulgi va sifatarga, jumladan, ma'lum tarixiy xududga mansubligiga, mansub ijtimoiy institutlar: urug'-elat, millat, dinga mansubligiga asoslanib vujudga keladi va shaklanadi.

Ma'lumki, har bir jamiyat, albatta, o'z ichki tuzilishiga ega bo'ladi. Har qanday jamiyatning va undagi real ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi, amla qilishi va taraqqiy etishi bevosita ijtimoiy tuzum, uning asosiy elimentlari o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar tizimi, mazmuni va tabiatiga bevosita bog'liqdir. Chunki har bir ijtimoiy guruh, tabaqa a'zolari ehtiyoj va manfaatlarining umumiyliigi ularning muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimidagi ob'ektiv umumiy ahvolini, mavqyeini belgilab beradi. Bu ijtimoiy birlik a'zolaridan bittasining ehtiyojini qondiradigan shart-sharoit, albatta, qolganlarining ham ehtiyojlari qondirilishiga imkon beradi. Shuning uchun ham ushbu birlik a'zolarida ijtimoiy muhitga, shart-sharoitga bir xil munosabat shakllanadi.

Ijtimoiy guruh a'zolarining umumiy manfaati ularning birlikdagi uyushgan faoliyatini vujudga keltiradi. Sub'ekt, ya'ni shaxs qanchalik barkamol bo'lsa, uning manfaatlari ham rivojlangan bo'ladi. Shu asosda u shunchalik yuksak darajali ijtimoiy faoliyatga qodir bo'ladi. Bozor qonunlarining amal qila boshlashi bilan raqobatchilik muxiti tarkib topadi, erkin tadbirkorlik uchun imkoniyatlar ochiladi, ayni vaqtda, aynan shu qonunlarga rioya qilgan holda ishlab chiqarish tarkibi ham o'zgaradi. Bunday jarayon esa faqat raqobatga bardosh berishga intilish bor joydagina yuz beradi. Raqobatga bardosh berish uchun ishlab chiqarishni doimiy ravishda yangilab borishga, zarur shart-sharoitni yaratishga tadbirkorlarning o'zlari majbur bo'ladilar.

Guruxiy manfaat shu guruh a'zolari ijtimoiy hayotining hamma sohalariga xos bo'lgan umumiy munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Demak, ijtimoiy manfaat shaxs yoki ijtimoiy uyushmaning muayyan jamiyatdagi ob'ektiv, realahvolidan kelib chiqqan holda bir butun ijtimoiy tizimga bo'lgan munosabatlari majmuini bildiradi. Bu o'rinda biz jamiyat qonunlari talablarining ijtimoiy guruxlar ehtiyojlari shaklidagi ifodasini ko'ramiz. Muayyan jamiyat o'zi vujudga keltirgan ijtimoiy sub'ektning o'z ehtiyoj va manfaatlarini yetarli darajada qondirishi uchun qulay shart-sharoit yaratmas ekan, unda o'ziga nisbatan salbiy munosabat, ya'ni mazkur jamiyatni, tizimni o'zgartirishga qaratilgan, maqsadli xatti-harakatni vujudga keltiradi.

Umuman olganda, bizning fikrimizcha, jamiyat qonunlarining ob'ektiv talabi faqat mazkur jamiyat a'zolarining ijtimoiy ehtiyojlari shaklida namoyon bo'ladi va ana shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan faoliyati orqali ro'yobga chiqadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, shaxsning o'zi yashayotgan ijtimoiy tizimga munosabati uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy tizimlarga bo'lgan munosabatlarida bir xil aks etmaydi chunki ijtimoiy guruhlarning turlicha, ya'ni "kundalik" va "tub hayotiy manfaat"lari bo'ladi. Aynan "tub hayotiy manfaatlar" umuminsoniy qonunlarning ob'ektiv talablarini o'zida mujassamlashtirib, jamiyatning bir butun tizim sifatida saqlanib qolishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Manfaatlarning mazmunini, avvalo, sub'ektning o'zi yashayotgan ijtimoiy shart-sharoitga bo'lgan munosabati tashkil qiladi. Shunday ekan, manfaat sub'ektning o'z ehtiyojlarini qondirishiga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bunda u jamiyatda o'zi uchun zarur va qulay bo'lgan munosabatlar tizimini yaratishga harakat qiladi.

Ko'rinib turibdiki, ehtiyoj va manfaat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Lekin bu bog'lanish bir tomonlama emas, ya'ni ehtiyojlarning manfaatlarga nisbatan birlamchi va belgilovchi ekanligiga asoslanmagan.

Ob'ektiv ijtimoiy munosabatlarning bir tomonini o'z ehtiyojlariga ega bo'lgan sub'ekt, ya'ni insonlar tashkil etsa, uning ikkinchi tomonini shu ehtiyojlarni qondirishga shart-sharoiti bo'lmish manfaatlar tashkil etadi. Ijtimoiy munosabatlar rivoji faqat shu munosabatlarning bir tomoni to'lmish ijtimoiy shart-sharoitni saqlashga, o'zgartirishga qaratilmasdan, balki uning ikkinchi tomoni bo'lgan sub'ekt va uning ehtiyojlarining shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Umuman, manfaatlar kishilarning barcha ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib doimo ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan maqsad ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda ijtimoiy manfaatlar, umumsotsiologik qonunlar ob'ektiv talablarining ifodasi shaklida namoyon bo'ladi va qonunlarning amal qilish mexanizmi tizimida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqillik halqimiz, davlatimiz uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, madaniy va ma'naviy yangilanishning keng istiqbollari ochib bermoqda. Millatimizning asriy orzularini ro'yobga chiqarish va hayotiy ehtiyojlarini to'laroq qondirish, shu ehtiyojlar asosida yuzaga keladigan ularning manfaatlarini ifoda etish, himoya qilish maqsadida jamiyatning barcha tizimlarida islohatlar olib borilmoqda.

Tarixiy jarayonlar rivojida va jamiyatdagi butun ijtimoiy munosabatlar tizimida "ehtiyotlar", ayniqsa "ijtimoiy ehtiyojlar" xal qiluvchi axamiyat kasb etadi, chunki har qanday insonning yoki ijtimoiy guruxning xayot-mamotini ehtiyojlar belgilaydi. Shu tufayli "ehtiyot" o'z mazmuniga ko'ra ob'ektivdir. Lekin shu ob'ektiv ehtiyojning soxibi esa doimo xarakatdagi, faoliyatdagi insonlar bo'lib, ularning o'z ehtiyojlarini ko'ndirish yo'lidagi hatti-harakatlari tufayli manfaatlar yuzaga keladi. O'z manfaatini ko'ndirishiga qaratilgan faoliyati tufayli inson ijtimoiy xodisalar va jarayonlarning rivoji va yo'nalishiga faol ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayotimizning ana shu ob'ektiv qonuniyatlarini chuqur va ma'suliyat bilan anglab yetgan yurtboshimizning bozor munosabatlariga o'tishida "O'zbekiston tanlab olgan yo'l – Respublika va uning xalqning manfaatlariga nixoyatda mos keladigan, ijtimoiy jixatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir", deb ta'kidlashlari aynan shuni hisobga olib aytilgandir.

O'zbekiston sharoitida fuqorolarning isloxotlarni, jamiyat rivojini belgilab keladigan hayotiy ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida va, shu bilan birga, umumdavlat manfaatini e'tirof va ifoda etgan holda, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, sifat jihatdan yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda DAVLAT bosh isloxatchi bo'lib chiqdi. Zero, "Murakkab o'tish davrida davlatning o'zi bosh isloxatchi bo'lishi zarur. Davlat butun xalqning manfaatlarini ko'zlab, isloxatlar jarayonining tashabbuskori bo'lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo'nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va suveren davlatimizning ijtimoiy-siyosiy chiqishii va izchil ro'yobga chiqarishi kerak".

Ma'lumki, har qanday davlat siyosiy hokimiyat sifatida jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Davlatning jamiyat ijtimoiy hayotidagi ahamiyati va faolligi o'tish davri, islohatlar davrida yanada kuchliroq namoyon bo'ladi. O'tish, isloxat jamiyatdagi mavjud ehtiyoj va manfaatlarining yangi ehtiyoj va manfaatlar bilan to'qnashuvi to'qnashuvi jarayonida, davlat va xalq manfaatini aks ettiruvchi, himoya qiluvchi hamda kishilar o'rtasidagi xoxish-irodaga asoslangan munosabatlar tizimi sifatida o'zini namoyon qiladi.

Davlatning bosh isloxatchi bo'lishi hokimiyat masalasi bilan ham chambarchas bog'liq. Mamlakatimizdagi islohatlar muvaffaqiyatining sabablaridan biri ijtimoiy-siyosiy barqarorlikdir. Respublikamiz bugungi kunda mustaqil davlatlar xamdo'stligida iqtisodiy hamda ijtimoiy siyosiy jixatdan eng barqaror rivojlanayotgan kuchli davlatdir. Ushbu barqarorlikni saqlash va yanada mustaxkamlab borish zarur.

Fikrimizcha, ushbu muxim vazifa Respublikamizda quyidagi asosiy tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi:

Birinchidan, madaniyatli xokimiyatni barpo etish zarur, chunki har qanday madaniyatning o'zagini, negizini, avvalo, qadriyatlarni yaratish, asrash, ko'paytirish va rivojlantirish tashkil etadi. Buning uchun esa, avvalo, fuqorolarda o'tmishdan, tarixdan, ajdodlarimiz tomonidan yaratgan moddiy hamda ma'naviy boyliklar va, merosdan ko'nikish xissini, tuyg'usini shakllantirmoq zarur. Buning uchun Respublikamizda bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Birinchidan, davlat boshqaruvida tarixiy tajribamizdan kelib chiqqan holda xokimlik lavozimi, tizimi qayta tiklandi. Fuqorolarning o'z-o'zini boshqaruvi tizimida esa mahallalarning xuquqiy, mavqeyi oshirildi. Bu ishlar xalqimizda davlat va xokimiyat organlariga bo'lgan ishonch ruhini tiklash, oshirish va ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, Prezidentimiz tashabbus bilan ma'naviyat va ma'rifat davlatimiz siyosatidagi asosiy yo'nalish deb belgilandi, bu sohani rivojlantirishga qaratilgan qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Xalqimiz tarixi va madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk davlat arboblari Sohibqiron Amir Temur, uning avlodlari – Ulug'bek va Bobur Mirzo, bir qator allomalarimiz va tarixiy shaxslarning yubileylari keng va tantanali nishonlandi.

Uchinchidan, tilimiz, dinimiz va urf-odatlarimiz, ularning qonuniy mavqeyi qayta tiklanmoqda; bundan ko'zlangan maqsad xalqimizda o'z madaniy merosidan qoniqish, faxrlanish, milliy o'zlikni anglash hissini, tuyg'usini shakllantirishdir.

Isloxatlarimiz mohiyatini xalqimizga ochiq va to'liq tushuntirish kerak. Bizga yaxshi ma'lumki, sho'rolar tuzumi davrida ham juda ko'p isloxatlar o'tkazildi. Lekin ushbu isloxatlarning barchasi yarim yo'lda qolib ketdi.

Buning sababi quyidagilardan iborat edi:

birinchidan, isloxatlarning barchasi xalqning, millatning xaqiqiy ehtiyoj va manfaatlarini xisobga olmagan edi;

ikkinchidan, isloxatlar bizning xalqimizga begona bo'lgan jamiyatdan, ijtimoiy-ma'naviy muxitdan to'g'ridan-to'g'ri andaza olib o'tkazilgan edi;

uchinchidan, isloxatlarning hammasi doimo majburiy ravishda, yuqoridan zo'rlik ishlatish yo'li bilan o'tkazilgan edi;

to'rtinchidan, o'tkazilgan isloxatlarning barchasi doimo jamiyat hayotini inqilobiy, ravishda birdaniga va tubdan o'zragtirishga mo'ljallangan edi;

beshinchidan, isloxatlarning bosqichlarini izchil, aniq va o'z vaqtida yakunlab, yangisiga bosqichma-bosqich o'tmagan, ko'p hollarda sub'ektivizm va volyuntarizmga yo'l qo'yilgan edi.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda isloxatlarning tadrijiy, ya'ni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish yo'lini tanlab olishimiz aynan shu tarixiy saboqlardan to'g'ri xulosa chiqarish va jamiyatning ob'ektiv qonunlarini e'tirof etish asosida amalga oshirilmoqda. Bizning yo'limiz ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish, aholining kam ta'minlangan qismini kuchli muhofaza qilish asosida bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishdir. "Bu yo'l jahon tajribasini, shuningdek, xalqimizning turmush sharoitini, an'alarini, urf-odatlarini, turmushg tarzini har tomonlama hisobga olishga asoslangandir".

Bizda o'tkazilgan har qanday isloxatlarning muayyan bosqichlari, o'z vazifalari, maqsadlari mavjud. Xalq esa isloxatlarning natijalarini o'z vaqtida his qilib borishi kerak. Agar bu bosqichlar cho'zilib ketsa, sust borsa, bu, albatta, isloxatlarning taqdiriga, keyingi bosqichlariga salbiy ta'sir etadi. Zuro, har bir avlod o'zining real ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlarga ega bo'lib, hych kim ularning taqdirini ularning ixtiyorisiz hal qilishga haqi yo'q. Shu bois isloxatlarning birinchi kundan boshlaboq mamlakatimizda keksa avlodni, aholining ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamini, ularning ehtiyoj va manfaatlarini himoya qilish doimo birinchi navbatdagi vazifa sifatida qaramoqda.

Har bir inson, ijtimoiy gurux, yoki millatning manfaati doimo uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi muayyan jamiyatga, tuzumga bo'lgan munosabatlarida namon bo'ladi. Har qanday ehtiyojni qondirish yo'lida duch kelgan to'siqlar va qiyinchiliklarni yengish jarayonida manfaat vujudga keladi, ya'ni har qanday manfaatning asosida doimo ehtiyoj tashkil etadi.

Tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch odamlarning aniq maqsadli faoliyatlaridan iborat bo'lib, ushbu faol harakatning sababi va manbai esa shu mazkur jamiyatda mavjud ziddiyatlardir. Har bir jamiyat o'z tabiatiga ko'ra turli xil mazmundagi ijtimoiy munosabatlardan tashkil topadi. Shu bois ham kishilarning faol harakatlari turli xil ijtimoiy guruxlarning, siyosiy partiyalarning bir-biriga zid keladigan qarama-qarshi manfaatlarining to'qnashuvi orqali namoyon bo'ladi. Ma'lum tarixiy shart-sharoitlarda esa turli maqsadga ega bo'lgan ijtimoiy guruxlar, partiyalar, tabaqalar manfaatlarining mos kelishi asosida ular o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish mumkin bo'ladi. Chunonchi, Prezidentimiz I.Karimov tomonidan olg'a surilgan va bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan bozor munosabatlariga o'tishning besh prinsipi Respublikamizdagi barcha fuqorolarning, qatlamlarning, siyosiy tashkilotlarning ham moddiy, ham ma'naviy ehtiyojlariyu manfaatlarini o'zida to'liq mujassamlashtirish asosida, bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan ehtirolf etilayotgan, tan olinayotgan, ta'bir joiz bo'lsa, bozor munosabatlariga o'tishning yangicha O'ZBeKONA modelining mazmun va mohiyatini tashkil etmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu modelning zaminida ham, asosida ham, isloxatlar samaradorligida ham xalqimizning, millatimizning tub hayotiy ehtiyojlari hamda manfaatlari asosiy mezon qilib belgilangan.

Birinchi bobdan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, jamiyat qonunlari ijtimoiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi ob'ektiv, ichki, umumiy, muhim, zaruriy, nisbatan turg'un aloqa va munosabatlardir;

Ikkinchidan, jamiyat qonunlari faqat kishilarning shaxsiy va ijtimoiy ko'zlab amalga oshadigan faoliyatlari tufayli vujudga keladi hamda ro'yobga chiqadi;

Uchinchidan, kishilarning maqsadli faoliyatlari, albatta, ma'lum tarixiy shart-sharoitdagina vujudga keladi, ushbu ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning xususiyati va rivojlanish tamoyillarini belgiladi;

To'rtinchidan, ijtimoiy shart-sharoit deganda ijtimoiy borliqdagi voqeyaxodisalarning vujudga kelishi, mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillar majmui tushuniladi;

Beshinchidan, jamiyat qonunlari ijtimoiy shart-sharoitning xususiyatiga bog'liq ravishda turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Oltinchidan, jamiyat qonunlarining amal qilish mexanizmidagi asosiy tarkibiy element yoki motivlar ehtiyoj va manfaatlardir.

Tayanch tushunchalar:

Manfaat, ehtiyoj, ijtimoiy manfaatlar, kundalik ehtiyoj, tub hayotiy manfaatlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Manfaat tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. Ehtiyoj nima?
3. Ijtimoiy manfaatlar tushunchasining mazmun-mohiyati
4. Tarixiy jarayonlar rivojida ijtimoiy ehtiyojlar.
5. Kundalik ehtiyojlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Ehtiyojlarning namoyon bo'lishi va o'zgarib borishi.
7. Islohotlar ijtimoiy ehtiyojlar va manfaatlar ifodasi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Kontstitutsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2003 yil.
2. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T., «O'zbekiston» 1995 yil.
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T., «O'zbekiston» 1994 yil.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatalari. – T., «O'zbekiston» 1997 yil.
5. Tulenov J. Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil.
6. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T., «O'zbekiston» 1998 yil.
7. Danilyan O.G., Taranenko V.M. Filosofiya – Moskva, izd. EKSMO, 2005 g., str. 398-422.
8. Krapivenskiy S.E. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1999 g. - str. 356-362.
9. Falsafa – T., 2006 yil, 437-443 betlar.

17-MAVZU: SIVILIZATSIYA TUSHUNCHASI MOHIYATI VA MAZMUNI (2 S.)

Reja:

1. Sivilizatsiya. Sivilizatsiya xaqidagi falsafiy qarashlar.
2. Sivilizatsiya va madaniyat. Sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Sivilizatsiya: Sharq va G'arb.
4. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi.

Sivilizatsiya umumbashariy falsafiy tushunchalardan chshri bo'lib, «madaniyat», «ijtimoiy - iqtisodiy formatsiya», «jamiyat» tushunchalariga yaqin bo'lsa ham aynan bir xil ma'noni ifoda etmaydi.

«Sivilizatsiya» tushunchasi lotincha «sivilis» - so'zidan olingan bo'lib, «grajdanlikka oid», «davlatga oid» singari ma'nolarni anglatadi. Ko'p yillar davomida ilmiy adabiyotlarda madaniyat va sivilizatsiya bir xil ma'noli tushunchalar sifatida talqin etib kelindi. Holbuki, buyuk nemis faylasufi I. Kant ular o'rtasidagi yaqinlik va tafovut mavjudligini ko'rsatgan edi. XX asr boshlariga kelib, nemis faylasufi Osvalg'd' Shpengler «evropa quyoshining so'nishi» asarida madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, sivilizatsiya madaniyatning eng yuqori bosqichi bo'lib, undan keyin esa madaniyat asta-sekin inqirozga yuz o'giradi. Nemis faylasufi sivilizatsiya deganda texnik- mexanik jarayonlar majmuini nazarda tutdi.

Madaniyatning paydo bo'lishi insoniyatning yovvoyilikdan keyingi davri bilan bog'liq bo'lsa, sivilizatsiya - tarixiy jarayon, ijtimoiy hodisadir. Sivilizatsiyaning rivojlanishi jamiyatni yuksaltirishga olib keladi, natijada bu jamiyat fuqarolar erkinligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Sivilizatsiyali hayot insonni madaniyatli qiladi va uning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Hozirgi davrda sivilizatsiyalashganlik ko'proq qulaylik tushunchasi bilan ayniylashtirilmoqda. Uning mohiyatini sanoat iste'mol vositalarini yaratish tashkil etmoqda: ayni vaqda u jamiyat rivojlanishining mezoni hisoblanmoqda (q:Slovarg' - spravochnik. Chelovek i obo'estvo. Rostov-na-Donu, 1996.S.489).

Sivilizatsiya tushunchasi tarkibiga qadriyatlar ham kiradi. I.A. Karimov bu haqda shunday deb yozadi:

«Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy - demokratik jamiyat qurish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarimizni kiritamiz. Bu inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hakazolardir». (I.A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. 1997, 147-bet.)

Mavjud ilmiy adabiyotlarda sivilizatsiya atamasining ikkinchi ma'nosi ham yoritilyapti. U lotincha «grajdanlikka oid» tushunchasi bilan bog'likdir. Lotin tilidan kirib kelgan grajdanlik, gorojanin so'zlarining o'zagi bir xildir. Sivilizatsiya shu ma'noda shahar madaniyati tushunchasini ham ifodalaydi. Shahar madaniyatini yaratgan va unda yashagan kishilarni sivilizatsiyali inson hisoblash rasm bo'lgan. Sivilizatsiyani bunday tushunish ayniqsa Yunoniston, Rim va boshqa joylarda keng tarqalagan (Kravchenko A.I. Vvedenie v sotsiologiyu. M.1995)

XUSH asr fransuz faylasuflari sivilizatsiyaga erishgan jamiyat deganda aql va adolatga asoslanuvchi jamiyatni tushundilar.

Sivilizatsiya ob'ektiv ijtimoiy hodisa bo'lib, odatda biron bir xalq, mintaqa, jamiyat, davlat va xatto butun jahonga nisbatan qo'llaniladi:

- sivilizatsiyaga erishgan xalq,
- Sharq sivilizatsiyasi, g'arb sivilizatsiyasi,
- sivilizatsiyali jamiyat, sivilizatsiyali davlat.

Sivilizatsiya butun bir xalq yoki millat, tarixiy davr va mamlakat tomonidan yaratiladi.

Madaniyat - sivilizatsiyaning muhim bir elementidir. Adabiyotlarda sivilizatsiyaga sof moddiy hodisa deb qarash hollari ham uchraydi. Moddiy taraqqiyot o'sa borishi bilan kishilarning faoliyat sohaslarida o'ziga xos o'xshashliklar va ma'lum qulayliklar paydo bo'ladi va ular to'planib «sivilizatsiya»ni tashkil etadi.

Sivilizatsiya tushunchasiga inson tomonidan yaratilgan predmetlar, hodisalar kiritilmoqda:

- moddiy boyliklar, transport vositalari,
- kasb-kor, ilmiy-tadqiqot o'tkazish usullari,
- ichki tartib, qoida, nizomlarni himoyalash usullari,
- insonlarning turmush tarzi,
- oziq-ovqatlarni is'temol qilish sifati, darajalari, me'yorlari
- ehtiyojlarni ta'minlash me'yori va darajalari,
- sanoat, qishloq xo'jaligi, taqsimot, rivojlanish darajalari,
- kiyim-kechak ishlab chiqarish, kiyinish, orastalik, estetik did va boshqalar.

Fan taraqqiyoti, uning amaliyotga tatbiq etilishi, ta'lim-tarbiya tizimi va uni amalga oshirish usullari sivilizatsiya yutuqlari hisoblanadi.

Xalqlar, davlatlar, mintaqalar rivojlanishidagi o'ziga xos farqlar sivilizatsiyalararo tafovutlarni tashkil etadi. («Sirli olam» jurn,1994, 4-son).

Demak, sivilizatsiya ko'proq moddiy taraqqiyotdagi farqlarga tegishlidir. Madaniyat esa ma'naviy taraqqiyot sohasidagi tafovutlardan kelib chiqadi.

Sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida o'zaro aloqadorlik, shuningdek, ular o'rtasida tafovut va ziddiyatlar bo'lishi ham mumkin. Sivilizatsiya va madaniyat ayni bir vaqtda vujudga kelishi mumkin. Biroq ular bir tekis rivojlanmaydi.

Sivilizatsiya rivojlangan bo'lishi, lekin madaniyat qoloq ahvolda qolishi mumkin va aksincha. Ko'pgina davlatlar taraqqiyoti shundan guvohlik beradi. Masalan: Qadimgi Rim o'zining gullab - yashnagan davrida o'ta rivojlangan sivilizatsiyaga ega edi, ammo unda madaniyat kam taraqqiy etgan edi. Chunki uning san'ati va falsafasi ma'lum bir hayotiy dunyoqarashdan ildiz otib chiqmagan edi, mavjudlari esa biron bir dunyoqarashning ta'sirida rivojlangan edi.

Xristian dini vujudga kelishi bilan dastlabki davrlarda u sivilizatsiyaga biror narsa bera olmadi, ammo u dunyoga yuqori darajali madaniyat berdi. Bu madaniyat xristianlik dunyoqarashidan kelib chiqqan edi.

Rimlik aql-idrok egalarining faoliyat tarzi moddiylik talablariga bo'ysungan edi. Demak, Qadimgi Rim taraqqiy etgan sivilizatsiyaga misol bo'la oladi. Keyinchalik Rimda sivilizatsiya va madaniyat uyg'unlashdi, ya'ni xristianlik tufayli Rim ham sivilizatsiyaga, ham madaniyatga erishdi. Biroq sivilizatsiya madaniyatga bo'ysundiradigan, madaniyatga bo'lgan e'tibor kuchaygan edi.

Jahon taraqqiyotning hozirgi bosqichida sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro munosabatiga bo'lgan turlicha qarash va konsepsiyalar mavjddir. yevropa mamlakatlarida asosan jamiyatning moddiy tomoniga e'tibor kuchaytirilib, madaniyatni sivilizatsiyaga bo'ysundirishga harakat qilinyapti.

Insoniyatning tafakkur tarixidan yaxshi ma'lumki, taraqqiyotning ayrim davrlarida falsafa, madaniyat, ma'naviyat birlamchi, ustivor o'rinni egallagan. Materialistik dunyoqarashning chinakam sivilizatsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan davrlari ham bo'lgan. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining o'zagi bir xil emas: din ruhiyat, ma'naviy kamolot, ilohiyot bilan bog'langan, sivilizatsiya esa insoniyatning mehnati, yaratuvchan faoliyati asosida vujudga kelgan ijtimoiy jarayondir.

Demak, sivilizatsiya va madaniyat turlicha tushunchalar va kategoriyalarga asoslanadi. Insoniyat tafakkurining turli bosqichlarida madaniyat va sivilizatsiyani birlashtirish yo'lida ko'p harakatlar bo'lgan.

Yahudiylarning muqaddas diniy kitobi bo'lgan Tavrotda ijtimoiy g'oyalar va moddiylik birlashtirilib, yaxlit holda berilgan. Yahudiylar o'z ta'limotlarida sivilizatsiya va madaniyatni bir-biri bilan bog'lashga, qo'shishga uringanlar.

Sivilizatsiya va madaniyatni bir-biri bilan bog'lash, qo'shishga bo'lgan urinish hinduizm va zardushtiylik dinlariga ham bo'lgan.

Lekin bu ikki sohani ayniylashtirish va bir xil hodisa deb qarash yaramaydi. Chunki sivilizatsiya va madaniyat bir-biridan o'z mohiyati va tuzilishi jihatidan keskin farq qiladi.

Sivilizatsiya tabiiy va ijtimoiy-madaniy uyushmalarning yaxlitligi, xalq bunyodkorlik faoliyatining mahsuli hisoblanadi.

Bunda shu xalqning madaniyati, an'analari, udumlarining o'ziga xos xususiyatlari, yashash joylarining geografik va iqlim sharoitlari o'z ifodasini topadi.

Sivilizatsiya - millatlararo totuvlik, iqtisodiy aloqalar birligi (xo'jalik munosabatlari), tabiiy-geografik sharoitlar, madaniy va antropologik tomonlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bunda milliy til va madaniyat benihoya ahamiyatlidir. Chunky har qanday sivilizatsiyaning mohiyati va mazmuni ana shu tushuncha va belgilarga bog'liqsir. Lekin har qanday sivilizatsiya o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir asosida shakllanadi. Har qanday sivilizatsiya o'zining shakllanishida boshqa sivilizatsiyalarning yutuqlari va imkoniyatlaridan iloji boricha keng foydalanadi, ularni o'ziga singdirishga harakat qiladi.

Toynbi, Karl Yaspers va boshqalarning fikricha, Rossiya sivilizatsiyasi G'arbiy yevropa sivilizatsiyasi qatorida turadi.

Lekin Rossiya sivilizatsiyasi yunon-rim divilizatsiyasining bir tarmog'i hisoblanadi. Shuningdek, Rossiya sivilizatsiyasi uchun vizantiyaliklarning roli salmoqlidir.

Odatda yirik sivilizatsiyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi sistemali ravishda o'rganiladi. Ya'ni sivilizatsiyani o'rganishga kompleks yondashish, inson va uning madaniyatini atroflicha o'rganish, shu xalqning madaniyati, faoliyat tarzi, xulq-atvori va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Sivilizatsiyaga xos xususiyatlar badiiy, madaniy, ma'naviy yodgorliklarda o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston sivilizatsiyasi va madaniyati ancha boy va uzoq rivojlanish tarixiga egadir. U islom dini, madaniyati orqali Sharq mamlakatlari uchun xos bo'lgan umumiy madaniyat manbaalari bilan uyg'unlashadi. Bu esa o'zbek sivilizatsiyasining sharqona asosini belgiladi. Ammo o'zbek sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarining betakrorligi, noyobligi va milliyligini saqlab qoldi. O'zbek sivilizatsiyasi qator xususiyatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, yaxlit sivilizatsiyani yaratish imkoniyatini kuchaytirmoqda.

Hozirgi davrda O'zbekiston sivilizatsiyasining yo'nalishi hamkorlik va birlikni mustahkamlashga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madaniyat, din va urf-odatlarni hisobga olib integratsiyalashuv jarayonini amalga oshirish, mintaqada sivilizatsiyalararo ziddiyatlar keskinlashuvining oldini olishga, madaniyat va qadriyatlarni o'rganish, avaylab-asrash, davrga moslashtirishga, mavjud sivilizatsiyalar o'rtasidagi umumiy tomonlarni topish, sivilizatsiyalarni sintezlashtirishga qaratilgandir.

I.A.Karimov ana shu jarayonlar to'g'risida shunday deb yozadi:

« Markaziy Osiyo xalqlarining integratsiyasi bor narsa, bu mavjud voqyelik - hududiy birlik, kommunikatsiyalar, iqtisodiyotning asosiy va yetakchi tarmoqlari mushtarakligi ob'ektiv zaruriyat deb hisoblaymiz. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlariga ega bo'lgan xalqlarimizning madaniy, til va ma'naviy birligi haqida-ku gapirma ham bo'ladi»

«Markaziy Osiyo Hamdo'stligi integratsiyasi bizning mustaqillik va taraqqiyot yo'limizdir» (I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T., 1997,320-323 betlar.)

Sivilizatsiyaga ideal jamiyat, aql va tafakurga asoslangan jamiyat deb qaralmoqda.

Sayohatlar davri (XU-XU1)da yevropa madaniyati va axloqidan tashqari olamda turli-tuman madaniyatlar mavjudligi e'tirof qilindi. Natijada XXI asr boshlariga kelib, sivilizatsiyaning etnografik konsepsiyasi vujudga keldi. Ya'ni har bir davlat, xalq, millat o'z sivilizatsiyasiga ega (T.Juffrua).

«Sivilizatsiya» tushunchasiga yondashishda XIX asr boshlarigacha 3 xil qarash mavjud edi:

1. sivilizatsiya-insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanish ideali,
2. sivilizatsiya - insoniyatning yagona, yaxlit progressiv rivojlanishining bir bosqichi,
3. lokal-tarixiy sivilizatsiya yaxlitligi, etnoslarning yoki tarixiy, ijtimoiy uyushmalarining noyob va betakrorligini e'tirof etish.

F.Gizo sivilizatsiyaning etnotarixiy konsepsiyasini yaratdi. Uning fikricha, insoniyatning yagona progressiv rivojlanishi turli xalqlarning madaniy-realligi o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyat mavjud. Gizo lokal sivilizatsiyalar mavjudligini, shuningdek, yaxlit kishilik jamiyati progressi uchun ham sivilizatsiya g'oyasini qo'llash mumkinligini e'tirof etdi.

yevropa falsafiy-tarixiy tafakkurida progressning to'g'ri chiziq asosida borishi to'g'risida metodologik ta'limot yaratildi.

Bu metodologiyaning mohiyati shundan iboratki, harakat qiladigan kuchlar ularning xususiy tomonlari, xolos. Jahon tarixi quyi holatdan yuqori rivojlangan va takomillashgan holatga o'tadigan jarayondir. Har bir xalq ana shu to'g'ri chizikli progress yo'lidan boradi. Keyinchalik shu metodologiya asosida «tarixiy» va «notarixiy» xalqlar konsepsiyasi vujudga keldi:

- a) «ma'naviy rivojlanishning uch bosqichi» qonuni (oila, fuqarolik jamiyati va davlat) - Gegel ta'limoti,
- b) «tafakkur evolyusiyasining uch bosqichi» qonuni (teologiya, metafizika, pozitivizm) - Kont nazariyasi,
- v) «ijtimoiy - iqtisodiy formatsiya» nazariyasi - K.Marks ta'limoti shakllandi va keng yoyildi.

N.Danilevskiyning «Rossiya va yevropa» asari (1869 yil)da Rossiya sivilizatsiyasining tug'ilishi va rivojlanishi masalalari tahlil qilindi.

N.Danilevskiy o'z asarida, birinchidan, insoniyatning «yaxlit sivilizatsiya sifatida yashashi» to'g'risidagi ta'limotni inkor etdi, ikkinchidan, tarixiy jarayonlarda faqatgina xalqlar va ularning betakror, o'ziga xos sivilizatsiyasi, «madaniy - tarixiy tiplar» mavjud, bo'lib, bu xususiyatlar boshqa xalqlarda shakllanmasligini, ularni o'zlashtirib bo'lmasligini, ular faqat shu xalqdagina mavjud ekanligini ko'rsatdi.

Madaniy - tarixiy tiplar bir - biri bilan uzluksiz kurashish jarayonida quyidagi davrlarni bosib o'tadi.

- etnik holatdan davlatchilikka,
- davlatchilikdan esa sivilizatsiyaga o'tadi,
- madaniy - tarixiy tiplar o'zgaradi.

N.Danilevskiy g'oyalari XX asrning 20-30- iillarida nemis faylasufi O.Shpengler tomonidan yanada rivojlantirildi.

O.Shpengler «evropa quyoshning so'nishi» asarida G'arbiy yevropa tarixiga xos yevropotsentrizm, panlogizm, istorizm, to'g'ri chiziqli progressizm prinsiplarini tanqid qildi va madaniy - tarixiy jarayonning aylanma xarakter nazariyasini yaratdi.

Uning fikricha,

- 1 .Jahon madaniyati turli - tuman bo'lib, siklli rivojlanishdan iborat:
- 2.Turli - tuman madaniyatlar yetuklik jihatdan o'zaro teng va baravardir.

Jahon madaniy-rivojlanish jarayoni muqarrar ravishda quyidagi 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

- 1) yoshlik (mifosimvolik, ilk madaniyat). .
- 2) gullab - yashnash, yuksalish (metafizik - diniy madaniyat):
- 3) tushkunlik (qotib qolgan madaniyat)

O.Shpenglarning fikricha, tushkunlikka yuz o'g'irgan va qotib qolgan madaniyat sivilizatsiyaga o'sib o'tadi. Shuning uchun sivilizatsiya hamma joyda bir xil sifat, belgi va xususiyatga ega bo'ladi:

- yaxlit madaniy olamning organizm sifatida barham topishi uning o'lganligida ko'rinadi:

- bu ilhomlantiruvchi, rivojlantiruvchi madaniyatning so'ngida o'z ifodasini topadi:

- madaniyatning yo'klikka qaytishi etnik tartibning buzilishi, ya'ni borliqqa qaytishi demaqqdir.

O.Shpengler, tarixiy jarayonning aylanma harakati, tarixiy «ritmi» (maromi)g'oyasini olg'a surdi: Bu nazariya sivilizatsiyaning siklli rivojlanishi, ya'ni takrorlanib turishi haqidagi konsepsiyaga olib keldi.

A.Toynbi XX asr o'rtalarida yozgan ko'p jildli asarlarida sivilizatsiyaga sistema sifatida yondashdi va bu sistemaning elementlari, qismlari va bo'laklariga uzviy aloqadorlikda qaradi.

Toynbining fikricha, sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, xalqlarga nisbatan tabiat tomonidan («hosilsiz yerlar» va «siquv yo'llar» stimullari) yoki insoniy muhit («zarba» va «siquv») stimullari tomonidan qo'yilgan chaqiriqqa javobi hisoblanadi.

Yangi sivilizatsiya ikki yo'l asosida paydo bo'lishi mumkin: 1. jamiyatning oddiy, primitiv strukturasi omma ichidan yetishib chiqqan ijodiy fikrlovchi elita (tabaqa, guruh) tomonidan o'zgartiriladi.

Chaqiriqqa, talabga nisbatan yangi metod va mexanizmlar yaratadi va ijtimoiy aktivlik mimesis mexanizmi asosida ro'y beradi. (Mimesis-ijtimoiy

taqlid, imitatsiya orqali ijtimoiy qadriyatlarga ko‘shilish, ishtirok etish, aralashish - birikishga intilish demakdir).

2. Yangi sivilizatsiya o‘tmishda bo‘lgan sivilizatsiyaning genetik negizidan kelib chiqishi ham mumkin.

Demak, Toynbi sivilizatsiyaga sistema sifatida qaradi, ular o‘rtasidagi tafovutlarni esa aloqalar tipi, turi bilan bog‘ladi. U jahon sivilizatsiyalari tarixi, uning turlari, xususiyatlari, farqlarini o‘rganish bilan shug‘ullandi va qator asarlar yaratdi.

XX asrning I-yarmiga kelib, ijtimoiy - falsafiy ta'limotning maxsus tarmog‘i sifatida sivilizatsiyani tadqiq etish fani vujudga keldi va tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Xatto qator mamlakatlarning o‘quv yurtlarida majburiy predmet sifatida o‘quv rejalariga kiritildi.

Sivilizatsiya mohiyatini talqin etishga bir qancha yondashuvlar:

kulg‘turologik, sotsiologik, etnopsixologik, geografik yondashuv va boshqalar vujudga keldi.

Kulg‘turologik nuqtai nazardan (M.Veber, A.Toynbi) yondashishga ko‘ra sivilizatsiya, bu - alohida sotsiomadaniy fenomen bo‘lib, makon va zamon bilan chegaralangan, Uning asosini din tashkil etadi.

E.Taylor sivilizatsiya elementlariga bilim, e'tiqod, san'at, qonun, udumlar, odatlar, va boshqalarni ham qo‘shadi, chunki shu jamiyat a'zolari ularni o‘zlashtirib oladilar va ularga amal qiladilar.

Sotsiologik asosda yondashuv (D.Uilkins)ga ko‘ra sivilizatsiyani sotsium sifatida tushunish mumkin emas, u yagona bir xil madaniyatdan iborat bo‘lolmaydi. Gomogen madaniyat sivilizatsiyaning belgisi bo‘lolmaydi: madaniyat har xil bo‘lolmaydi: madaniyat har xil bo‘lishi mumkin. D.Uilkinsning fikricha, sivilizatsiya-ijtimoiy uyushma bo‘lib, u vaqt va makonda aloqalar, konfliktlar asosida mavjud bo‘ladi.

Sivilizatsiya munosabatlari xamkorlik, konfliktlar, urush, tengsizlik, barqarorlik va eksplutatsiya asosida mavjud bo‘ladi, ayniqsa ijtimoiy-siyosiy aloqalar kuchli rivojlangan bo‘ladi.

Etnopsixologik yondashuv (L.Gumelev)ga ko‘ra sivilizatsiyani etnik taraqqiyot xususiyatlari bilan, u yoki bu xalqning madaniyati va psixologiyasi bilan bog‘lanadi.

Bu esa sivilizatsiyani milliy xarakter bilan bog‘lash yoki u bilan ayniylashtirish demakdir. Bunday yondashuv o‘rtasidagi o‘ziga xos tafovutlarni sezmaslikka olib keladi.

Sivilizatsiyaga geografik determinizm asosida yondashish (L.Mechnikov) ham mavjud.

Bu oqim tarafdorlari u yoki bu xalq sivilizatsiyasini g‘yergrafik muhit bilan bog‘laydilar, ya'ni kishilarni uyushtirishni kooieratsin shakli tabiatning o‘zgaruvchan, yaratuvchan faoliyati asosida shakllanadi.

Falsafaga oid adabiyotlarda sivilizatsiya mohiyatini keng va tor ma'noda tushunish hollari ham ucharaydi.

Sivilizatsiya keng ma'noda jamiyat moddiy va ma'naviy yutuqlarining majmui, yig'indisi sifatida talqin qilinmoqda.

Sivilizatsiya tor ma'noda jamiyatning faqat moddiy madaniyatini ifoda etadi, deb hisoblamodalar.

XX asrning ikkinchi yarmida yevropa sivilizatsiyasi masalasida bir qancha yo'nalishlar vujudga keldi.

1. Sivilizatsiya - lokal tarixiy uyushma. Bunday uyushma u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy mentalitetini ifodalaydi. Bunda sivilizatsiyaning sotsiomadaniy xususiyati o'z ifodasini topgandir.

2. «Sivilizatsiya» tushunchasini madaniy-reduksion asosda talqin etish yaramaydi. Bu g'oya hozirgi davrdagi globalistika masalasi bilan uzviy bog'likdir. Ya'ni u jahon sivilizatsiyasining yaxlitligini e'tirof etadi.

3. Sivilizatsiya masalalariga doir yana bir ta'limotga ko'ra sivilizatsiya ko'p ma'noli hodisa, turli-tuman sivilizatsiyalarning uchrashuvi sifatida vujudga kelgan hodisadir. Unga hozirgi davrning global imperativ (talab) «chaqirig'i» natijasi sifatida qaralmoqda.

Sivilizatsiyaning ko'p ma'noli hodisa sifatida talqin etilishi uning mohiyatini germenevtik asosda anglashga olib keldi va atomistik, ya'ni bir tomonlama qarashni istisno etadi. Atomistik nazariya sivilizatsiyaga sotsiomadaniy birlik, yaxlitlik sifatida qarashni inkor etadi.

Sivilizatsiya, bu ko'p sivilizatsiyalarning o'zaro aloqasi bo'lib, global masalalar bilan uzviy bog'likdir. Ammo sivilizatsiyaga yaxlitlik deb qarash bilan birga har qanday sivilizatsiyaning o'ziga xosligi saqlanmoqda (G'arb, Islom, Hindiston, Xitoy, sivilizatsiyalari), lekin shunga qaramay, hozirgi davrda sivilizatsiyalararo mustahkam aloqa (tendensiya) yo'nalishlari kuchaymoqda. Olamga yaxlit birlik sifatida qaralmoqda.

N.Moiseevning fikricha, XXI asrda yagona qit'a sivilizatsiyasi vujudga keladi, unda umuminsoniy qadriyatlar, kollektiv umum sayyoraviy Aql, axloq va ruhiy olam qaror topadi.

Bunday qarashga zid ravishda E.Batalov tomonidan olg'a surilayotgan nazariyaga ko'ra megatsivilizatsiya vujudga keladi, lekin milliy, regional, xududiy sivilizatsiyalar o'z ahamiyati va noyobligini saqlab qoladi:

1. «madaniy» plyuralizm nazariyasi:
2. «glyubalizm» konsepsiyalari mavjud:

«Madaniy» plyuratsizm nazariyasiga ko'ra madaniyat mamlakatlar, regional sivilizatsiyalarni bir-biri bilan uzviy bog'lovchi halqadir. Bu olamni garmonik rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. madaniy hamkorlikni vujudga keltiradi. Chunki G'arb sivilizatsiyasi faqat yagona sivilizatsiya emas, unga zid turgan Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xos fenomenlari, betakror va noyob tomonlari mavjud. yevropa yoki G'arb sivilizatsiyasi oldida ko'p milliy madaniyatlardan iborat bo'lgan endogen madaniyat modelini, madaniy plyuralizmni yaratish vazifasi kun tartibiga ko'yiladi:

yer yuzining globallashuvi jarayonida savdo birlashmalari, har xil mafkuraviy ishlari olib borish asosida yagona olam manzarasini yaratishga harakat qilinadi.

Globalizm bir qancha bosqichlarga bo‘linadi:

1. globalizmning «tug‘ilishi» (XU-XUSh asrning 1-yarmi)
2. globalizmning «boshlanishi» (XVIII asr P-yarmidan to 1870 yil).
3. globalizmning «sakrashi» (1870 yildan XX asrning 1- yarmigacha).
4. globalizmning «noaniq holati» XX asr I-yarmiga to‘g‘ri keladi.

Bu davrlarda milliy birliklar, xalqaro munosabatlar «xalqaro hamjihatlik» kabi jarayonlar sodir bo‘ladi. Ayniqsa so‘ngi «noaniqlik holatida» ko‘p etnik va ko‘p madaniyatlilik jahon «grajdanlik jamiyati »va jahon grajdanligi vujudga keladi.

Sivilizatsiya masalasiga yondashishda bir - biri bilan bog‘langan uch xil yo‘nalish vujudga keldi:

1. lokal - tarixiy yondashuv asosida izohlash
2. tarixiy - bosqichli yondashuv.
3. Jahon tarixiy bosqichi asosida yondashuv:

Sivilizatsiya lokal-tarixiy asosida yondashishda turli qarashlar mavjud.

1. N.Danilevskiy (xronologik tartibda) quyidagi madaniy-tarixiy tiplarni: Misr, Assiriya, Vavilon, Finikiya, Hindiston, Eron, yevropa, Yunon, Rim, Arab, Yahudiy, Slavyan sivilizatsiyalarini ko‘rsatdi.

2. O.Shpengler madaniy - tarixiy olamni: Misr, Hindiston, Vavilon, Yunon, Rim, G‘arbiy yevropa sivilizatsiyalariga ajratdi.

3. A.Toynbi lokal sivilizatsiyalarni: Misr, Xitoy, Minay, Shumer, Mayya, Suriya, Hindiston, Hyett, Ellin, Pravoslav, Xristian (Rossiya), Uzoq Sharq, (Kareya, Yaponiya) Eron, Arab, Vavilon va boshqalarga ajratdi.

Yana u umumlashtirib: A) «G‘arbiy yevropa» B) «Provaslav Xristian» yoki Vizantiya V) «Islom jamiyati» G) «Hindiston jamiyati» D) «Uzoq Sharq jamiyati» kabi sivilizatsiyalarni ko‘rsatdi.

L.Vasilg‘yev esa;

«G‘arbiy yevropa», «Rossiya», «Islom», «Hind-budda», «Konfutsiy» sivilizatsiyalarini farqiladi.

II. Sivilizatsiyalarga tarixiy bosqich sifatida yondashuvda u yoki bu aksioma mezonlari asos qilib olinadi va sivilizatsiya bir necha tiplarga ajrataladi:

- «og‘zaki, yozma, kitob shakliga keltirilgan, ekranlashtirilgan»

- «kosmogen, texnogen va antropogen»

- «traditsion va hozirgi» sivilizatsiya.

- Hozirgi zamon adabiyotlarida sivilizatsiyaga tarixiy-bosqichli yondashuvda ko‘proq texnokrat usulga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi:

- agrar (industrial davrgacha) sivilizatsiya:

- sanoat (industrial) sivilizatsiyasi

- informatsion sivilizatsiya (U.Rostou, D.Bell, O.Toffler).

III. Sivilizatsiyaga jahon tarixi sifatida yondashuviga asos qilib olinadi. Lokal sivilizatsiyaning o'zaro munosabatlari negizidan jahon tarixi kelib chiqadi va ekumen (koinot, jahon) sivilizatsiyasi shakllanadi. Sivilizatsiyani tarixiy jarayon bilan bog'laydilar va turli moddiy, ma'naviy omillarni asos qilib oladilar va o'zgarishlarini ko'rsatadilar.

K.Yaspers jahon tarixiga, insoniyatning qaror topishi va rivojlanishiga ekzistensializm (mavjudlik, ma'naviy ibtido) g'oyasini asos qilib oldi. Uning nazariyasida inson borlig'ining ma'naviy asoslari muhim o'rin egalladi. Uning fikricha, real jahon tarixi:

- inson ruhining maxsus rivojlanish bosqichi:
- turli madaniyatlarning o'zaro aloqalari natijasi:
- madaniy xalqlar o'rtasidagi haqiqiy aloqa vositasi:
- ma'naviyat jahon tarixining muhim omilidir:

K.Yaspers «Tarixning boshlanishi va uning maqsadi» (1949) asarida ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini:

1. «tarixgacha»
2. «qadimgi buyuk madaniyat» (lokal tarix)
3. «o'q davr» jahon tarixining boshlanishi
4. «texnik davr» (yagona jahon tarixi) gacha bo'ladi.

I. Tarixgacha bo'lgan davrda:

- Insoniyatning vujudga kelishi va qaror topishi,
- O't (olov) va mehnat qurollarining yaratilishi davri,
- Nutqning vujudga kelishi,
- Ijtimoiyguruh va hamjihatlikning shakllanishi,
- Hayotning paydo bo'lishini afsonalar, miflar asosida anglash ro'y berdi. Uning fikricha, bu - tarixgacha bo'lgan davrning muhim, o'ziga xos xususiyatlaridir.

2. «Qadimgi buyuk madaniyatlar» davri: Insoniyat tarixi yer yuzida bir vaqtda quyidagi joylarda vujudga kelgan:

1. Shumer-Vavilon va Misr madaniyati, shuningdek, egey olami (IV ming yillikdan to bizning milodgacha).

II. Hindiston havzasidagi Dosroniylar mamlakati (III ming yillikdan to bizning milodgacha).

III. Xitoy arxaik dunyosi (11 ming yillikdan to bizning milodgacha). K.Yaspersning fikricha, er. av. 800-200 yillardan bizning eramizgacha bo'lgan «o'q davri»da qadimgi buyuk madaniyatlar ta'sirida butun insoniyatning universal ma'naviy negizi shakllana boshlagan. Bu jarayon bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda yer yuzining turli joylarida vujudga kela boshlagan.

Hindiston, Xitoy, Eron, Falastin va qadimgi Yunonistonda ma'naviy harakatlar boshlangan va hozirgi qiyofadagi inson tipi shakllangan.

«O'q davri»ning eng muhim xususiyatlaridan yana biri bo'lgan jahon dinlari shu vaqtda vujudga kelgan. Mifologik - afsonaviy ong va dunyokarash o'rniga falsafiy ong va dunyokarash, ma'naviyat, reflekslar, ko'nikmalar vujudga

keldi. Ruhning uygʻonishi bu dunyo umumtarixining boshlanishi va lokal madaniyatlar oʻzaro aloqasining kuchayishdan dalolat beradi.

K.Yaspers «oʻq davri»ga insoniyatning tarixiy makon va zamon sifatida qaraydi. Shuningdek, u «oʻq davri»da yaxlit insoniyatning vujud kelishida ayrim xalqlarning tarixiy rol' oʻynaganligini koʻrsatdi.

K.Yaspers «Oʻq davri xalqlari» (xitoyliklar, hindistonliklar, eroniylar, yahudiylar, yunonlar) oʻz tarixini uzluksiz rivojlantirib, insoniyatning yagona ma'naviy makoni va uning haqiqiy tarixi boshlanishiga asos soldilar. (K.Yaspers. Smqsl i naznachenie istorii. M. 1994.str.32-50). III. «Texnika davri»

Bu davr XUI-XX asrlarni oʻz ichiga oladi. Bu davrning xususiyati shundan iboratki, insoniyat jahon tarixining ma'naviy yaxlitligi uchun harakat boshladi. Bu harakat gʻoya va nazariya sifatida emas, balki reallikka aylandi. yevropa madaniyati keng tarqaldi, geografik kashfiyotlar sodir boʻldi. XX asrda fan texnika rivojlandi, lekin yevropa madaniyatining rivojlanishiga qaramay, xalqlar oʻzlarining betakror, noyob madaniyatini saqlab qoldilar, yanada rivojlantirdilar va takomillashtirdilar.

L.Vasilgʻyev jahon tarixiy jarayonlari sivilizatsiyasi konsepsiyasini taklif etdi.

U insoniyat tarixini uch davrga boʻldi:

1-davr eng qadimgi davrdan to er. av. VII-VI asrlarni oʻz ichiga oladi. Bu davr «osiyo» tipidagi lokal jamiyatlar, traditsion, avtoritar, despotik, ma'muriy sistemaning asosiy prinsipi «mulk hokimiyati» va markazlashtirilgan redistributsiya («distributsiya» - taqsimlash, «re»-tiklash, taqsimlashga zid boʻlib, markazlashtirilgan» degan ma'noni ifoda etadi)ga asoslangan boʻlib, hokimiyat mulkchiligini keltirib chiqargan. Mulknı qayta taqsimlash davlatning qoʻlida boʻlgan. Ijtimoiy strukturaning oʻzgarishi siklli asosda qayta ishlab chiqilgan va u markazlashgan davlat orqali amalga oshirilgan. Traditsion sotsiotsentrik jamiyat strukturasi juda sekinlik bilan ayrim oʻzgarishlar kiritish, joriy etish hisobiga oʻzgargan, xolos.

I-davr er.av. UI-UI asrdan to XIU -XUI asrlarni oʻz ichiga oladi.

Bu yevropa tipidagi jamiyatning tugʻilishi va qaror topish davridir. Shu vaqtda parallel tarzda «evropa» va «Osiyo» olami, ya'ni ijtimoiy dixotomiya vaziyati vujudga keldi. Qadimgi Yunonistonda ijtimoiy mutatsiya tufayli «aniq yevropa» sivilizatsiyasi paydo boʻldi. U xususiy mulkchilikka, grajdanlik tamoyillariga asoslangan edi (genotip sivilizatsiya edi.)

Sh-davr XUSh-XIX asrlarda Gʻarbning bevosita Sharqqa kirib borish davrini oʻz ichiga oladi. Traditsion va yevropa madaniyati strukturalari oʻrtasida simbioz (bir-biridan foydalanib, birga yashash) jarayoni boshlandi: XX asrga kelib esa simbioz sintezga oʻtdi, (ikki sivilizatsiya bir-biri bilan bogʻlanib, qoʻshilib bordi). Sharq sivilizatsiyasining gʻarpga ta'siri kuchaydi, jahon tarixi transformatsiyalasha boshladi. Bunda Sharq sivilizatsiyasining roli, ta'siri kuchaya boshladi. Ammo bir vaqtning oʻzida turli xil sivilizatsiyalar bir-birlari bilan tinch-totuv yashashlari ham

mumkin. Ana shu holatni nazarda tutib, I. A. Karimov turli madaniyatlar hamda sivilizatsiyalarning yonma - yon yashashlari normal va foydali jarayon ekanligini alohida ta'kidladi (I.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T. 1997. 49-bet).

G‘arb va Sharq madaniyati sivilizatsiyalarining barqaror rivojlanishi va sintezlashuvi hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan prinsipial masala, muhim falsafiy muammodir.

yer yuzidagi ko‘pgina davlatlarning rivojlanish istiqbollari ayni shu modelga asoslanadi. Chunki unda jamiyatning barcha jabhalari o‘zia xos tarzda tugallangan va qiyomiga yetkazilgan jarayondir. Shunday xususiyat Sharq sivilizatsiyasiga ham xosdir.

O‘zbekiston o‘zining ulkan tarixiy taraqqiyoti va o‘ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega bo‘lgan mamlakatdir. U jahon sivilizatsiyasiga buyuk hissa qo‘shgan, jahon tarixida chuqur iz qoldirgan dalat hisoblanadi. Ana shularni nazarda tutib, I.A. Karimov yozadi : «Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql - idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o‘zida mujassam etgan buyuk arboblar ko‘p bo‘lgan.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshbandiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko‘plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shdilar, xalqimizning milliy iftihori bo‘lib qoldilar. Ularning nomlari jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalarini hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum. (I.Karimov, «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida... T.1997. 140 bet.)»

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida iqtisodiy, madaniy.ijtimoiy jihatidan ilg‘or mamlakat hisoblanadi.

Shuningdek,u o‘z taraqqiyoti istiqbollari,imkoniyatlari jihatidan qulay geografik - strategik mavqyega egadir. O‘zbekiston mintaqada har tomonlama qulay imkoniyatiga ega bo‘lgan istiqbolli mamlakatdir.

G‘I.Karimov ta'kidlaganidek: «O‘zbekiston mintaqaviy mezonlarga ko‘ra yuksak darajadagi urbanizatsiya va sanoatlashuvni, shuningdek, ilmiy-texnik kadrlar bilan ta'minlanganlikni turmush tartibiga va u Sharq bilan G‘arb muloqatida vositachi.ko‘plab sivilizatsiyalar ma'naviy aloqasining ramzi ham bo‘lishi mumkin»(I.Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida- T.1997.144-bet.»

O‘zbekiston hozirgi davrda jahon sivilizatsiyasi sari rivojlanib bormoqda.Bu rivojlanishda o‘ziga xos va o‘ziga mos an'analar, betakror noyob xususiyatlarini saqlanib qolmoqda.

Ma'lumki, eng yirik sivilizatsiyalar.Sharq va G‘arb sivilzatsiyalari hisoblanadi.Bu sivilizatsiyalar o‘rtasida umumiylik va o‘ziga xoslik mavjud.

Qator adabiyotlarda O'zbekiston jamiyati qaysi sivilizatsiya asosida taraqqiy etadidegan masala qo'yilyapti.

Agar O'zbekiston G'arb sivilizatsiyasi asosida rivojlansa, u holda G'arb taraqqiyotiga xos barcha iqtisodiy, shuningdek, hayotda mavjud bo'lgan ziddiyatlarni ham o'ziga singdiradi va qabul etadi.

O'zbekiston Sharq sivilizatsiyasi asosida taraqqiy etsa, u holda Sharqqa xos bo'lgan ijtimoiy xususiyatlarni, davlatning jamiyat barcha jabhalariga rahbarlarining ustunvorligini, an'ana, rasm-rusm, vaqtni o'zida mujamssamlashtirishi kerak. Bu esa rivojlanish jarayonini cho'zib yuboradi, u yoki bu davlatlarning rivojlanishi namunasini nusxa sifatida tanlashni qiyinlashtiradi.

O'zbekistonning tarixiy qismati Sharq tarixining bir qismi ekanligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, jahon tarixi, insoniyat tarixi yaxlit, bir butun, umumiy birlikdan tashkil topgan, o'zaro aloqada, o'zaro bog'liqdir. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda quyidagi tamoyillarga asoslanishi zarur:

1. tarixiy o'tish davri muammolarini dalillar asosida aniq idrok etish, uning mohiyatini seza bilish:

2. milliy an'ana, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va takomillashtirish asosida rivojlanish konsepsiyasini yaratish va unga qat'iy amal qilish:

3. jamiyatning barcha jabhalarida: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarni sivilizatsiyali yo'nalishga o'tkazish muammolarini hil etish:

4. xalqlar, davlatlar, millatlar rivojlanishidagi o'zaro o'xshashliklar, tafovutlar va ayrim xususiyatlarni qunt bilan o'rganish, ulardan foydalanish, moslashtirish va boshqalar:

5. shuningdek, jamiyat rivojlanishining eng muhim omillari sifatida geografik muhit va ummuman «tabiiy» faktorlar rolini aniqlash:

Davlatning hududiy joylanishi, daryolar, tog', cho'l regionlarning joylanishishi, ularning xo'jalik tarmoqlari, yer usti, tabiiy boyliklar, iqlim, inson salohiyati va boshqalarning o'rni va rolini aniqlash va boshqarish.

O'zbekistonning sivilizatsiyali rivojlanishi jahon hamjamiyati bilan bevosita bog'liqdir, ammo bu jarayonda u o'zligi va noyobligini saqlab qolishi kerak.

Insoniyat hozirgi jahon hamjamiyatining ochiqdan-ochiq ko'rinib turgan xilma-xilligi va ko'pqirraligini. uning barcha sub'ektlari o'rtasidagi turli teng huquqlikni ham butun jahon sivilizatsiyasi muvaffakiyatli rivojlanishini tabiiy va zaruriy shart sifatida eggirof etishni talab qiladi (I. Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida... T. 1997 51-52 bet»)

G'arb sivilizatsiyasi hozirgi davda rivojlanishning eng yuqori bosqichiga yetdi. U jahondagi mavjud sivilizatsiyalar yutuklarini o'ziga singirdi, mazmunan boyidi. Lekin G'arb sivilizatsiyasi o'z mohiyati, xususiyatlari bilan boshqa sivilizatsiyalardan, xususan, islom, konfutsizm, yapon, hind, buddizm va provoslav madaniyatidan farq

qiladi. Bu sivilizatsiyalardan G'arb idealiga xos bo'lgan individualizm, liberalizm, konstitutsializm, inson huquqi, erkinlik, tenglik, qonun ustuvorligi, demokratiya, erkin bozor, cherkovning davlatdan ajratilishi singari tamoiyillar rivojlanmagan.

Demokratik boshqarish usullari G'arbda shakllandi va rivojlandi. G'arbdan boshqa ayrim mamlakatlarda vujudga kelgan ijtimoiy, demokratik o'zgarishlar G'arbning taziyoqi, zo'rlashi asosida ro'y berdi. Ular bevosita xalqning o'zidan, shu mamlakat sivilizatsiyasidan o'sib chiqmagan, balki tashkaridan kiritilgan edi.

Sivilizatsiya - rivojlanishning muayyan bir bosqichidagi biron-bir xalq va mamlakatning ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotidagi sifatiy o'ziga xosligidir. Ayrim tadqiqotchilar sivilizatsiya asosini madaniyat, xalq, xudud bilan bog'lasalar, boshqalari dinni asos qilib oladilar.

Markaziy Osiyoning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy- ma'rifiy va sivilizatsiyali taraqqiyotida do'nyoviy ilmlar bilan bir qatorda turli diniy ta'limotlar ham o'ziga xos o'rin tutgan. «Ko'hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, - deb yozadi I. A. Karimov,- din har doim odamlarning o'z-o'zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan halos bo'lishga chorlagan. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so'z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat etgan, bunday da'vat o'z navbatida odamlarga kuch-quvvat bag'ishlagan; irodasini mustahkamlagan, bir-biriga mehr- oqibatni oshirgan».

Har bir xalq o'z milliy psixologiyasi, madaniyati va intellektual salohiyatiga mos ravishda o'z milliy davlatchiligini yaratadi. Siyosiy va huquqiy madaniyat sivilizatsiyaning muhim elementi hisoblanadi. Milliy davlatchilik asoslarini yaratmay turib, sivilizatsiya yaratib bo'lmaydi.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o'zaro bog'liqligi. Sivilizatsiya madaniy va ma'naviy rivojlanishning mahsuli sifatida vujudga keladi. Sivilizatsiyali taraqqiyot milliy madaniyat ravnaqi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Milliy madaniyat sivilizatsiyaning ruhi, jonidir. Milliy madaniyatdan uzilib qolgan sivilizatsiya oxir- oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Masalan, hozir yo'qolib ketgan Amerikadagi Mayya sivilizatsiyasi bunga misol bo'ladi. Ulardan bugun yuzdan ortiq shaharlarning xarobalari qolgan. Bunga tarixdan yana ko'plab misollar keltirish mumkin.

Sivilizatsiyaning tarixiy shakllari. Sivilizatsiyalar o'z shakliga ko'ra Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, xududiy va jahon sivilizatsiyasi kabilardan iborat.

Sharq sivilizatsiyasiga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlarni ko'rsatish mumkin :

- 1) Sharqdagi barcha dunyoviy, diniy va falsafiy ta'limotlar tabiatga ehtiyotkorik bilan munosabatda bo'lishni, sabr- toqatlilikni targ'ib etgan ;
- 2) odamlar orasida bag'rikenglik, birdamlik, hamjihatlik ruhi kuchli bo'lgan;

- 3) milliy qadriyat va an'analar e'zozlangan;
- 4) avlod-ajdodlarga, kattalar, ota-onaga hurmat bilan qarashga alohida e'tibor berilgan.

O'zbekiston Sharq sivilizatsiyasi bag'rida rivojlandi. Uning sivilizatsiyasiga xos belgilar: kambag'al va ojizlarga g'amxo'rlik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat kabilardir.

O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ilm- fan, axloq, din, san'at, madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shdi.

Milliy mustaqillik yillarida o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekiston o'z milliy qadriyatlari, ma'naviy merosi va boy madaniyatiga tayanib, G'arb va Sharqning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, jahon sivilizatsiyasi yo'lidan bormoqda.

Ijtimoiy - madaniy taraqqiyot mezoni.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Eng muhimi, jahon sivilizatsiyasini saqlab qolish va uni yanada rivojlantirishdir. Jahon sivilizatsiyasini tanazzulga olib keladigan qator tahdidlarni bartaraf etish, insonni oliy qadriyat sifatida e'zozlash, tabiatni avaylab-asrash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ommaviy qirg'in qurollarini yo'q qilish, davlatlar, xalqlar o'rtasidagi nizolarni siyosiy yo'l bilan muzokaralar orqali hal etish, turli jinoiy uyushmalarga barham berish, xalqaro terrorizm va giyoxvandlikka, turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish, kishilarda yangicha dunyoqarash va siyosiy tafakkurni shakllantirish hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim muammolaridir.

Bunday muammolarni oqilona hal etish uchun turli mamlakat, mintaqa xalqlari o'rtasida umumiy hamjihatlik va hamkorlikka bo'lgan intilish tobora ortib bormoqda.

I. A. Karimovning qator asarlari va nutqlarida ta'kidlanganidek, ayrim mintaqalardagi mojaro va ziddiyatlar o'z vaqtida oqilona hal etilmasa, jahon sivilizatsiyasi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Turli falsafiy sistemalarda dunyoning ijtimoiy- madaniy taraqqiyoti mezoni turlicha talqin etib kelindi. Xususan, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, texnik va texnologik yutuqlar, tabiiy geografik omilga ijtimoiy-madaniy rivojlanish mezoni sifatida qarab kelindi. Hozirgi paytda qator falsafiy adabiyotlarda shaxs ma'naviyati va uning erkinlik darajasi ijtimoiy- madaniy taraqqiyot mezoni sifatida ko'rsatilyapti.

Jamiyat taraqqiyotiga sivilizatsiyali yondashish.

Falsafa tarixida jamiyat rivojiga turlicha yondashishlar vujudga keldi. Bular: formatsiyali yondashuv, sivilizatsiyali yondashuv va h.o.

Ijtimoiy amaliyot, tarix tajribasi insoniyat jamiyati taraqqiyotiga formatsiyali yondashishning bir yoqlama, sun'iy ekanligini ko'rsatdi. Hozirgi zamon G'arb falsafasida U. Rostouning iqtisodiy rivojlaniish nazariyasi

keng yoyildi. O. Toffler nazariyasiga ko'ra, butun insoniyat tarixi uch katta davrga: agrar jamiyat, industrial jamiyat, posindustrial jamiyat (informatsion jamiyat) ga bo'linadi.

Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashish har bir xalq, mamlakat, mintaqa taraqqiyotiga noyob va takrorlanmas jarayon sifatida qarashga asoslanadi. Bunday yondashish mohiyatan formatsiyali yondashishga ziddir.

Sivilizatsiyali yondashish har bir milliy madaniyatning o'ziga xosligini, noyob va betakrorligini saqlagan holda ijtimoiy rivojlanishning tadrijiy yo'ldan borishini e'tirof etadi va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga tayanadi. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashishning mohiyati, xususiyatlari va mazmuni Prezident I. A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...» va boshqa asarlarida o'z ifodasini topdi.

Falsafa va madaniyatshunoslik

Madaniyat to'g'risida alohida bir fanning vujudga kelganligi madaniyatning inson va jamiyat hayotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Falsafa madaniyatdagi rang-baranglikni e'tirof etadi, madaniyatning universal xarakterga ega bo'lgan tarixiy tiplarini bir-biridan farqlaydi.

Madaniyat tiplari o'rtasidagi tafovutlar turli mintaqa va mamlakatlarning bir-biri bilan o'zaro ta'siri tufayli kelib chiqqandir.

Madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro ta'sir milliy madaniyatning o'ziga xosligini inkor etmaydi. Biroq jahon taraqqiyotining umumiy jarayoniga qo'shilishi milliy madaniyatlarning ko'rinishlarida turli o'zgarishlar ro'y beradi.

Milliy mustaqillik yillarida O'zbekistondagi turli xalqlar madaniyatini rivojlantirishga, madaniy meros va qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor berila boshlandi. Shu jihatdan respublikamizda ozchilikni tashkil etadigan xalqlar milliy madaniy markazlarning tashkil etilishi katta ahamiyatga egadir.

O'zbekistondagi turli xalqlar va millatlarning yagona g'oya va mafkura atrofida birlashishi bilan milliy madaniyatlar O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi tomon rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Milliylik, umuminsoniylik g'oyalarini uyg'unlashtirish va yanada takomillashtirish u yoki bu xalqlarga xos milliy madaniyatning o'ziga xosligini saqlaydi va yanada rivojlantiriladi.

Vatanimiz madaniyatida umuminsoniy qadriyatlar ustivor mavqeyeni egallaydi.

Umuminsoniy g'oyalar va qadriyatlarning shakllanishi milliy madaniyatning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Umuminsoniy qadriyatlar insonni e'zozlash, hayotni sevish, burch, sadoqat, ajdodlarga hurmat, vatanparvarlik, adolat, ma'rifatparvarlik, tinchlik, totuvlik, do'stlik, hamkorlik singari fazilatlarni ifoda etadi.

Prezydent I. A. Karimovning «O‘zbekiston XX! asr bo‘lag‘asida...» asarida biron-bir milliy madaniyatni ulug‘lab, uni boshqa madaniyatdan ustun qo‘yish va boshqa xalqlarga majburan targ‘ib etish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini alohida ta’kidladi.

Ko‘pmillatli mamlakatda milliy madaniyatlarni mensimaslik yoki uni kamsitish ijtimoiy barqarorlik va milliy totuvlikka putur yetkazadi, turli ziddiyat va ixtiloflarning paydo bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Milliy g‘oya va milliy mafkura asoslarini ishlab chiqishda milliy xususiyatlarni hisobga olish va ularni respublika taraqqiyoti istiqbollari bilan uyg‘unlashtirish millatlarni jipslashtirishga qaratilgan ilg‘or g‘oyalar yaratishni taqozo etyapti.

Respublikamiz madaniy taraqqiyotining istiqbollari.

Milliy mustaqillik yillarida madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollari uchun puxta zamin yaratildi. Bu, avvalo, boy madaniy merosimizni har tomonlama chuqur o‘rganish imkoniyatlarining yaratilganligida, kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilganligi va sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotganida, milliy madaniyatlarning ravnaq topishi va bir-birini boyitishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishidir.

Jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimiz merosini keng targ‘ib etishda mamlakatimiz ilm-fan va texnika salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilayotganligida, yurtimiz obodonchiligi yo‘lida katta tadbirlarning amalga oshirilayotganligida namoyon bo‘lyapti.

Madaniyat va sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari, qonuniyat va xususiyatlarini bilish - ma’naviy kamolot manbaidir.

Madaniyat va sivilizatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi va o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur idrok etish barkamol inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Yosh avlodni yuksak madaniyatli va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalash milliy taraqqiyotning muhim talabi, ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh vazifasidir.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yuksak madaniyatli insonni tarbiyalash, qonunchilikka amal qiladigan, fuqarolik burchini ado etadigan, fuqarolik jamiyati talablariga rioya qiladigan, har qanday kelishmovchilik va ixtiloflarni oqilona hal qila oladigan, jahon standartlari talablariga javob beradigan sivilizatsiyali barkamol shaxsni shakllantirish vazifasi turibdi.

Shunday qilib, madaniyat va sivilizatsiya bir-birini taqozo etadigan hodisalardir. Milliy mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohada erishilgan yutuqlar mamlakatimizning sivilizatsiyali taraqqiyoti uchun puxta zamin yaratadi.

Tayanch tushunchalar:

Yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya, madaniyat, madaniy taraqqiyot, lokal sivilizatsiya, sivilizatsiyali yondashuv.

Nazorat uchun savollar:

1. Sivilizatsiya tushunchasi qanday ma'nolarda qo'llaniladi?
2. Sivilizatsiya tushunchasining mohiyati.
3. Sivilizatsiya va madaniyatning o'xshash va farqli tomonlarini ixoxlang.
4. Sivilizatsiyalar turlari.
5. G'arb sivilizatsiyasining o'ziga xos tomonlari nima?
6. Sharq sivilizatsiyasining xususiyati.

Adabiyotlar:

1. Falsafa. Lotin alifbosida. – T., 2006 yil, 448-464 betlar.
2. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupov taxriri ostida. – T., «Sharq» 1999 y., 301-313 betlar.
3. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., «Sharq» 2004 yil.
4. G'arb falsafasi. (Olimlarning sivilizatsiya muammosiga daxldor qarashlari) – T., «Sharq» 2004 yil, 575-590 betlar.
5. Q.Xonazarov. Yangi taraqqiyot pallasi. – Tafakkur jurn., 2003 yil, 4-son.
6. Sherali Ashur. G'arb va Sharq: sivilizatsiya va ma'naviyat – Muloqot jurn., 1994 yil, 1-2 son.

18-MAVZU JAHON SIVILIZATSIYASI VA O‘ZBEKISTON ISTIQBOLINING FALSAFIY MASALALARI (2 S.)

Reja:

1. Hozirgi davr taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlari
2. Integratsiya tushunchasi. Jahon sivilizatsiyasiga integratsiya.
3. O‘zbekistonning tashqi siyosati va uning jahon mamlakatlari bilan yaqinlashuvida tutgan o‘rni.

Hozirgi paytda insoniyat o‘z rivojlanishida yangi bosqichga ko‘tarildi. U o‘zida moddiy ishlab chiqarish yutuqlarini insoniyat tomonidan ortirilgan tajribalarni, jahon miqiyosida paydo bo‘lgan muammolarni oqilona hal etish yo‘llari va usullarni mujassamlashtirdi. Jahon sivilizatsiyasi deganda Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari, mintaqaviy va xududiy sivilizatsiyalarning yaxlit bir butun sotsiol organizmi bo‘lgan umuminsoniy jamiyat tushuniladi. Bu tushuncha umumiy ma'noda, zaminimizda yashagan barcha odamlarning umumiy makoni bo‘lgan yer yuzida xaetning paydo bo‘lishi tarixning xamma davrlarida mavjud bo‘lgan davlat, jamiyat, xalq va millatlarning xayot kechirishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘zida aks ettiradi.

Bugungi taxlikaviy dunyoda insoniyatni eson- omon saqlab qolish jahon sivilizatsiyasining asosiy maqsadi bo‘lib qoldi. Respublikamizning bu sohada amalga oshirayotgan ishlari butun dunyo xamjamiyatining faoliyati bilan xamoxang bo‘lmoqsa. Zero, jahon sivilizatsiyasi xalqlar va millatlar, davlatlar va turli xududiy sivilizatsiyalarning umumiy sistemasidir.

Ayrimlik, o‘ziga xoslik va umumiylik o‘rtasidagi munosabatni teran anglash hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanish xususiyat-larini falsafiy idrok etishga imkon beradi.

yer yuzidagi har bir mamalakat jahon sivilizatsiyasi deb ataladigan yaxlit sistemasi turli elementlari bo‘lib, ularning o‘zaro ta'siri, xamkorligi bu sivilizatsiyaning takomillashuviga imkon beradi.

To‘g‘ri bu sistema tarkibiga Amerika, Rossiya, Xioy, Yaponiya kabi salmoqli elementlar ham bor. Ular ko‘p jixatdan jahon yeistemasining taraqqiyotiga ta'sir ko‘rsatadi, muayyan jarayonlarning yo‘nalilarini belgilaydi. Ammo bu sistemada har bir davlatning, kichgina Vatikali yoki Lixtenshteyndan tortib Germaniyagacha, Andora yoki Monakodan toki Fransiyagacha o‘z- o‘rni, o‘ziga xos ta'sir kuchi va doirasi bor. Shu ma'noda ularning har bir, xuddi katta - kichikligi, aholisining soni qanchaligidan kat'iy nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotida teng ovozga ega. Demak, elementlar sistema tarkibida muayyan tarzda amal qilgani singari har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasiga teng huquqli a'zo va muhim element sifatida kirib boradi.

Jahon xamjamiyati o‘zida umumiylikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o‘ziga xoslikni ifodalaydi. Bu holda Osiyo yoki markaziy Osiyo

mamlakatlari xususiylkni aks ettirsa, O'zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishganiga ko'p bo'lmaganligiga qaramasdan, jahon xamjamiyatida o'z o'rniga ega. Uning markaziy Osiyodagi mavkei esa bu mintaqaning asosiy taraqqiyot yo'nalishlarining ko'p jihatdan belgilaydi. Har bir xalq, millat o'zining betakror, noyob xususiylatlarini saqlagan holda mustaqil rivojlanadi va jahon xamjamiyatiga qo'shilib boradi. Bunday qo'shilish ko'p qirrali rang barang bo'lib, u iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy huquqiy, ijtimoiy, davlatlararo munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Jahon xamjamiyatiga qo'shilish tabiiy- qonuniyatli jarayon bo'lib, har bir mamlakatning har tamonlama taraqqiy etishi, yer yuzida umumiy xavfsizlik, tinchlik va farovonlikni ta'minlashga, tabiiy resurslar, ilm- fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanishga, ekalogik xavfsizlikni ta'minlashga imkon beradi. Mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan xalqlarning jahon xamjamiyatiga qo'shilishi, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini e'tirof etish, xalqaro huquq normalariga amal qilish, inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tamoyillariga amal qilishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish natijasida nafaqat iqtisodiy sohalarda, balki xalqlar ma'naviyati, siyosati va dunyoqrashida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Bunday jarayonga torilgan xalqlar o'rtasida bir- biriga ishonch, xamkorlik, o'zaro xurmat xamda konflikt, ixtiloflarni o'zaro kelishuv, konsensus asosida hal qilishga intilish vujudga keladi. Bir- birlarining madaniy yutuqlari qadriyatlaridan, tajribalaridan bahramand bo'lish, hohish - istagi shakllanadi. Halqlarning bir- biri bilan jiplashish tendensiyasi yaxlit, bir butun sivilizatsiyani, planetar ongni shakllantiradi. Ya'ni milliylik va umuminsoniylikning uyg'unligi jahon sivilizatsiyasida yaqqol namoyon bo'ladi va dunyo hamjamiyatining harakat dasturiga aylanadi. **Mustaqil O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish yo'lining falsafiy-metodologik muammolari.** O'zbekiston o'zining ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan milliy davlatchiligi, madaniyati, ilmlar fani, san'ati, o'ziga xos va betakror hayot falsafasi bilan jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shdi. O'zbek halqi jahonga fan, san'at, falsafa, tibbiyot. Siyosat huquq tarix sohalarida o'lmas asarlar yaratgan buyuk allomalarni berdi. Halqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilishiga halaqit bergan muammolar:

- o'z milliy davlatchiliga ega bo'lmaganligini
- milliy madaniyatning tabiiy rivojlanish imkoniyati cheklanganligi;
- mustabid tuzum mafkurasining tazyiqi ostida dunyodan uzib qo'yilganligi;
- tarixi, ona tili, ma'naviy merosidan begonalashish alomatlarini paydo bo'lganligi;
- milliy qadriyatlari, an'ana va urf- odatlarining yo'qolib borganligi va asrab- avaylash imkoniyatining kamligi va boshqalar.

Milliy mustaqillik tufayli O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini erkin tanlash, milliy davlatchilik asosolarini yaratish va jahon sivilizatsiyasiga

qo‘shilish imkoniga ega bo‘ldi. Mamlakatimiz o‘z mustaqilligining dastlabki yillardanoq jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish yo‘lini tanladi.

Jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan baxramand bo‘lish mustaqil rivojlanish yo‘liga kirgan davlatning dunyo xamjamiyatiga qo‘yilishining o‘ziga xos yo‘lini belgilaydi. Binobarin, har bir xalq mustaqil bo‘lganidan so‘ng o‘zining iqtisodiyoti, madaniyati, milliy davlatchilik siyosatini amalga oshiradi. U o‘z imkoniyatiga tayanib, jahon xamjamiyatiga kirib borar ekan, bu jarayon milliy falsafada ham o‘z ifodasini topadi.

Mustaqillik milliy falsafaning asosi, uning umumjaxon falsafiy jarayoni bilan qo‘shilishi va uyg‘unlashuvining eng asosiy shartidir. Mustaqillikka xalq milliylikini, o‘ziga xos qadriyatlari, urf- odatlari va dunyoqarashi o‘z falsafasida to‘la- to‘kis aks ettira olmaydi.

Mustaqil bo‘lmagan halqning falsafasida doimo mustamlakachilarning g‘oyalari ustivor bo‘ladi. Faqat mustaqilligina ijtimoiy ongning hamma sohalarida, dunyoqarash barcha jabhalarida milliylikning to‘la- to‘kis nomoyon bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Tarixning saboq berishicha, hych qanday davlat boshqa bir davlatga, xalqqa o‘z manfaatlarini ko‘zlamasdan beg‘araz yordam ko‘rsatmaydi. Jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish har bir mustaqil rivojlanayotgan davlatning taraqqiyotiga o‘z kuchiga, imkoniyatiga ilg‘or an‘analariga, qadriyatlariga milliy davlatchilik tajribalariga intellektual saloxiyatiga, tabiiy boyliklariga tayanishini inkor etmaydi, balki ularning keng rivojlanishi taqozo etadi.

Erkinlik, mustaqillik hamisha zaruriyatni, ma’suliyatni anglashni taqozo etadi: Erkinlik va mustaqillik jamiyatning har bir a’zosi oldiga «Biz kim edik? Xozir qanday ahvoldamiz va qanday bo‘lishimiz kerak?», singari savollarga vijdonan javob berishni talab etadi. Mustaqillik yillarida farovon va baxtli xayotni bizga kimdir yaratib bermasligini, balki o‘z aqlimiz, kuchimiz bilan yaratishimiz lozimligini anglash muhim axamiyatga egadir. Boshqa mamlakatlardan, yaxlit va bir butun jahon sistemasidan ajralib qolish bu borada ham taraqqiyotga imkon bermaydi.

Taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashuv o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbekiston va jaxon tarixini o‘rganishga bunday qarash hozirgi zamon falsafasida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaror topmoqda. U tarixiy haqiqatni xolisona baholashga, milliy xususiyatlarning o‘ziga xosligini anglashga, insoniyatning ilg‘or rivojlanish tajribalarini bilishga va ulardan ijodiy foydalanishga imkon beradi. Jaxon tarixiga sivilizatsiyali yondashuv insoniyat taraqqiyoti zo‘rliksiz va tadrijiy yo‘ldan ilgarilab borishi jamiyat uchun foydali ekanligidan odamzot boshiga turli ijtimoiy ofatlar tushmasdan rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning jaxon hamjamiyatiga kirib birinchi asosiy yo‘nalishlari

Mamalakatimiz mustaqilligi o'ziga xos taraqqiyot yo'lining nazariyasi va amaliyoti I. A. Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy yo'nalishlari», «O'zbekiston iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston XXI asr - bo'sag'asida : xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» va boshqa asarlari , nutq va maqollarida keng yoritilgan. Bu konsepsiyaning mohiyati nimalardats iborat? O'zbekistonning milliy jixatdan mustaqil bo'lishi ob'ektiv zaruriy jarayon, ajdodlarimizning asriy orzusi, o'zbek xalqining buyuk tarixiy yutug'idir. Bunda quyidagilar alohida e'tiborga molik:

- O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi
- Milliy mustaqillik ramzlari davlat bayrog'i, davlat madxiyasi, davlat gerbining qabul qilinishi;

- milliy davlatchilik demokratik tizimning barpo etilishi;
- barcha tabiiy boyliklariga egalikning qo'lga kiritilishi;

O'zbekistonning tadrijiy taraqqiyoti yo'li ayrim davlat-larning bozor

munosabatlariga «shok terapiya»si bilan o'tish tajribasidan keskin farqlanadi. O'zbekistonning mustabidlikdan qutilgan dastlabki davridagi o'ziga xos iqtisodiy ahvoli, sobiq ittifoq davrida o'lkanning xom ashyo yetkazib berishga iqtisoslashish kabi og'ir meros bilan birga, xalqning ming yillik tajribasi, undan kelib chiqadigan xulosalar bozor munosabatlariga tadrijiy ravishda bosqichma-bosqich o'tishni taqozo etadi.

Iqtisodiy islohatlar va sivilizatsiyalashgan bozor. Uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy strukturada tub o'zgarishlarni zudlik bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirishning salbiy oqibatlarini oldini olishga va puxta o'ylangan stragetik rejalarni amalga oshirishga alohida e'tibor berildi. Isloxlarni amalga oshirish milliy manfaatlar uchun xizmat qilishi zarurligi odamlar isloxlarni uchun emas, balki isloxlarni odamlar uchun xizmat qilishi zarurligi e'tiborga olindi. Islohatlar amalga aksariyat qismi iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda bo'lib, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi jarayonida ahvolining ikki toifaga ajralishi xaddan tashqari boyib va qashshoqlashib ketishlar muqarrar ravishda turli noroziliklar va ijtimoiy larzalarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Ana shularni hisobga olib, I. A. Karimov bozor munosabatlariga o'tish sifatida ahvolini ijtimoiy himoyalashga qaratilgan kuchli siyosat g'oyasini ilgari surdi.

Bozor munosabatlarini amalga oshirish bir necha bosqichlardan iborat qilibbelgilandi. Har bir bosqichda ma'lum iqtisodiy tadbirlar amalga oshirildi. Bular :

- mulkni xususiylashtirish;
- mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi;
- mulkning xilmalar xil shakllarini vujudga keltirish;
- agrar isloxlarni amalga oshirish;

- milliy valyutani muomalaga kiritish;
- yangi iqtisodiy infrastukturaning yaratilishi;
 - rivojlangan mamlakatlar bilan xamqorlikda qo'shma korxonalarining barpo etilishi;
 - innovatsiya siyosatini amalga oshirish;
 - xorijiy investitsiya, texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish va boshqalar.

Hullas bozor munosabatlariga o'tishning madaniy- sivilizatsiyali xarakterga ega ekanligi O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning muhim xususiyatidir. «Chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari bozor vositalari faqat yuksak ma'naviyat, yuksak axloqiylik, vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin». Iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va bozor munosabatlarini shakllantirishda respublikamizning holati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, islohatlarning maqsadi halq va davlatmunosabatlari tomon yo'naltirildi.

O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga kirishiga imkon beradigan qulay shart- sharoitlar quyidagilardir:

- milliy armiya va xavsizlik tizimining yaratilganligi;
- milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish.

O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning asosiy tamoyillar Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Bu jarayonning umuminsoniy jihatlari va jahon sivilizatsiyasiga xos tomonlarining amalga oshishi muayyan muddatni talayu qiladi. Bu muddatda amalga oshiriladigan barcha ishlar o'tish davrining zaruriyatidan kelib chiqadi.

Mustabid tuzum davrida jahon sivilizatsiyasidan ajratib qo'yilgan O'zbekiston bu borada ikki yo'nalishda faoliyat yuritishga majbur bo'lmoqda. Birinchidan, mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash va asrab avaylash asosida o'ziga mos yo'ldan borish. Ikkinchidan esa, bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligini ta'minlash jaxon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanish, demokratik qurish vazifalari amalga oshirilmoqda. Bir qarashda ikki xil yo'lga o'xshab ko'rilgan, bu taraqqiyot usuli, aslida umumiy jarayonning .uzviy bog'liq ikki jihati, bir-birini taqozo etadigan tomonlarining dialektikasidir.

O'zbekistonning I. A. Karimov tomonidan asoslab berilgan o'ziga xos taraqqiyot yo'li quyidagi tamoyillar bilan tavsiflanadi:

1. Iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;
2. Davlatning bosh isloxotchi ekanligi; .
3. Qonun ustuvorligi ;
4. Kuchli ijtimoiy siyosat;
5. Bozor munosabatlariga bosqichma- bosqich o'tish.

Sivilizatsiyali rivojlanish va mulkiy pryuralizm.

Bozor munoabatlari sharoitida maxsulot sifati va samaradorligini yaxshilashning muhim qonuniyatlaridan biri raqobatli muxitni yaratish, kishilarda xo‘jayinlik xissini shakllantirish, mehnat mahsuliga egalik qilish, shaxsiy manfaatdorlik va uni davlat manvaatlari bilan bog‘lash muhim tamoyil sifatida joriy etila boshladi. Mehnat tashkil etish jarayonida kishilarning kasbiy mahorati, bilimi, tajribasi, ko‘nikma va malakasi, mehnat madaniyati, mehnatni tashkil etish ijodiy yondashish kishilarning mehnat va mulkka bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi mezonga aylandi. Mulk nima? Har bir inson o‘zining ongli faoliyatida mulkka ega bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. mulk-insonning aqliy' va jismoniy mehnat faoliyatida yaratilgan' va uning normal yashashi uchun kafolat beradigan moddiy va intellektual boyliqdir.

Mulk avloddan- avlodga meros bo‘lib o‘tishi ham mumkin. Mulkdorning tasarrufida bo‘lgan barcha tirikchilik va ishlab chiqarish vositalaridir. Mulkning shaxsiy, xususiy, jamoa, davlat mulki singari shakllari mavjuddir. Mulk egasi o‘z tasarrufidagi mulkni avaylab- asraydi, tejaydi, undan oqilona foydalanadi va muttasil ravishda ko‘paytirishga xarakat qiladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlat xususiy mulkni qo‘llab-quvvatlashga, mulkchilikning turdi shakllarini rivojlantirishga, xususiy mulk daxlsizligini huquqiy kafolatlashga, tadbirkorlik va ishbilarmon rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar berish yo‘lga qo‘yadi. Bu esa kishilarning mulkdor bo‘lishi, o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratadi; Mustaqillik sharoitida aqliy mehnat mahsuli bo‘lgan fan, san'at asarlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari ta'lim- tarbiyaning yangi konsepsiyalarini yaratish intellektual mulk hisoblanadi. Intellektual mulk egasi o‘z mehnati mahsulini o‘z xohishicha tasarruf etadi. bunday mulkning qadr- qimmati, bahosi, sifati, jamiyatda tutgan o‘rni raqobatli muhitda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Intellektual mulkning talabgori, buyurtmachisi davlat va jamiyatdir. Mehnat jarayonida yaratiladigan har qanday mahsulot o‘z qiymatiga ega bo‘ladi. Qiymat mahsulotda o‘z ifodasini kuchi, qobiliyati, bilimi sarflagan vaqti, xom-ashyo, yoqylg‘i, energiya yo‘l xarajatlari uchun mablag‘i va xokazolardir.

Mulkdor mahsulot ishlab chiqarishga kamroq xarajat qilib, ko‘proq foyda olishga intiladi. Foyda- bozor munosabatlarida amal qiladigan muhim qonuniyatlardan biridir. Xususiy mulkning rivojlanishida foyda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Hozirgi paytda mehnat, mulk foyda tushunchalarini falsafiy-iqtisodiy jihatdan teran idrok etish, yoshlar dunyoqarashida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish va ularni jahon sivilizatsiyasi standarti talablari darasida fikr yuritishi va faoliyat ko‘rsatishi uchun zamin yaratadi.

O‘zbekistondagi demokratik jarayonlar jahon sivilizatsiyasi bilan uyg‘unlashuvining yana bir imkoniyatidir.

O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilib borishida demokratik jarayonlarni va rivojlangan davlatlarning siyosiy tajribalarini ijodiy o‘rganish va hayotga tatbiq etish muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston qonunchiligini xalqaro huquq talablariga muvofiqlashtirish, nufuzli xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lish xokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo‘lish, mamlakat prezidentini muqobilik asosida saylash fikrlar ko‘p xilligi va ko‘p partiyaviylik tizimini qaror toptirish demokratik qadriyatlarni hayotga tatbiq etish, O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilib borayotgan-ligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga kirib borishdagi tajribalarini falsafiy idrok etish va umumlashtirish ayniqsa muhimdir. Prezident I. A. Karimovning qator asarlarida yuksak ma'naviyat jamiyat taraqqiyotida muhim omil ekanligi to‘g‘risida g‘oya yangicha falsafiy tafakkurning metodologik asosi, jahon taraqqiyoti tajribalariga tayanishning yorqin namunasidir. Milliy g‘oya va milliy mafkura o‘zida mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish nazariyasi va yo‘llarini yaqqol aks ettiradi.

O‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish tajribasi, uning milliy g‘oyasi va mafkurasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim hususiyatlarini va O‘zbekistonning sivilizatsiyani taraqqiyot yo‘lidan jahon xamjamiyatiga qo‘shilib borishini, milliy g‘oya va mafkurani falsafiy idrok etish talablarda vatan tuyg‘usi, ma'rifatparvarlik, milliy g‘urur, burch. ma'suliyat hissini tarbiyalashga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar:

Davlat mustaqilligi, integratsiya, iqtisodiy integratsiya, siyosat, tashqi siyosat.

Nazorat uchun savollar:

1. «Integratsiya», «integratsiyalashuv» tushunchalarining ma'nosini izoxlang.
2. Globallashuv jarayonlari va integratsiya orasidagi munosabat deganda, nimani tushunasiz?
3. Jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuv nimalarda o‘z ifodasini topadi?
4. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
5. O‘zbekistonning jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuvining asosiy yo‘nalishlari qaysilar

Adabiyotlar:

1. Islom Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O‘zbekiston» 1997 yil, 296-323 betlar.

2. Islom Karimov. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo‘li. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasidagi ma'ruzasi. – T., «O‘zbekiston ovozi», 26 aprel 2003 yil.

3. Falsafa. M.Axmedova taxriri ostida. – T., 2006 yil, 470-479 betlar.
4. Munojatxon Nurmatova. O‘zbekiston va jahon xamjamiyati. – «Ijtimoiy fikr. Inson xuquqlari» jurn., 2004 yil, 4-son.
5. Dilshod Komilov, Norboy Karimov. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar. – «Xamkor» gazetasi, 2002 yil, 6 iyun.
6. Qobilbek Karimboev. Xavfsizlik va ijodiy taraqqiyot yo‘lidagi xamkorlik – XXI asr zazetasi, 2004 yil, 10 iyun.
7. Z.Muzaffarov. Mintaqaviy integratsiya rosmana iqtisodiy sa'y-xarakatlarni taqazo etadi. – «Xalq so‘zi». 2003 yil 27 sentyabr.

19-MAVZU: IJTIMOY BILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2 S.)

Reja:

1. Ijtimoiy bilish ilmiy bilishning o'ziga xos ko'inishi. Ijtimoiy bilishning tarkibi va o'ziga xos jixatlari.
2. Ijtimoiy (gumanitar) va tabiiy (ilmiy) bilimning mutanosibligi va farqi.
3. Ijtimoiy bilish darajalari. Empirik va nazariy bilish.
4. Ijtimoiy bashorat ijtimoiy bilim shakli sifatida.

Ijtimoiy bilish bu jamiyat, ijtimoiy – madaniy, jarayonlar, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tizimlar, xossalar va qonuniyatlar haqidagi tasavvurlar, g'oyalar va ta'limotlarni ishlab chiqarish jabhasi va majmuasidir. O'z navbatida ijtimoiy bilish kundalik hayot tajribasini odamlar ongida umumlashtirish, mafkuraviy tizimlarni yaratish, ijtimoiy- gumanitar tadqiqotlar o'tkazish jarayonida shakllanadi.

Odatda ijtimoiy bilish tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi: Birinchidan, jamiyat tomonidan bizni o'rab turgan olamni bilish, ikkinchidan, jamiyatni bilish degan ma'noni anglatadi. Biz ikkinchi ma'nodagi ijtimoiy-bilish haqida fikr yuritamiz.

Avvalo, e'tiborni ijtimoiy borliqni bilish bilan boshqa ob'ektlarni bilish o'rtasidagi muhim tafovutlarga qaratish maqsadga muvofiqdir.

1. Ijtimoiy bilish ilmiy bilishning eng murakkab shakllaridan biri bo'lib ijtimoiy rivojlanishning eng yuqori shaklini eks ettiradi. Ijtimoiy hodisa va jarayonlarning asosiy mohiyati shundaki, noorganik va organik tabiatni tadqiq etish jarayonida ular o'rtasidagi o'zaro munosabat qonunlari aniqlanadi.

2. Ijtimoiy bilish jamiyat hayotining moddiy (iqtisodiy) tomoni bilan ideal va ma'naviy tomonlarini uzviy bog'liqlikda o'rganishni taqozo etadi. Bu munosabatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tabiatdagi aloqalarga nisbatan murakkab, ko'p tarmoqli va ichki qarama-qarshiliklarga ega.

3. Jamiyatni bilish ham ob'ektiv, ham sub'ektiv xarakterga ega: ya'ni kishilar o'z tarixini o'zlari yaratadilar va ularni o'rganadilar.

Ob'ekt va sub'ektning bunday o'xshashligidan kelib chiqib, ularni bir xilda baholab bo'lmaydi. Bir tomondan, bu ijtimoiy ahamiyatga egadir. Jamiyatda bo'lib turadigan voqyealar uni o'rganayotgan sub'ektga taalluqli va taalluqli bo'lmaganligi bu jarayonlar mohiyatini chuqurroq va to'g'ri bilishga yordam beradi. Ikkinchi tomondan, sub'ektiv bilish jarayoni turlicha bo'ladi: ba'zan sub'ektning irodasi, qiziqishlari, maqsadlari ob'ektga nihoyatda qarama- qarshi bo'ladi. Natijada tarixiy jarayonlar va ularni bilishga sub'ektivizm elementlari namoyon bo'ladi. Shu o'rinda quyidagi mashhur hikmatni eslaylik: agar pifagor teoremlari insonlarning juda muhim shaxsiy manfaatlariga zid bo'lganida, ular bu teoremlarni rad qilgan bo'lar edilar.

Ijtimoiy bilishda keskin biryoqlamalikdan qochish nihoyatda zarurdir. Bu ayniqsa tabiiy-ilmii yondashuvni ijtimoiy hodisalarni o'rganishga to'la tatbiq etishda namoyon bo'ladi (T. Parsonsning «harakat» konsepsiyasi, Ya. Morening sotsiometriyalari va boshqalar). Psixologiyadagi bunday yo'nalish ko'p jihatdan fizika, kimyo, biologiya, kibernetika fanlarining yutuqlari bilan bog'liqdir.

Ijtimoiy bilishdagi biryoqlamaliklardan yana biri, bu tabiiyotshunoslikning bilish metodlarini jamiyatshunoslikda ham qo'llash mumkinligini rad etishdir. Albatta, konkret metodlar bir-biridan haqiqatan ham farq qiladi: masalan, tarixiy tadqiqot metodi o'z ichiga: tarixiy faktlarni qayd qilish va lokalizatsiya qilish, shaxsning identifikatsiya qilish metodikasi singari komponentlarni oladi. Lekin konkret metodlarning o'ziga xosligini mutlaqlashtirish xatodir: xususiy metodlarda bir-birini to'ldirish hollari uchraydi. Biologiya o'ziga xos metodlar bilan sotsiologiya, psixologiya metodlaridan, ijtimoiy antropologiya biologiya metodlaridan foydalanadi va nihoyat hamma tabiiy va ijtimoiy fanlar qanday tadqiqot olib borishidan qat'i nazar yagona falsafiy metodga tayanadilar.

Ijtimoiy bilishni ob'ektivligi masalasida faylasuflar o'rtasida bahslar sodir bo'lmoqda. Ma'lumki, ijtimoiy bilishni shakllanishiga bilish sohibini ijtimoiy mavqeyi, uni ijtimoiy hodisalarga bo'lgan munosabati, mafkura ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat tabiat emas. Jamiyat odamlar faoliyatini jarayoni va natijasidir. Jamiyatdagi an'analar, mafkuralar, madaniy–ma'naviy omillar jamiyat haqidagi bilimlarimizga ta'sir ko'rsatib, ma'lum xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Shu bois nemis sotsiologi K.Mangeym ijtimoiy bilishda ob'ektiv, ilmiy haqiqat bo'lmaydi degan fikrga keladi. Uning yurtdoshi O.Bolnov ob'ektiv haqiqat u yoqda tursin, hatto gumanitar fanlarda ko'pchilik tomonidan olingan natijalarga erishish mumkinligini ham inkor qiladi.

«**Ijtimoiy bilish**» jamiyat, insonni jamiyatda tutgan o'rni haqidagi har qanday g'oyalar, tushunchalar, qarashlar majmuasini bildiradi. Bunday ijtimoiy bilish qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan. Shu ma'noda ijtimoiy bilish turli falsafiy va diniy ta'limotlar tarkibida bo'lgan deyish ham mumkin. Masalan, «Veda», «Upanishada», «Avesto» kabi asarlarda ijtimoiy munosabatlar xususida qarashlar, ta'limotlar ifodalangan.

Ijtimoiy bilishni ob'ekti, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar tizimidir. O'z navbatida uning bir tomoni tabiat bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat tutashgan chegarani o'rganadigan ijtimoiy bilish yo'nalishi ham mavjud bo'lib, u ijtimoiy ekologiya deb ataladi. Bu fan jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlik va ta'sirini, mavjud ijtimoiy munosabatlarni tabiatga ko'rsatgan ta'sirini xarakteri va oqibatini tadqiq qiladi.

Jamiyat, ijtimoiy reallikni anglashga qaratilgan ijtimoiy bilish turli darajalar, sohalar va maqomlarda mavjud bo'lishi mumkin. Nazariy daraja va salohiyatni ko'zda tutsak, ijtimoiy bilishni quyi darajasi va shakli ommaviy ongda o'rin olgan. Bu kishilarning jamiyat, davlat, ijtimoiy jarayonlar haqidagi

bilimlaridir. Bunday bilimlarda tartiblashmagan, tahlildan o'tkazilmagan, stixiyali jihatlarini ko'p bo'ladi.

Ijtimoiy bilishni murakkabroq ko'rinishi mafkurada ifodalanadi. Mafkurada ijtimoiy bilish ma'lum maqsad va manfaatlar negizida tizimga solinadi, ijtimoiy faoliyat va islohotlarni nazariy-amaliy asosi rolini o'ynaydi. Bu yerda milliy istiqloq mafkurasi ko'zda tutilmoqda.

Ijtimoiy bilishni yuqori nazariy shakli ijtimoiy fanlardir. Fan jabxasida ijtimoiy bilish jamiyatni strukturasi, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy institutlarini amal qilishi, ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari haqida ancha aniq bilimlarga ega bo'lamiz. Bu bilimlar chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, kelajakda sodir bo'lishi mumkin jarayonlarni bashorat qilish uchun zarurdir.

Tadqiqotni ob'ekti va predmetiga qarab ijtimoiy bilishni turli tiplarini (jabhalarini) farqlash mumkin: Bulardan birinchisi ijtimoiy-tabiiy bilimlar bo'lsa, ikkinchisi ijtimoiy-gumanitar bilish hisoblanadi.

Ijtimoiy–tabiiy bilimlar. Bular yangi tipdagi bilimlar bo'lib, jamiyat–tabiat tizimi doirasida amal qiladigan jarayonlar, xossalar va qonuniyatlar haqidagi tushunchalar, g'oya va qarashlardan iboratdir.

Ijtimoiy–tabiiy bilimlar tabiiy jarayonlar va xossalar ijtimoiy hayotni asosi va omili ekanligi aniqlanadi, jonsiz va jonli tabiatda mavjud bo'lgan qonuniyatlar, xossalar, struktura va funksiyalar inson hayoti, jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir qilishlari in'ikos etiladi.

Hozirgi paytda kosmik va ekologik omillarni insoniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatishi bois ijtimoiy-tabiiy bilimlarni roli va ahamiyati ortib bormoqda.

Ijtimoiy–falsafiy bilishda jamiyatni mohiyati, taraqqiyot qonunlari olam, borliq, inson, hayot ma'nosi, qadriyatlar muammolari bilan bog'langan holda tavsiflanadi.

Ijtimoiy–gumanitar bilish. Bu yo'nalish inson va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik va munosabatlarni o'rganish doirasida shakllangan. Bunga masalan, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tilshunoslik kabilar kiradi. Shunday qilib, ijtimoiy bilish doimo yuksalayotgan, murakkablashayotgan, fanlar differentsiatsiyasi va integratsiyasi jarayonlaridan ta'sirlanayotgan jabha bo'lib, u tabiiyot, falsafa va insonshunoslik bilimlar bilan uzviy aloqa bog'langan holda rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy bilishda struktura avvalombor, empirik va nazariy bilimlar darajasida namoyon bo'ladi. Nazariy darajada ijtimoiy hodisalarni mohiyati, qonuniyatlari o'rganiladi. Empirik darajada ijtimoiy tizim va hodisalarni tashqi tomonlari tasvirlanadi, xususiyatlari qayd qilinadi. Bu darajada zarur faktologik bilimlar (ma'lumotlar) olinadi. Olingan ma'lumotlar va bilimlarni umumlashtirish nazariy darajada sodir bo'ladi. Inson o'rganayotgan ob'ektni doimiy va u bo'ysunadigan qonuniyatlarni ochib olgach, ularning xususiyatlarini tushuntirishga, bilimlarni mantiq nuqtai nazarda asoslashga kirishadi, bilimlarni bir butun, yaxlit tizimga aylantiradi. Bunda predmet haqida hosil qilingan chuqur bilim, uni tizimi nazariyaga aylanadi.

Empirik bilish darajasida inson, tadqiqotchi bilish ob'ekti bilan bevosita aloqada bo'ladi, shu bois, birlamchi faktlarni, faktlar tafsiloti bo'lgan ma'lumotlar yig'adi. Masalan, tarixiy bilishda hujjatlar va arxivlarni tahlil qilish, ularni qayd qilish jarayonida empirik (konkret - hissiy) tafsilot, birlamchi axborot paydo bo'ladi.

Nazariy bilimlarning yuqori ko'rsatkichlari, mavhumlashtirishning yuqori bosqichlarga ko'tarishi empirik bilimlarning muhim va zarurligini alohida ta'kidlaydi. Shu holat jamiyatni o'rganishga ham taalluqlidir.

Kuzatish ijtimoiy bilishning empirik bosqichidagi birinchi va zaruriy jarayon hisoblanadi. Bu aslida har qanday ilmiy bilishning muhim shartidir. Har bir ilmiy kuzatish noilmiy kuzatishdan quyilgan, muammo va vazifalarni hal etish bilan farqlanadi.

Ijtimoiy falsafa kuzatishning o'ziga xos tomonlaridan biri chetdan kuzatish usulidir. Bu usul tabiiy fanlarda ham qo'llaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jamiyatshunoslikda – jonli ob'ektlarni bilish, o'rganish haqida so'z boradi. Masalan, yulduzlarni kuzatishni olib qarasa, ular kuzatuvchilarning maqsadlariga erishmog'i uchun halal bermaydi, chunki yulduzlar asrlar mobaynida o'zgarib bo'lib kelgan. Biroq jamiyatda bunday emas: u muttasal o'zgarib turadi. Odatda, o'rganilayotgan ob'ekt tadqiqotchiga qarshilik ko'rsatadi, bu esa kuzatishning boshidanoq biror natija olishga xalaqit beradi yoki kuzatishning o'rtalariga kelganda tadqiqot buzilishi yoki kutilmaganligi tufayli olingan natijalarning tahlili o'zgarib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham sotsiologiyada, tarixda, ijtimoiy psixologiyada «birgalikda kuzatish» (ichki kuzatish) usulining afzalliklari alohida qayd etiladi. Aktiv va passiv kuzatish usullari mavjud. Birinchi usulda kuzatuvchi mehnat jamoasi diniy jamoaga, ishchilar brigadasiga va hokazolarga aslo sezdirilmagan holda qo'shilib oladi. Bunday qo'shilish yaxshi natijalar beradi, chunki o'rganilayotgan ob'ekt o'zini tadqiqotchidan olib qochmaydi, kuzatuvchiga qarshilik ko'rsatmaydi. Passiv birgalikdagi kuzatishda sub'ekt va ob'ekt o'rtasida bir-birini yaxshi tushunish talab etiladi. Buning uchun tadqiqotchi tomonidan hech qanday zarar yetmasligini tushuntirish talab etiladi.

Tadqiqotchi o'zini qiziqtirayotgan ijtimoiy hayotning parametrlari va indikatorlarini o'lchashga qurbi yetmaganligi uchun statistik ma'lumotlarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Bu tadqiqotchidan juda katta ehtiyotkorlikni talab etadi. Statistika to'g'risida shunday aforizm mavjud: «Yolg'onning uch turi bor: oddiy yolg'on, jirkanch yolg'on va statistika». Bu yerda gap statistika fani to'g'risida emas, balki ayrim mamlakatlar siyosiy doiralarning manfaatlari bilan bog'liq statistika to'g'risida aytilgan.

Bilish kuzatishdan, faktlarni qayd qilishdan boshlanadi. Faktlar bilishni tagko'rsisidir, «ilmni nafas olish havosidir». Shu bilan birga, inson «toza», «mutlaq», «sof», fakt bilan ish ko'rmaydi. Faktni izlash, qayd qilish, baho

berish, xulosa chiqarish g'oya, nazariy tasavvurlar, umumiy xulosalar asosida yo'naltirilgan bo'ladi. Demak, bilish fakti nazariy g'oya bilan sug'orilgan bo'ladi.

Ijtimoiy bilishni salohiyati faktlarni haqiqiy ma'nosiga kirib borish, yakka va ayrim hodisani orqasidagi umumiylikni anglashi bilan belgilanadi. Inson faktlarni ma'lum tasavvur, g'oya yoki ta'limot nuqtai nazarda turib tafsilotini beradi. Shunday bo'lsada faktlar ijtimoiy bilish, umuman ilmiy bilishni fundamentini tashkil qiladi.

Faktlarni izohlash va tushuntirish jarayonida gipoteza yoki dastlabki g'oya tasdiqlanadi, nazariya tug'iladi. Boshqacha bo'lishi ham mumkin. Yangi faktlarni mavjud nazariya asosida tushuntirib berish imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Bunda mavjud nazariya o'z o'rnini yangi nazariyaga bo'shatib beradi.

Ijtimoiy bilishni ilmiy shakli nazariy bilish esa ilmiy uslublarga tayanadi. Demak, bilishni yana bir strukturaviy darajasi yoki unsurini usul tashkil qiladi. Usul bilish, baholash, xulosa chiqarish uchun zarur asos va vosita rolini o'ynaydi. Ijtimoiy bilishda fakt, usul va nazariyani bog'laydigan mexanizm ijodiyot, ijodiy tafakkurdir.

Ijtimoiy bilishni falsafiy masalalaridan biri shunday bir savolda ifodalanadi: ijtimoiy hodisalarni bilishda hammani ishonchini qozonadigan yoki, boshqacha qilib aytganda, ob'ektiv haqiqatni bo'lishi mumkin-mi? Ijtimoiy bilishda ob'ektni in'ikos qilish va unga baho berish birlashadi? Ijtimoiy bilish sohibi faktlarni, kuzatish jarayonida olgan ma'lumotlarni shundaygina qayd qilmaydi, balki ularni ma'lum g'oya yoki tasavvur nuqtai nazarda turib tahlil qiladi, umumlashtiradi, faktga yoki hodisaga baho beradi.

Masalani boshqa tomoni ham bor. Biror narsa haqidagi bilimni haqiqat (ya'ni bilimda haqiqat bor) deb belgilash uchun bilimga ega bo'lish kerak. Bilimni haqiqatligini tekshirish uning ob'ektga muvofiqligini aniqlash demakdir. Shu aniqlash uchun bilim kerak-mi, yo'q-mi? Demak, haqiqatni aniqlash uchun haqiqat mezonini bo'lish zarur. Haqiqat mezonini biron – bir g'oya, ta'limot, qarashning chinligi yoki yolg'onligini aniqlash, tekshirish vositasidir. Haqiqat mezonlari qatoriga faylasuflar mantiqiy isbotlanganlik, ob'ektivlik va amaliyotni (praktikani) kiritdilar.

Ijtimoiy bilish jarayonida haqiqat va uning mezonlarini aniqlashda **ijtimoiy eksperiment** ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ijtimoiy eksperimentning quyidagi xususiyatlari alohida qayd etiladi:

1. Ijtimoiy eksperiment o'zining aniq natijalariga ega. Fizika, ximiya, biologiya fanlaridagi eksperimentlar turli davrlarda turli mamlakatlarda takrorlanishi mumkin, chunki tabiatning rivojlanishi qonuniyatlari, ishlab chiqarish munosabatlari shakliga ham, tipiga ham, milliy va tarixiy o'ziga xoslikka ham bog'liq emas.

Ijtimoiy eksperimentlar iqtisodni qayta qurishga, milliy davlat tizimi, ta'lim va tarbiya tizimiga qaratilgan bo'lib, ular turli tarixiy davrlarda turlicha bo'lib qolmay, balki butunlay qarama-qarshi natijalarni berishi mumkin.

2. Ijtimoiy eksperiment ob'ekti barcha sotsiumlar ta'siridan va eksperimentdan tashqaridagi ob'ektlardan ozroq miqdorda himoyalanaadi. Bu yerda ishonchli himoyalovchi asboblari bo'lgan vakuum nasoslari, himoya ekranlarini qo'llash yaxshi natijalar bermasligi mumkin. Bular jismoniy eksperimentlarda qo'llaniladi. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy eksperiment, fan tili bilan aytganda, sof sharoitsizlikka uchrashi shunday holatlarga bog'liqdir. Misol uchun Sh. Fure va uning tarafdorlari tomonidan olib borgan tadqiqotlarni ko'rsak, bu o'ziga xos ideal va garmonik jamiyatni barpo etish edi: R. Ouen tadqiqotidagi kooperativlar barpo etish, Angliya va Amerika kommunalarini tashkil etish va hokazo tadqiqot natijalari umuman o'ylab ko'rilmagan.

Ijtimoiy eksperimentda texnika xavfsizligini ta'minlashga juda -katta talablar qo'yiladi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy eksperimentlar va ilmiy eksperimentlar o'rtasidagi chegara kamaya boshladi, lekin u hali saqlanmoqda. Hozir gap har kuni har soatda odamlarga ta'sir qiladigan, ularning jismoniy va psixologik sog'liklariga ta'sir qiladigan eksperimentlar haqida ketmoqda. Eksperiment vaqtida ozgina narsalarning ham to'g'ri tashkil qilinmasligi odamlarga yomon ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday eksperiment tashkilotchilarining faoliyatini oqlab bo'lmaydi. Eksperiment boshlanmasdan oldin insonparvarlik g'oyasi uning dasturiga kiritilishi shart.

Z.Ijtimoiy eksperiment loyihaviy bilimlar olish uchun o'tkaziladi. Bu eksperiment ikki vazifani o'z ichiga oladi: o'rganuvchi va amaliy. Aytaylik, akademik I. P. Pavlov va uning shogirdlari itlar va maymunlarda o'tkazgan tajribalarida oliy nerv faoliyatidagi fiziologik o'zgarishlarni bilish orqali ilmiy nazariyani yaratishgan edi. Shunga qaramay eksperimentlar amaliy maqsadda ham ishlatilishi mumkin edi.

Insonlar ustida tajriba o'tkazish qanchalik yaxshi istiqbolga ega bo'lishiga qaramay g'ayriinsoniydir. Ijtimoiy eksperimentning asosiy vazifasi bu jamoa faoliyatini jonlashtirishdir. U holda eksperimentning nazariy ahamiyati nimada? Birinchidan, ijtimoiy eksperiment katta nazariy dalilga ega bo'lishi kerak. Agar dalil bo'lmasa, ijtimoiy eksperiment ilmiy bo'lmaydi. Ikkinchidan, uning natijalari, albatta boshqa fanlar va unga yaqin bo'lgan fanlar (meditsina va arxitektura) bilan hisobga olinishi kerak, lekin bunda nazariyani tasdiqlash, undan o'zib ketish eksperimentning maqsadiga aylanmaydi.

Bilish jarayonida **ijtimoiy bashorat** masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, inson o'zining aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyati orqali tarix zarvaraqlarini yaratadi. U har doim kelajakni bilishga intiladi. Uni mamalakatning taqdiri qiziqtirishi yoki qiziqtirmasligi mumkin. Biroq informatsion-kompyuter davriga kelib uning qanday bo'lishi deyarli barchani qiziqtirmoqda. Shu bilan birga insoniyat xayotining xavf ostida qolganligi hych kimni o'ylantirmaydi. Bunday qiziqish futurologik portlashga olib keladi. Faylasuflar, sotsiologlar, iqtisodchilar, tarixchilar, kelajakni keng miqyosda o'rganishga harakat qilmoqdalar, ular 2000 yil muammolaridan tortib to

keyingi. million yil ichida insoniyatning hayot yoki hayot bo'lmashligi masalalarigacha o'rganmoqdalar.

Bashoratning mohiyatini ko'proq XX asrning buyuk fiziologlaridan biri bo'lgan P. K. Anoxin ochgan. U bashoratni haqqoniyatning vaqtdan ilgari aks etishi sifatida ta'riflagan. Anoxinning nazariyasida «vaqtdan ilgari in'ikos etish» haqida gap boradi. Bu qo'zg'alish barcha biologik olamga, hayvonlargagina emas, balki o'simliklarga ham xosdir. Tirik organizm oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega. Inson bashorat qilish jarayonida yo'q ob'ektga, kuzatish mumkin bo'lmagan ob'ektga, xattoki, hayoti davomida uchramagan ob'ektlarga duch keladi. Shunday qilib, ijtimoiy bashoratning mohiyatini tushuntirish ancha qiyindir.

Hozirgi paytda bashoratga ijtimoiy amaliyot maboynida rivojlangan inson ongiga xos xususiyat sifatida qaralmoqda. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, oldindan ko'ra bilish individual bashoratda emperik malakaga asoslanganligiga qaramasdan inson faktologik ma'lumotlardan ozod bo'la olmaydi. Bu - jamiyatning inson ongiga ta'siridir.

Ijtimoiy bashoratning tabiati ilmiy bashoratning tuzilishida yaqqol ko'rinadi. Ilmiy bashorat hech qanday mistikaga asoslanmaydi. Bizni qiziqtirayotgan hodisa, jarayon va tendensiyalarning keyingi rivojlanishi hali o'rganilmagan, lekin aniq bilimlarga tayanadi. Shu o'rinda ilmiy bashoratning karomat qilishdan prinsipial farqlarini aytib o'tish joizdir. Oldindan aytib berish real borliqqa tayanadi.

Ilmiy bashorat kelajakni mutlaq va to'liq bilishga da'vo qilmaydi: Kelajakni aytib berish va utopiya (xom xayolliklar) ning xatoligini ilmiy dalillar va mulohazalar bilan isbotlab bo'lmaydi, chunki u bir-biriga bog'liqdir. Bashoratlarni esa ilmiy- nazariy mulohazalar yordamida tekshirib ko'rish mumkin. Bu esa ularning to'g'riligini isbotlashi yoki isbotlamasligi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ilmiy bashorat bilimlarining ehtimolligidir. Uning to'g'rilik darajasi kelajakni oldindan aytib berishning qandayligiga bog'liq, yaqin kelajakni oldindan aytib berish (bizdan 20 - 30 yil oldingi davr), obrazi, (keyingi 100 yillikdan keyingi davrlar). Bu bilimlarning qaysi darajada yo'nalganligiga qarab ishonchli asos topish oson. 1-holatda ishonchli prognozlar bo'lishi mumkin. 2- holatda bilimlar haqiqatdan ustun keladi. Ular bo'lmagan induksiyaga asoslangan. 3-sida biz juda katta farazlarga (gipotezalarga) duch kelamiz. Ikkinchidan, oldindan ko'ra bilish darajasi bilimlarga qay darajada tayanganligi bilan bog'liq. Uchinchidan, oldindan ko'ra bilish ishonchlilik darajasiga prognoz qilinayotgan jamiyat holatini va uning alohida komponentlari murakkabligini hisobga olish bilan bog'liq.

Ijtimoiy intellekt. Intellekt (lot. intellectus – bilish, tushunish, farosat) ijtimoiy sub'ektlarni bilishi va tafakkurini ifodalaydigan tushunchadir. Ijtimoiy intellekt oldingi falsafiy va nazariy tafakkurda bir necha atamalarda ifodalangan: nosfera, Popporni «uchinchi olami», «ijtimoiy ong» va boshqalar. Jamiyatdagi

o'zgarishlar va yangilanishlar oldin ijtimoiy aql doirasida belgilanadi, dasturga aylanadi, ijod etiladi.

Ijtimoiy intellektni faolligi va ijodkorligi ijtimoiy tuzum va vaziyatga bog'liqdir. An'anaviy jamiyatlarda ijtimoiy intellektni faolligi va ijodkorligi yuqori darajada bo'lmaydi. Industrial jamiyat **individual va ijtimoiy intellekt** ishlab chiqaruvchi kuchga aylantiradi.

Individual intellekt ijod etadi, yaratadi, ijtimoiy intellekt yaratilgan ma'naviy qadriyatni ko'paytiradi, tarqatadi, ishlab chiqaradi va hayotga tatbiq etadi, ijtimoiy boshqarish va nazorat qilish ishlarini amalga oshiradi. Bularni intellektni o'zi qilmaydi, balki intellekga ega bo'lgan inson va guruhlar amalga oshiradi. Ijtimoiy intellekt aslida ijtimoiy sub'ektni hislatidir.

Intellektlar majmuasi ma'lum ijtimoiy tabaqalardan hosil bo'ladi: olimlar, ijodkorlar, muxandislar, boshqaruvchilar va hokozolar. Bular noosferani ijodkor qatlamini tashkil qiladi (kognitiolotin bilish). Ijtimoiy intellektni ifoda qilish uchun oxirgi vaqtlarda «ijtimoiy kognitologiya» tushunchasidan keng foydalanmoqdalar.

Ijtimoiy tushunish. Mazkur faoliyatda «qonunlar – an'analar» muhim rol o'ynaydi, ular bir–biriga nisbatan ko'pincha qarama – qarshidir. Bu qonunlar to'plamlari ko'plab turli–tuman noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Huddi shuning uchun ham ularni tahlil qilishdan qandaydir bir qiymatli hulosalar (tushuntirishlar va bashoratlar) kutish qiyin. Holbuki, tabiiy va texnikaviy fanlar sohalarida buni kutish mumkin bo'lardi.

- Ijtimoiy tushuntirishda kollektiv psixologiyaga ham, individual psixologiyaga ham tegishli bo'lgan psixologik ma'lumotlarga tayanmoq muhim ahamiyatga ega, chunki M.Blokning ta'kidlashicha, hatto «Ijtimoiy bir jinslilik ham unchalik mutloq kuchli emas, chunki undan ba'zi individuomlar yoki kichik guruhlar chetga chiqishlari mumkin». Bundan tashqari, agar bordi – yu, biz biror odamning harakatlari g'ayriodatiy ekanini ko'rsata olganimiz taqdirida ham, bu degan so'z uning ma'nosizligini ko'rsatdik degani emas.

- Ijtimoiy tushuntirishda odatda biror ijtimoiy hodisaning kelib chiqishi (manbalari), paydo bo'lish sharoitlari va genezisi bilan bog'liq genetik komponent mavjud bo'ladi. Bu yerda bir hatar mavjud – ya'ni kelib chiqish manbalarini tushuntirishni hodisaning o'zini tushuntirish deb qabul qilish xatari bor. Masalan, chala bilimli etimologlarda shunday xatolar uchrab turadi: ular so'zning zamonaviy ma'nosini talqin qilar ekanlar so'zning o'zlari bilgan eng qadimiy ma'nolaridan birini aniqlab, «hamma narsani» tushuntirdik deb o'ylaydilar, holbuki masalaning mohiyati qanday qilib «ma'no o'zgarishini» sodir bo'lganini aniqlashdir.

Ijtimoiy bilish jarayonida **planetar ongning** zarurligi ham ba'zi adabiyotlarda alohida qayd etilmoqda. Chunki, planetalararo ongning shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Darhaqiqat, milliy muammolar milliy o'zlikni anglashda o'z aksini topganidek, XXI asrning global muammolar sistemasi umumplanetaviy o'z-o'zini anglashda o'z ifodasini topadi.

Planetar ongning muhim sifatlari quyidagilardan iborat:

Birinchi, umuminsoniy qadriyatlar xususiy (regional, milliy, sinfiy) qadriyatlardan ustun bo'lib, planetar ongda dominantlik qiladi. Mana shu dominantlikka loqaydlik planetar ong ma'nosining yo'qolishiga olib keladi. Planetar ong yaratilgan taqdirda ham dunyoviy xamkorlik turli-tumanligicha va qarama-qarshiligicha qolaveradi.

Rivojlangan davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy ziddiyatlar saqlanib qoladi: O'tkir va xavfli nizolar (konfliktlar) ni keltirib chiqaradi. Shimol va Janubning qarama-qarshiligi sinflar o'rtasidagi, etnik guruhlar o'rtasidagi tanglik ko'p mamalakat va mintaqalarda haligacha saqlanib qolmoqda.

Planetar ongning vazifasi yuqorida tilga olingan muammolarni keyingi planga surib, global muammolarni hal etishda barcha mamlakat va xalqlarning izchil hamkorligini ta'minlashdan iboratdir. «Butun dunyo xalok bo'lsin, lekin haqiqat tantana qilsin» degan prinsip har qanday insonparvarlik mazmunidan maxrum edi, lekin bugun halokat yoqasida turgan dunyoda bu prinsipga amal qilish jinoyatga aylanmoqda. Dastlab dunyoni hozirgi kunda qanday bo'lsa shundayligisa saqlab qolish kerak. Xuddi mana shu buyuk vazifa planetar ongni yuzaga keltirdi. Planetaviy ong tushunchasini aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ko'pchilikka taalluqli ong ekanligi nazarda tutiladi, u faqatgina professional siyosatchilargagina taalluqli emas.

Ikkinchidan, planetaviy ong ayrim xalqlar va mamlakatlarning ijtimoiy ongini, shuningdek, individual ongini tuzatishga olib keladi. O'zini jahon fuqarosi sifatida his etish hozirgi paytda siyosiy madaniyatning uzviy elementiga aylandi. Bu holat individualizm va kollektivizm munosabatlarini ijtimoiy madaniyat qadriyatlari sifatida rivojlanishiga turtki berdi. Asrlar mobaynida xukmron bo'lib kelgan mamalakatlar va xalqlarning individualizmi planetaviy kollektivizm tomon ko'proq siljimoqda. Dunyoni qutqarish uchun bundan boshqacha yo'lning bo'lishi ham mumkin emas. Planetaviy birdamlik ong faktidan umuminsoniy amaliyotga aylanishi kerak. Darvoqye, bu haqda butun jahon faylasuflarining XIX kongressida aytib o'tilgan edi (Moskva, 1993 yil). Bugungi kunda rivojlangan G'arb mamalakatlarida kollektivizm foydasiga sezilarli siljishlar kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, bunday siljishlarning xalqaro va ichki variantlari bir yo'nalishga ega.

Uchinchidan, planetar ong tabiiy, texnikaviy, gumanitar, falsafiy fanlarning yangi yutuqlarini chetlab o'tish orqali global muammolarni «sog'lom fikrlash» yordamida hal qila olmaydi. Planetaviy ong sinergetikaning muhim xulosalarini o'z ichiga oladi. Ularning ayrimlariga to'xtalamiz:

a) murakkab tuzilgan tizimda (xuddi shunday «jamiyat-tabiat» tizimi ularning rivojlanish yo'llarini to'sib qo'masligi kerak, balki ularni tushunish, ularning o'z yo'llarini topish zarur);

b) Murakkab tizimlar uchun rivojlanishning bir necha muqobil yo'llari mavjud, ularni o'rgangan holda apokalistik variantlarni rad qilish kerak, ilmiy-texnikaviy rivojlanish yutuqlaridan foydalangan holda keyingi rivojlanishning

shunday variantini topish kerakki, u insonlarni qoniqtirish va tabiatning yemirilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

v) murakkab tizimni va boshqaruvni ishonchli tekshirish uchun kuch muhim emas.

Xullas, birinchidan, ijtimoiy bilish jamiyatni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilish, undagi voqeya, jarayon va hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o‘rganish, nazariy va amaliy tadqiqot o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlash, insonda bu murakkab tizim to‘g‘risida mustaqil bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lish tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi. Ikkinchidan, ijtimoiy bilishga muqarrar ravishda siyosiy mafkura, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy ideallar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu boisdan ham ijtimoiy va tabiiy-ilmiy bilishni bir-biri bilan tenglashtirish yaramaydi. Uchinchidan, ijtimoiy bilish orqali inson doimo o‘zining tabiat dunyosiga, boshqa odamlar dunyosiga, o‘z tarixi va madaniyatiga munosabatini, o‘zining o‘ziga munosabatini bilishga intiladi, o‘z hayotining ideallari, qadriyatlari va normalarini aniqlab oladi. To‘rtinchidan, demokratik jamiyat qurish va barkamol avlodni tarbiyalashda ijtimoiy falsafaning o‘rni va ahamiyati, bu jarayonning samarasini oshirishga imkon beradigan usul va vositalar ham ijtimoiy bilishning holati, yutuqlari, istiqbollari bo‘yicha qo‘lga kiritilgan ilmiy yutuqlar bilan belgilanadi. Zero, ijtimoiy bilish va muloqotning ko‘plab sirlari inson faoliyatini ajralmas bo‘lagi hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

Bilish, ilmiy bilish, ijtimoiy bilish, ijtimoiy xaqiqat, ijtimoiy bilishning empirik bosqichi, ijtimoiy bilishning nazariy bosqichi, ijtimoiy bilish metodlari: kuzatish, statistika, ijtimoiy eksperiment, xujjatlar bilan ishlash, tarixiylik va mantiqiylik, modellashtirish, tarixiy analogiya.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy bilish deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy bilishdan qanday maqsadlar ko‘zda tutiladi?
3. Ijtimoiy bilish tabiatni bilishdan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
4. Ijtimoiy bilishning bosqichlari deganda nima nazarda tutiladi?
5. Ijtimoiy bilishning tarkibiga nimalar kiradi?
6. Ijtimoiy bilishning empirik bosqichida qanday metodlardan foydalaniladi?
7. Ijtimoiy bilish nazariy bosqichida qo‘llaniladigan usullarni sanang va izohlang.
8. Ijtimoiy bashorat nima?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T., «O‘zbekiston», 1997 yil, 211-227-bet.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., «O‘zbekiston» 1999 yil.
3. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqbol va taraqqiyot yo‘li. – T., «O‘zbekiston» 1992 yil.
4. Falsafa asoslari. – T., «O‘zbekiston», 2005 yil, 365-370, 372-376 betlar.
5. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 380-404 betlar.
6. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. – T., «Sharq», 1999 yil, 433-445 betlar.
7. Bilish falsafasi. – T., «Universitet» nashr., 2005 yil, 197-212 betlar.
8. O.G.Danilyan, V.M.Taranenko. Filosofiya – Moskva, izd. EKSMO, 2005 g., str. 449-458.
9. Karima Tulenova. Predvidenie i realnost. – T., «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» ilmiy nashr., 1998 yil.
10. G‘arb falsafasi. – T., «Sharq», 2004 yil.
11. Jaxon falsafasi tarixidan lavxalar. I qism – T., O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004 yil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Asosiy adabiyotlar

- Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1996;
- Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1996;
- Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1996;
- Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1996;
- Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1997;
- Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1998;
- Karimov I.A. Biz kelkjagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 1999;
- Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2000;
- Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2001;
- Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2002;
- Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2003;
- Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2004.
- Karimov I.A. O'zbek xalqi hech kimga, hech qachon qaram bo'lmaydi. 13-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2005.
- Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: O'zbekiston, 2007.
- Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16-jild. – T.: O'zbekiston, 2008.
- Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. – T.: O'zbekiston, 2009.
- Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
- Karimov I.A. eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009.

Qo`shimcha adabiyotlar

Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O`zbekiston», 2000 yil.

Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. (Qisqacha izoxli tajribaviy lug`at. T. «Yangi asr avlodi» 2002 yil).

Ergashev I. Va boshqalar. Milliy istiqlol g`oyasi. O`zbekiston Respublikasi Oliy ta`lim bakalavriat bosqichi uchun darslik.- T.: Akademiya, 2005.

Azizxo`jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. – T.,Akademiya, 2001.

Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Oliy ta`lim muassasalari uchun qo`llanma).- T.,Yangi asr avlodi, 2001.

Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Izohli ko`rgazmali vositalar to`plami).- T.,Yangi asr avlodi, 2001.

Milliy istiqlol g`oyasi: ko`rgazmali vositalar.- T.,Ma`naviyat, 2001.

Saifnazarov I. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Uslubiy ko`rgazmali qo`llanma.-T., TDIU, 2001.

Nazarov Q. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.- T., “Ijod dunyosi”, 2002.

Toxir Karim. Milliy tafakkur taraqqiyotidan. –T., Cho`lpon, 2003.

Ergashev I. Siyosat falsafasi.-T., Akademiya, 2004.

Ochildiev A. Milliy g`oya va millatlararo munosabatlar.- T.: O`zbekiston, 2004.

Nazarov Q. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O`zbekiston», 2001 y.